O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
ZOOLOGIYA INSTITUTI
O‘ZBEKISTON ZOOLOGLAR JAMIYATI
АКАДЕМИЯ НАУК РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН
ИНСТИТУТ ЗООЛОГИИ
ЗООЛОГИЧЕСКОЕ ОБЩЕСТВО УЗБЕКИСТАНА

Akademik Djaloliddin Azimovich Azimovning
85 yoshga to‘lishi munosabati bilan

“O‘ZBEKISTON ZOOLOGIYA FANI: HOZIRGI ZAMON MUAMMOLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI”

mavzusidagi V respublika ilmiy-amaliy anjumani
(2023-yil,16-noyabr)

Материалы V республиканской научно-практической конференции на тему:

«ЗООЛОГИЧЕСКАЯ НАУКА УЗБЕКИСТАНА: СОВРЕМЕННЫЕ ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ»

посвященной 85-летию со дня рождения академика
Джалалиддина Азимовича Азимова
(16 ноября 2023 года)

“BOOKMANY PRINT”
TOSHKENT – 2023

UO‘T 59: 591/599
KBK: 28.6
O‘ - 99

«O‘zbekiston zoologiya fani: hozirgi zamon muammolari va rivojlanish istiqbollari» V-Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari [Matn] : to‘plam / O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Zoologiya instituti. – Toshkent: Bookmany print, 2023. – 312 b.

Anjuman tashkiliy qo‘mitasi
Tashkiliy qo‘mita raisi: Xolmatov Baxtiyor Rustamovich, b.f.d., prof.;
Tashkiliy qo‘mita raisi muovini: Mirzayev Ulug‘bek To‘raevich, b.f.n., katta i.x.;

Tashkiliy qo‘mita kotiblari: Mirzayeva Adolat Usmonboyevna, b.f.f.d., katta i.x.
Saidova Shoira Olimovna, b.f.f.d.

Tashkiliy qo‘mita a’zolari:
Azimov Djalaliddin Azimovich, akademik, b.f.d., prof.;
Akramova Firuza Djalaliddinovna, b.f.d., prof.;
Shakarboyev Erkinjon Berdikulovich, b.f.d., prof.;
Mirzayeva Gulnora Saidarifovna, b.f.d., prof.;
Kuchboyev Abduraxim Ergashevich b.f.d., prof.;
Axmedova Zuxra Yuldashevna, b.f.n., katta i.x.
Bikova Yelena Aleksandrovna, b.f.n., katta i.x.
Sobirov Jobir Jalolovich, b.f.f.d.;
Azimov Nodirjon Nurillayevich, b.f.f.d.

Ushbu to‘plam O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2023-yil 2-maydagi 118-son buyrug‘i bilan oliy ta’lim tashkilotlari hamda ilmiy tashkilotlarda 2023-yilda o‘tkaziladigan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy anjumanlar, simpoziumlar, seminarlar va boshqa ilmiy hamda ilmiy-texnik tadbirlar ro‘yxati 2-ilovasiga muvofiq tasdiqlangan – 2023-yilda respublika miqyosida o‘tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar rejasi asosida O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Zoologiya institutida 2023-yil 16-noyabr kuni – «O‘zbekiston zoologiya fani: hozirgi zamon muammolari va rivojlanish istiqbollari» mavzusida o‘tkazilgan V Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari asosida tuzilgan.

Konferensiyada O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Zoologiya instituti olimlari, Ilmiy markazlarning ilmiy xodimlari, oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilari, doktorantlar, zoologiya sohasida faoliyat olib borayotgan qator olimlar va iqtidorli yosh tadqiqotchilarning ilmiy-tadqiqot ishlariga bag‘ishlangan maqolalar o‘rin olgan.

To‘plamga kiritilgan maqolalar materiallarining to‘g‘riligi va haqqoniyligiga mualliflar mas’ul hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Zoologiya instituti Ilmiy kengashining 2023-yil 26-sentabrdagi 8-sonli majlisi qaroriga binoan nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9910-761-37-9

© O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Zoologiya instituti, 2023.
© “Bookmany print” nashriyoti, 2023.

SO‘Z BOShI

O‘zbekiston O‘rta Osiyo mintaqasidagi bir qancha biogeografik o‘lkalar tutashgan hududda joylashganligi bois, udagi hayvonot dunyosi nihoyatda xilma-xil. Cho‘llardan iborat keng tekisliklar, tog‘lar, o‘rmonlar, daryolar, to‘qayzorlar, tabiiy ko‘llar va suvomborlari va madaniy landshaftlar o‘ziga xos faunistik majmualarga ega ekotizimlarni tashkil etadi.

Mamlakat faunasi juda qadimiy bo‘lib, u murakkab genetik rishtalar bilan bog‘langan. O‘lkada Turon va Turkiston endemik hamda avtoxton turlarining ahamiyati beqiyosdir. O‘zbekiston faunasida umurtqali hayvonlarning 723 turi jumladan: sutemizuvchilarning – 107 turi, qushlarning – 476, sudralib yuruvchilarning – 61, amfibiyalarning – 3 va baliqlarning – 76 turi uchrashi aniqlangan. Mamlakatda hozirga qadar umurtqasiz hayvonlarning 15 mingdan ortiq turi tarqalganligi ma’lum.

Antropogen ta’sirlar, tabiatdan nooqilona foydalanish, yovvoyi hayvonlar yashash joylarining o‘zlashtirilishi bir qator turlarga salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Oqibatida ularning soni qisqardi, tashqi ta’sirlarga chidamsiz bo‘lgan endemik turlar xavf ostida qoldi. Turon yo‘lbarsi, gepard, Orol sulaymon balig‘i kabi turlar butunlay yo‘q bo‘lib ketdi.

Qoplon, sirtlon, tuvaloq, Sirdaryo va Amudaryo kichik kurakburunlari, Orol bahrisi kabilar yo‘q bo‘lib ketish arafasida. Ustyurt va Buxoro qo‘ylari, morxo‘r, qoraquloq, O‘rta Osiyo qunduzi, oqbosh o‘rdak, marmar churrak, tuvaloqlar, oqbovur, xentog‘ to‘garakboshi, Farg‘ona targ‘il kaltakesakchasi, Orol mo‘ylabdori, cho‘rtansifat oqqayroq, ayrim mollyuska va hasharotlar yo‘q bo‘lib ketish xavfi ostida turibdi.

O‘zbekiston Respublikasi Qizil kitobning 2019-yildagi nashriga sutemizuvchilarning 30 turi (kenja turlar bilan 32 tur), qushlarning 52 turi (kenja turlar bilan 56 tur), sudralib yuruvchilarning 21 turi, baliqlarning 17 turi (kenja turlar bilan 18 tur), halqasimon chuvalchanglarning 3 turi, mollyuskalarning 14 turi va bo‘g‘imoyoqlilarning 66 turi kiritilgan.

Bugungi kunda Zoologiya instituti olimlari tomonidan respublika faunasini kompleks tarzda tadqiq etish, hayvonot dunyosi obyektlarining zamonaviy holatini baholash va ulardan oqilona foydalanish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish, respublika faunasining milliy axborot-tahliliy ma’lumotlar bazasini ishlab chiqish, yovvoyi hayvonlarning kamyob va yo‘qolib ketish xavfi ostida turgan turlari bo‘yicha davlat kadastrini olib borish, Qizil kitob va hayvonot dunyosi monitoringini yuritish hamda zararkunandalar, parazitlar va boshqa biozararkunandalar sonini nazorat qilishning innovatsion texnologiyalarini ishlab chiqish kabi maqsadli tadqiqotlar amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi CITES konventsiyasiga 1997 yil 8 oktyabrda a’zo bo‘lgan. Hozirda hayvonot dunyosining savdosi (exporti va importi) konvensiya talablari asosida amalga oshiriladi. Shuningdek, Zoologiya instituti CITES ning (Yo‘q bo‘lib ketish xavfi ostida yovvoyi fauna va flora turlarining xalqaro savdosi to‘g‘risidagi konventsiya) O‘zbekistondagi ilmiy organi bo‘lib hisoblanadi. Shunga muvofiq CITES ning I ilovasiga kiritilgan flora va fauna turlari namunalari importi, hayvonlarning saqlanishi hamda pitomniklarni ro‘yxatga olish bo‘yicha xulosalar berish vazifalarini amalga oshirib kelmoqda.

Bugungi kunga qadar CITES konventsiyasining ilovalariga kiritilgan 92 turning exporti yoki importiga doir hujjatlar rasmiylatirilgan. Hayvonot dunyosi savdosi obe’ktlarining asosiy ulushini qushlar (32 tur) va sutemizuvchilar (27 tur) tashlik etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Zoologiya institutida akademik Djaloliddin Azimovich Azimovning 85 yoshga to‘lishi munosabati bilan “O‘zbekiston

zoologiya fani: hozirgi zamon muammolari va rivojlanish istiqbollari” mavzusidagi V respublika ilmiy-amaliy anjuman to‘plamida sohaning ko‘zga ko‘ringan olimlari bilan bir qatorda, ko‘plab iqtidorli yosh olimlarning tadqiqot natijalari ham o‘z ifodasini topgan. To‘plamdan o‘rin olgan maqolalar o‘zlarining nazariy va amaliy ahamiyatiga ega ekanligi bilan ham ajralib turadi. Ularning barchasi O‘zbekistonda ilm fanni, jumladan Zoologiya fanini yangi bosqichga ko‘tarish, ilmiy tadqiqot natijalarini xalqaro hamjamiyatga integratsiyalashuvini ta’minlash, halqaro reytingda yuksak marralarni egallash, hozirgi davr talablaridan kelib chiqib yangi ilmiy yo‘nalishlarni shakllantirish uchun asos sifatida hizmat qiladi. Konferensiya ishiga ulkan zafarlar tilayman.

B.R. XOLMATOV,
Zoologiya instituti direktori
biologiya fanlari doktori, professor

USTOZNING IBRATLI UMR ZARVARAQLARI



Insonning hayot mazmuni o‘z yurti va millati taqdirida qanchalik iz qoldirgani bilan belgilanadi. Agar bu iz ilm-fan va kashf etish salohiyati bilan bezatilgan bo‘lsa, yangi avlodlarga namuna bo‘larli umr kitobi yaratiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Zoologiya instituti Bosh ilmiy xodimi, akademik Djaloliddin Azimovich Azimov tavalludining 85 hamda ilmiy-pedagogik va ijtimoiy faoliyatining 65 yili ilm ahli uchun o‘rganish maktabi bo‘lishga molik mazmunga ega**.**

Insonning hayot mazmuni o‘z yurti va millati taqdirida qanchalik iz qoldirgani bilan belgilanadi. Agar bu iz ilm-fan va kashf etish salohiyati bilan bezatilgan bo‘lsa, yangi avlodlarga namuna bo‘larli umr kitobi yaratiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Zoologiya instituti Bosh ilmiy xodimi, akademik Djaloliddin Azimovich Azimov tavalludining 85 hamda ilmiy-pedagogik va ijtimoiy faoliyatining 65 yili ilm ahli uchun o‘rganish maktabi bo‘lishga molik mazmunga ega.

D.A. Azimov 1938 yilning 10 martida Andijon shahrida xizmatchi oilasida tavallud topdi. U 1954 yil o‘rta maktabni tugatgach, 1954-1959 yillar mobaynida Samarqand shahridagi O‘zbekiston qishloq xo‘jalik instituti (hozirgi Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti) Veterinariya fakultetida ta‘lim olib, uni muvaffaqiyatli tamomladi. 1959 yildan O‘zbekiston Veterinariya ilmiy-tadqiqot institutida o‘z mexnat faoliyatini boshladi. 1961 yilda Moskvadagi akademik K.I. Skryabin nomidagi Butunittifoq gelmintologiya instituti aspiranturasiga o‘qishga kirdi. 1963 yilda «O‘zbekiston janubidagi qo‘ylar gelmintlari va asosiy gelmintozlar dinamikasi» mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi. 1964-1969 yillar mobaynida O‘zbekiston veterinariya ilmiy-tadqiqot institutida, 1969-1978 yillarda O‘zbekiston FA Zoologiya va parazitologiya institutida katta ilmiy xodim, 1978-1989 yillarda Respublika parrandachilik ilmiy-ishlab chiqarish laboratoriyasi direktorining ilmiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari bo‘lib ishlagan.

1986 yilda esa Moskvada akademik K.I. Skryabin nomidagi Butunittifoq gelmintologiya institutining ixtisoslashgan kengashida «Schistosomatida (Skrjabin et Schulz, 1937) Azimov, 1970 turkumiga mansub trematodalarning ekologo-taksonomik tavsifi va qishloq xo‘jalik hayvonlari orientobilьgartsiozining oldini olishning biologik asoslari» mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasini muvaffakiyatli himoya qildi. Olimga 1988 yilda professorlik ilmiy unvoni berildi. 2000 yilda esa O‘zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi etib saylandi.

1989-1991 yillarda O‘zbekiston Milliy universiteti professori, 1991 yildan 2009 yilga qadar O‘zR FA Zoologiya instituti direktori lavozimida ishladi. 2009 yildan xozirga qadar Zoologiya institutida bosh ilmiy xodimi lavozimida ishlab kelmoqda.

D.A. Azimov o‘z maktabini yaratgan, taniqli zoolog va parazitolog olimdir. Uning ilmiy tadqiqotlari keng qamrovli bo‘lib, parazit-xo‘jayin munosabatlarini nazariy tahlil etish hamda biologik xilma-xillikni saqlashning ilmiy asoslarini yaratishga bag‘ishlangan. Olimning bu boradagi tadqiqot natijalari jahon miqyosida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan fundamental kashfiyotlar sirasiga kiradi. Tadqiqotchi olim qator parazitlarning morfologiya, biologiyasi, ekologiyasini keng qamrovli tadqiq etish asosida mazkur jonivorlarning tasnifi, taksonomiyasi,

evolyutsiyasi va filogeniyasi bo‘yicha o‘ziga xos nazariy kontseptsiyalarni ishlab chiqdi. Jumladan, odam va hayvonlarda parazitlik qiluvchi shistosomatidlarni o‘rganish asosida yangi Schistosomatida (Skrjabin et Schulz, 1937) Azimov, 1970 turkumining tasnifiy o‘rni, evolyutsiyasi va filogeniyasini ilmiy asoslab, unga mansub bo‘lgan turlarning morfologiyasi va biologiyasini qiyosiy tahlil etdi. Mazkur trematodalar keltirib chiqaradigan kasalliklar va ularning oldini olish bo‘yicha ishlab chiqilgan tavsiyalar veterinariya amaliyotida keng qo‘llanilmoqda. Shistosomatidlar sohasidagi tadqiqotlar esa global ahamiyatga ega bo‘lib, hozirda shistosomoz muammosi BMT qoshidagi Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining maxsus dasturiga kiritilgan.

Har bir millatning, xalqning umumjahon sivilizatsiyasidagi o‘rni asosan umum ilm-faniga qo‘shgan hissasi bilan belgilanadi. Fanning fidoiy kishilari timsolida bu fazilat yaqqol ko‘zga tashlanadi. Xususan, akademik D.A. Azimov tadqiqotlarining ustivorligi va salohiyati xorijiy davlatlar ilmiy jamoatchiligi tomonidan ham e’tirof etilganligining siri ham shunda.

D.A. Azimovning serqirra ilmiy faoliyati uning respublika va xorij jurnallarida chop etilgan 1020 dan ortiq ilmiy maqolalarida o‘z aksini topgan. 35 dan ziyod monografiya, darslik va o‘quv qo‘llanmalar muallifi, jumladan, «O‘zbekiston sut emizuvchi hayvonlari gelmintlari» (1975), «Odam va hayvonlar shistosomotidlari» (1975), «Odam va hayvonlarning parazitlari – trematodalar» (1986), «O‘zbekiston tog‘ ekosistemalari umurtqalilari gelmintlari» (1994), «Parazitologiya terminlarining izohli lug‘ati» (2007), «O‘zbekiston umurtqalilari parazitlari - trematodalar (tarkibi, harakatlanishi va bioekologiyasi)» (2012), «Parrandalar kasalliklari (ma’lumotnoma)» (2012), «Sut emizuvchilar trematodalari – orientobilgartsiyalar» (2014) va boshqalar asarlar mamlakatimiz va dunyo zoologlari tomonidan alohida qadrlanadi. Olimning «Parranda kasalliklari bo‘yicha qisqacha ma’lumotnoma» kitobi 1987 yil Moskvada bo‘lib o‘tgan xalqaro kitoblar ko‘rgazmasida faxrli o‘rinni egallagan. Ustoz tomonidan ishlab chiqilgan 30 dan ziyod tavsiyanomalar iqtisodiyotning turli tarmoqlariga joriy qilingan. Shogirdlari bilan yaratgan «Hayvonlar shistosomozi» (2019) ingliz tiliga o‘girilib, Buyuk Britaniyaning nufuzli nashriyotida «Schistosomiasis of Animals in Uzbekistan» chop etilmoqda.

Akademik D.A. Azimov qator xalqaro konferentsiya va simpoziumlarda (Germaniya, Angliya, Isroil, Frantsiya, AQSH, Chexiya, Vengriya, Kanada, Rossiya, Ukraina, Gruziya, Armaniston, Qirg‘iziston, Turkmaniston va b.) faol qatnashib, fan yutuqlari keng ilmiy jamoatchilik e’tiboriga havola etib kelmoqda.

D.A. Azimov - bag‘ri keng, insonparvar murabbiy. Ustoz o‘z faoliyati davomida ilmiy kadrlar tayyorlash masalasiga jiddiy e’tibor qaratib kelmoqda va ustozning rahbarligida tayyorlangan 30 dan ortiq fan doktorlari hamda 40 dan ziyod fan nomzodlari va falsafa doktorlari respublika va hamdo‘stlik mamlakatlari ilmiy muassasalari, oliy o‘quv yurtlari va iqtisodiyotning turli sohalarida faoliyat ko‘rsatib kelmoqda. Djaloliddin Azimovich 1991 yildan 2022 yilgacha Zoologiya instituti xuzuridagi ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi bo‘lib ishladi.

D.A. Azimovning 1995-1998 yillar mobaynida Biologik xilma-xillikning saqlash Milliy strategiyasini ishlab chiqish va uni amaliyotga tadbiq etishga qo‘shgan hissasi hamda xalqaro ilmiy-texnikaviy hamkorlik sohasidagi yutuqlari va xizmatlarini e’tirof etgan qator Halqaro tashkilotlar, fondlar o‘z a’zosi etib saylagan. Jumladan:

Tabiatni muxofaza qilish Butunjahon ittifoqi a’zosi (IUCN,1997 y.);

Tabiatni himoya qilish Butundunyo fondi eksperti (WWF,1997 y.);

O‘zbekistonda o‘simlik va hayvonlar savdosi konventsiyasi ilmiy organi rahbari (CITES,1998 y.);

Migratsiya qiluvchi hayvonlarni saqlash konventsiyasi ilmiy konsultanti (CMS, 1998 y.);

Biologik xilma-xillikni saqlash konventsiyasi a’zosi (CBD, 1998 y.);

Shistosomatidlar bo‘yicha Yevropa komissiyasi a’zosi (ECS, 2001 y.);

Tabiatni muhofaza qilish Butunjahon ittifoqining O‘zbekistondagi Mahalliy komiteti raisi (IUCN, 2002 y.);

Biologik xilma-xillikni saqlash konventsiyasining O‘zbekiston Respublikasidagi Mahalliy vakolatli koordinatori (CBD, 1999 y.).

1994 yildan hozirga qadar, D.A. Azimov bir qancha halqaro ilmiy loyihalarda (CDR, USAID, CRDF, INTAS, Inco Copernikus, Know-How, World Bank, UNDP, JEF, WWF, Wetland International, AQSh Geografiya jamiyati, ARS USDA va boshqalar) koordinator va ijrochi sifatida ilmiy-texnikaviy hamkorlikni amalga oshirib kelmoqda.

Har qanday iste’dod qadrlansa, e’zozlansa yana ham yangi marralarga intiladi, o‘z hayoti mazmunining bahosini anglab yetadi. Umum ilm ahli tan olgan akademik D.A. Azimovning halq xo‘jaligi rivojiga qo‘shgan ulkan hissasi inobatga olinib, biologiya fanining fundamental va amaliy sohalariga va uning rivojiga qo‘shgan tadqiqotlar natijasi uchun akademik K.I. Skryabin medali (Rossiya) (1980 y.), Ben-Gurion universiteti medali (Isroil) (1995 y.), Butunjahon tabiatni muhofaza qilish halqaro fondning sertifikati (Pokiston) (1995 y.), «O‘zbekiston Fanlar akademiyasining 50 yilligi» medali bilan taqdirlandi (1993 y.). Umum insoniy qadriyatlar rivojiga qo‘shgan ulkan hissasi uchun «Metsenati stoletiya» xalqaro jamoatchilik fondining laureati va «Во имя жизни на земле» medali bilan (Rossiya, 2007 y.) mukofotlandi.

2006 yilda jahon fani yutuqlari darajasida bajarilgan fundamental tadqiqotlari uchun O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Fan va texnologiyalar markazi tanlovining g‘olibi sertifikati bilan taqdirlandi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kunining 20 yilliga bag‘ishlab o‘tkazilgan respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasida «Eng namunali ustoz-shogird» nominatsiyasi bo‘yicha tanlov g‘olibligini qo‘lga kiritdi.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining yigirma olti yilligi munosabati bilan Vatanimiz mustaqilligini mustahkamlash, milliy g‘oyani rivojlantirish, ma’naviyatimizni tiklash, yorqin iste’dodi va ijodi, ilmiy faoliyati, halol xizmati, yoshlarni ona yurtga muhabbat, istiqlol g‘oyalariga sadoqat ruhida sog‘lom va barkamol etib tarbiyalash hamda jamoat ishlaridagi faol ishtiroki uchun Azimov Djaloliddin Azimovich 2017 yil 25 avgustda muhtaram Prezidentimiz farmonlari bilan «Mehnat shuxrati» ordeni bilan taqdirlandi. Xukumatning oliy mukofati ustozni yanada ruhlantirib, bugungi kunda Zoologiya fanining barcha sohalarida keng qamrovli tadqiqot ishlariga rahbarlik qilib, yo‘l xaritasiga muvofiq ravishda faoliyat olib bormoqda. Ustoz yaratgan maktab kundan kunga kengayib borayotgan bo‘lib, respublikamizda sog’lom avlodning tarbiyalanishida bu maktabning ahamiyati juda yuqoridir. Domlaning fan rivojidagi xizmatlari yuqori baholanib, «Veterinariya iftixori» (2022 y.), «Mehnat faxriysi» (2022 y.), «O‘zbekiston Milliy universiteti iftixori» (2023 y.) nishonlari bilan taqdirlangan.

Oliyjanob inson bag‘rikeng ustoz, yetuk murabbiy, o‘z sohasida alohida maktab yaratgan olim, intellektual qobiliyat va madaniyat sohibi Djaloliddin Azimovich Azimovni ulug‘ ayyom kunlari bilan chin dildan qutlab qolamiz.

B.R. Xolmatov,
biologiya fanlari doktori, professor
E.B. Shakarboev,
biologiya fanlari doktori, professor
O‘zR FA Zoologiya instituti

УЧЕНЫЙ, ПОСВЯТИВШИЙ СВОЮ ЖИЗНЬ НАУКЕ

Смысл жизни человека определяется тем, насколько он оставил след в судьбе своей страны и народа, если этот путь будет украшен научным потенциалом и открытий, тогда будет создана книга жизни, которая станет примером для следующих поколений.

В этом году исполнилось 85 лет академику Джалалиддину Азимовичу Азимову - это замечательный юбилей, награда судьбы, характеризирующая стойкость духа, терпения, а также моральные принципы этого «с большой буквы» - ЧЕЛОВЕКА, ВЫДАЮЩЕГОСЯ УЧЕНОГО!

Д.А. Азимов - известный зоолог и паразитолог, создавший собственную школу. Главное научное направление учёного посвящено изучению биологических основ паразитизма и теоретических вопросов сохранения биологического разнообразия. В этом направлении проведены фундаментальные открытия, такие как разработка оригинальных концепций биологии, экологии, филогении, эволюции и систематики ряда паразитов животных и птиц. Глубокое познание паразитофауны и гельминтофауны не только Узбекистана, но и всей Средней Азии, способствовало признанию Д.А. Азимова - как одного из видных специалистов в СНГ и в дальнем зарубежье, в частности, на основе изучения шистосоматидной группы, являющихся кровепаразитами не только животных, но и человека. Заболевания, вызываемые этими трематодами и разработанные рекомендации по их профилактике, широко используются в ветеринарной практике. Исследования в области шистосоматид имеют мировое значение, и данное время проблема шистосомоза включена в специальную программу Всемирной организации здравоохранения при ООН.

Место каждой нации в мировой цивилизации определяется главным образом её вкладом в общественную науку. Это качество отчетливо видно в людях, преданных науке. В частности, в этом секрет признания приоритетности и потенциала исследований академика Д.А. Азимова научным сообществом зарубежных стран. Обширная научная деятельность ученого отражена в более чем 1000 научных статьях, опубликованных в местных и зарубежных журналах. Автор более 35 монографий, учебников и учебных пособий, которые оценены зоологами нашей страны и мира. Если какой-либо талант ценится и почитается, он стремится к новым целям и осознает ценность смысла своей жизни. Высокая оценка заслуг, этого ученого правительством еще больше воодушевила академика, и сегодня он ведет комплексную научно-исследовательскую работу по всем направлениям зоологии. Обладая заслуженным авторитетом в научном сообществе, Д.А. Азимов безвозмездно отдаёт свои силы и вдохновение плодотворной научной и научно-организационной работе во имя развития фундаментальной, прикладной науки и образования Республики Каракалпакстан. Школа, созданная учителем, расширяется с каждым днем, и значение этой школы в воспитании здорового поколения в нашей республике очень велико. Научные результаты, полученные им, внесли неоценимый вклад в развитие зоологической науки Каракалпакстана, признаны научным сообществом и широко применяются в практике.

Научная школа, сформированная академиком, широко известна в стране и за рубежом. Д.А. Азимов принимает активное участие в подготовке молодых научных кадров, активно ведет большую общественную работу.

Поздравляем Вас с 85-летием! Желаем Вам никогда не болеть и не стареть, ведь Вы для нас большой пример, пусть бодрость всегда будет в Вашем теле и духе, долгих лет Вам жизни и процветания во всех Ваших начинаниях!

С чувством глубокого признания и уважения примите слова благодарности за Ваше трудолюбие, целеустремленность, энергичность, находчивость. Мы восхищаемся Вашей энергией, силой воли и незабвенным интересом к жизни. Желаем Вам всегда находиться в прекрасном расположении духа! Пусть жизнь идет полным ключом, как не иссекающийся родник Вашего творческого потенциала и продолжает способствовать развитию науки и пусть Вас окружают счастье, добро и любовь близких!

А.Д. Сапаров,
доктор биологических наук, доцент
А.С. Бердибаев,
доктор философии по биологическим наукам, доцент
Ж.К. Уббиниязова, ассистент
Нукусский Государственный педагогический
институт имени Ажинияза

UMURTQASIZ HAYVONLAR FAUNASINING ZAMONAVIY HOLATI VA SISTEMATIKASI

UO‘T 959.7:632/799.15

KOVRAK O‘SIMLIGI EKSTRAKTINING *ANACANTHOTERMES* AVLODI TERMITLARI HAYOTCHANLIGIGA TA‘SIRI

Axmedov V.N., Xolmatov B.R., Axmedova Z.Yu., Mirzaeva G.S., Ganieva Z.A., Hashimova M.M., Rustamov Q.J.
O‘zR FA Zoologiya instituti, e-mail: akhmedov.vokhidzhon@mail.ru

Annotation. *The article presents brief information about laboratory experiments and the results obtained from studying the effect of extracts prepared from the aerial part of the plant Ferula assa-foetida L. on the viability of termites of the genus Anacanthotermes.*

O‘zbekistonning ko‘plab hududlarida termitlar tomonidan aholi turar joylari, bino-inshootlar, tarixiy-madaniy obidalar va boshqa qurilishlarning yog‘ochdan tarkib topgan qismlari jiddiy zararlanib, bu hasharotlar misli ko‘rilmagan darajada ziyon yetkazuvchi zararkunanda ekanligini alohida qayd qilish zarur. Termitlar tabiatda asosan qurigan o‘t-o‘lan, buta o‘simliklari va qurigan daraxt poyalari, yog‘ochlari bilan oziqlansada, shahar va qishloqlarda termitlar binolarning yog‘och qismini yemirib, ularga katta talofot yetkazadi (Azimov va boshq., 2019).

Termitlar asosan inshoot va binolarning yog‘och qismlariga katta zarar yetkazadi. Ular taxta pollarni va pol tagidagi to‘sinlarni, eshik va derazalarning romlarini, shipga yotqizilgan yog‘och materiallarni va tom taxta-yog‘ochlarini kemirib butunlay yaroqsiz holatga keltiradilar. Natijada uylarning yog‘och qismlari bo‘shashib (po‘kaklashib) qoladi, pollar cho‘kadi va sinib tushadi, eshik va derazalarning romlari ajralib ketadi, shiplar qiyshayib, qulaydi. Termitlar tomonidan zararlangan aholi turar-joylari, bino va inshootlar yashash uchun havfli bo‘lib, vayron bo‘lishiga olib keladi (Naveeda, 2015).

Termitlar tomonidan keltirilayotgan zararning iqtisodiy tomonlariga e‘tibor qaratilganda va o‘rganilib tahlil qilinganda, dunyo miqyosida termitlarning zararli faoliti tufayli yetkazilayotgan iqtisodiy zarar yildan yilga ortib borayotganligi kuzatilmoqda. Termitlar O‘zbekistonning issiq iqlimi sharoitida oziqaga o‘zlari tomonidan shakllantirilgan loy-suvoq ostidan keladi va ko‘pchilik hollarda o‘rnatilgan yem-xo‘rakni topib kela olmaydi va topib kelgan taqdirda ham yem-xo‘rakning tarkibiy qismidagi insektitsid moddalar qayta-qayta qo‘llanilgan holatlarda moslanuvchanlik xususiyatlari sabab ularning yashab qolish ehtimolligi yuqori bo‘ladi. Shularni inobatga olgan holda termitlarga qarshi yem-xo‘raklar tarkibiga kiritish uchun ekologik jihatidan xavfsiz bo‘lgan, tabiiy biologik faol vositalarni aniqlash va amaliyotga joriy qilish bugungi kundagi termitlarga qarshi kurash ishlarini tashkil qilish borasida yangidan-yangi ilmiy izlanishlar olib borish kerakligini ko‘rsatmoqda.

Mazkur tadqiqot ishimizda biz *Ferula assa-foetida* L. – Sassiq kovrak o‘simligi ekstraktini *Anacanthotermes* avlodi termitlari hayotchanligiga ta‘siri yuzasidan ilmiy izlanishlar olib bordik.

Material va metodlar. Sassiq kovrak o‘simligining yer ustki qismidan kimyogarlar bilan maslaxatlashgan holda, laboratoriya sharoitida ekastraktlar tayyorlandi. Sassiq kovrak o‘simligining yer ustki qismlari olib kelinib, xona sharoitida quritilib, maydalandi hamda 80% li etil spirtida o‘n kun davomida ekstraksiya qilindi.

Laboratoriya tajribalarini olib borish uchun, respublikamiz hududida tarqalgan termitlarning tabiiy uyalaridan ishchi termit tabaqalari olib kelindi. Olib kelingan ishchi termitlardan 40 dona o‘rtacha yoshdagi ishchi termitlar ajratib olindi hamda muhitga

moslashishi uchun uch kun tinch xolatda qoldirildi. Tajribalarni olib borishda sterillangan hamda loy suvoq qilingan Petri likobchalaridan foydalanildi. Har bir Petri likobchasiga 10 donadan ishchi termitlar solindi hamda muhitga moslashishlari uchun bir sutka davomida qoldirildi. Sinov ishlarini olib borish maqsadida sassiq kovrak o‘simligining yer ustki qismidan tayyorlangan etanolli ekstraktining turli (0,1%-0,5%-1,0%-5%-10%) konsentratsiyalardagi eritmalari tayyorlandi. Tayyorlangan eritmalar 2×2 sm o‘lchamdagi filtr qog‘ozlariga shimdirildi va Petri likobchalariga solinib, termitlarga ozuqa sifatida berildi. Nazorat variantidagi termitlar solingan Petri likobchalariga distillangan suv shimdirilgan filtr kog‘ozlari qo‘yildi. Kuzatish ishlari laboratoriya sharoitida +22 - +26°C haroratda amalga oshirildi. Sassiq kovrak o‘simligining yer ustki qismidan tayyorlangan etanolli ekstraktining *Anacanthotermes* avlodi termitlarining hayotchanligiga ta‘sirini aniqlashga doir olib borilgan laboratoriya tajribalari N.M. Trushenkova (1962), N.V. Belyaeva (1984) hamda T. Hosakawa (1991) usullaridan foydalanilgan holda amalga oshirildi. Har bir tajriba 5-martadan takrorlanishda olib borildi.

Sassiq kovrak o‘simligining yer ustki qismidan tayyorlangan etanolli ekstraktining *Anacanthotermes* avlodi termitlariga nisbatan biologik samardorligi Abbot formulasi asosida hisob-kitob qilindi hamda olingan ma‘lumotlar G.F. Lakin (1990) dasturi bo‘yicha statistik tahlil qilindi.

Natijalar va ularning muhokamasi. Olib borilgan laboratoriya tajribalaridan olingan dastlabki natijalarning tahlili shuni ko‘rsatdiki: sassiq kovrak o‘simligining yer ustki qismidan tayyorlangan etanolli ekstraktining 0,1% li konsentratsiyasi ta‘sir ettirilganda tajribalarning 3-kunida 15,0%, tajribaning 7- kunida 21,1% va tajribalarning 10-kunida 26,0% termitlarga nisbatan biologik samaradorlik aniqlandi. Yekstraktining 0,5% konsentratsiyada o‘tkazilgan tajribalarning tegishli kunlarida mos ravishda biologik samaradorlik tajribalarning 3-kunida 25,0%, tajribalarning 7- kunida 37,0% va tajribalarning 10 - kunida 43,0% ni tashkil etdi. Yekstraktining 1,0% li konsentratsiyasida tajribalarning 3 - kunida 35,0%; tajribalarning 7-kunida 42,1 % va tajribalarning 10-kunida 49,0% biologik samaradorlik aniqlandi. Ekstraktining 5,0% li konsentratsiyasida tajribalarning 3 - kunida 47,5%; tajribalarning 7-kunida 55,3% va tajribalarning 10-kunida 60,0% biologik samaradorlik aniqlandi. Yekstraktining 10,0% li konsentratsiyasida tajribalarning 3- kunida 57,5%; tajribalarning 7-kunida 63,2% va tajribalarning 10-kunida 86,0% biologik samaradorlik kuzatildi (1- jadval).

1-jadval

Laboratoriya sharoitida sassiq kovrak o‘simligi yer ustki qismi spirtli ekstraktining *Anacanthotermes* avlodi termitlariga qarshi biologik samaradorlik ko‘rsatgichi (M±m; n=5)

Ekstrakt konsen-tratsiyasi, %	Ishlovgacha bo‘lgan termitlar soni	Ishlovdan so‘ng termitlar soni, kunlar bo‘yicha			Biologik samaradorlik, (%) kunlar bo‘yicha		
		3	7	10	3	7	10
0,1	40,0	34±0,6	30±0,4	26±0,4	15,0	21,1	26,0
0,5	40,0	30±0,3	24±0,6	20±0,5	25,0	37,0	43,0
1,0	40,0	26±0,4	22±0,7	18±0,2	35,0	42,1	49,0
5,0	40,0	21±0,5	17±0,3	14±0,5	47,5	55,3	60,0
10,0	40,0	17±0,2	14±0,4	5±0,3	57,5	63,2	86,0
Nazorat (dis. suv)	40,0	40±0,3	38±0,2	35±0,4	-	-	-

Xulosalar. Sassiq kovrak (*Ferula assa-foetida*) o‘simligining yer ustki qismidan tayyorlangan etanolli ekstraktining Anacanthotermes avlodi termitlari hayotchanligiga ta‘sirini o‘rganishga doir olib borilgan tadqiqot ishlaridan olingan dastlabki natijalar xulosalariga ko‘ra,

sassiq kovrak o‘simligi ekstrakti *Anacanthotermes* avlodi termitlariga qarshi biologik samardorligi yuqori termitotsid xususiyatga ega ekanligini ko‘rsatdi. Shuni inobatga olgan holda, kelgusida keng qamrovli tajribalar o‘tkazish hamda olingan natijalar tahliliga ko‘ra termitlarga qarshi kurashish amaliyotida foydalanish uchun tavsiya etish nazarda titiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Azimov D.A., Xolmatov B.R., Abdullaev I.I., Mirzaeva G.S., Rustamov K.J. Ekologiya termitov roda *Anacanthotermes*. – Toshkent: Fan, 2019. – 255 b. [Rus tilida].

2. Belyaeva N.V. Prinsipi podbora zashishayushix drevesinu vodorastvorimix antiseptikov // Tezisi dokl. Vsesoyuznogo simpoziuma. – Moskva, 1984. – C. 54-56. [Rus tilida].

3. Naveeda A.Q., Asma A., Muhammad A., Naseer U., Attiya I., Sumbal H. Toxic potential of *Melia azedarach* leaves extract against *Odontotermes obesus* and *Microtermes obesi* // International Journal of Biosciences, 2015. Vol. 6. No. 2. - p.120-127.

4. Lakin G.F. Biometriya. - Moskva: Visshaya shkola, 1990. - 323 s. [Rus tilida].

5. Hosakawa T. Rezervniy metod ispitaniy i standart effektivnosti dlya konservantov drevesini. Tip poverxtnoy obrabotki // Termite, 1991. №85. – S. 22-24. [Rus tilida].

6. Trushenkova N.M. Stroitelnie materialы na osnove rastitelnogo sirya i metodi zashiti ix ot termitov // Termiti i meri borbi s nimi: Pervoe vsesoyuz. sovesh. po izecheniyu termitov SSSR i razrabotka protivotermitnix meropriyatiy. – Ashgabat: AN TSSR, 1962. – S. 98-102. [Rus tilida].

UO‘T 595.7

FARG‘ONA VODIYSI TO‘G‘RIQANOTLI HASHAROTLARINING EKOLOGIK GURUHLANISHI

Begjanov M.K.[1], Xalillaev Sh.A.[2], Aytmuratova Z.R.[1]
[1]Qoraqalpoq davlat universiteti, [2]O‘zbekiston Milliy universiteti

Annotation. *The article describes the study of the division of the Ferghana Valley insects into ecological groups by life forms. As a result of the research, it was found that insects belonging to 15 ecological groups are found in the studied territories.*

Hasharotlar ekologiyasini o‘rganishda birinchi navbatda, tabiiy sharoitlarda hasharotlar dunyosi turlar tarkibi, ular rivojlanishining turli darajalarga xos bo‘lgan umumiy funtsional qonuniyatlari, yashash tarzi va muhiti, abiotik va biotik omillarning hasharotlar son dinamikasi, hayotchanligi, serpushtligiga ta’sir mexanizmlari, hamda ushbu jarayonlarda entomofaglarning o‘rni va shakllanishi qay tarzda amalga oshishiga ham alohida e’tibor qaratish lozim.

Hasharotlar hayvonot olamida keng tarqalgan bo‘lib, ular xalq xo‘jaligining qator sohalariga o‘ta salbiy ta’siri bilan ajralib turadi (Medetov, 2018). Qator guruhlari hayvonlar va insonlarda uchraydigan transmissiv kasalliklarni tarqatishdagi rolini alohida ta’kidlash lozim. Bugungi kunda, hasharotlar tomonidan keltiradigan talofatlarni, bemalol, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar sarasiga kiritish mumkin.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda Farg‘ona vodiysi hududlari to‘g‘riqanotli hasharotlarini hayot shakli bo‘yicha guruhlarga ajratib o‘rganish faunistik va ekologik jihatdan muhimdir. Bu borada ko‘pgina ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan (Bekuzin, 1966, Pravdin, 1978, Lachininskiy va boshq., 2001, Medetov, 2018). Jumladan, mualliflarning fikriga ko‘ra, bu turkum hasharotlarining hayot tarzi ularning tashqi morfologik ko‘rinishlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan.

Material va metodlar. 2017-2020 yillar davomida Namangan, Andijon, Farg‘ona viloyatlari sharoitida aniqlangan 88 tur to‘g‘riqanotli hasharotlarni hayot shakliga asosan guruxlashda F.N. Pravdin (1978) taklif qilgan uslubga asoslangan holda o‘rgandik. Shuningdek, A.V. Lachininskiy va boshq. (2001) ma’lumotlari ham izlanishlaridan foydalanildi.

Natijalar va ularning muhokamasi. O‘rganilayotgan hudud to‘g‘riqanotli hasharotlarining hayot shakli asosan 15 ta guruhga ajratildi (jadval).

Jadval

Farg‘ona vodiysi hududlari to‘g‘riqanotli hasharotlarining hayot shakliga asosan guruxlanishi

№	Hayot shakllar	Turlar	Miqdori	
			Tur, soni	%
1	Gerpetobiont	*Tetrix bolivari* Saul., Tetrix subulata L., *Tetrix tartara tartara* (I. Bol.), *Tetrix tartara subacuta* B.-Bien.	4	4.5
2	Fakultativ xortobiont	*Platycleis intermedia* (Aud.-Serv.), *Ruspolia nitidula* (Scop.), *Pyrgomorpha bispinosa deserti* B.-Bien., *Duroniella gracilis* Uv., *Duroniella kalmyka* (Ad.), *Epacromius tergestinus* (Charp.), *Aiolopus thalassinus thalassinus* F., *Aiolopus oxianus* Uv., *Aiolopus simulatrix* (F. Walk.), *Hilethera turanica* Uv., *Dociostaurus* (s.str.) *tartarus* (Stshelk.), *Dociostaurus* (s.str.) *maroccanus* (Thnd.), *Dociostaurus* (S.) *kraussi kraussi* Ingen., *Dociostaurus* (S.) *kraussi nigrogeniculatus* Serg. Tarb., *Notostaurus albicornis* (ev.), *Omocestus haemorrhoidalis haemorrhoidalis* (Charp.).	16	18.3
3	Xortobiont	*Pteronemobius heydeni concolor* (Walk.), *Oxya fuscovittata* (Marsch.), *Tropidopola turanica turanica* Uv., *Calliptamus italicus italicus* L., *Calliptamus turanicus* Serg.Tarb, *Calliptamus barbarus cephalotes* (Costa), *Calliptamus coelesyriensis carbonarius* Uv.	7	8
4	Tamnobiont	*Tettigonia caudata* Charp., *Tettigonia viridissima* L., *Anacridium aegyptium* (L.), *Heteracris littoralis littoralis* Ramb., *Heteracris adspersa* (Redt.), *Heteracris pterosticha* (F.d.W.), *Eyprepocnemis unicolor* Serg.Tarb., *Miramiola pusilla* (Mir.).	8	9.1
5	Eremobiont	*Helioscirtus moseri* Sauss., *Pyrgodera armata* F.d.W., *Mioscirtus wagneri* (Kitt.), *Oedipoda miniata miniata* (Rall.), *Oedipoda caerulescens* L., *Oedipoda fedtschenkoi fedtschenkoi* Sauss., *Acrotylus insubricus* (Scop.), *Sphingonotus halocnemi* Uv., *Sphipgopotus elegans* Mistsh., *Sphingonotus nebulosus discolor* Uv., *Sphipgopotus octofasciatus* (Aud.-Serv.), *Sphipgopotus maculatus maculatus* Uv., *Pseudosphingonotus savignyi* (Sauss.), *Sphingoderus carinatus* (Sauss.), *Bryodemella tuberculata tuberculata* (Fabr.).	15	17


6	Boshoqli xortobiont	*Ramburiella foveolata* (Serg. Tarb.), *Ramburiella turcomana* (F.d.W.), *Mesasippus kozhevnikovi* (Serg.Tarb), *Chorthippus* (s.str.) *albomarginatus karelini* (Uv.), *Chorthippus* (s. str.) *dichrous* (Ev.), *Chorthippus* (G.) *apricarius* (Lin.), *Glyptobothrus meridionalis* Mistsh., *Glyptobothrus biguttulus* L.	8	9.1
7	Fissurobiont	*Velarifictorus bolivari* (Uv.), *Modicogryllus bordigalensis* Latr., *Modicogryllus frontalis* (Fieb.), *Melanogryllus desertus* Rall., *Tartarogryllus tartarus* Sauss., *Turanogryllus lateralis* (Fied.), *Gryllus bimaculatus* Deg.	7	8
8	Petrobiont	*Atrichotmethis semenovi* (Zub.), *Pezotmethis tartarus tartarus* (Sauss.), *Pezotmethis ferghanensis* (Uv.), *Sphipgopotus kirgizicus* Mistsh.	4	4.5
9	Kriptobiont	*Eremogryllodes semenovi* (Mir.), *Bruntridactylus tartarus* Sauss., *Xya variegata* Latr.	3	3.4
10	Uchuvchi migrant	*Locusta migratoria migratoria* L.	1	1.1
11	O‘simlikxo‘r xortobiont	*Semenoviana plotnikovi* (Uv.), *Conophyma semenovi semenovi* Zub., *Conophyma sokolovi decorum* Mistsh.	3	3.4
12	Qiyoq boshoqli xortobiont	*Acrida oxycephala* (Rall.), *Truxalis eximia* Eichw., *Gonista sagitta* (Uv.).	3	3.4
13	Qatlamosti geofili	*Decticus verrucivorus* (Lin.), *Decticus albifrons* F., *Oedaleus decorus* (Germ.).	3	3.4
14	Geobiont	*Gryllotalpa unispina* Sauss., *Gryllotalpa grullatalpa* L.	2	2.3
15	Ixtisoslashgan fitofil	*Conocephalus fuscus* Thunb., *Oecanthus turanicus* Uv., *Ochrilidia hebetata kazaka* (Serg.Tarb.), *Euthystira brachyptera* (Ocsk.).	4	4.5
Jami:			88	100

To‘g‘riqanotli hasharotlarning hayot shakli bo‘yicha 2 tur va 2 kenja turi - gerpetobiont (organik qoldiqlar bilan oziqlanuvchi mezofillar); 11 tur va 5 kenja turi fakul’tativ xortobiont (tuproq yuzasida, ochiq maydonlarda yashovchi turlar); 2 tur va 5 kenja turi – xortobiont (boshoqli o‘simliklar statsiyasida yashashga moslashgan, tana tuzilishi bilan farqlanuvchi turlar); 8 turi - tamnobiont (daraxt va butazorlarda yashovchi tur); 10 tur va 5 kenja turi eremobiont (ochiq maydonlarda nam tuproq yuzasi bilan bog‘liq turlar); 5 turi va 3 kenja turi boshoqli xortobiont; 7 turi fissurobiont (tuproq chuqurchalari yoriqlari va ko‘sakchalar ostida hayot kechiruvchi turlar); 4 turi petrobiont; 3 tur kriptobiont (kemiruvchilar uyalarida yashashga moslashgan).

Farg‘ona vodiysi to‘g‘riqanotli hasharotlarining hayot shakliga ko‘ra guruxlanishi va turlar soni diagrammada keltirilgan (rasm).

Xulosalar. Shunday qilib 1 tur uchuvchi migrant; 1 tur va 2 kenja turi o‘simlikxo‘r xortobiont; 3 turi qiyoq-boshoqli xortobiont (daryo qirg‘oqlari to‘qaylarda qamish va qiyoqlar bilan oziqlanuvchi turlar); 3 tur qatlamosti geofili; 2 tur geobiont (tuproq yuqori qatlamlarida yashovchi tur); 3 tur va 1 kenja turi ixtisoslashgan fitofil (o‘t-o‘lan va maysalarning eng yuqori qatlamida yashashga moslashgan turlar) ekanligi aniqlandi.

Turlar sonining miqdori jihatidan eremebiontlar va fakultativ xortobiontlar ko‘pchilikni tashkil qiladi, xortobiont va fissurobiontlar 7 tadan tur, tamnobiont va boshoqli xortobiont guruhiga 8 tadan tur va boshqa qolgan guruhlarga esa 1-4 turdan taqsimlandi.



Rasm. Farg‘ona vodiysi to‘g‘riqanotli hasharotlarining hayot shakliga ko‘ra guruxlanishi va turlar soni

Turlarni hayot shakli bo‘yicha guruhlanishi: 1-Uchuvchi migrant, 2-Geobiont,3-Kriptobiont, 4-O‘simlikxo‘r xortobiont, 5-Qiyoq boshoqli xortobiont, 6-Qatlam osti geofili, 7-Gerpetobiont, 8-Petrobiont, 9-Ixtisoslashgan fitofil, 10-Xortobiont, 11-Fissurobiont, 12-Tamnobiont, 13-Boshoqli xortobiont, 14-Eremobiont, 15-Fakultativ xortobiont.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Bekuzin A.A. Materiali k faune i ekologii endemov nekotorix ortopteroidov (Orthopteroidea) gornix osibey Sredney Azii // V kn.: Fauna i zoogeografiya nasekomix Sredney Azii. - Dushanbe: Donish, 1966. - S. 61-67 [Rus tilida].

2. Pravdin F.N. Ekologicheskaya geografiya nasekomix Sredney Azii. - Ortopteroidi. - M.: Nauka, 1978. - 272 s [Rus tilida].

3. Lachininskiy A.V., Sergeev M.G., Chil’debaev M.K., Chernyaxovskiy M.E., Kambulin V.E., Lokvud Dj. A., Gapparov F.A. Saranchovie Kazaxstana, Sredney Azii i sopredel’nix territoriy. - Larami, 2001. - 387 s [Rus tilida].

4. Medetov M.J. O‘zbekiston arid hududlarining to‘g‘riqanotli hasharotlari (Insecta: Orthoptera): Biol. fan. dok-ri.... diss. avtoref. – Toshkent, 2018. – 60 b.

UO‘T 595.798

TOSHKENT VOHASIDA TARQALGAN VESPIDAE ARILARIGA MANSUB POLISTINAE TURLARINING TASNIFI

Ergasheva A.Z., Doniyorov A.N., Mirzayeva G.S.
O‘zbekiston Milliy Universiteti, e-mail: afruzaergasheva9@mail.com

Annotation. *This article provides information on the composition, distribution, ecology and morphological characteristics of the species of the Polistinae wasps of the Tashkent oasis. 3 species of wasps of the Polistinae subfamily of the Vespidae family are distributed in almost all territories of the Tashkent oasis.*

Hasharotlar sinfiga kiruvchi Vespidae vakillari tur soni jihatdan pardaqanotli hasharotlar turkumi ichida eng katta oila hisoblanadi. Bu oila vakillari hulq-atvori bilan ajralib turuvchi yakka turlardan tortib jamoa bo‘lib yashovchi turlarga ajratiladi (Prezoto, 2017). Ular

haqiqiy arilar (Vespidae) oilasiga mansub bo‘lib, dunyo faunasida ularning 6 kenja oila, 256 avlodga mansub 5274 turi ma’lum (Kurzenko, 2012). Ilgari ular 3 ta, jamoa yoki qovog‘arilar (Vespidae), gul arilar (Masaridae) va eumin (Eumenidae) kenja oilalarga birlashtirilgan. Bugungi kunda barcha haqiqiy arilar Vespidae oilasiga mansub Euparagiinae, Masarinae, Eumeninae, Stenogastrinae, Vespinae va Polistinae kenja oilalariga birlashtirilgan (Prezoto, 2017). Ushbu kenja oilaning dastlabki uchta guruhi faqat yakka tartibda yashovchi hasharotlar, keyingi uchtasi esa jamoa bo‘lib yashovchi arilar hisoblanadi. Rossiya hayvonot dunyosining bu oilaga masub Eumeninae, Masarinae, Polistinae va Vespinae kenja oilalari tashkil etadi. Haqiqiy arilar (Vespidae) Hymenoptera turkumiga kiruvchi xilma-xil turlarga mansub oila vakillari hisoblanadi. Vespidae oilasi bu o‘rtacha kattalikdagi hasharotlar bo‘lib, kamdan kam hollarda kichik (2,5 mm) yoki katta (50 mm) ko‘rinishda uchraydi. Hayot tarziga ko‘ra yuqorida qayd etilganidek oilada haqiqiy arilar (Vespinae, Polistinae), yakka arilar (Eumeninae, Masarinae) va ijtimoiy yakka (Stenogastrinae) guruhlar bilan bir qatorda dastlabki Euparagiinae oilasi uchraydi. Ushbu maqoladagi maqsadimiz Polistinae kenja oilasining Toshkent vohasida tarqalishi, ekologiyasini o‘rganish hisoblanadi.

Material va metodlar. Toshkent vohasida haqiqiy arilarining (Vespidae) tur tarkibini o‘rganish ishlari 2022 yil mart-aprel oylari davomida antropogen va tabiiy sharoitlarda amalga oshirildi. Tajriba o‘tkazish uchun arilarni tutishda an’anaviy uslub entomologik matrap va plastik idishlar yordamida amalga oshirildi. Materiallarni yig‘ishda Merik tutqich idishidan ham foydalanildi (Kurzenko, 2012). Tadqiqotlar davomida Vespidae arilarining Polistinae Kenja oilasiga mansub 3 ta turga mansub 100 dan ortiq arilar yig‘ildi.

Natijalar va ularning muhokamasi. Vespidae arilarining Polistinae Kenja oilasiga mansub Toshkent vohasida tarqalgan tur tarkibi quyidagilarni tashkil qildi.

KENJA OILA: POLISTINAE

AVLOD: *POLISTES*

Tur: *Polistes biglumis* (Linnaeus, 1758)

Tanasining tuzilishi: *Polistes biglumis* urg‘ochining uzunligi 16 mm, ishchilar 14 mm, erkaklar 15 mm gacha yetadi. Bu *Polistis* avlodiga qaraganda kattaroq ari turi. Bundan tashqari u boshqa *Polistes* arilarga qaraganda quyuqroq rangga ega. Urg‘ochilarning qorin qismi deyarli qora kamdan kam xollarda sariq rangga ega. Ammo erkaklarining qorin qismi asosan sariq rangga bo‘ladi. Voyaga yetgan arilarni yosh arilaridan ajratish mumkin. Chunki ular to‘q ko‘k rangga ega va ucha oladi. Yoshlari esa rangbarang va uchish qobilyati sust bo‘ladi.



1-rasm. *Rolistes biglumis* (Linnaeus, 1758) - turidan tayyorlangan kolleksiya namunasi

Dunyoda tarqalishi: Yevropa, Afrika, Janubi-g‘arbiy va Markaziy Osiy, Rossiya, Kavkaz, Eron, Afg‘oniston, Pokiston, Hindiston, Nepal, Madagaskar, Janubiy Turkiya, Suriya, Isroil, Iroq, Armaniston, Pokiston, Turkmaniston, Qozog‘iston, O‘zbekiston, Qirg‘izston va Xitoy (Antropov, Fateryga, 2017).

Toshkent vohasida tarqalishi: Yangi yo‘l tumani 20.05.2021 y. 41.091647N, 69.053418E. koordinata nuqtalaridan topilgan.

Fenologiyasi: Iyun – oktabr.

Ekologiyasi: Bu arilar kunning issiq vaqtida faol bo‘ladi. O‘rtacha namligi va issiq iqlimi bo‘lgan xududlarni afzal ko‘radi. +25-44^0 C haroratda yaxshi yashaydi. Harorat juda isib yoki sovib ketsa hayotchanligini yo‘qotadi.

KENJA OILA: POLISTINAE

AVLOD: *POLISTES*

Tur: *Polistes wattii* (Cameron,1900)

Tanasining tuzilishi: Urg‘ochisining tanasi uzunligi 11-12 mm, erkagining tanasi uzunligi 10-11 mm ni tashkil etadi. Tashqi ko‘rinishi jihatidan O‘zbekistondagi boshqa *Polistes* avlod turlaridan farq qiladi. Tanasi deyarli tekis sariq, ayrim turlarining o‘rta ko‘krak qismi sariq aralash jigarrang, ba’zan mo‘ylovlari yuqorisida qora dog‘ bor va har bir ko‘zi atrofida mayda qora chiziq bo‘ladi (2-rasm).



2-rasm. *Polistes wattii* (Cameron, 1900) - turidan tayyorlangan kolleksiya namunasi

Dunyoda tarqalishi: Iroq, Eron, Afg‘oniston, Pokiston, Xitoy, Hindiston, Turkmaniston, O‘zbekiston, janubiy Qozog‘iston, Tojikiston.

Toshkent vohasida tarqalishi: Parkent tumani 12.06.2021 y. 41.239735N, 69.734332E. koordinata nuqtalaridan topilgan.

Fenologiyasi: Iyun- sentabr

Biologiyasi: Polistes wattii tur uyasi boshqa Polistes vakillar kabi ochiq, yagona ari ini ko‘rinishida, ochiq kulrang rangda, uyadagi katakchalar soni bir necha o‘ndan tortib 100 tadan oshadi. Daraxt shoxlarda, to‘nkalarda, uy devori va shiftlarda, omborxona va chordoqlarda in quradi (Antropov, 2017).

Ekologiyasi: O‘rtacha nam va issiq hududlarni afzal ko‘rgan bu turlar ham kunning issiq harorat vaqtida faol harakatlanadi. Asosan 33-54oC haroratgacha yaxshi yashay oladi. Ular bog‘larda ya’ni mevali daraxtlar atrofida keng tarqalgan.

KENJA OILA: POLISTINAE

AVLOD: POLISTES

Tur: *Polistes dominula* (Christ, 1791)

Tanasining tuzilishi: Old qanotining uzunligi - 9,0-13,5 mm (♀), 8,0-12,0 mm (♂). Sariq-qora rangli, urg‘ochisining mandibulasi qora, ba’zan sariq dog‘li. Urg‘ochisining subantennal qismi qora, kamdan-kam hollarda mayda sariq dog‘lar uchraydi. Erkagida oldingi “soxa” sining ventral yuzasi doimo sariq, o‘rta “soxa” deyarli va orqa “soxa”, ya’ni toscha ba’zan sariq rangda bo‘ladi (3-rasm).

Dunyoda tarqalishi: Shimoliy Afrika, Isroil, Eron, Afg‘oniston, Pokiston, Suriya, Turkmaniston, Turkiya, O‘zbekiston, Shimoliy Hindiston (Antropov et al., 2017).

Toshkent vohasida tarqalishi: Parkent tumani 12.06.2021y. 41.239735 N, 69.734332 E. kordinata nuqtalaridan topilgan.

Biologiyasi: Biologiyasi. Polistes dominula ning barcha urg‘ochi arilarida nashtar bo‘lib, o‘ljani falaj qilishga yoki dushmandan himoya qilishga xizmat qiladi. Ularning tanasidagi tuklar asalariniki singari tekis qoplanmagan, ya’ni oddiy tuklardan iborat bo‘ladi. Lichinkalari hasharotlar oziqlari bilan kattalari esa gul nektari va o‘simlik shirasi bilan

oziqlanadi. *Polistes dominula* turi boshqa arilar singari kunduzgi quyoshni sevadigan hasharotlar bo‘lib, bulutli va salqin kunlarda odatda uyasidan chiqmaydi. Tadqiqotlarimizda Polistes dominula uyalarini pana joylarga, shiftga tortilgan materiallar yoki biror qurilma ortiga qurganligi qayd etildi (Carpenter, 2001).



3-rasm. *Polistes dominula (*Christ, 1791) - turidan tayyorlangan kolleksiya namunasi

Fenologiyasi: Iyun-avgust.

Ekologiyasi: Issiq va nam joylarda uchraydigan bu turlar odatda bog‘larda va uy yaqinidagi joylarda ko‘p uchraydi. 29-50o C harorat maqbul hisoblanadi (Antropov, Fateryga, 2017).

Xulosalar. Olib borgan tadqiqotlarimiz natijasida Toshkent vohasinig deyarli barcha xududlarida Vespidae oilasiga mansub arilarining Polistinae kenja oilasining 3 ta turi uchrashi qayd etildi. Bulardan Polistinae kenja oilasiga mansub 3 turdagi, *Polistes wattii* (Cameron, 1900), *Polistes dominula* (Christ, 1791), *Rolistes biglumis* (Linnaeus, 1758) turlarining uchrashi qayd etildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Prezoto F., Sabino J. Giannotti E. & Nascimento F.S. Entre mandíbulas e ferrões: O estudo do comportamento de vespas // As distintas faces do comportamento animal Campo Grande: UNIDERP, 2007. – P. 43-45.

2. Kurzenko N.V., Semeystvo Vespidae – skladchatokrilie osi. Annotirovanniy katalog nasekomix Dalnego Vostoka Rossii. Pereponchatokrilie T.I. – Vladivostok: Dalnauka, 2012. – 423 s. [Rus tilida].

3. Antropov A.V., Astafurova Yu.V., Belokobylskij S.A., Byvaltsev A.M. et al. Annotated catalogue of the Hymenoptera of Russia. volume i. symphyta and apocrita: aculeata. / Editorial board o f the first volume: A.S. Lelej (executive editor), M.Yu. Proshchalykin and V.M. Loktionov. Proceedings of the Zoological Institute RAS Supplement 6, 2017. – 475 p.

4. Carpenter J.M. Checklist of species of the subfamily Masarinae (Hymenoptera: Vespidae) // American Museum Novitates. – AQSH, 1995. V. 33 (5). – P. 1-40.

UO‘T 595.763.7

FARG‘ONA VODIYSIDA *HALYZIA TSCHITSCHERINI* TURINING BIOLOGIYASI VA MORFOMETRIK BELGILARI

Gafurova S.T.
Namangan davlat universiteti, e-mail: saodat.0312.84@mail.ru

Annotation. *This article presents general morphological features of coccinellids and information about the morphometry, biology, distribution, taxonomy and nomenclature of Halyzia tehitseherini, a representative of the genus Halziya, distributed in the Fergana Valley, as well as photographs of reproduction, oviposition and wintering.*

Koksinellidlar (Coccinellidae) oilasi qo‘ng‘izlari faunistik, ekologik, taksonomik, genetik va boshqa tadqiqotlar obekti bo‘lib xizmat qiladigan juda keng tarqalgan qo‘ng‘izlardir. Coccinellidae qo‘ng‘izlarining molekulyar soatlar bo‘yicha hisob-kitoblarga ko‘ra, ularning kelib chiqishi bundan 143 million yil oldin bo‘r davrining boshlariga to‘g‘ri keladi (Che, LiHeng et al., 2021).

Adabiyot ma’lumotlariga ko‘ra Coccinellinae kenja oilasiga kiruvchi *Halyzia* avlodiga mansub *Halyzia tschitscherini* Semenow, 1895 turi O‘rta osiyo, Qozog‘iston, Afg‘oniston, Shmoliy Hindiston, Pokistondan, Xitoydada tarqalgan (Alia Hayat et al., 2017; Dyadechko, 1954; Yablokov-Xnzoryan, 1983; Che LiHeng et al., 2020).

Material va metodlar. *Halyzia tschitscherini* turi bo‘yicha materiallar 2022-2023-yillarda Namangan, Andijon va Farg‘ona viloyatlaridan yig‘ilgan.

Natijalar va ularning muhokamasi. Olib borgan tadqiqotlarimiz davomida *H. tschitscherini* turini Farg‘ona vodiysining deyarli hamma viloyatlarida uchrashini guvohi bo‘ldik. Jumladan, Namangan viloyatining Namangan shahrida yong‘oq va terak, Chortoq tumanining Arbag‘ish, Baliqko‘l, Guldirov qishloqlarida yong‘oq, o‘rik, terak daraxtlarida uchratgan bo‘lsak, Chust tumanining G‘ova, Yorqishloq, Sho‘rbuloq qishloqlarida yong‘oq, o‘rik, olcha, oqterak va bodom daraxtlaridan topildi. Andijon viloyatining Marhamat, Ulug‘nor, Bog‘ishamol, Asaka, Xo‘jabod, Manaq ota va Shirmonbuloq tumanlari qishloqlaridagi terak, yong‘oq, olcha daraxtlarida uchratdik. Farg‘ona viloyatining Chimyon, O‘zbekiston, Buvayda, Dang‘ara, Oltiariq, Qo‘shtepa, Bog‘dod tumanlari va Qo‘qon shahridagi yuqorida keltirilgan daraxtlarda uchratdik.

Morfometriyasi. Elitra jigarrang rangda bo‘lib,18 ta kremsimon dog‘ mavjud, har bir elitronda 6 ta tartibsiz va 3 ta cho‘zilgan dog‘ bo‘ladi. Elitra birlashmasida bo‘ylama kremsimon tasma bor. Pronotum jigarrang, markazida krill yozuvidagi “J” shakliga o‘xshahs to‘q malla rangli naqshi kremsimon rangga ega. Boshining chetki qismi oq dog‘li. Tanasining ostki qismi va oyoqlari och malla rangli. Elitra uzunligi 4 mm, ostqanotining uzunligi 6 mm. Qorin bo‘limi 7 ta, mo‘ylovi 11 bo‘g‘imli. Oyoqlari uzun, panjalar soni 3 ta. Tanasining uzunligi 5.8-6.4mm.Qo‘ng‘izlar juda harakatchan (Alia Hayat et al., 2017).

Adabiyotlarda berilgan ma’lumotlarga qaraganda, bu tur may oyidan noyabr oyigacha faol harakatda bo‘ladi deyilgan (Dyadechko, 1954) bizning tadqiqotlarimizda boshqa qo‘ng‘izlardan farqli ravishda qishlovdan kech chiqdi ya‘ni aprel oyining ikkinchi dekasida qishlash holatidan chiqib may oyining ikkinchi yarmidan boshlab juftlashishini guvohi bo‘ldik. Asosan monovoltin,lekin iqlim va oziqaga qarab yiliga ikki marta nasl beradi.

Tuxumi uncha kattalikda bo‘lmagan och sariq rangda bo‘lib ularning soni 12 tadan 20 tagacha zich holatda bir xil o‘lchamda substraktga birlashgan bo‘ladi. Tuxumini daraxt tanasiga va barglarning orqa qismiga qo‘yadi.

Lichinkalari to‘q malla rangli bo‘lib ko‘krak qismining yon tomonlarida yorqin sariq dog‘lar mavjud. ular 2 ta tor shaklida qorin bo‘shlig‘ida chiziq holida davom etadi. Lichinkasining tana uzunligi 7-7,2 mm.

H. tschitscherini imagosi ham lichinkasi ham shira va zararli zamburug‘ mitseliysi bilan oziqlanadi.

Ushbu tur imago holatida qishlaydi. Asosan terak, olcha, o‘rik, bodom, yong‘oq, oq terak,archa daraxtlarining po‘stlog‘i yoriqlarida 2 donadan 30 tagacha g‘uj bo‘lib qishlaydi.Biz bu holatga xonqizi qo‘ng‘izlarining qishlash joylarini aniqlash uchun Farg‘ona vodiysining tog‘ va tog‘oldi hududlarida hamda tekislik qismida olib borgan tadqiqotlarimizda bir necha marta guvoh bo‘ldik.

Jumladan, Namangan viloyati Yangiqo‘rg‘on tumanining Nanay qishlog‘i “Ko‘ksaroy” sayyoh dam olish maskanida havo harorati -5 gradus, namlik 92 %, havo bosimi 771 mmHg, shamol tezligi 7.4 km/s, dengiz sathidan 1385 km balandlikda 41°32‘15.08”N 71°42‘07.22”E koordinata nuqtalaridan archa daraxtlarining 4-5 sm chuqurligidagi kovaklarida (2-5 donagacha) va Oq terakning har bir kovaklarida (2-10 donagacha, bitta oq terak daraxtining 22 ta kovagidan 89 dona topildi) *H. tschitscherini* qishlayapgan holatini ko‘rdik. Andijon viloyatining tekislik hududi Ulug‘nor tumanidagi xonadondagi bodom daraxtining ochiq kovaklarida esa 20-30 donagacha qishlashiga duch keldik.

Xulosalar. Xonqizining bu turi Farg‘ona vodiysining deyarli barcha hududlarida uchrab, asosan buta va daraxtlarda qishlaydi. Ularga xos xususiyat shundaki vodiyda tarqalgan boshqa xonqizi turlaridan farqi qishlov bosqichidan kech chiqishidir. Kuzatuvlarimiz orqali Farg‘ona vodiysida *H. tschitscherini* xonqizini monovoltin ekanligiga guvoh bo‘ldik.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati

1. Alia Hayat, Muhammad Rafique Khan and Falak Naz. Subfamilies Coccinellinae and Coccidullinae (Coccinellidae: Coleoptera) with New Records from AJK, Pakistan // J. Appl. Environ. Biol. Sci., 2017. 7(4) – P. 21-66.
2. Dyadechko N.P. Koksinellidi Ukrainskoy SSR. – Kiev: Izd-vo AN USSR, 1954. – 157 s. [Rua tilida].
3. Yablokov-Xnzoryan S.M. Obzor semeystva jukov-koksinellid faunы SSSR (Coleoptera, Coccinellidae) // Zoologicheskiy sbornikInstituta zoologii AN Armyanskoy SSR, 1983. T. XIX. –S. 111.
4. Che LiHeng, Zhang Peng, Deng ShaoHong, Hermes E. Escalona et al. New insights into the phylogeny and evolution of lady beetles (Coleoptera: Coccinellidae) by extensive sampling of genes and species. // Molecular Phylogenetics and Evolution, 2021. 156 (156): doi.org/10.1016/j.ympev.2020.107045.

UO‘T 594.3:591.37.593.38

TO‘PALANGDARYO HAVZASI QURUQLIK MOLLYUSKALARINING EKOLOGIK TAHLILI

Jalilov J.J., Xayitova O‘.Z., Eshmatova Sh.P.
Termiz davlat universiteti, e-mail: jamshedjalilov40@gmail.com

Annotation. *This article examines the importance of abiotic and biotic factors in the formation of various ecological groups of terrestrial mollusks of the Topalang Darya basin, located in the Surkhandarya region of Uzbekistan. To study terrestrial mollusks of the Topalang Darya basin, the following ecological classification was used (xerobionts, mesobionts, xeromesobionts, hygrobionts).*

Quruqlik mollyuskalarining ekologik xususiyatlarini o‘rganish alohida ahamiyatga ega bo‘lib, ularning ko‘pgina biologik xususiyatlarini o’rganish, aniqlash dolzarb masalalardan

biridir. O‘zbekiston quruqlik mollyuskalarining ekologiyasi I.M. Lixarev va Ye.S. Rammelmeer (1952), A.A. Shileyko (1978), A. Pazilov va D.A. Azimov (2003) va boshqa olimlar tomonidan o‘rganilgan. Quruqlik mollyuskalarining ekologik xususiyatlari keng o‘rganilganiga qaramay, hozirgi kungacha ayrim ekologik terminlarning qo‘llanilishi bahs-munozara ostida qolgan. Jumladan, ko‘pchilik malakologlar quruqlik mollyuskalariga nisbatan kserofil, mezofil, psixrofil va kseromezofil kabi terminlarni qo‘llashni to‘g‘ri deb hisoblashadi.

A. Shileyko (1978) Helicoidea katta oilasi vakillarining barchasi uchun gigrofillik birlamchi xususiyat deb bilgan holda, yuqorida qayd etilgan terminlarning qo‘llanilishini maqsadga muvofiq deb hisoblaydi. K.K.Uvaliyeva (1990) kserofil terminini qurg‘oqchil biotoplarda yashovchi mollyuskalarga nisbatan qo‘llanilishini shartli deb biladi. U kserofillarni mezofillarga kiritadi. Uning fikricha bu mollyuskalar qurg‘oqchil muhitda yashasada, asosiy hayotiy jarayonlar yog‘ingarchilik davrida kechadi.

A. Pazilov va D.A. Azimovlar (2003) barcha quruqlik mollyuskalarining namsevarlik xususiyatini hisobga olib kserobiont, mezobiont, psixrobiont terminlarini qo‘llashni maqsadga muvofiq deb hisoblaydilar. Bu terminlar quruqlik mollyuskalariga nisbatan dastlab, Ye.V.Shikov (1983) va A.A. Baydashnikov (1985) tomonidan qo‘llanilgan.

Yuqorida bayon etilgan fikrlarni va ko‘p yillik izlanishlarimizni hisobga olib, biz barcha quruqlik mollyuskalarini yagona bo‘lgan bitta katta ekologik guruhga, gigrofillarga kiritdik. Bunga yuqorida qayd etilgan A. Shileykoning (1978) fikri asos bo‘la oladi. Quruqlik mollyuskalarining keyingi bosqichdagi ekologik guruhlarga bo‘linishi aynan shu termindan boshlanishi kerak. Mollyuskalarning keyingi bosqichdagi ekologik guruhlarga bo‘lishda Ye.V. Shikov (1983) tomonidan qo‘llangan, ya’ni quruqlik mollyuskalarining suv havzalariga nisbatan biotopik tarqalishi asos qilib olindi. Lekin bizning klassifikatsiyamiz bo‘yicha turlarning tarqalishi Ye.V.Shikov (1983) klassifikatsiyasiga to‘g‘ri kelmaydi. Bunga albatta O‘zbekiston Respublikasi hamda Rossiya Federatsiyasining iqlimi, landshaftlarining turli-tumanligi o‘rtasidagi katta tafovutlar sabab bo‘la oladi.

Material va metodlar. Tadqiqotimizda 2022-2023 yillar oralig‘ida To‘palongdaryo havzasining turli balandlik mintaqalaridan yig‘ilgan va kuzatishlar olib borilgan 630 dan ortiq nusxadagi quruqlik mollyuskalari xizmat qildi.

Natijalari va ularning muhokamasi. Tadqiqot ishini olib borishda biz quruqlik mollyuskalari uchun quyidagi ekologik klassifikatsiyani qo‘llashni maqul topdik: 1. Kserobiontlar – suv havzalaridan uzoqda, turli biotoplarda yashaydigan mollyuskalar; 2. Mezobiontlar- o‘rtacha namlikda yashovchilar; 3. Kseromezobiontlar - bir vaqtning o‘zida ham suv havzalari yaqinida, ham suv havzalaridan uzoqroq hududda joylashgan, turli biotoplarda yashaydigan mollyuskalar; 4. Gigrobiontlar - suv havzalariga yaqin hududlarda uchrovchi mollyuskalar.

Albatta yuqorida qayd etilgan ekologik klassifikatsiya barcha quruqlik mollyuskalarni bir qolipga solib qo‘ya olmaydi. Chunki gigrobiontlar guruhiga kiruvchi mollyuskalar turli darajada gigrofillik xususiyatlarini, yoki kserobiontlar guruhiga kiruvchi mollyuskalar ham turli darajada kserofillik xususiyatini namoyon qiladi.

Kserogigrobiontlarda ham xuddi shuni kuzatish mumkin. Ularning ayrimlari ko‘proq kserobiontlik xususiyatlarini namoyon qilsa, ayrimlari ko‘proq gigrobiontlik xususiyatini namoyon qiladi. Shuning uchun bu yo‘nalishda hali ilmiy izlanishlar davom ettirilishi kerak deb hisoblaymiz.

Quruqlik molyuskalarining turli ekologik guruhlarni hosil qilishda va turli biotoplarda yashashida abiotik (harorat, namlik, shamol), hamda biotik (o‘simlik, hayvon, mikroorganizmlar) omillarning ahamiyati kattadir.

Mollyuskalar o‘z hayoti davomida bu omillarning kompleks ta’siri ostida bo‘ladi. Barcha quruqlik mollyuskalari abiotik omillarga nisbatan gigrofil bo‘lish bilan birga, ular fotofob yoki qisman fotofob va eolofobdir.

Hisor tog‘ining turli hududlaridan topilgan quruqlik qorinoyoqli mollyuskalari ekologik jihatdan o‘rganilib, quyidagicha tahlil qilindi (jadval).

Jadval

To‘palangdaryo quruqlik mollyuskalarining ekologik guruhlari

№	Turlar nomi	kserobiont	mezobiont	kseromezo-biont	gigrobiont
1.	*Sphyradium dolium*	-	-	+	-
2.	*Vallonia costata*	-	-	+	-
3.	*V. pulchella*	-	-	+	-
4.	*Cochlicopa nitens*	-	-	-	+
5.	*C. lubrica*	-	+	-	-
6.	*C.lubricella*	-	-	+	-
7.	*Gibbulinopsis signata*	+	-	-	-
8.	*G.nanosignata*	+	-	-	-
9.	*P.triplisata*	-	+	-	-
10.	*P. muscorum*	-	+	-	-
11.	*Pupilla sterrii*	-	-	+	-
12.	*P. anzobica*	-	-	+	-
13.	*Vertigo antivertigo*	-	-	-	+
14.	*Columella columella*	-	+	-	-
15.	*Pseudonapaeus kasnakowi*	-	-	-	+
16.	*Ps. otostomus*	-	+	-	-
17.	*Ps. sogdianus*	-	+	-	-
18.	*Turanena martensiana*	-	-	+	-
19.	*Chondrulopsina intumescens*	-	-	+	-
20.	*Leucozonella mesoleuca*	-	+	-	-
21	*L. schileykoi*	-	+	-	-
22	*L. rufispira*	-	+	-	-
23	*Xeropicta candacharica*	+	-	-	-
24	*Angiomphalia regeliana*	-	+	-	-
25	*Phenacolimax annularis*	-	-	-	+
26	*Vitrina ruglosa*	-	+	-	-
27	*V. pellucida*	-	+	-	-
28	*Deroceras laeve*	-	-	-	+
29	*D. agreste*	-	-	-	+
30	*D. reticulatum*	-	-	-	+
31	*Lutopelte masulata*	-	-	-	+
32	*Candaharia rutellum*	-	-	-	+
33	*C. levanderi*	-	-	-	+
34	*Macrochlamys turanica*	-	+	-	-
35	*M. sogdiana*	-	-	-	+
36	*Zonitoides nitidus*	-	-	-	+
37	*Novisuccinea evoluta*	-	-	-	+
38	*Pamirsuccinea eximia*	-	-	-	+
39	*Oxyloma elegans*	-	-	-	+
	Jami:	3	13	8	15

Xulosalar. Tadqiqot hududidan aniqlangan jami 39 tur quruqlik mollyuskalaridan, kserobiontlar – 3 (7,69%), mezobiontlar - 13 (33,3%), kseromezobiontlar- 8 (20,51%), gigrobiontlar - 15 (38,47%) turni tashkil qildi. Bundan shunday xulosa qilish mumkinki, mollyuskalarning ko‘pchilik turlari o‘ta nam va o‘rtacha namni xush ko‘ruvchi hayvonlar

hisoblanib, aynan namlik optimal va biroz yuqori muhit sharoitlarida yashaydi. Ushbu abiotik omil ozuqa hamda harorat kabi omillar bilan bir qatorda quruqlik mollyuskalarining hayotida va tarqalishida muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Baydashnikov A.A. Nazemniye mollyuski Zakarpatskoy oblasti i ix rasprostraneniye po osnovnim landshaftam i rastitelnim soobshestvam // Noviye danniye po sistematike i ekologii mollyuskov. Trud. Zool. in-ta AN SSSR. – Leningrad, 1985. T. 135. – S. 44-66 [Rus tilida].
2. Lixarev I.M., Rammelmeer Ye. S. Nazemniye mollyuski fauni SSSR. – Moskva-Leningrad: Izd-vo AN SSSR, 1952. – 512 s. [Rus tilida].
3. Pazilov A., Azimov D.A. Nazemniye mollyuski (Gastropoda, Pulmonata) Uzbekistana i sopredelinix territoriy. -Tashkent: Fan, 2003. - 315 s [Rus tilida].
4. Uvaliyeva K.K. Nazemniye mollyuski Kazaxstana i sopredelinix territoriy. – Alma-Ata: Nauka, 1990. – 224 s. [Rus tilida].
5. Shikov Ye.V. Osobennosti formirovaniya fauni nazemnix mollyuskov antropogennix landshaftov sentra Russkoy ravnini // Mollyuski. Sistematika, ekologiya i zakonomernosti rasprostraneniya. – L.: Nauka, 1983. Sb. 7. – S. 146-148. [Rus tilida].
6. Shileyko A.A. Nazemniye mollyuski nadsemeystva Helicoidea. Fauna SSSR. Mollyuski. – L., 1978. T. 3. Vip. 6. № 117. – 384 s. [Rus tilida].

UO‘T 594.382:591.545

XEROPICTA CANDAHARICA QURUQLIK MOLLYUSKASINING BAHOR FASLIDAGI UMUMIY VA JINSIY FAOLLIGI

Karimkulov A.T.
Guliston davlat universiteti, e-mail: abdullak2006@yandex.com

Anatation. *The article analyzes data on the general and sexual activity of the terrestrial mollusk Xeropicta candaharica in the spring. Activity was observed at air temperatures from +5^{0}C to +23^{0}C and relative humidity from 45% to 100%, and sexual activity was observed at air temperatures from +5℃ to +19°C and relative humidity in the range of 55% - 95%.*

Xeropicta candaharica quruqlik mollyuskasining biologiyasi, ekologiyasi va konxologik belgilarining o‘zgaruvchanligiga doir ma’lumotlar, dastlab K.S.Samadov (1947), keyinchalik A.A.Shileyko (1978), A.Pazilov va boshq. (2009) ishlarida keltirilgan. Ushbu tur ko‘pchilik olimlar tomonidan o‘rganilganiga qaramay, uning ayrim biologik, ekologik xususiyatlari hali etarli darajada tadqiq etilmagan.

X. sandaharica ning bahorgi faollik davri qish faslining oxirgi oyi, fevral oyining o‘rtalaridan boshlanadi. Bu vaqtda qorlar erib, havo harorati ko'tarilib boradi. Havo harorati +5^{0}C ga etganda mollyuskalar qishki uyqudan chiqa boshlaydilar.

Material va metodlar. Tadqiqotimizda quruqlik mollyuskalarni yig‘ish va aniqlash A.A. Shileyko (1978) metodikasi bo‘yicha amalga oshirildi.

Natijalar va ularning muhokamasi. Barcha kserobiont mollyuskalar singari, *X. sandaharica* ham tungi hayot tarzini olib boradi. Shu sababli ularning umumiy va jinsiy faolligida kech soat 1900 dan keyingi havo harorati asosiy o‘rinni egallaydi. Juftlashgan mollyuskalar odatda turli kattalik va o‘lchamlarda bo‘ladi. Ular orasida eng yirigining chig‘anog‘i 5 o‘ramli bo‘lib, katta diametri 11,2 mm ga, vazni esa 262 mg ga etadi. Eng kichigi esa 4,25 o‘ramli bo‘lib, katta diametri 7,5 mm, vazni 93 mg ga boradi.

Demak, *X. sandaharica* chig‘anog‘ining o‘ramlari 4,25 taga, vazni esa 90 mg ga etganda, jinsiy jihatdan voyaga etgan bo‘lib hisoblanadi. Bu vaqtda juftlashgan mollyuskalar vazni bir-biriga nisbatan 3 martagacha farq qilishi mumkin. Odatda juftlashgan mollyuskalar chig‘anoq og‘izlari bilan bir-biriga mahkam yopishgan holda er yuzasida yoki turli o'simliklar bargida uchraydi (1-rasm).



1 rasm. *Xeropicta candaharica* mollyuskalarining juftlashgan holati

Yer yuzasida juftlashib yotgan mollyuskalar tanasi to‘liq chig‘anoq ichiga tortilib turadi. O'simliklar bargidagi juftlashgan mollyuskalar esa ikkalasidan birining oyoq uchi bilan unga yopishib turadi. Ayrim hollarda juftlashgan mollyuskalarni shilliq ipiga osilgan holda o‘simliklarda kuzatdik. Bunday holat ko'proq kuzgi faollik davrida aniqlangan. Shilliqqurtlarning *Limax s. str*. kenja urug‘i ayrim vakillarida ham osilgan holda juftlashish holatlari kuzatilgan. Yalang‘och shilliqqurtlarning chig‘anoqli shilliqqurtlardan kelib chiqqanligini hisobga olgan holda ushbu xususiyat ham chig‘anoqli shilliqqurtlardan irsiylangan degan xulosaga kelish mumkin.

Juftlashish jarayonidan so‘ng 1-2 kun o‘tgach, tuxum qo‘yish davri boshlanadi. Albatta, bunday qisqa muddat tuxumlarning shakllanishi uchun etarli emas. Shu sababli bu mollyuskalarning dastlabki juftlashish jarayoni oldingi yil kuzda ro'y bergan deb hisoblash mumkin. Bunga chig‘anoqlar ustiga oldingi yil qo‘yilgan lak bo'yoqli belgilar ham asos bo'la oladi.

Tuxum qo‘yishdan oldin mollyuskalar oyog‘i yordamida chuqurligi 0,5-1 sm ga boradigan "tuxum kamerasi"ni qazib olib, unga 15 tadan 55 tagacha tuxum qo'yishadi. Tuxum qo‘yish jarayoni tuxumlar soniga bog‘liq bo‘lib, 5-6 soatgacha davom etadi. Endigina qo‘yilgan tuxumlar yumaloq, oq rangli, yarim shaffof bo'lib, po‘sti elastik bo‘ladi. Ularning o‘lchamlari va vazni quyidagicha bo‘lishi aniqlandi: diametri 1,3-1,6 mm; vazni 1,8-2,5 mg. Bahorgi faollik davrida dastlabki tuxum qo‘yayotgan mollyuskalar mart oyining birinchi dekadasi bishida, oxirgi tuxum qo‘yayotgan mollyuskalar esa aprel oyining ikkinchi dekadasi oxirida aniqlandi. Bu vaqtda havo harorati +1ºC bilan +21ºC oralig‘ida edi. Ko'pincha birinchi bor tuxum qo‘yilgandan so‘ng biroz vaqt o'tib (5-6 kun) ikkinchi marta tuxum qo‘yish hollari kuzatildi. Lekin bunda doimo kamroq miqdorda tuxum qo‘yiladi (4-9 ta). Tuxum qo'yish jarayoni tugagandan so‘ng “tuxum kamerasi”ning og‘zi shu mollyuska ekskrementi bilan bekitiladi. Bu vaqtda mollyuska ekskrementi, asosan, tuproqdan iborat bo‘ladi. Ya’ni “tuxum kamerasi”ni qazish jarayonida mollyuska ko‘p miqdorda tuproq yutgan degan xulosaga kelish mumkin. Tuproqdan iborat bo‘lgan ekskrement odatdagi ekskrementga nisbatan quyosh nurlarini to‘liq to‘sib, tuxumlarning rivojlanishi uchun yaxshi sharoit yaratib beradi.

Tuxumlarning rivojlanish davri 11-16 kun davom etib, havo haroratiga bog‘liq bo‘ladi. Sutkalik o‘rtacha havo harorati +12ºC bo‘lganda tuxumlar 15-16 kun, +14ºC da 11-13 kun davomida rivojlandi. Laboratoriya sharoitida (isitilmaydigan xonada) sutkalik o'rtacha +15,5º C da tuxumlar 18-20 kun davomida rivojlandi. Ko‘rinib turibdiki, tuxumlarning embrional rivojlanishi laboratoriya sharoitida tabiiy muhitdagidan ko‘ra 3-4 kun uzoqroq davom etdi. Bu

ikkala muhitdagi kunduzgi havo harorati bilan bog‘liqdir. Laboratoriya sharoitida kunduzi havo harorati +20ºC dan yuqoriga ko‘tarilmagan bo‘lsa, tabiiy muhitda ayrim kunlari +27ºC ga etdi. Laboratoriya sharoitidagi o‘rtacha sutkalik yuqori harorat, kunduzgi va tungi haroratlar o'rtasidagi 1ºC dan 3ºC gacha bo‘lgan farq bilan, tabiiy muhitda esa 3ºC dan 13º gacha bo‘lgan farq bilan tushuntiriladi.

Aprel oyining birinchi dekadasidan keyin mollyuskalarda hech qanday jinsiy faollik kuzatilmadi. Mollyuskalarning umumiy faolligi esa may oyining oxirigacha davom etdi. Shu vaqtdan boshlab ular turli o‘tlar, butalar, daraxtlar poyasiga, barglariga chiqib (1,5-2 m) yozgi uyquga keta boshlaydi. Bu davrda ular turli o'simliklar poyasida 20 tadan 40 tagacha etadigan "shoda"lar hosil qiladi (2-rasm).



2-rasm. *Xeropicta candaharica* mollyuskalarining o'simliklar poyasidagi “shoda”si.

Yozgi uyquga ketishdan avval ushbu mollyuskalar bir necha qavatli epifragma pardasini hosil qiladilar. Ko‘pincha epifragma pardalar 2 qavatli bo'lib, ikkalasi ham oq rangli, ya'ni $CaCO_3$ ga to‘yingan bo‘ladi. Epifragma pardasi mollyuskalarning tanasini qurib qolishdan saqlovchi va uyqu davrida nafas olishini ta’minlab beruvchi asosiy vositadir. Bundan tashqari birinchi epifragma pardasi mollyuskani o‘simliklar poyasi, shoxlari va barglariga yopishtirib, mahkam ushlab turadi. Ayrim hollarda 3 qavatli $CaCO_3$ to‘yingan epifragma pardasiga ega bo‘lgan mollyuskalar ham uchrab turadi. Bunda ko‘pincha ichkarigi 3-parda mollyuska ekskrementi bilan qotib qolgan holda bo‘ladi. Ya’ni mollyuska 3-pardani hosil qilishda chig‘anoqning ichkariroq qismiga tortilishi oqibatida, tanasi ma'lum miqdorda siqiladi va ichagidagi bor ekskrement qoldiqlarini tashqariga chiqaradi. Bundan tashqari ayrim mollyuskalarda 1- va 2-epifragma pardalari orasida yupqa, shaffof bir yoki ikki qavatli epifragma pardalari bo'ladi. Bu pardalar ham mollyuska tanasining qurib qolishini ma'lum miqdorda oldini oladi.

Kuzatuvlarimiz natijasida shu narsa ma’lum bo‘ldiki, ushbu tur mollyuskalarining o'simliklar poyasiga chiqib “shoda”lar hosil qilishi ikki xil sabab asosida ro'y beradi. Birinchi holda uzoq muddatli yomg‘irlar ta’sirida, er yuzasida hosil bo'lgan kuchli namlikdan qochib, o'simliklar poyasiga chiqib olsa, ikkinchi holda qurg‘oqchilik mavsumida er yuzasining kuchli darajada qizib ketishidan qochib, o‘simliklar poyasida "shoda"lar hosil qilishadi. Birinchi hol qisqa muddatli bo'lib, mollyuskalar epifragma pardalarini hosil qilmay, biroz vaqtdan so'ng er yuzasiga qaytib tushadilar. Ikkinchi holda esa mollyuskalar epifragma pardalarini hosil qilib, uzoq muddatli yozgi uyquga ketadilar.

Xulosalar. *X. candaharica* mollyuskalarining bahor davridagi umumiy faolligi havo haroratining +5ºC bilan +23ºC hamda nisbiy namligining 45% dan 100% gacha bo‘lgan oralig‘ida namoyon bo‘ldi. Mollyuskalarning jinsiy faolligi havo haroratining +5ºC bilan

+19ºC, nisbiy namligining 55% dan 95% gacha, tuxum qo‘yish jarayoni esa havo haroratining +1ºC bilan +21ºC, nisbiy namligining 63% dan 90% gacha oralig‘ida kuzatildi.

Yuqorida keltirilgan ma’lumotlar asosida, *X. candaharica* mollyuskalarining ko‘payishi, tuxum qo‘yishi va rivojlanishi uchun eng qulay davr, bu bahorgi faollik davri deb aytish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Pazilov A., Saidov M., Pazilova Z. Konxologicheskaya izmenchivost nazemnogo mollyuska *Xeropicta sandaharica* v urbanizirovannix i prirodnix populyasiyax // Vestnik Mordovskogo universiteta. – Saransk, 2009. № 1. – S. 50-51. [Rus tilida].

2. Samadov K.S. K voprosu o biologii *Helicella candaharica* Pfr. // Byull. AN UzSSR. ─ Tashkent, 1947. № 10. – S. 20-23. [Rus tilida].

3. Shileyko A.A. Nazemnie mollyuski nadsemeystva Helicoidea. Fauna SSSR. Mollyuski. – L., 1978. T. 3. Vip. 6. № 117. – 384 s. [Rus tilida].

UO‘T: 595.797

O‘ZBEKISTONDA *STIZUS RUFICORNIS* J.FORSTER, 1771 (HYMENOPTERA: CRABRONIDAE, BEMBICINAE) TURINING TARQALISHI

Medetov M.J.[1], Embergenov M.A.[1], Elmurodova M.V.[2]
[1]O‘zR FA Zoologiya instituti, [2]O‘zbekiston Milliy universiteti,
e-mail: embergenov.m.a@inbox.ru


Annotation. *The article presents information on the distribution of Stizus ruficornis J. Forster, 1771 in Uzbekistan and its ecological characteristics. According to the results of studies of Stizus ruficornis conducted in various landscapes of Uzbekistan, it is observed that this species is distributed mainly in desert and semi-desert zones on mesoxerophilic plants – Tamarix*

Uzoq vaqt davomida qazuvchi arilar Sfesid (Sphecidae) bitta oila (yoki bosh oila Sphecoidea) deb o‘rganilib kelingan. Hozirgi kunda bular 4 ta (Ampulicidae, Heterogynaidae, Crabronidae va Sphecidae) oilalarga ajratilgan (Melo, 1999). Qazuvchi arilar pardaqanotli hasharotlar ichida eng ko‘p tarqalgan oilalardan hisoblanadi. *Stizus ruficornis* turi Crabronidae oilasining *Stizus* avlodini o‘z ichiga oladi. Bugingi kunda ushbu avlodinig dunyo bo‘yicha 108 turi ro‘yxatga olingan bo‘lib, Palearktikada 70 dan ortiq va Markaziy Osiyo jumladan Qozog‘istonda 14 turi tarqalgan (Kazenas, 2002). Bizning adabiyotlar tahliliga ko‘ra O‘zbekistonda 20 tur va kenja turi tarqalgan. Ushbu tur gullarni changlatish va zararkunanda hasharotlarni yo‘q qilishda qishloq xojaligida katta ahamiyatga ega.

O‘zbekistonda *Stizus ruficornis* J.Forster, 1771 turini tarqalishi va ekologiyasini o‘rganish bo‘yicha V. Gussakovskiy (1935), Sh.D. Islamov (1986), V.L. Kazenas (2001, 2002), P.G. Nemkov (2012) ishlarida keltirilgan. Bundan ko‘rinib turibdiki, O‘zbekistonda so’nggi 20 yil davomida mazkur mavzu doirasida tadqiqotlar deyarli olib bormaganligi tufayli biz *Stizus ruficornis* turini o‘rganishni maqsad qilib qo‘ydik.

Material va metodlar. *Stizus ruficornis* turini o‘rganish bo‘yicha tadqiqotlar 2022-2023 yil aprel-sentyabr oylarida O‘zbekistoning Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Xorazm, Navoiy, Toshkent va Farg‘ona viloyatlarida olib borildi. Hasharotlarni yig‘ishda ananaviy uslub entomologik tutqich (sachok), pinset, fotoapparat va boshqalardan foydalanildi. Yig‘ilgan materiallar 96 % li spitrda plastmassa idishlarda saqlandi. Shuningdek olib kelingan namunalar MBS-9 va SMZ-161-TL binokulyar mikroskopidan foydalanilib kolleksiya tayyorlandi. Turni

aniqlashda Nemkov (2012) ning aniqlagich maqolasidan foydalanildi. Yig‘ilgan hasharot joylarining koordinatalari Maps.me va Google Earth yordamida amalga oshirildi (1-rasm).



1-rasm. *Stizus ruficornis* J.Forster, 1771 turining tarqalishi

Natijalar va ularning muhokamasi. Tadqiqotimiz asosan To‘qay, agrotsenoz, cho‘l va yarim cho‘l landshaftlarida olib borildi. *Stizus ruficornis* turning sinonimlari: *Vespa ruficornis* J. Forster, 1771, *Stizus pubescens* Klug in Waltl, 1835.

Morfologik belgilari: Tana uzinligi 15-25 mm. Qorinning birinchi va ikkinchi tergiti qizg‘ich yoki qora rangli, yon atrofi sariq dog‘lar bilan qoplangan. Oldingi qanoti orqa qanotiga nisbatdan qizg‘ich rangda (2-rasm).

Aniqlangan joyi va vaqti: Qoraqalpog‘iston Respublikasi: 1♀, 3♂, Nukus shahri Ashshiko‘l atrofi (42°30′28.13″N 59°38′26.47″E), 07.05.2021. 7♀, 3♂, Qarao‘zek tumani (43°02′01.93″N 60°02′23.29″E), (43°02′51.8″N 60°02′52.79″E), 08.08.2023. 2♀, Qizilqum cho‘li (42°35′40.16″N 60°38′37.69″E), 31.05.2023. Xorazm viloyati: 1♀, Yangiariq tumani (41°19′00.56″N 60°27′02.01″E), 29.05.2023. Navoiy viloyati: 2♂, Aydarko‘l atrofi (41°00′00.96″N 65°56′18.06″E), 16.07.2022. 1♀, 3♂, Markaziy Qizilqum cho‘li (41°40′36″N 64°19′31.73″E), (41°40′10.36″N 64°20′01.23″E), 24.06.2023. Farg‘ona viloyati: 1♀, Beshariq tumani (40°22'27.96"N 70°33'28.45"E), 29.04.2023.

Dunyo bo‘yicha tarqalishi: Angola, Armaniston, Ozarbayjon, Xitoy, Misr, Efiopiya, Fransiya, Gana, Gretsiya, Italiya, Iordaniya, Liviya, Malta, Mo‘g‘uliston, Marokash, Nigeriya, Ummon, Portugaliya, Ruminiya, Rossiya, Saudiya Arabiston, Ispaniya, Suriya, Tunis, Turkiya, Birlashgan Arab Amirligi, Ukraina, Jazoir, Eron, Turkmaniston, Tojikiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, O‘zbekiston (Kazenas, 2002, Jahantigh, 2017).



2-rasm. ♂ *Stizus ruficornis* J.Forster, 1771 turidan tayyorlangan kollektsiya namunasi

Bugingi kunga qadar adabiyotlar va tadqiqotimiz davomida kuzatilgan *Stizus ruficornis* turini Ozbekistonni 5 geografik xududga ajratib ko‘rsatildi (1-jadval).

1-jadval

***Stizus ruficornis* turning O‘zbekiston geografik hududlari bo‘yicha tarqalishi**

Shimoliy-Garbiy	Markaziy	Janubiy	Shimoliy-Sharqiy	Sharqiy
+++	++	-	+	++

Izoh: *Umumiy turlar: (+) – Adabiyotlarda qayd etilgan turlar; (++) – Bizning tadqiqotimiz davomida aniqlangan turlar; (+++) – Adabiyotlar va bizning tadqiqotimiz davomida aniqlangan turlar; (-) – tadqiqotlarda aniqlanmagan*

Turning ekologiya va biologiyasi: Evribiont tur. Cho‘llarda asosan suvga yaqin joylarda tarqalgan. Urg‘ochilari qumli tuproqda uya quradi va beshiktebratarlarning lichinkalarini ovlaydi.

O‘zbekistonda aniqlangan adabiyotlar manbalaridagi va olib borilgan tadqiqotimiz natijasida kuzatilgan uchish sanalariga qarab fenologik guruxga ajartdik. Bunda *Stizus ruficornis* O‘zbekiston hududida aprel oyidan, avgust oyigacha paydo bo‘lishi kuzatildi (2-jadval).

2-jadval

***Stizus ruficornis* turning fenologik xususiyatlari**

aprel			may			iyun			iyul			avgust		
1	2	3	1	2	3	1	2	3	1	2	3	1	2	3
-	-	♀	♀	♀	♀	-	♀	♀	-	♀	♀	♀	♀	♀
-	-	-	♂	-	-	♂	♂	♂	♂	♂	♂	♂	-	-

Izoh: *♀-urg‘ochi, ♂-erkagi, (-) uchramadi.*

Xulosalar. *Stizus ruficornis* turi O‘zbekistoning markaziy va sharqiy hududlari uchun ilk bor qayd etildi. Turli landshaftlarida tadqiqotlar olib borganimizda *Stizus ruficornis* asosan cho‘l va yarim cho‘l zonalarida tarqalishi va tadqiqotimizda asosan *Tamarix* sp. o’simligida kuzatildi. Shuningdek O‘zbeksitonda aprel oyi oxiridan va avgust oyi oxirigacha uchishi kuzatildi. *Stizus ruficornis* lichinka davridagilar chigirtkalar bilan oziqlanib, qishloq xo’jaligi ekinlariga zarar yetkazadigan hasharot turlarni yo’q qilishda, imago davridagilari turli o‘simliklari nektari bilan oziqlanib gullarni changlatishda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Gussakovskij, V.V. To the fauna of wasps (Hymenoptera, Sphecodea et Vespodea) of Tajikistan. // Akademiya Nauk SSSR. Trudi Tadjikskoy bazi, №5. 1935. - P. 413.
2. Islamov Sh.D. Digger-wasps (Hymenoptera, Sphecidae) in the mountainous regions of Uzbekistan. // Entomologicheskoe obozrenie, 1986. – 522 c.
3. Jahantigh F., Rakhshani E., Mokhtari A., Ramroodi S. Catalogue of Ampulicidae, Crabronidae and Sphecidae of Iran (Hymenoptera, Apoidea) // Zootaxa 4307 (1), 2017. – P. 001-096.
4. Kazenas V.L. Fauna i biologiya royushix os Kazaxstana i Sredney Azii // Kazgos INTI. 2001. – S. 51-52. [Rus tilida].
5. Kazenas V.L. Royushie osi (Hymenoptera, Sphecidae) Kazaxstana // Tethys Entomological Research, 2002. - 31 c. [Rus tilida].

6. Melo G.A.R. Phylogenetic relationships and classification of the major lineages of Apoidea (Hymenoptera), with Emphasis on the Crabronid Wasps. // Scientific Papers. Natural History Museum. The University of Kansas, 1999. – P. 1-55.

7. Nemkov P.G. Digger wasps of the genus *Stizus* Latreille, 1802 (Hymenoptera, Crabronidae, Bembicinae) of the fauna of Russia and neighbouring countries // Euroasian Entomological Journal, 2012. – P. 55-62.

UO‘T 595.754

YARIMQATTIQQANOTLI (HETEROPTERA) HASHAROTLARNI YIG‘ISHDA YORUG‘LIK TUTQICHINING AFZALLIKLARI

Musayev D.M., Mirzayeva G.S., Medetov M.J., Nazarov Sh.N.
O‘zR FA Zoologiya instituti, e-mail:Dilshod.Musaev.86@mail.ru

Annotation. *The article presents the effectiveness of light traps for collecting insects in the study of true bugs species common in the desert regions of Uzbekistan in 2020-2023. 35 species of true bugs from 8 families collected using light traps were identified.*

Yarimqattiqqanotlilar hasharotlar sinfining katta qismini tashkil etib, yer sharining barcha hududlarida keng tarqalgan. Hozirgi vaqtda dunyo miqyosida qandalalarning 91 oilaga mansub 50 000 dan ortiq turi ma’lum (http://heteroptera.org/). MDH davlatlarida 2000 turi xususan, Ukraina va Qozog‘istonda - 1250, O‘zbekistonda - 760 dan ortiq turi topilgan (Aukema, 1995-2006; Azimov va boshq., 1993). So‘nggi ma’lumotlarga ko‘ra, bugungi kunda Palearktika xududlarida qandalalarning 7 ta katta infraturkum (Cimicomorpha, Dipsocoromorpha, Enicocephalomorpha, Gerromorpha, Leptopodomorpha, Nepomorpha va Pentatomomorpha), 79 oila, 3116 avlodga mansub 25 000 ga yaqin turlarining ro‘yxati keltirilgan (https://www.itis.gov/). Qandalalar biologik va ekologik jihatdan turli-tumandir, ko‘pchiligi quruqlikda, o‘simliklar sirtida, po‘stloq ostida va tuproq ichida uchraydi. Anchagina turlari suvda yashaydi. Juda ko‘p tur qandalalar o‘simlikxo‘r, ba’zilari yirtqich, hasharot va boshqa umurtqasizlar hatto sut emizuvchilar, qushlar qonini so‘rib oziqlanadi.

Material va metodlar. 2020-2023 yillar davomida O‘zbekistonning Qizilqum, Surxondaryo viloyatining Termiz, Muzrobod, Qashqadaryo viloyatining Muborak, Navoyi viloyatining Qiziltepa, Farg‘ona viloyatining Yozyovon, Namangan viloyatining Pop tumanlarining cho‘l va chalacho‘l xududlarida tarqalgan qandala turlarini o‘rganish maqsadida tadqiqrtlar olib bordik. Tadqiqotlarda qandalalarning tunda faol hayot kechiradigan turlarini aniqlash maqsadida yorug‘lik tutqichlaridan foydalanildi.

Natijalar va ularning muhokamasi. Yuqorida keltirib o‘tilgan hududlarda olib borilgan izlanishlarimiz natijasida yorug‘lik tutqichlari yordamida qandalalarning 8 oilaga mansub 35 turi aniqlandi (jadval).

Jadval

Yorug‘lik tutqichlari orqali aniqlangan qandala turlari

№	Oila	Tur
1.	Anthocoridae	*Anthocoris pilosus, Orius niger*
2.	Nabidae	*Nabis palifer, Nabis rugosus*
3.	Miridae	*Macrolophus pygmaeus, Deraeocoris punctulatus, Adelphocoris lineolatus, Lygus pratensis, Phytocoris kyzylkumi, Phytocoris undulates, Trigonotylus ruficornis, Malacocoris chlorizans, Auchenocrepis reuteri, Campylomma verbasci, Tuponia elegans*

4.	Reduviidae	*Holotrichius moestus, Pasira basiptera, Oncocephalus brachymerus, Coranus aegyptius, Rhynocoris iracundus, Vachiria deserta, Reduvius ciliatus, Reduvius fedtschenkianus, Reduvius testaceus, Reduvius carinatus, Oncocephalus brachymerus*
5.	Corixidae	*Sigara nigrolineata*
6.	Rhopalidae	*Corizus hyoscyami, Liorhyssus hyalinus, Rhopalus distinctus*
7.	Geocoridae	*Geocoris ater*
8.	Pentatomidae	*Neottiglossa leporina, Carpocoris purpureipennis, Dolycoris baccarum, Brachynema germarii, Tarisa subspinosa*

Qandala turlarining oilalar kesimida taqsimlanishiga ko‘ra eng ko‘pi Miridae va Reduviidae oilalariga (11 turdan), eng kam turlar Corixidae, Anthocoridae va Nabidae oilalariga mansubligi aniqlandi. Aniqlangan qandalalar orasisi Corixidae oilasiga mansub bo‘lgan *Sigara nigrolineata* turi (rasm) suvda yoki suv qirg‘oqlarida hayot kechirishga moslashgan bo‘lishiga qaramay yorug‘likka qarab uchib kelishi ayrim quruqlik qandalalariga nisbatan yuqoriligi kuzatildi.



Rasm. Suv qandalalaridan yorug‘lik tutqichida aniqlangan *Sigara nigrolineata* turi

Xulosalar. Ma’lumki qandalalar orasida ham boshqa turkumga mansub hasharotlar kabi yorug‘likka qarab harakatlanuvchi turlari ko‘p uchraydi. Qandalalarni tutishda yorug‘lik tutqichlarining entomologik matrabdan afzallik tomonlari bo‘lib, ular quyidagilardan iborat.

Birinchidan - qandalalar orasida asosan tunda yirtqichlik bilan hayot kechiradigan turlari uchraydi. Reduviidae oilasiga mansub qandala turlari ko‘pchiligi (*Reduvius ciliatus, Reduvius fedtschenkianus, Reduvius testaceus, Reduvius carinatus*) kunduzi turli hil joylarda yashirinib tunda faollashadi. Bu turlarni tutishda faqatgina yorug‘lik tuzoqlaridangina foydalanishni taqazo etadi.

Ikkinchidan – cho‘l hududlarda yoz fasllarida haroratning xaddan tashqari issib ketishi natijasida qandala turlaring o‘simliklarning pastki yerga yaqin qismlariga yashirinib olishi kuzatiladi.

Uchinchidan - baland bo‘yli o‘simliklarda uchraydigan qandala turlarini yorug‘lik tutqichlari o‘ziga jalb qiladi va pastga tushganda ularni tutish osonlashadi.

To‘rtinchidan - yorug‘lik tutqichlariga kelgan qandala turlari kam harakatchan bo‘ladi. Ularni shoshmasdan ko‘lay bo‘lgan idishlarga saqlash imkoniyati yuqori bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Aukema, B., Rieger, Ch. & Rabitsch, W. Catalogue of the Heteroptera of the Palaearctic Region. VI. Supplement // The Entomological Society. - Amsterdam, 2013. XXIII. - 629 p.

2. Azimova D.A., Bekuzin A.A., Davletshina A.G., Kadirova M.K. Nasekomie Uzbekistana. – Tashkent, 1993. – 320 s. [Rus tilida].

3. http://heteroptera.org/
4. https://www.itis.gov/

UO‘T 595.754

NAMANGAN VILOYATI MEVALI BOG‘ AGROBIOSENOZLARIDA TARQALGAN QANDALALAR

Musayev D.M.[1], Xusanova I.M.[2]
[1]O‘zR FA Zoologiya instituti, [2]Namangan Davlat Universiteti,
e-mail: Dilshod.Musaev.86@mail.ru

Annotation. *This article presents the results of a scientific study conducted in 2023 on the identification of the species of true bug distributed in fruit and garden agrobiocenoses of the Namangan region. As a result of the research, a total of 37 species of true bugs belonging to 10 families were identified in this area.*

Mamlakatimizda qandalalarning 32 oilaga mansub 700 dan ortiq turi uchrashi taxmin qilinadi (Azimov va boshq, 1993; Aukema va bosh., 2013). Qandalalarning aksariyat turlari o‘simlikxo‘r bo‘lib, ular 200 dan ortiq o‘simlik turlari bilan oziqlanadi. Masalan, AQSh da *Lygus* avlodiga mansub *Lygus hesperus* turi g‘o‘za hosiliga yiliga 30 mln, boshqa qishloq xo‘jalik ekinlariga 40 mln dollar miqdorida iqtisodiy zarar keltirmoqda (https://www.itis.gov/).

Material va metodlar. Ilmiy tadqiqot ishlari shu yilning (2023 y.) bahor yoz oylarida Namangan viloyatining Pop, Norin va Namangan tumanlari aholi tomorqalari, dehqon xo‘jaliklari va klaster dalalarida yetishtirilayotgan olma (Malus), olcha (Cerasus), nok (Pyrus), o‘rik (Armeniaca) va olxo‘ri (Prunus) kabi mevali-bog‘ agrobiotsenozlarida olib borildi.

Qandalalarni yig‘ishda o‘lchami 35-40 sm bo‘lgan entomologik sachok (matrap) dan foydalanildi.


Natijalar va ularning muhokamasi. Tadqiqotlar natijasida mazkur hududda qandalalarning 10 ta oilaga mansub jami 37 ta turi aniqlandi (jadval).

Jadval

Mevali bog‘ agrobiosnozlari qandalaturlari

№	Oila	Tur
1	Anthocoridae	*Anthocoris pilosus, Orius niger*
2	Pyrrhocoridae	*Pyrrhocoris apterus*
3	Rhopalidae	*Stictopleurus abutilon, Corizus hyoscyami*
4	Lygaeidae	*Melanocoryphus albomaculatus, Nysius ericae, Liorhyssus hyalinus, Rhopalus distinctus.*
5	Miridae	*Adelphocoris lineolatus, Lygus protensis, Deraeocoris punctulatus, Malacocoris chlorizans, Campylomma verbasci, Atomoscelis onusta, Orthotylus flavosparsus, Myrmecophyes alboomatus, Trigonotylus pulchellus, Stenodema calcarata, Polymerus sognatus*
6	Pentotomidae	*Apodiphus integriceps, Brachynema germari, Carpocoris fuscispinus, Dolycoris penicillatus, Eurydema ornata, Graphosoma consimile, Palomena prasina, Zicrona caerulea*
7	Scutelleridae	*Eurygaster integriceps*
8	Cydnidae	*Legnotus picipes*
9	Tingidae	*Tingis pilosa, Stephanitis pyri, Dictyla lupuli*
10	Reduviidae	*Rhynocoris iracundus*

Aniqlangan qandalalarning oilalar kesimida taqsimlanishiga ko‘ra eng ko‘pi Miridae (11 tur, 29,7%) va Pentotomidae (8 tur, 21,6%) oilalariga mansubligi ma’lum bo‘ldi. Qolgan oilalarga mansub qandala turlari kam uchrashi kuzatildi (rasm).



Rasm. Qandalalarning oilalar kesimida taqsimlanishi

Shuningdek qandala turlarining oziqlanishiga ko‘ra ekologik guruhlanishini o‘rganganimizda ulardan *Anthocoris pilosus, Orius niger, Zicrona caerulea* va *Rhynocoris iracundus* kabi turlani yirtqich (zoofag), boshqa barcha turlar esa fitofag (o‘simlikxo‘r) qandalalar ekanligi ma’lum bo‘ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Aukema, B., Rieger, Ch. & Rabitsch, W. Catalogue of the Heteroptera of the Palaearctic Region. VI. Supplement // The Entomological Society. Amsterdam, 2013. XXIII. - 629 p.

2. Azimova D.A., Bekuzin A.A., Davletshina A.G., Kadirova M.K. Nasekomie Uzbekistana. – Tashkent, 1993. – 320 s. [Rus tilida].

3. http://heteroptera.org/

4. https://www.itis.gov/

UO‘T 959.7:632/799.15

QORAQALPOG‘ISTON SHAROITIDA *ANACANTHOTERMES* AVLODIGA MANSUB TERMITLARNING ANTROPOGEN-TRANSFORMATSIYALANGAN XUDUDLARDA TARQALISHI

Qalilaeva B.R.[1], Juginisov T.I.[1], Axmedov V.N.[2]
[1]Qoraqalpoq davlat universiteti; [2]O‘zR FA Zoologiya instituti,
e-mail: akhmedov.vokhidzhon@mail.ru

Annotation. *This article presents information on the study of the biological development and harmful properties of termites of the genus Anacanthotermes (Jacobs) in the anthropogenically transformed territories of Karakalpakstan during 2018-2023.*

Qoraqalpog‘iston iqlimi keskin kontinental hisoblanib, bu antropogen-transformatsiyalangan o‘rinlarda jiddiy zararkunanda-hasharotlarning *Anacanthotermes* (Jacobs, 1904) avlodiga mansub termitlar vakillari tabiatda rivojlanishi jihatidan har bir narsaga loy-suvoqlar o‘rab, xilma-xil ekologik muhitlarda, asosan, tuproq bilan bog‘liq holda jamoa hosil qilib hayot kechiradi. Ayniqsa, bugungi kunda Qoraqalpog‘iston tabiiy sharoitida termitlar miqdorining ortishi hudud uchun moslashgan yovvoyi, to‘qay ekotizimidagi o‘simliklarning qurishiga, antropogen-transformatsiyalangan o‘rinlarda agrotsenoz dala yekinzorlariga va insoniyat qo‘li bilan yaratilgan barcha buyum va inshootlarga jiddiy zarar keltirmoqda (Abdullaev, 2016; Mizaeva , 2021). Shu nuqtay nazardan, tabiiy sharoitda va antropogen-transformatsiyalan o‘rinlarda termitlarning zararkunandalik xususiyatlari, ularning tarqalish monitoringi, mavsumiy jihatdan zararkunandaning hududga moslashuvi, ozuqaviy birligining xilma-xilligi, aholi uylarining, sotsial, ma’daniy-meros, strategik ob’ektlarning zararlanish darajalariga aniqliq kiritilishi, shuningdek, zararkunandalarga chidamli binolar qurilishini ta’minlash hamda ularga qarshi takomillashtirilgan profilaktik kurash chora-tadbirlarini amalga oshirish muhim masalalardan hisoblanadi.

Qoraqalpog‘iston sharoitida antropogen-transformatsiyalangan hududlarda *Anacanthotermes* avlodiga mansub termitlarning biologik rivojlanishi va zararli xususiyatlari hisobga olinib ularning tarqalish monitoringi o‘rganildi. Bunda, Qoraqalpog‘iston sharoitida *Anacanthotermes* avlodiga mansub termitlardan zararlangan aholi xonadonlari, madaniy-meros, ijtimoiy-iqtisodiy ob’ektlari va dala yer maydonlarining 2018-2023 yillar bo‘yicha solishtirmali monitoringi o‘rganilganda, asosan antropogen-transformatsiyalangan hududlardan aholi xonadonlari, dala yer maydonlarida (qabirstonlar) ko‘plab termitlarning uchrashi kuzatildi. Ammo, birqancha o‘rinlarni 2018 yil bilan 2023 yilni solishtirganda ayrim yillari iqlimning noqulay kelishi va termitlarga qarshi kurashish ishlari olib borilgan joylarda zararkunandaning kamayish holatlari kuzatildi (jadval).

Jadval

Qoraqalpog‘iston termitlardan zararlangan aholi xonadonlari, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-meros ob’ektlari hamda dala yer maydonlarining monitoringi (2018-2023 yy.)

№	Tumanlar nomi	Zararlangan o‘rinlar			
		Xonadonlar	Madaniy-meros ob’ektlari	Iqtisodiy ob’ektlar	Dala yer maydonlari (ga)
1	Nukus sh.	1883/1601	-/-	1/6	-/39,7
2	Nukus t.	14/17	1/-	-/-	-/1,5
3	Taxiatosh t.	-/55	-/-	-/-	-/5,0
3	Kegayli t.	-/4	2/1	-/-	-/0,7
4	Chimboy t.	-/-	-/-	-/-	-/-
5	Bo‘zotov t.	-/-	-/-	-/-	-/-
6	Karauzyak t.	19/54	2/1	-/-	-/27,0
7	Taxtako‘pir t.	77/97	-/-	2/5	60,3/59,4
8	Amudaryo t.	12/12	-/-	-/-	-/-
9	Buruniy t.	134/111	2/2	-/1	-/-
10	Ellikqa’la t.	585/279	4/3	-/-	-/-
11	To‘rtkul t.	364/473	2/2	2/4	-/5,0
12	Xodjeyli t.	110/87	5/4	-/-	-/25,0
13	Shumanoy t.	-/-	-/-	-/-	-/-
14	Qanlikul t.	-/-	-/-	-/-	-/-
15	Qo‘ng‘irot t.	130/475	1/-	-/-	-/15,0
16	Mo‘ynoq t.	225/299	1/1	2/3	-/5,8

Kuzatuvlar natijalariga ko‘ra qolgan tumanlarda Nukus 14/17, Taxiatosh -/55, Kegayli -/4, Karauzyak 19/54, Taxtako‘pir 77/97, Amudaryo 12/12, To‘rtkul 364/473, Qo‘ng‘irot 130/475 va Mo‘ynoqda 225/299 bo‘lib, aholi xonadonlarining termitlardan zararlanish darajasining ancha yuqoriligi aniqlandi. Shuningdek, Chimboy, Bo‘zotov, Shumanoy va Qanlikul tumanlarida umuman termitlar zarari qayd etilmadi.

Anacanthotermes avlodiga mansub termitlarning iqtisodiy ob’ektlarda monitoringi, zararlilik darajasining o‘sishi Nukus, Taxtako‘pir, Beruniy, To‘rtkul va Mo‘ynoq tumanlarida aniqlandi, qolgan hududlarda bunday holatlar kuzatilmadi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasida *Anacanthotermes* avlodiga mansub 2 ta tur: Turkiston va Katta Kaspiy orti (*A.turkestanicus, A.ahngerianus*) termitlarining zararli xususiyatlari bo‘yicha monitoring ishlari uchun barcha tumanlar (16 ta) kesimida o‘rganildi. Bunda, 2018 yilda (5 yil ilgari) aholi uylarida Nukusta 1883, Beruniyda 134, Ellikqa’lada 585, Xodjeylida 110 zararlangan bo‘lsa, bu holat 2023 yilga kelib 1601, 111, 279, 87 aholi xonadonlarning termitlardan zararlanish darajasi ma’lum bo‘ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Abdullaev I.I. Populyatsionnaya ekologiya termitov i ix znachenie v yestestvennыx i urbanizirovannыx ekosistemax: Avtoref. diss. … dok. biol. nauk. - Tashkent, 2016. - 72 c. [Rus tilida].

2. Mirzaeva G.S. O‘zbekiston urbanlashgan hududlar ksilofag-hasharotlari: Boil. fan dok. diss. … avtoreferati. - Toshkent, 2021. - 60 b.

UO‘T 595.797.

O’ZBEKISTONDA *PODALONIA* FERNALD, 1927 AVLODIGA MANSUB TURLARNING MOLEKULYAR GENETIK TAHLILI

Qodirov I.T.[1], Axmedova Z.Yu.[2]

[1]Namangan davlat universiteti; [2]O‘zR FA Zoologiya instituti,

e-mail: IxlosbekIsfandiyor@gmail.com

Annotation. *In this article, the species P. affinis (W. Kirby, 1798), Podalonia ebenina (Spinola, 1839) and Podalonia hirsuta (Scopoli, 1763), belonging to the genus Podalonia Fernald, 1927, are noted in the Fergana Valley, and the nucleotide sequence of the mitochondrial DNA of these species belonging to the COI region were compared and sequence studied. Based on information obtained as a result of molecular genetic studies, phylogenetic relationships were identified. The species P. ebenina was placed in the National Center for Biotechnology Information for the first time.*

Sphecidae oilasi vakillari Hymenoptera turkimining yirik oilalaridan biri bo‘lib, tabiatda ular turli hasharotlarni sonini tartibga solib turadi. Ushbu oila vakillarining Dunyo faunasida 19 avlod 730 dan ortiq turlari aniqlangan bo‘lib, bu oila vakillari ichida *Podalonia* Fernald, 1927 avlodi turlari yer yuzida 70 ga yaqin turlari qayd qilingan bo‘lib, shundan 50 ta turi Palearktikada uchraydi (Danilov & Mokrousov, 2016; Wang et al., 2016, Bohart, Menke, 1976), 9 ta turi Yevropada uchrasa, 2 ta turi esa hamma joylarda uchrashligi qayd qilingan (Pulavskiy, 1978; Bitsch, Barbier, Ohl, 1997).

Material va metodlar. Ushbu tadqiqot ishidagi entomalogik namunalarni yig‘ish uchun 2019-2023 yillar mobaynida Farg‘ona vodiysini tog‘, tog‘oldi, adir va tekislik mintaqalaridan yig‘ildi.

Namunalardan DNKni ajratib olish uchun 70% li spirt eritmasida saqlanayotgan *Podalonia* avlodiga mansub turlarning erkak individlarini oyoq qismini olib, quruq qog‘oz ustiga qo‘yib spirt bug‘lanib ketguncha xona haroratida 10-15 daqiqa saqlandi.

Podalonia avlodiga mansub arilardan DNK sini ajratib olish uchun (2 ml 0,5 M Tris/HCl, pH 8,5, 10 ml 2 M KCl eritmasi, 500 mkl 1 M $MgCl_2$, 2 ml NP40 va 27 saxaroza eritmasi). 200 ml bidistirlangan va avtoklaf qilingan suv) va 2 ml protenaza 10mg/ml K. Ependorf probirkalariga solingan *P. affinis* va *P. atrocyanea* ari oyoqlarini 1-2 soat davomida 65°C da inkubatsiya qilindi. Inkubatsiyadan so‘ng ekstraksiya eritmasidan (Lizis bufer+protenaza K) eritmalari solindi va 10 daqiqa davomida 92°C da saqlandi. Keyin ajratib olingan DNK na’munalarini (-20°C) saqlandi (Issa, 2013).

Ajratib olingan DNK na’munalaridan polimeraza zanjir reaksiyasi o‘tkazishda, avtomatik dasturlashtiriluvchi amplifikator (PR-96E) yordamida amalga oshirildi.

Podalonia avlodi vakillarining mitoxondrial DNKsining (mDNK) COI fragmentlari nukleotidlari molekulyar taksonomiyada keng qo‘llaniladigan LEP-F- to‘g‘ri, 5-ATTCAACCAATCATAAAGATAT-3 va LEP-R-teskari 5-TAAACTTCTGGATGTCCAAAAA-3 praymerlaridan foydalanib ajratib olindi (Paul, 2004).

PZR uchun Master-mix aralashmasi tayyorlashda, Suv (distil.) – 7,1 mkl, 10x PZR buferi-1 mkl, dNTP -0,2 mkl, Har bir praymerlardan-0,25 mkl, Taq-polimeraza - 0,2 mkl=10 mkl tayyorlandi.

DNK fragmentlarining amplifikatsiyasi 35 sikl mobaynida termosiklerida amalga oshirildi. PZR quyidagi sxema bo‘yicha olib borildi: 1 – bosqich – 2 daqiqa davomida DNK ning 95ºC sharoitda denaturatsiyalanishi, 2 – bosqich – DNKning 93ºC sharoitda 20 soniya davomida denaturatsiyalanishi, 3 – bosqich – DNKda 52ºS sharoitda 45 soniya davomida praymerlarning yopishishi, 4 – bosqich – 72°C sharoitda 2 daqiqa davomida elongatsiyalanish, 5 – bosqich – 72ºC sharoitda 10 daqiqa davomida zanjirning elongatsiyalanishi. Ikkinchidan to‘rtinchi bosqichgacha jarayon sikl ko‘rinishida 35 martagacha takrorlandi.

Fragmentlar uzunligini aniqlash uchun marker sifatida *Pst*I endonukleaza bilan gidrolizlangan λ bakteriofag DNKsi, shuningdek, “Axigen” firmasining Ladder 3-1 maxsus markeridan foydalanildi.

Filogenetik daraxt tuzish uchun sekvenezdan olingan *Podalonia* Fernald, 1927 avlodiga mansub turlarning nukleotidlar ketma-ketliklari va xalqaro biotexnologik ma’lumotlar markazidan (https://www.ncbi.nlm.nih.gov/) olingan DNK ketma-ketliklaridan foydalanildi va bu ketma ketliklar Genius prime dasturi vositasida ko‘lda tahrir qilindi, konsensus ketma-ketliklari Mega X hisoblash dasturi yordamida hisoblab chiqildi. Ushbu dasturdan olingan dastlabki ma’lumotlar va GenBank ma’lumotlar ba’zasidan olingan qo‘shimcha ketma-ketliklar standart sozlamalardan foydalangan holda MAFFT v.7 onlayn dasturida va Clustal Omega 1.2.2 dasturi yordamida taqqoslandi va Genius prime dasturida tahrir qilindi.

Olingan mtDNK ni sohasiga mansub nukleotidlar ketma-ketliklari maksimal (maximum likelihood-ML) filogenetik daraxti 1000 ta takrorlash bilan amalga oshirilgan ultra tez yuklash orqali IQ-TREE 1.6.12 versiyasida aniqlanib, tahlillar CIPRES Science Gateway V 3.3 da bajarildi. *Ammophila heydeni* (OP601358) turini COI sohasiga mansub nukleotidlar ketma-ketligi konsensus daraxtlarini ishlab chiqarishni osonlashtirish uchun tashqi guruh sifatida kiritildi. Olingan filogenetik daraxt iTOL v6.6 dasturida tahlil qilindi va tahrirlandi.

Molekulyar-genetik tadqiqotlar o‘tkazish uchun, *P. affinis, P. ebenina* va *P. hirsuta* turlarini 70% li etanol eritmasida fiksatsiyalangan erkak individlarini oyog‘ va mo‘ylovlaridan foydalanib DNK ajratib olindi.

Natijalar va ularning muhokamasi. O‘tkazilgan molekulyar-genetik tadqiqotlar natijasi shuni ko‘rsatadiki, *P. affinis, P. ebenina* va *P. hirsuta* turlarini mtDNKsi COI sohasiga mansub 658 juft asosga ega bo‘lgan nukleotidlar ajratib olindi.

Ushbu turlarni solishtirib o‘rganish maqsadida, Xalqaro biotexnologiya ma’lumotlari milliy markazidan (https://blast.ncbi.nlm.nih.gov/) *P. affinis* (Kirish raqami: JF927346), *P. hirsuta* (Kirish raqami: MZ627508) turlari olindi (1-jadval).

1-jadval

***Podalonia* avlodiga mansub turlarini mtDNK sini COI sohasining nukleotidlar ketma-ketligini taqqoslash, (%)**

№	Turlar nomi	*P.hirsuta* Uz	*P.affinis* Uz	*P.ebenina* Uz	*P.hirsuta* MZ627508	*P.affinis* JF927346
1	*P.hirsuta* Uz	-	14,08	13,08	0	14,08
2	*P.affinis* Uz	88	-	11,9	14	0
3	*P.ebenina*Uz	82	75	-	13,09	12
4	*P.hirsuta* MZ627508	0	88	82	-	14,08
5	*P.affinis* JF927346	88	0	75	88	-

Adabiyotlardan ma’lumki, fitonematodalarning tur tarkibi va soni o‘simlik turi va uning xususiyatiga, fitonematodalarning tur ixtisosligiga hamda atrof muhitda bo'layotgan o‘zgarishlarga bog‘liq. Shuningdek, fitonematodalarning tur xilma-xilligi va miqdori ildizga nisbatan ildiz atrofi tuproqlarida ko‘pchilikni tashkil etishi ma’lum (Xurramov, 2018;

Shesteperov, 2011). Bizning tadqiqotlarimizda ham lavanda ildiz atrofi tuproq qatlamlarida ildizga nisbatan fitonematodalarning ko‘p miqdorda to‘planishi kuzatildi. O‘simlik ildizi va ildiz atrofi tuproq qatlamlarida uchragan fitonematodalar faunasi har bir tuproq qatlamida o'ziga xosligi bilan farq qilishi qayd etildi.

Xulosalar. Tadqiqotlar natijasida Surxondaryo viloyati Sariosiyo tumani “Xisor o‘rmon xo‘jaligi”ga qarashli plantasiyasida yetishtiriladigan lavanda o‘simligi ildizi va ildiz atrofi tuproqlarida 35 fitonematodalar aniqlandi. Lavanda o‘simligi ildizi va ildiz atrofi tuproqlarida aniqlangan fitonematodalar ekologik guruhlari bo‘yicha pararizobiontlar – 17 tur, eusaprobiontlar – 4 tur, devisaprobiontlar – 8 tur, maxsus kasallik keltirib chiqarmaydigan fitogelmintlar – 4 tur, maxsus kasallik keltirib chiqaradigan fitogelmintlar – 2 turni tashki etdi. O‘simlik ildizi va ildiz atrofi tuproq qatlamlarida fitonematodalarning bir xil tarqalmaganligi aniqlandi, eng ko‘p turlar va individlar soni tuproqning 10-20 sm qatlamida kuzatildi. Aniqlangan fitonematodalardan *Cephalobus regsedpis, Acrobeloides buetschlii, Acrobeles ciliates* barcha tuproq qatlamlari uchun umumiy turlar hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Adilova N.B. Fauna nematod nekotorix dikorastushix lekarstvennix rasteniy Samarkandskogo rayona Samarkandskoy oblasti // Uzb. biol. jurn. - Tashkent, 1970. № 3. – S. 52-54. [Rus tilida].
2. Eshova X.S. Nematodi aridnix zon Uzbekistana i puti ix adaptasii k usloviyam sredi obitaniya.: Avtoref. diss. … dok. biol. nauk. – Tashkent, 2017. – 66 s. [Rus tilida].
3. Juan E. Palomares-Rius, Escobar C., Cabrera J., Vovlas A. and Castillo R. Anatomical alterations in plant tissues induced by plant-parasitic nematodes // Frontiers in plant science, 2017. V. 8. – P. 1-16.
4. Kiryanova Ye.S., Krall E.L. Paraziticheskie nematodi rasteniy i meri borbi s nimi. - Leningrad: Nauka, 1969. T. 1. – 441 s. [Rus tilida].
5. Paramonov A.A. Osnovi fitogelmintologii. - M., 1964. T.2. - 446 s. [Rus tilida].
6. Shesteperov A.A. Vertikalnoe raspredelenie nematod v dernovo-podzolistoy srednesuglinistoy pochve na posevax krasnogo klevera // Byull. VIGIS. - M., 2011. Vip. 26. - S.99-105. [Rus tilida].
7. Xurramov A.Sh. Vliyanie abioticheskix faktorov na dinamiku chislennosti fitonematod pshenisi // Rossiyskiy parazitologicheskiy jurnal, 2018. Tom. 12, vip. 4. – S. 99-103. [Rus tilida].

UO‘T 576.895.1:599.74

DIOCTOPHYME RENALE NEMATODASI QORAQALPOG‘ISTON HUDUDI ITLARI ENDOGELMINTLARI

Berdibayev A.S.[1], Shakarboyev E.B.[2]
[1]Nukus davlat pedagogika instituti, [2]O‘zR FA Zoologiya instituti,
e-mail: abat.berdibaev@bk.ru

***Annotation**. As a result of many years of helminthological studies of 31 individuals of herding, stray and domestic dogs, their infection with the nematode Dioctophyma renale from different regions of Karakalpakstan was determined. The maximum infection was found in herding dogs - 50%, stray dogs in second place - 38%, and domestic dogs in last place - 30%.*

Dioctophyme renale Goeze, 1782 dunyoda tarqalgan yirik nematodalardan biri bo‘lib, keng doiradagi sut emizuvchilar - yirtqichlar, o‘txo‘rlar va hatto odamlarning buyrak va qorin bo‘shlig‘ida parazitlik qiladi. Undan zararlanishning oqibatida buyrak o‘zgarishlarga uchrab,

funksiyasi buziladi va xo‘jayinning nobud bo‘lishiga olib kelishi ham mumkin. Bu nematoda bilan itlarning zararlanishi Qoraqalpog‘iston sharoitida deyarli o‘rganilmagan, shuning uchun ularning tabiiy o‘choqlarini o‘rganish ilmiy va amaliy ahamiyatga ega (Yudin, 1981).

Material va metodlar. Tadqiqot ishlari 2017-2023-yillar davomida Qoraqalpog‘istonning turli tumanlarida statsionar va marshrutli usullar bilan amalga oshirildi. Jumladan, akademik K.I.Skryabinning (1928) to‘liq va to‘liq bo‘lmagan gelmintologik yorib ko‘rish usuli bilan 31 nusxa itlar (daydi, cho‘pon va uy itlari) tekshirildi va aniqlangan *Dioctophyma renale* gelmintlari 96% spirt va Barbagallo suyuqligida fiksatsiya qilindi.

Gelmintlarni aniqlash ishlari Zoologiya instituti Umumiy parazitologiya laboratoriyasida va ayrim laboratoriya tadqiqot ishlari Qoraqalpog‘iston Respublikasi va tumanlari Veterinariya laboratoriyalarida amalga oshirildi. Gelmintlarni o‘rganish uchun sut kislotasi va glitserinning 1:1 nisbatdagi aralashmasidan foydalanildi. Gelmintlarni aniqlashda tayyorlangan preparatlar MBI-6, MBS-10, Biomed-6, LOMO va Olympus mikroskoplarining 20 va 40 kattalashtirish o‘lchamlaridan foydalanildi. Gelmintlarni o‘lchash darajalarga bo‘lingan okulyar lineyka yordamida bajarildi. (Karmanova, 1968).

Natijalar va ularning muhokamasi. Olib borilgan ko‘p yillik tadqiqotlar natijalariga ko‘ra Qoraqalpog‘istonning turli hududlaridan 31 nusxa daydi, cho‘pon va uy itlarida gelmintologik tekshirishlar o‘tkazildi va *Dioctophyma renale* nematodasi bilan maksimal zararlanishi cho‘pon itlarga (50,0%), o‘rta zararlanish daydi itlariga (38,4%) va kam zararlanish esa uy itlariga (30,0%) to‘g‘ri keldi.

Ushbu nematodaning sistematik holati quyidagicha:

Nemathelminthes Schneider, 1873 tipi

Nematoda Rudolphi, 1808 sinfi

Dioctophymida Skrjabin, 1927 turkumi

Dioctophymidae Railliet, 1915 oilasi

Dioctophyma Collet-Meygret, 1802 avlodi

Dioctophyma renale Goeze, 1782

Nematoda itlardan tashqari bo‘ri, tulki, chiyabo‘ri, bo‘rsiq va qamish mushugi organizmida ham qayd etilgan. Parazit Qoraqalpog‘iston Respublikasi Mo‘ynoq, Bo‘zatov, Qo‘ng‘irot, Shumanay va Chimboy tumanlarida uchrashligi aniqlandi (1-rasm).


Ye.M.Karmanovaning (Karmanova, 1968) ma’lumotlariga ko‘ra oligoxetlar oraliq xo‘jayin, baliqlar rezervuar xo‘jayin vazifasini bajaradi.

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida 31 ta itlardan 14 tasi (45,7 %) zararlangani aniqlandi. Invaziya intensivligi 1-11 nusxani tashkil etdi.


Yil mavsumiga bog‘liq ravishda, *Dioctophyma renale* nematodasi bilan itlarning zararlanishi o‘zgarib tushishi aniqlandi (2-rasm).

Itlar bu nematoda bilan yilning hamma mavsumlarida zararlanib, maksimal zararlanish kuz oylarida qayd etildi (50,0%), minimal zararlanish esa qish oylarida (28,6%) ekanligi ma’lum bo‘ldi. Bahor oylarida zararlanishi 14,3% bo‘lsa, yoz oylaridagi zararlanish 7,1% gacha pasayishini kuzatdik.

Dioctophyme renale nematodasi itlar va boshqa etxo‘r hayvonlardan tashqari odamlarda ham dioktofimoz kasalligini chaqirishi mumkin. Bu kasallik asosiy xo‘jayinning buyraklarini, oshqozon-ichak traktini va boshqa organlarining shikastlanishiga olib keladi. *D.renale* nematodasi zooantroponoz gelmintozlardan hisoblanib uzoq yillardan beri sog‘liqni saqlash va veterinariya profilidagi biologlar va parazitologlarning e’tiborini tortib keladi. Buni ko‘plab nashrlarda, xususan, Orol dengizi suv havzalari va MDH mintaqalari davlatlari hududlari bo‘ycha umumlashtirilgan gelmintologik ishlarda kurish mumkin.



1-rasm. *Dioctophyma renale* nematodasi tarqalgan hududlar



2-rasm. Qoraqalpog‘iston sharoitida itlarning *Dioctophyma renale* nematodasi bilan zararlanishining mavsumiy dinamikasi

Xulosalar. Yuqoridagi aytilganlardan kelib chiqqan holda, dioktofimozning oldini olish uchun itlarning ozuqa zanjirlarining ayrim parametrlari bo‘lgan amfibiyalar, baliqlar va boshqa umurtqasizlar bilan oziqlanishining oldini olish, inson oziq-ovqatlari yoki hayvonlarning ozuqasi uchun mo‘ljallangan baliqlar veterinariya-sanitariya ko‘rigidan o‘tkazilishi va har tomonlama issiqlik bilan ishlov berilishi zarur. Bundan tashqari barcha aholi yashash punktlaridagi itlarni vaqtida veterinariya-sanitariya ko‘rigidan o‘tkazib turish va populyatsiyasini nazorat qilishni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Berdibaev A.S., Shakarboev E.B., Kaniyazov A.J. Helmintofauna of southern aralsea domestic cats (*Felis domestica*) // Uttar pradesh journal of zoology, 2022. 43(20). - P.70-75.

2. Karmanova Ye.M. Dioktofimidoz jivotnix i cheloveka i vizivaemie imi zabolevaniya. «Osnovi nematodologii». – Moskva: Nauka, 1968. - 262 s. [Rus tilida].

3. Skryabin K.I. Metodi polnix gelmintologicheskix vskritiy pozvonochnix, vklyuchaya i cheloveka. - Leningrad: 1-go MGU, 1928. - 45 s. [Rus tilida].

4. Yudin V.G. Nematoda Dioctophyme renale u dikix plotoyadnix dalnego vostoka // Parazitologiya, 1981. XV. 4. - S. 342-346. [Rus tilida].

UO‘T 595.751:636.598.5

QASHQADARYO VILOYATI XONADONLARI KURKALARIDA TARQALGAN *MENOPON GALLINAE* PATXO‘RINING BIOEKOLOGIK XUSUSIYATLARI

Bobonazarov G‘.Y., Omonova N.R., Isoqova Z.I.
Qarshi davlat universiteti, e-mail: g.bobonazarov@qarshidu.uz

Annotation. *The article presents the bioecological features of Menopon gallinae, common among turkeys of private households in the Kashkadarya region.*

Parrandachilik qishloq xo‘jaligining, xususan chorvachilikning eng muhim va iqtisodiy jihatdan serdaromad sohasi hisoblanadi. Parrandachilikda kurkalarni intensiv ko‘paytirish qisqa muddatda ko‘p va sifatli go‘sht, tuxum yetishtirish imkoniyatlarini oshiradi.

Keyingi paytlarda ektoparazit bo‘g‘imoyoqlilar keltirib chiqaradigan mallofagoz kasalligi kurkalar orasida ko‘p tarqalmoqda. Kurkalar par va patxo‘ri *Menopon gallinae* kurkalar hamda ular jo‘jalarida, tovuq, o‘rdak, g‘oz, bedana va boshqa parranda turlarida ham parazitlik qiladi. Kurkalar mallofagoz kasalligida ularda doimiy bezovtalik, allergik reaksiyalar, qichinish kuzatiladi. Parrandalar oriqlab, patlari tusha boshlaydi. Natijada ular tirik vazn o‘sishi va tuxum qilishi kamayib ketadi, ayrim jo‘jalari nobud bo‘ladi (Safronov, 2017; Yaroshuk, 2019).

Tadqiqotning maqsadi – Qashqadaryo viloyati sharoitida xonadonlarda boqiladigan kurkalarda *Menopon gallinae* patxo‘rlari tarqalishi va ular bilan kurkalarni zararlanishini o‘rganish.

Material va metodlar. Tadqiqotlar 2022-2023 yillarda Qashqadaryo viloyati shaxsiy xonadonlarida asosan bahor va kuz mavsumlarida olib borildi. Biz mallofagozga tashxis qo‘yish uchun har bir xonadondan 2 tadan 6 tagacha kurkalarni ajratib oldik va ularni akarologik tekshiruvdan o‘tkazdik. Ektoparazitlarni yig‘ish umum qabul qilingan metodlar orqali amalga oshirildi. Ektoparazitlarni vaqtincha xushsizlantirish uchun ajratib olingan kurkalarni sintetik peretroidlar gruppasidan (neostomazan) bo‘lgan talk preparati bilan oldindan ishlov berdik. Kurkalarni oq qog‘oz ustiga patini taroqlab tushgan ektoparazitlar yig‘ib olindi va keyin 70 % li etil spirtli probirkalarga solindi. *Menopon gallinae* sonini aniqlash uchun kurkalar saqlanadigan inshoatlar poli, devorlari, shiftlari, ozuqa beriladigan idishlari, navozlari va boshqa joylaridan namunalar olindi. Namuna olish qiyin bo‘lgan joylardan (devor va pol yoriqlari va h.k.) esa uchi glitserinli paxta bilan o‘ralgan tayoqchalardan foydalandik. *Menopon gallinae* turini va miqdorini (ekz/m^2) aniqlashni aniqlagichlardan foydalangan holda laboratoriya sharoitida amalga oshirdik (Bregetova, 1956; Zaxvatkin, 2012).

Natijalar va ularning muhokamasi. *Menopon gallinae* - mayda, qanotsiz hasharotlar bo‘lib, rangi oq-sariq, tanasi uzunligi 2.5 mmgacha boradi. Imogasi tanasi segmentlarga ajralgan va segmentlararo choklar yaqqol ko‘rinadi. Bosh qismi ko‘krak qismidan sezilarli darajada kengroq uch juft bo‘g‘imlarga ajralgan oyoqlari va juft antennalari mavjud. Og‘iz apparati kemiruvchi tipda. Patxo‘rlar to‘liqsiz metamorfoz bilan rivojlanadi, tuxumdan chiqqan lichinkalari 4-20 sutka yoki bir-uch haftada imogoga aylanadi.

Imogolar teri sekretsiyalari, par va patlar bilan hamda tirnash va qichinishlar bilan oqibatida o‘sayotgan par va patlar qobig‘i va tuzilishi buzilishi natijasida oqib chiqqan qon va limfa epidermis bilan ham oziqlanadi.

Kurkalarni tekshiruv jarayonida ko‘pincha patlari asosida parazitlarning oqish tuxumlari va rivojlanishining katta yoshdagi stadiyalaridagi individlari kurkalar terisi va

patlarida, ko‘proq qanotlari ostida va kloakasi atrofida va bosh qismida uchraydi. Parazitlik qilish jarayonida zararlangan parrandalarda o‘z tanasini cho‘qish, qichishish va tirnash holati kuzatiladi.

Menopon gallinae patxo‘ri tarqalishi va ular bilan kurkalarni zararlanishi bo‘yicha tadqiqotlar 2022 yilning 1 sentabridan 31 dekabrigacha va 2023 yilning 1-fevralidan 1-iyunigacha bo‘lgan muddatlarda Qarshi tumanining Potron, Qovchin, Ko‘chkak, Parmiton, Mag‘zon qishloqlarida va Qarshi shaxrining Uzumzor mahallasida 50 ta kurkalar boqiladigan xonadonlarda olib borildi.

Tadqiqotlar asosan yilning bahor va kuz oylarida mallofagoz invaziyasi eng ko‘p tarqalish ehtimoli yuqori bo‘lgan mavsumlarda o‘tkazildi. Tekshiruv o‘tkazilgan 151 ta kurkadan 107 tasi (70,86%) *Menopon gallinae* patxo‘ri bilan zararlanganligi aniqlandi (Jadval).

Jadval

Qashqadaryo viloyati sharoitida kurkalarni *Menopon gallinae* patxo‘ri bilan zararlanishi

Viloyat,tuman	Tekshiruvdan o‘tkazilgan kurkalar soni	*Menopon gallinae* patxo‘ri topilgan kurkalar soni	Zararlanish(%)
Qashqadaryo viloyati Qarshi tumani va Qarshi sh.	2022 yil		
	Kuz		
	93	67	66,67
Qashqadaryo viloyati Qarshi tumani va Qarshi sh.	2023 yil		
	Baxor		
	58	40	69,0
Jami	151	107	70,86

Tadqiqotlar davomida 107 ta kurkadan 371 dona Menopon gallinae patxo‘ri yig‘ib olindi. Tekshiruv har xil yoshdagi va jinsdagi kurkalarda o‘tkazildi. Bunda kurkalarning ustki (orqa) tomoni, qorin qismi, yelka, bosh va kloaka qismlari atrofi ko‘zdan kechirildi. Asosiy e’tibor mallofagoz belgilari yaqqol ko‘zga tashlangan kurkalarga qaratildi (1-rasm).

Akarologik kuzatishlar parrandalar saqlanadigan binoda bo‘lgan vaqtlarida (tun va kun) davomida olib borildi. Kanalarni kurkalar patini oq qog‘oz ustiga taroqlash usuli orqali yig‘ib oldik. Kanalarni yig‘ib olganimizdan keyin ularni turini aniqlash uchun mikroskopik tekshiruvdan o‘tkazdik. Mikroskopik kuzatish natijasi bizning namunalarimizdagi kanalar *Menopon gallinae* turiga tegishliligi ma’lum bo‘ldi (2-rasm).



1-rasm. Kurkalarni mallofagoz bilan kasallanishi





2-rasm. *Menopon gallinae* tashqi tuzilishi

Xulosalar. Yuqorida olib borilgan tadqiqotlarimizdan ma’lum bo‘ldiki, Qashqadaryo viloyatida ham parrandalar ayniqsa kurkalar Menopon gallinae patxo‘ri bilan zararlanadi, lekin bizning sharoitimizda ular bioekologik xususiyatlari o‘rganilmagan. Shuning uchun Menopon gallinae patxo‘ri bioekologik xususiyatlaridan kelib chiqib, kurkalarni Menopon gallinae

patxo‘rlari bilan zararlanganligini aniqlash, vaqtida tashxis qo‘yish ishlarini tashkil etish va unga qarshi profilaktika chora-tadbirlarini qo‘llab, vaqtida ishlov berib borilsa bu patxo‘rlarni kurkalarga tarqalishiga va kurkalar mallofagoz kasalligini rivojlanishiga barham beradi. Natijada kurkalar sog‘lomlashadi va mahsuldorligi yuqori bo‘lishi ta’minlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Bregetova N. G. Gamazovie kleshi (Gamasoidea) // Opredeliteli po faune SSSR. - M.-L.: Izd-vo AN SSSR, 1956. Vip.61. - S. 211-214. [Rus tilida].
2. Safronov F.M. Vidovoy sostav ektoparazitov kur v induvidualnix xozyaystvax Severo-kavkazskogo regiona // Aktualnie voprosi veterinarnoy biologii, 2017. №4 (36). - S. 22-24. [Rus tilida].
3. Yaroshuk A.I. Razrabotka mer borbi s ektoparazitami selskoxozyaystvennix ptis v usloviyax sovremennogo promishlennogo ptisevodstva: Avtoref. diss. … kan. boil. nauk - Sankt-Peterburg, 2019. - 19 s. [Rus tilida].
4. Zaxvatkin Yu.A. Akarologiya - nauka o kleshax: Istoriya razvitiya. Sovremennoe sostoyanie. Sistematika : Uchebnoe posobie. - M.: Knijniy dom «Librokom», 2012. - 165 s. [Rus tilida].

UO‘T 595.132:591

ANDIJON VILOYATI SABZAVOT EKINLARINING *MELOIDOGYNE* AVLODI NEMATODALARI BILAN ZARARLANISH DARAJASI

Egamberganova A.Sh., Akbarova M.X., Saidova Sh.O., Yorqulov J.M.
O‘zR FA Zoologiya instituti, e-mail: egamberganova1992@mail.ru

Annotation. *In our studies, the degree of damage to vegetable crops by nematodes of the meloidogyne generation was studied. it was found that tomatoes and cucumbers were damaged by 4 types of root-knot nematodes, eggplants - 3 types, bell peppers - 2 types. It was noted that tomatoes and cucumbers had a high damage intensity index of 1-5 points. M. arenaria, M. incognita were recorded as the dominant species of root-knot nematodes in the roots of the examined vegetable crops.*

Meloidogyne Goeldi, 1887 avlodi ildiz bo‘rtma nematodalari ochiq va himoyalangan joylarda yetishtiriladigan madaniy va yovvoyi o‘simliklarning ildizlarida parazit qiladigan fitonematodalarning eng patogen guruhlaridan biridir. Ular butun dunyoda keng tarqalgan. Hozirda ushbu nematodalarning 100 ga yaqin turi tavsiflangan (Kazachenko, 2013).

Fitogelmintlar ta’sirida qishloq xo‘jalik va texnik ekinlar, mevali daraxtlarning hosildorligi o‘rtacha 6-25% gacha kamayadi. Ayrim hollarda fitogelmintlar ta’sirida hosildorlikning 70-90% gacha kamayishi aniqlangan (Xurramov, 2008).

Respublikamizning tuproq-iqlim sharoiti *Meloidogyne* avlodi nematodalarining rivojlanishi va tarqalishi uchun qulayligi sababli, hozirgi kunda ular mamlakatimizning barcha hududlaridagi ochiq va yopiq tuproqlarda keng tarqalgan. Ayniqsa, harorati 26-28^{0}C va namligi 70% bo'lgan yopiq tuproqlarda nematodalarning rivojlanishi uchun optimal muhit sanaladi va bunday sharoitlarda ularning zarari yuqoriligi kuzatilmoqda (Dolmatov, 2005).

Tadqiqotning maqsadi Andijon viloyatida yetishtirilayotgan sabzavot ekinlarining Meloidogyne avlodi nematodalari bilan zararlanish darajasini o‘rganishdan iborat.

Material va metodlar. Tadqiqot 2022-2023 yillarda Andijon viloyatining yopiq tuproqlarida ekilgan pomidor (*Solanum lycopersicum*), bodring (*Cucumis sativus*), baqlajon (*Solanum melongena*), bulg‘or qalampiri (*Capsicum annuum*) kabi sabzavot ekinlarida olib

borildi. Namunalar sabzavot ekinlarining ildizi hamda ildiz atrofi tuproqlaridan yig‘ildi. Nematodalarni tuproqdan va o‘simlikdan ajratib olishda Bermanning modifikasiyalangan metodi va tuproqni yuvib tahlil qilish usullaridan foydalanildi.

Nematodalarni tahlil qilish uchun 235 tuproq va 195 o‘simlik (ildiz) namunalari yig‘ildi. Fitogelmintlarni taksonomik jihatdan tavsiflash va turlarini aniqlash uchun E.S. Kiryanova va E.L. Krall (1969) usuli bo‘yicha anal-vulvar plastinkalar tayyorlandi (Kiryanova, 1971; Matveeva, 2018).

Dala sharoitida kuzatuvlar bo‘rtma nematodalarni aniqlash tavsiyasi bo‘yicha marshrut usulida olib borildi (Matveeva, 2018). Meloidogyne avlodi nematodalari tarqalgan hududlarda o‘simliklarning zararlanish ekstensivligi aniqlandi. O‘simliklarning nematoda bilan zararlanish darajasini baholash uchun o‘rganilgan maydonlarda meloydoginoz invaziyasining tarqalishi E.S. Kiryanova, E.L. Krall (Kiryanova, 1971) bo‘yicha aniqlandi.

Zararlangan o‘simliklar soni maydon birligi bo‘yicha quyidagi formula orqali foizda belgilanadi:

$$S = \frac{M}{N} \times 100$$

Bunda:

S – hududda meloydoginozning tarqalishi (% da);

N – maydondagi vizual tekshiruvdan o‘tkazilgan o‘simliklarning umumiy soni;

M – maydondagi nematodalar bilan zararlangan o‘simliklar soni.

O‘rganilgan hududda tekshirilgan o‘simliklarning 50% dan ortig‘i bo‘rtma nematodalar bilan zararlangan bo‘lsa, bu maydon kuchli zararlangan hisoblanadi; zararlangan o‘simlik 50% dan kam bo‘lsa, lekin 15% dan kam bo‘lmasa, o‘rtacha zararlangan; zararlangan o‘simliklar 15% dan kam bo‘lsa kuchsiz zararlangan maydonlar hisoblanadi.

O‘simlik ildizining bo‘rtma nematoda bilan zararlanish intensivligi 5 balli tizim bilan aniqlandi (Kiryanova, 1971).

1 ball – o‘simlik ildizida bitta yoki ikkita bo‘rtmalar kuzatilsa, ildiz 10% gacha zararlangan bo‘lsa;

2 ball – ildiz nematoda bilan 10 dan 35% gacha zararlangan bo‘lsa;

3 ball – ildiz nematoda bilan 35 dan 70% gacha zararlangan va ildizning ayrim qismi deformasiyaga uchragan bo‘lsa;

4 ball – ildizning 70% dan ortiq qismi bo‘rtmalar bilan qoplangan, aksariyat qismi deformasiyaga uchragan bo‘lsa;

5 ball – ildizining deyarli barcha qismi nematoda bilan zararlangan bo‘lsa (Matveeva, 2018).

Natijalar va ularning muhokamasi. Tadqiqot olib borilgan sabzavot ekinlarida pomidor va bodringda 4 tur (*Meloidogyne javanica, M. arenaria, M. incognita, M. hapla*), baqlajonda 3 tur (*M. javanica, M. arenaria, M. incognita*), bulg‘or qalampirida esa 2 tur (*M. arenaria, M. incognita*) ildiz bo‘rtma nematoda turlari aniqlandi (Rasm).

Andijon viloyatidagi tadqiqot olib borilgan issiqxonalarda etishtirilayotgan sabzavot ekinlarining bo‘rtma nematodalar bilan zararlanish ekstensivligi pomidorda 10-50%, bodringda 10-55%, baqlajon hamda bulg‘or qalampirida esa 5-30% gacha ekanligi tekshirishlarimiz natijasida aniqlandi. O‘simliklar ildiz tizimining zararlanish intensivligi pomidor bilan bodringda 1-5 ballni, baqlajon va bulg‘or qalampirida 1-2 ballni tashkil etdi (jadval).



A



B

Rasm. Bo‘rtma nematodalar bilan zararlangan ildizlar

A-zararlangan baqlajon ildizi (Andijon viloyati Izboskan tumani); B-zararlangan bodring ildizi (Andijon viloyati Shahrixon tumani).

Jadval

Andijon viloyati yopiq tuproqlaridagi sabzavot ekinlarining bo‘rtma nematodalar bilan zararlanish darajasi

Ko‘rsatkichlar	Pomidor	Bodring	Baqlajon	Bulg‘or qalampiri
M. arenaria				
Zararlanish ekstensivligi (%)	30-50	35-55	25-30	20-30
Zararlanish intensivligi (ball)	3-5	3-5	2	1-2
M. incognita				
Zararlanish ekstensivligi (%)	30-40	35-50	15-27	5-20
Zararlanish intensivligi (ball)	3-4	3-5	2	1-2
M. hapla				
Zararlanish ekstensivligi (%)	10-15	10-17	-	-
Zararlanish intensivligi (ball)	1-2	1-2	-	-
M. javanica				
Zararlanish ekstensivligi (%)	10-20	15-20	5-10	-
Zararlanish intensivligi (ball)	1-2	2	1	-

Xulosalar. Demak, tadqiqot olib borgan hududlarda pomidor va bodring *Meloidogyne Goeldi*, 1887 avlodi nematodalarining 4 turi bilan, baqlajon 3 turi, bulg‘or qalampiri esa 2 tur bo‘rtma nematodasi bilan zararlangani kuzatildi. Tekshirilgan sabzavot ekinlari ildizida bo‘rtma nematoda turlarining *M. arenaria, M. incognita* turlari dominant tur sifatida qayd etildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Dolmatov D.A. Zashita kulturi tomata i ogursa ot gallovix nematod v usloviyax zakritogo grunta // Vessi Nasiyanalnay Akadem Navuk Belarusi. – Seriya agrarnix navuk, 2005. № 5. – S. 123-124. [Rus tilida].
2. Kazachenko I.P., Muxina T.I. Kornevie gallovie nematodi -roda Meloidogyne Goeldi (Tylenchida: Meloidogynidae) mirovoy fauni. - Vladivostok: Dalnauka, 2013. – S. 5-10. [Rus tilida].
3. Kiryanova Ye.S., Krall E.L. Paraziticheskie nematodi i meri borbi s nimi. – L.: Nauka, 1971. Tom 2. – 522 s. [Rus tilida].
4. Matveeva Ye.M., Sushuk A.A., Kalinkina D.S., Zayml-Buxinger V.V. Metodicheskie osnovi izucheniya fitoparaziticheskix nematod. - Petrozavodsk, 2018. - S.19-27. [Rus tilida].
5. Xurramov Sh.X., Xurramov A.Sh. Fitogelmintologiya o‘quv qo‘llanma. – Termiz, 2008. - B. 3-6.

UO‘T 576.895.132.577.215

ECHINOSTOMA REVOLUTUM (LOOSS, 1899) *LARVAE* TREMATODASINING MORFOLOGIK VA MOLEKULYAR IDENTIFIKASIYASI

Ikromov E.E.
O‘zR FA Zoologiya instituti, e-mail: hansem@list.ru

Annotation. *Samples of the Syrdarya frog (Pelophylax sp. nov) were collected from various areas of the Fergana Valley between 2021 and 2023 for morphological and molecular identification of the larva of the trematode Echinostoma revolutum. By comparing the nucleotide sequence of E. revolutum with a reference sample* (MN874065), *a single nucleotide difference of 0.41% was observed. The results of morphoanatomical and molecular genetic analyses confirm that the metacercariae found in the Syrdarya frog belong to the species E. revolutum.*

Echinostomatidae oilasiga mansub, *Echinostoma* avlodi vakillari qushlarda, sut emizuvchi hayvonlarda, qolaversa, insonda ham parazitlik qilishi, epizootologik nuqtai nazardan, ushbu avlod vakillarini o‘rganish dolzarb vazifalardan biridir (Sah et al., 2018). Ushbu avlod vakillari asosan Yevropa va Osiyo mamlakatlari hududlarida keng tarqalgan. S. Yamaguti (1971) tomonidan *Echinostoma* avlodiga mansub, 120 tur ro‘yxatga olingan bo‘lsada, keyinchalik ayrim turlarga aniqliklar kiritildi, qolaversa, *Echinostoma revolutum* ning biologik sikli o‘rganildi (Kanev, 1995). *E. revolutum* trematodasi uchun Yevrosiyo qit’asida hech qanday genetik jihatdan juftlashish cheklovlari yo‘qligi sababli, filogenetik jihatdan Yevropa va Osiyoda tarqalgan individlari orasida qarindoshlik darajasi o‘xshashligi aniqlangan. Bu jarayonda suv qushlari tranzit vazifasini bajaradi (Enabulele, 2023).

Hozirgi kunga qadar, ushbu avlod vakillarining morfologik va molekulyar-genetik tahlillari o‘rganilgan bo‘lib, ulardan *E. revolutum* turini birinchi marotaba Morgan va Blair (1995) tomonidan molekulyar-genetik tahlili amalga oshirilgan. Ular bu tadqiqotda Germaniyada topilgan *E. revolutum* turini ribosomal DNK sini ITS sohasiga mansub (ITS1-5.8S-ITS2) nukleotidlar ketma-ketligi tahlil qilinib, *E. trivolvis*, *E. paraensei* va *E. kaproni* turlari bilan nukleotidlari solishtirilib, bu turlarni nukleotidlari o‘rtasida sezilarli darajada farqlanishlar aniqlangan.

Ushbu tadqiqot ishimizni maqsadi, Respublikamizning Farg‘ona vodiysida aniqlangan *Echinostoma* Rudolphi, 1809 avlodiga mansub *E. revolutum* metaserkariyasining morfologik va molekulyar-genetik tahlil qilishdan iborat.

Material va metodlar. Ushbu tadqiqot ishi uchun gelmintologik namunalar 2021-2023 yil Farg‘ona vodiysining turli hududlaridan Sirdaryo baqasi (*Pelophylax* sp.nov) namunalari to‘liq va to‘liq bo‘lmagan gel’mintologik yorish usuli orqali tekshirildi (Skryabin,1928).

Natijalar va ularning muhokamasi.

Sistematik o‘rni:

Echinostomatidae Looss, 1899 oilasi

Echinostoma Rudolphi, 1809 avlodi

Echinostoma revolutum (Looss, 1899), *larvae*

Birinchi oraliq xo‘jayin: mollyuskalar (*Planorbis* va *Lymnaea* avlodlari).

Ikkinchi oraliq xo‘jayin: amfibiya, sudralib yuruvchilar.

Asosiy xo‘jayin: qushlar.

Metaserkariyaning lokal joylashuvi: ko‘z bo‘shlig‘i.

Sirdaryo baqasining 81 tasida aniqlangan. IE-6,76% ni, II-8-32 nusxani, MI-0,4 nusxani, DI-1,76% ni tashkil qiladi. Yig‘ilgan gel’mintlar soni-486 ta.

Aniqlangan joyi: Namangan viloyatining Namangan, Mingbuloq va To‘raqo‘rg‘on tumanlari.

Morfologiyasi. Sistaning diametri 0,167-0,194 mm. Og‘iz atrofi diskida 37-39 tagacha maxsus tikon (igna)lar bilan o‘ralgan. Tikonlar juda zaif o’rnashib, soni o‘zgarib turishi mumkin. Diskning ikki yon burchaklarida, har birida 5 tadan (2 qator) tikonlar mavjud. Og‘iz so‘rg‘ichi 0,036-0,047 mm, halqum 0,014-0,021 mm, ichaklar tananing so’ngi qismigacha cho’zilgan. Qorin so‘rg‘ichi 0,038 x 0,054 mm, tananing keyingi qismida tuxumdon va juft urug‘donlar ko’rinadi.

Molekulyar tadqiqot ishlarini o‘tkazish uchun yig‘ilgan *E. revolutum* trematodasi namunalarini 70% etanolda fiksasiya qilindi. Dastlab, genom DNK sini ajratib olish uchun namunalar (bitta nusxadan) 20 mkl miqdorda NaOH (0,25M) eritmasi solingan probirkalarga 12 soat davomida xona haroratida (18-20°C) qoldirildi. So‘ngra namuna to‘qimasini parchalanishi uchun termostatni 95°C li haroratida 3 minut davomida ushlab turildi. Namunalar ustiga 10 mkl miqdorda tris-HCl eritmasi solinib, Vorteks apparati yordamida aralashtirildi va 2 minut davomida sentrifuga yordamida hosil bo‘lgan supernatant ajratib olindi. Sentrifuga jarayonidan so‘ng, supernatant toza probirkaga o‘tkazildi, 4 mkl miqdorida HCI (1:15) dan solindi. So‘ng vorteks va sentrifuga yordamida, takroran supernatant ajratib, 5 mkl miqdorda triton (2% li) solindi. Keyin esa termostatda 95°C gacha bo‘lgan haroratda 3 minut davomida qoldirildi. Ajratib olingan genom DNK namunasi - 20°C haroratda muzlatgichda saqlandi. Trematodaning genom DNKsidan ribosoma DNKsi ITS sohasiga tegishli nukleotidlar ketma-ketligi fragmentlarini ajratishda AV28 to‘g‘ri (5′-ATATGCTTAAGTTCAGCGGGT-3′) va TW81 teskari (5′-GTTTCCGTAGGTGAACCTGC-3′) praymerlaridan foydalanildi.

Polimeraza zanjir reaksiyasi (PZR) quyidagi sxema bo’yicha amalga oshirildi: 1-bosqich - 5 daqiqa davomida DNKning 94°C sharoitda denaturasiyalash; 2-bosqich - DNKning 95°C sharoitda 45 soniya davomida denaturasiyalash; 3-bosqich – DNK ning 55°C sharoitda 45 soniya davomida praymerlarni yumshatish; 4-bosqich 72°C sharoitda 1 daqiqa 40 soniya davomida elongasiyalash, 5-bosqich - 72°C sharoitda 5 daqiqa davomida zanjirning elongasiyalanishidan iborat bo‘lib, 2,3 va 4- bosqichlar sikli 35 martagacha takrorlandi.

Echinostoma avlodiga mansub *E. revolutum* turini rDNK strukturasini taqqoslab o‘rganish uchun turni 3 tadan individ namunalaridan genom DNK ajaratib olindi (1-rasm).

Bioinformatik tahlillar natijasida *E. revolutum* trematodasini nukleotidlar ketma-ketligi tahlil qilinganda asosiy o‘zgaruvchan soha rDNK ITS-1-5,8S bo‘lganligi sababli, ishimizda faqat shu sohaga tegishli bo‘lgan uzunligi 243 juft asosga ega bo‘lgan nukleotid ketma-ketligi keltirildi hamda solishtirib o‘rganish uchun xalqaro bioinformatik genlar ba’zasi (Genbank) da mavjud tur *E. revolutum* (Kirish raqami: MN874065) turini tanlab olindi (2-rasm).



1-rasm. *Echinostoma revolutum* (Looss, 1899), *larvae* turining mikrofotografik ko‘rinishi
A - og‘iz so‘rg‘ichi, B - umumiy ko‘rinishi

```
                    10         20         30         40         50         60         70
                    ....|....| ....|....| ....|....| ....|....| ....|....| ....|....| ....|....|
E_revolutum         CCGGAGGCAT CCATGTCTTG GCTGAAAGCC ATGATGGGAT GTGGTGACGG ATTCGTGGTT TAATATGGCT
E_revolutum_MN874065 .......... .......... .......... .......... .......... .A........ ..........

                    80         90         100        110        120        130        140
                    ....|....| ....|....| ....|....| ....|....| ....|....| ....|....| ....|....|
E_revolutum         ATGCCCCGTT TTCAGCATGT TTTGGCGCTT CTAGTCGGCA TGCATATGAC TACGGGTGGA GCTGTGATCG
E_revolutum_MN874065 .......... .......... .......... .......... .......... .......... ..........

                    150        160        170        180        190        200        210
                    ....|....| ....|....| ....|....| ....|....| ....|....| ....|....| ....|....|
E_revolutum         GGGTGGTGCC TCGTTTTCAG TGTGTTTGGC GCTTCTAGTC GGCATACTTA TGAACTCGAG GGTAATTCCA
E_revolutum_MN874065 .......... .......... .......... .......... .......... .......... ..........

                    220        230        240
                    ....|....| ....|....| ....|....| ...
E_revolutum         TACCAGGCAC GTTTCGTTAC TGTCACTCTA TCG
E_revolutum_MN874065 .......... .......... .......... ...
```

2-rasm. Sikvens materiallari asosida *Echinostoma* avlodiga mansub *E. revolutum* turining rDNK sini 5,8S-ITS2 sohasining nukleotidlar ketma-ketligini taqqoslash
Izoh: *E. revolutum* turi hamda halqaro bioinformatki genlar ba‘zasidan olingan kirish raqami (*E. revolutum*: MN874065) turlarini rDNK sini 5,8S-ITS2 sohasining 5’ dan 3’– oxirgi uchga tomon yo’nalishda

Yuqoridagi rasmdan ko‘rinib turibdiki, *E. revolutum* trematoda turining nukleotidlar ketma-ketligi *E. revolutum* (MN874065) turi bilan solishtirganda, 1 ta nukleotidlar o‘rtasidagi farqlanish aniqlanib, bu farqlanish 0,41% ni tashkil qildi. Jumladan, 52 chi juft nukleotidda *E. revolutum* da timin, *E. revolutum* (MN874065) bo’yicha esa adinin asoslarida farqlanishlar aniqlandi.

Xulosalar. Ilk bor O‘zbekiston amfibiyalari (Sirdaryo baqasi-*Pelophylax* sp.nov) da qayd etildi.

Farg‘ona vodiysida *E. revolutum* trematodasi bilan zararlanish ko‘l baqasida 18,29% ni tashkil etdi. *E. revolutum* amfibiyaning ko‘z bo‘shlig‘ida aniqlangan metaserkariysining morfometrik o‘lchamlari olindi.

E. revolutum trematoda turining nukleotidlar ketma-ketligi Genbank ma’lumotlari bazasidagi *E. revolutum* (MN874065) bizning ma’lumotlarimiz bilan solishtirilganda, nukleotidlar o‘rtasida o‘xshashlik 99,6% ekanligi qayd qilindi.

Olib borilgan morfo-anatomik va molekulyar-genetik tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, Sirdaryo baqasidan topilgan metaserkariya *E. revolutum* turiga mosligi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Enabulele E.E., Lawton S.P., Walker A.J., Kirk R.S. Molecular epidemiological analyses reveal extensive connectivity between *Echinostoma revolutum* (sensu stricto) populations across Eurasia and species richness of zoonotic echinostomatids in England. // PLoS One, 2023. 18(2).

2. Kanev I, Fried B, Dimitrov V, Radev V. Redescription of *Echinostoma trivolvis* (Cort, 1914) (Trematoda: Echinostomatidae) with a discussion on its identity. Syst Parasitol 1995. 32: - P.61-70.

3. Morgan J.A.T. and Blair D. Nuclear rDNA ITS sequence variation in the trematode genus *Echinostoma*: An aid to establishing relationships within the 37-collar-spine group. // Parasitology, 1995. 111: - P. 609-615.

4. Sah R., Khadka S., Hamal R., Poudyal S.. Human echinostomiasis: a case report. BMC Research Notes, 2018. 11(17): - P.1-6. doi:10.1186/s13104-018-3133-z.

5. Skryabin K.I. Metodi polnix gelmintologicheskix vskritiy pozvonochnix, vklyuchaya i cheloveka. – L.: 1-go MGU, 1928. - 45 s. [Rus tilida].

6. Yamaguti S. Synopsis of digenetic trematodes of vertebrates. Keigaku Publishing Co., Tokyo, Japan, 1971 - P.1074.

UO‘T 595.132:591.4.05

FARG‘ONA VODIYSINING SHARQIY HUDUDLARI SABZI AGROSENOZLARI FITONEMATODALARI

Kambarov S.S.[1], Eshova X.S.[2]
[1]Andijon Davlat universiteti, [2]O‘zbekiston Milliy universiteti,
e-mail: eshova.kholisa@gmail.com

Annotation. *The article presents information about phytonematodes of carrots (Daucus sativus Eoche) in the eastern regions of the Fergana Valley. 56 species of phytonematodes were identified in the organs of carrot plants and the soil around the roots. In the soil around the roots of the studied carrot crop, phytonematodes were found more often than in the roots, stems and leaves. According to the ecological classification, the identified phytonematodes turned out to be representatives of the following groups: pararhizobionts - 10 species, eusaprobionts - 5 species, devisaprobionts - 14 species, non-pathogenic phytohelminths - 14 species, true parasites - 13 species.*

O‘zbekistonda sabzi nematodalari Zarafshon vohasi hududi, Toshkent, Andijon va Samarqand viloyatlari hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasining aksariyat tumanlarida tarqalgan (Tulaganov, Karimova, 1953). Adabiyot ma’lumotlaridan ma’lumki, Farg‘ona vodiysi sharoitida madaniy ekinlar nematodalari faunasi tarkibi va ularning ekologik xususiyatlari hamda o‘simliklar bilan trofik bog‘liqligi to‘g‘risida ma’lumotlar kam, sabzi nematodalari kompleks miqyosda o‘rganilmagan.

Farg‘ona vodiysining sharqiy hududlarining agrosenozlarida yetishtirilayotgan sabzi o‘simliklari nematodafaunasi tarkibini aniqlash, ularning o‘simlik organlari va ildiz atrofi tuprog‘ida tarqalishi xususiyatlari, o‘simliklar bilan trofik bog‘liqligini ochib berishni maqsad qilib oldik.

Material va metodlar. Tadqiqot materiallari Farg‘ona vodiysining sharqiy hududlari adir mintaqasiga kiruvchi 6 ta – Qo‘rg‘ontepa, Jalaquduq, Xo‘jaobod, Buloqboshi, Asaka va Marhamat tumanlarining sabzavotlar yetishtiruvchi xo‘jaliklaridan yig‘ildi. Namunalar yig‘ishda marshrut (Kiryanova, Krall, 1969) usulidan foydalangan holda har bir xo‘jalikdagi

sabzi o‘simligi barg va poyasi, ildiz va ildiz atrofi tuprog‘ining 20 sm gacha bo‘lgan qatlamidan besh takroriy tarzda 25 tadan namunalar olindi. O‘simlik organlari va tuproq namunalaridan modifikasiyalashtirilgan Berman voronkali uslubda nematodalar ajratib olindi va TAF (trietanolamin: formalin: 2 nisbatda suv) eritmasida fiksasiya qilindi. Nematodalarning turlarini aniqlash maqsadida A.A. Paramonov (1962), Y.S. Kiryanova, E.L. Krall (1969) uslublari yordamida doimiy (glitsirin-jelatin) va vaqtinchalik (suv-glitsirin) mikropreparatlar tayyorlandi. Fitonematoda turlarini identifikasiyalashda anato-morfologik belgilari hisobga olinib, turlar aniqlandi.


Natijalar va ularning muhokamasi. Farg‘ona vodiysining sharqiy hududlari sabzi agrosenozlarida olib borilgan fitogelmintologik tadqiqotlar natijasida sabzi barg va poyasi, ildizi hamda ildiz atrofi tuprog‘ida ikkita kenja sinf, 6 ta turkum, 19 ta oila, 33 ta avlodga mansub 56 tur fitonematodalar aniqlandi. Bizning materiallarimizda Adenophorea kenja sinfi 3 ta turkumni ya’ni Enoplida (1 tur), Mononchida (1 tur) va Dorylaimida (6 tur) turkumlarini o‘z ichiga oladi. Secernentea kenja sinfi ham 3 ta – Rhabditida (19 tur), Aphelenchida (11 tur) va Tylenchida (18 tur) turkumdan iborat ekanligi qayd etildi.

Aniqlangan nematodalar turlar tarkibi bo‘yicha Rhabditida, Aphelenchida va Tylenchida turkumlari vakillari ustunlik qilgan bo‘lsa, Dorylaimida turkumi turlari o‘rtacha sonda, Mononchida va Enoplida turkumlaridan kam tur uchrashi qayd etildi.

Sabzi nematodafaunasidagi turlar soni va individlarining miqdori bilan o‘simlikda notekis tarqalganli kuzatildi. Eng kam turlar va ularning individlari o‘simlikning yer ustki qismida uchradi. Sabzi o‘simligining yer ustki qismidan olingan 181 individning 19 turga mansubligi aniqlandi. Yer ustki qismida uchragan individlarning ko‘p sondagisi *Cephalobus rarsegnis, Acrobeloides buetschli, A. nanus, Tylenchus davaineid, Helicotylenchus multicinctus* turlariga to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, *Cervidelus insubricus, Aphelenchoides subparietinus* turlarining individlari kam sonda kuzatildi. Sabzi o‘simligining ildiz tizimi nematodafaunasini tahlil qilganimizda, 34 ta tur 578 individ uchradi, bu turlarning 60.7% (34 ta) o‘simlikning ushbu qismida uchratildi. Jumladan, *Cephalobus rarsegnis, Aphelenchus avenae, Pratylenchus tulaganovi, Ditylenchus dipsaci* turlarining individlar soni ko‘pligi bilan dominant tur sifati qayd etildi. Lekin, *Tobrilus kirjanovae, Eudorilaimus monohystera, Labronema eudorylaimoides, Panagrolaimus rigidus, Pratylenchus tumidiceps* turlarining individlari kam sonda uchratildi. Sabzi o‘simligining rizosfera tuprog‘i qatlamida esa 45 turga mansub 2218 ta (fauna tarkibidagi jami turlarning 80,3% ini, individlarning 74,5% ini tashkil etadi) individlar aniqlandi. Ildiz atrofi tuproqda *Eudorilaimus pratensis, Cephalobus parvus, Eucephalobus mucronatus, Diploscapter rhizophilus, Rhabditis brevispina, Aphelenchoides blastophthorus, Pratylenchus pratensis* turlarning boshqa turlarga nisbatan ko‘p miqdor individlari aniqlandi. Jumladan, *Tobrilus kirjanovae, Caenorhabditis dolichura, Scytaleum skarbiloviezae, Nothotylenchus innuptus, Rhabditis filiformis* turlarida esa kam sonda individlar uchratildi.

Sabzi o‘simliklarning yer ustki vegetativ organlari, ildizi tizimi va rizosfera qatlamlaridan aniqlangan nematodalarni yashash joylari, oziqlanish usuli hamda o‘simliklar bilan bog‘langanlik darajasiga ko‘ra A.A. Paramonovning (1962) ekologik klassifikatsiya prinsiplari asoslariga ekologik guruhlarga ajratildi.

Pararizobiontlarga nematodafauna tarkibidagi 8 ta (*Tobrilus, Prismatolaimus, Mesodorylaimus, Eudorilaimus, Carcharolaimus, Labronema, Tylenchus, Aporcelaimellus*) avlodga mansub 10 turdan iborat bo‘ldi; eusaprobiontlarga 4 ta avlodga *(Diploscapter, Rhabditis, Mesorhabditis, Caenorhabditis)* mansub 5 tur aniqlandi; devisaprobiontlarning 14 turi uchratilib, ular 7 ta avloddan (*Cephalobus, Eucephalobus, Heterocephalobus, Acrobeles, Chiloplacus, Cervidelus, Panagrolaimus*) iborat ekanligi ma’lum bo‘ldi; ixtisoslashmagan fitogelmintlar 6 ta avlod (*Aphelenchus, Aphelenchoides, Scytaleum, Seinura, Aglenchus, Nothotylenchus*)ga mansub, 14 turini o‘z ichiga oldi; ixtisoslashgan fitogelmintlar guruhi 13 tur, 7 avloddan (*Tylenchorhynchus, Bitylenchus, Merlinus, Helicotylenchus, Pratylenchus, Meloidogyna, Ditylenchus*) iboratligi aniqlandi.



Rasm. Sabzi va uning ildiz atrofi tuproqlarida aniqlangan fitonematodalarning ekologik guruhlar bo‘yicha taqsimlanishi.

Bizning natijalarimizga ko‘ra, har bir hududdagi sabzi fitonematodalari faunasi ma’lum bir guruhi bilan ajralib turishi aniqlandi. Turlarning maksimal soni (54 ta) Jalaquduq tumani hududdiga to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, eng kam turlar (38 ta) Buloqboshi tumani hududida qayd etilgan. O‘rganilgan sabzi o‘simliklarining nematodalar turlar tarkibi va populyasiyasini taqqoslash turli xil hududlarning fitonematodalari faunasi va uning tuzilishida sezilarli farqni ko‘rsatdi. Ko‘rinib turibdiki, bu farq o‘simliklarning o‘ziga xosligi va ekinlarni yetishtirishning agrotexnik tadbirlari va tuproqning holati bilan bog‘liq.

Xulosalar. Farg‘ona vodiysining sharqiy hududlari sabzi agrosenozlarida olib borilgan fitonematodalarga doir tadqiqotlar natijasida sabzi barg, poya, ildiz va ildiz atrofi tuprog‘ida 56 tur fitonematodalar aniqlandi.

Aniqlangan turlarning aksariyati ildiz sistemasi va rizosfera tuproq qatlamlarida tarqalganligi aniqlandi. Sabzi o‘simligining yer ustki vegetativ organlarida va ildiz sistemasi uchratilgan turlar, asosan *Tobrilus*, *Cephalobus*, *Acrobeloides*, *Cervidelus*, *Mesorhabditis*, *Aphelenchus*, *Aphelenchoides*, *Merlinus*, *Helicotylenchus* avlodlariga mansub, bevosita o‘simliklarning tirik to‘qimasi bilan bog‘liq turlar ekanligi qayd etildi.

Sabzi va ildiz atrofi tuproqlarida aniqlangan fitonematodalar ekologik klassifikasiyaga ko‘ra: pararizobiontlar - 10 tur, eusaprobiontlar - 5 tur, devisaprobiontlar - 14 tur, kasallik keltirib chiqarmaydigan parazitlar - 14 tur va haqiqiy parazitlar - 13 turni tashkil etdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Kiryanova Ye.S., Krall E.L. Paraziticheskie nematodi rasteniy i meri borbi s nimi. – L.: Nauka, 1969. T. 1. – 441 s. [Rus tilida].

2. Paramonov A.A. Osnovi fitogelmintologii. – M.: Nauka, 1962. T. 1. – 480 s. [Rus tilida].

3. Tulaganov A.T., Karimova S.M. O nematodax ogorodno-baxchevix kultur Namanskogo rayona. – Tashkent: Fan, 1953. № 2, – S. 45-50. [Rus tilida].

UO‘T 576.895.1:599.75

QORAQALPOG‘ISTONDA ESHAKLARINING *FASCIOLA GIGANTICA* (COBBOLD, 1855) TREMATODASI BILAN ZARARLANISHI

Kaniyazov A.J.[1], Dilmanova A.I.[2], Sarsenbayev I.Ye.[1]
[1]Samarqand davlvt veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali, [2]Qoraqalpog‘iston qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar institute,
e-mail: amaniyaz89@mail.ru


Annotation. *Infection of donkeys with the trematode Fasciola gigantica was studied on the territory of the Republic of Karakalpakstan. In the conditions of Karakalpakstan, it was established that the degree of infection of donkeys with the trematode Fasciola gigantica is 6.4%, the intensity of invasion is 3-19 specimens.*

Respublikamizda turli xil kasalliklar chorvachilik tarmog‘ining rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Bunday kasalliklar ichida, gelmintozlar, shu jumladan fassiolyoz alohida ahamiyatga ega. Bu kasalliklar qo‘zg‘atuvchilari hayvonlarning o‘t yo‘llari va o‘t pufagida parazitlik qilib, xo‘jayin organizmida jiddiy fiziologik o‘zgarishlar keltirib chiqaradi. Hayvonlar tashqi tomondan sog‘lom ko‘rinishi mumkin va shuning uchun ham profilaktik tadbirlar olib borilmaydi. Natijada yosh hayvonlarning o‘sishi va rivojlanishi sustlashadi, ba’zan ularning o‘limiga sababchi bo‘ladi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasining hududida eshaklar trematodalari faunasi, ekologiyasi va tarqalishi bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlari juda kam (Shakarboyev, 2009).

Ushbu ishning maqsadi Qoraqalpog‘iston sharoitida eshaklarning Fasciolidae oilasiga mansub *Fasciola gigantica* (Cobbold, 1855) trematodasi bilan zararlanish darajasi o‘rganishdan iborat.

Material va metodlar. Tadqiqot ishlari uchun materiallar Qoraqalpog‘iston Respublikasining hududida olib borildi (1-rasm). Ushbu davr mobaynida akademik (Skryabin, 1928) to‘liq va to‘liq bo‘lmagan gelmintologik yorib ko‘rish usuli bilan 31 bosh eshaklar tekshirildi.



1-rasm. Tadqiqot olib borilgan hudud xaritasi

▲- *Statsionar tadqiqotlar*; ●- *marshrutli tadqiqotlar;* 1 - Nukus shahri, 2 - Amudaryo tumani, 3 - Beruniy tumani, 4 - Bo‘zatov tumani, 5 - Qanliko‘l tumani, 6 - Qorao‘zak tumani, 7 - Kegeyli tumani, 8 - Qo‘ng‘irot tumani, 9 - Mo‘ynoq tumani, 10 - Nukus tumani, 11 - Taxiatosh tumani, 12 - Taxtako‘pir tumani, 13 - To‘rtko‘l tumani, 14 - Xo‘jayli tumani, 15 - Chimboy tumani, 16 - Shumanoy tumani, 17 - Ellikqal’a tumani

Undan tashqari, 156 ta fekaliy namunalarini gelmintokaprologik usullar yordamida tekshirildi. Qoraqalpog‘iston Respublikasida olib borilgan tadqiqotlar davomida topilgan gelmintlar tur tarkibini aniqlashda morfologik belgilari, parazit lokalizatsiya va xo‘jayinlariga e’tibor qaratildi (Ivashkin, Dvoynos, 1984).

Tadqiqot natijalarni tahlil qilishda eshaklarning zararlanishining invaziya ekstensivligi (IE) va invaziya intensivligi (II) ko‘rsatkichlari inobatga olindi.

Natijalar va ularning muhokamasi. Tadqiqotlar natijasiga ko‘ra, tekshirilgan eshaklardan *Fasciola gigantica* turi topilgan bo‘lib, u Plathelminthes tipi, Trematoda sinfi, Fasciolida turkumi, Fasciolidae oilasi, *Fasciola* avlodiga mansub ekanligi aniqlandi (2-rasm).



2-rasm. Fasciola gigantica (Cobbold, 1855)

Olib borilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, eshaklarning organizimida: o‘t yo‘llari, o‘t pufagi, jigarda *Fasciola gigantica* bilan zararlanish invaziya ekstensivligi 6,4% ni tashkil etib, invaziya intensivligi 3-19 nusxani tashkil etshi kuzatildi.

Fasciola gigantica rivojlanish sikliga ko‘ra biogelmint bo‘lib, oraliq xo‘jayin ishtirokida rivojlanadi. Oraliq xo‘jayin vazifasin Lymnaeidae oilasiga mansub chuchuk suv mollyuskalari bajaradi (Ivashkin, Dvoynos, 1984).

Olib borilgan tadqiqotlar davomida *Fasciola gigantica* turning morfologik belgilari o‘rganildi. Morfologik belgilariga ko‘ra *Fasciola gigantica* ning tanasi cho‘zilgan bo‘lib, uzunligi 30-75 mm gacha yetadi.

Xulosalar. Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududida eshaklarning *Fasciola gigantica* trematodasi bilan zararlanishi o‘rganildi. Qoraqalpog‘iston shoraitida eshaklarning *Fasciola gigantica* trematodasi bilan zararlanish invaziya ekstensivligi 6,4% ni va invaziya intensivligi 3-19 nusxani tashkil etishi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Ivashkin V.M., Dvoynos G.M. Opredelitel gelmintov loshadey. - Kiyev: Naukova dumka, 1984. – S. 7-16. [Rus tilida].

2. Skryabin K.I. Metod polnыx gelmintologicheskix vskritiy pozvonochnix, vklyuchaya cheloveka. - M.: Izd. MGU, 1928. - 38 s. [Rus tilida].

3. Shakarboyev E.B. Trematodi pozvonochnix Uzbekistana (vidovoy sostav, puti sirkulyatsii i ekologo-biologicheskiye osobennosti): Diss. … dokt.biol.nauk. - Tashkent: IZ AN RUz, 2009. - 243 s. [Rus tilida].

UO‘T 576.895.132.577.215

O‘ZBEKISTON KAVSH QAYTARUVCHI HAYVONLARI HAZM QILISH VA NAFAS OLISH TIZIMI NEMATODALARINING RIBOSOMAL VA MITOXONDRIAL DNK GENLARI BO‘YICHA SHTRIX KODLASH

Kuchboev A.E., Amirov O.O., Karimova R.R.,
Ubaydullayev O.X., Sobirov H.F.
O‘R FA Zoologiya instituti, e-mail: abdurakhim_kuchboev@mail.ru

Annotation *In this article, ribosomal (ITS) and mitochondrial DNA (COI) nucleotides of nematode species parasitizing the digestive and respiratory systems of ruminants collected from different regions of Uzbekistan were bioinformatically analyzed. The nucleotides data placed in the international Genbank database (NCBI) and accession numbers were obtained.*

Bugungi kunga kelib, ilm-fan asosan 250 yil ichida tavsiflangan tirik organizmlarning 1,7 millionga yaqin turini biladi. Taxminiy hisob-kitoblarga ko‘ra yer yuzida kamida 10 milliondan kam bo‘lmagan turlar mavjud bo‘lsa, ulardan 80 foizi hali tavsiflanmagan. Jumladan, umurtqali hayvonlar 90%, nematodalarning 17 %, hasharotlarning 10% olimlar tomonidan o‘rganilgan (Shneer, 2009; Hodda, 2022). Dunyo bo‘yicha taxminan 15000 ga yaqin sistematik olimlar bo‘lsa, ularni olib borilayotgan ishlarini 30 barobarga kuchaytirilgan taqdirda, biologik xilma-xillikni tavsiflash uchun 25 yil vaqt kerak bo‘lar ekan (Woodruff, 2007).

Insonning xo‘jalik faoliyati natijasida turlar xilma-xilligi tez va fojiali kamayishiga olib kelmoqda-ki, agarda biz bu turlarni faqatgina klassik morfologik usullar orqali tadqiqot ishlari olib boradigan bo‘lsak, katta ehtimollik mavjudki, ular ustida tadqiqot olib borish, hattoki ko‘p qismini aniqlash imkoniga ega bo‘lmay qolishimiz mumkin.

Kanadalik olim P. Hebert (2003) tirik organizm turlarini aniqlash uchun DNK zanjirining qisqa standart ketma-ketliklaridan foydalanishni taklif qildi va bu DNK shtrix kodlash deb nomlandi.

Yangi bu usul - DNK shtrix kodlash – turlarni aniqlashni sezilarli darajada tezlashtiradi. “Hayot shtrix-kodi” xalqaro dasturi yerdagi barcha turlar uchun shtrix-kodlar kutubxonasini yaratishga qaratildi. Ideal holda, har bir shtrix-kod bir turni noyob tarzda aniqlashi kerakligini e’tirof etib, hayvonot va o‘simliklar dunyosidagi barcha turlarni genom DNKsini bir qismini, ya'ni 600-800 juft nukleotidlarni o‘qitishga qaratilgan (Hebert, 2003).

Klassik usullar yordamida jinsiy dimorfizm va polimorfizm ko‘rinishdagi turlarni aniqlash qiyinchilik tug‘dirgan bo‘lsa, ushbu turlarni DNKsi yordamida hayvonlarda tishlar, sochlar, mo‘ynalar (Vigilant, 1999), tuklar (Li-ton, Christidis, 1993), qushlarning tuxum qoldig‘i (Straus-berger, Eshli, 2001), sudralib yuruvchilar (Braun va boshq., 2006), fekaliysi (Fernando va boshq., 2003), yirtqich qushlarning mayda suyaklari (Taberlet, Fumagalli, 1996), mollyuskalar tomonidan chiqarilgan shilimshiqdan (Kawai va boshq., 2004), ilonlarning terisi to‘kilganda namunadan (Bricker va boshq., 1996), quritilgan ilon zaharidan (Pook, Mc yewing, 2005) aniqlash hamda polemeraza zanjir reaksiya usuli (PZR) yordamida biologik namunani oz miqdordagi qismini tez va arzon identifikatsiya qilish yo‘llari aniqlandi (Taberlet, 1996).

Mur (1995) tomonidan DNK shtrix kodlash uchun turlarning mitoxondrial DNKsini (mtDNK) oqsil kodlovchi sitoxrom 1 genidan (CO1 yoki COX1) foydalanishni taklif qilinadi. Ushbu mitoxondrial genni yadro genlariga nisbatan ajratish osonroq bo‘lib, odamlarda odatda har bir hujayrada 100-10000 tagacha nusxasi mavjud.

CO1 geni o‘rganilgan barcha mitoxondrial genomlarda mavjud bo‘lib, odamlarda 5900-7444 yaqin juft nukleotidlarni o‘z ichiga oladi. Hayvonlarda ushbu genni 500-650 juft nukleotidi ishlatilishi va praymerlar yordamida oson ko‘paytirib olish mumkinligi e'tirof etilgan

(Folmer va boshq., 1994). Undan tashqari alohida tur bo‘lishi uchun nukleotidlar o‘ratasidagi farqlanish 2% dan ko‘p, bir tur bo‘lishi uchun esa 1% dan oshmasligi kerak (Hebert, 2003).

Tadqiqot ishimizning maqsadi, O‘zbekiston kavsh qaytaruvchi hayvonlarining ovqat va nafas olish tizimi nematoda turlarining mtDNKsi COI sohasi va ribosomal DNKsi (rDNK) ITS sohasi nukleotidlari asosida turlarni identifikatsiya qilishdan (shtrix kodlash)iborat.

Material va metodlar. Ushbu tadqiqot ishini amalga oshirish uchun, respublikamizning turli viloyatlarida boqilayotgan kavsh qaytaruvchi hayvonlarning hazm qilish va nafas olish tizimidan to‘liq va to‘liq bo‘lmagan gelmintologik usullar yordamida nematodalar yig‘ildi. Yig‘ilgan nematodalar 70% etanol eritmasida fiksatsiya qilinib, laboratoriya sharoitida turlarga aniqlik kiritish maqsadida 1000 dan ortiq doimiy va vaqtinchalik preparatlar tayyorlandi.

Molekulyar-genetik tadqiqotlar o‘tkazish uchun nematodalarni erkak individlarning bosh qismidan foydalanildi. Dum qismidan esa turlarni morfologik tomondan identifikatsiya qilish uchun vaucher sifatida doimiy preparat tayyorlandi. Nematodalardan genom DNK ajratishda Germaniyada ishlab chiqarilgan Dneasy Tissue Kit (QZAGEN GmbH) reaktivlar to‘plamidan foydalanildi. PZR o‘tkazishda nematodalarni molekulyar-genetik identifikatsiya qilishda keng qo‘llaniladigan mtDNK COI sohasi uchun (Duscher, 2015) va rDNKsi ITS sohasi uchun esa (Gasser, 1993) praymerlaridan foydalanildi (1-jadval).

1-jadval

Nematodalarning molekulyar tahlili uchun foydalanilgan praymerlar va PZR rejimi

Praymerlar	Praymer ketma-ketligi(5′–3′)	Dastlabki denaturatsiya	Elongatsiyalangan ish	Yakuniy elongatsiya
NC1	ACGTCTGGTTCAGGGTTGTT	98°C da 30 sek	40×: 98°C da 10 sek; 55°C da 30 sek; 72°C da 30 sek.	72°C da 10 min.
NC2	TTAGTTTCTTTTCCTCCGCT			
COI_Nema_Fw	GAAAGTTCTAATCATAARGATATTGG	95°C da 2 min	35×: 95°C da 1 min; 48°C da 1 min; 72°C da 1 min.	72°C da 5 min.
COI_Nema_Rv	ACCTCAGGATGACCAAAAAAYCAA			

PZR da suv 16,1 mkl, 10x PZR buferi 2 mkl, dNTP 0,4 mkl, har bir praymerdan 2 mkl, Taq polimerazadan 0,4 mkl solinib jami 20 mkl aralashma tayyorlandi.

Polimeraza zanjir reaksiyasi tugaganidan so‘ng, gorizontal yo‘nalishdagi elektroforezda 1,5% agaroza gelida 100 V kuchlanishda 45 minut davomida gelelektroforez o‘tkazildi (Osterman, 1996). DNKni geldan ajratib olishda “Touchgene Gradient, UK” firmasi tamonidan ishlab chiqarilgan reaktivlar to‘plamidan foydalanildi.

Natijalar va ularning muhokamasi. Olib borilgan molekulyar-genetik tadqiqotlar natijasida, respublikamizni turli viloyatlaridan yig‘ilgan kavsh qaytaruvchi hayvonlarning hazm qilish va nafas olish tizimi nematodalarini 30 ga yaqin turlarning rDNKsini ITS sohasiga mansub 250-300 j.n. va mtDNKsini COI sohasi nukleotidlaridan 600-650 j.n. ajratib olindi, tegishli bioinformatik dasturlarda tekislandi va xalqaro Genbank bazasiga (https://blast.ncbi.nlm.nih.gov) joylashtirildi va kirish raqamlari olindi (2-jadval).

2-jadval

Genbank bazasiga joylashtirilgan nematoda turlari to‘g‘risida ma’lumot

№	Nematoda turlari (oilasi, avlodi)	Genbankga topshirilgan nematoda namunalarining sanasi, foydalanilgan genlar, Genbank bazasidagi kirish raqamlari, QR kod		
		Genbankga joylashtirilgan sanasi	rDNK va QR kod	mtDNK va QR kod
1.	Oila: *Protostrongylidae* Leiper, 1926 Avlod: *Protostrongylus* Kamenskiy, 1905 *P. rufescens*	07.11.2013, Imago	KF811499	
2.	*P. hobmaieri*	07.11.2013, Imago	KF811492	
3.	*Protostrongylus* sp.	07.11.2013, Larvae 1	KF811500	
4.	*Protostrongylus* sp.	07.11.2013, Larvae 1	KF811501	
5.	Oila: Metastrongylidae Avlod: *Spiculocaulus* Schulz, Orlov va Kutass, 1933 *S. leuckarti*	07.11.2013, Imago	KF811488	
6.	Avlod: *Cystocaulus* Schulz, Orlov & Kutass, 1933 *C. ocreatus*	07.11.2013, Imago	KF811487	
7.	Avlod: *Muellerius* Cameron, 1927 *M. capillaris*	02.07.2017, Larvae 3	MF398493	
8.	Avlod: *Metastrongylus* *M. elongatus*	07.11.2013, Imago	KF811486	
9.	*M. salmi*	07.11.2013, Imago	ON197185	
10.	*M. pudentotectus*	07.11.2013, Imago	ON197186	
11.	Oila: Setariidae Avlod: *Setaria* Viborg, 1795 *S. equina*	02.02.2015, Imago	KP723854	

12.	*S. labiatopapillosa*	02.02.2015, Imago	KP723855	
13.	Oila: Trichostrongylidae Avlod: *Haemonchus* Cobb, 1898 *H. contortus*	21.01.2013, Imago	KC503915	
14.	*H. placei*	21.01.2013, Imago	KC503916	
15.	Avlod: *Marshallagia* Orloff, 1933 *M. marshalli*	17.08.2015, Imago	KT428384	MT116991
16.	*M. occidentalis*	28.09.2016, Imago	KX929997	MT116997
17.	*M. schumakovitchi*	02.03.2020, Imago	MT110926	MT116993
18.	*M. trifida*	03.03.2020, Imago	MT118027	MT116998
19.	*M. uzbekistanica*	03.03.2020, Imago	MT118029	MT116990
20.	*M. sogdiana*	02.03.2020, Imago	MT118024	MT117000
21.	*Marshallagia sp.*	10.11.2022, Imago		OP804342
22.	*M. dentispicularis*	10.11.2022, Imago	OP805893	
23.	Avlod: *Ostertagia* Ransom, 1907 *O. ostertagi*	17.08.2015, Imago	KT428385	
24.	*O. lyrata*	28.09.2016, Imago	KX929995	

25.	*O. gruehneri*	21.06.2020, Imago	MF351872	
26.	Avlod: *Teladorsagia* Andreeva et Satubaldin, 1954 *T. circumcincta*	17.08.2015, Imago	KT428386	
27.	*T. trifurcata*	28.09.2016, Imago	KX929992	
28.	*T. davtiani*	28.09.2016, Imago	KX929993	
29.	Oila: Dictyocaulidae Avlod: *Dictyocaulus* Railliet et Henry, 1907 *D. filaria*	18.11.2006, Imago	ON142663	

Xulosalar. Olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijasiga ko‘ra respublikamizni turli viloyatlaridan yig‘ilgan uy va yovvoyi kavsh qaytaruvchi hayvonlarning hazm qilish va nafas olish tizimi nematodalarining molekulyar-genetik jihatdan, hozirgi vaqtda nematodalar tipining 5 oilasi, 11 ta avlodga mansub, 29 ta turi xalqaro Genbank bazasiga joylashtirildi. Shulardan 28 ta turi rDNK ITS sohasi va 7 ta turi mtDNK COI geni nukleotidlar ketma-ketligiga tegishlidir. Molekulyar jihatdan o‘rganilgan 29 ta nematoda turidan, 10 ta turi (*Protostrongylus rufescens*, *P. hobmaieri*, *Protostrongylus sp.*, *Spiculocaulus leuckarti*, *Marshallagia schumakovitchi*, *M. dentispicularis*, *M. trifida*, *M. sogdiana*, *Marshallagia sp.*, *M. uzbekistanica*) xalqaro Genbank bazasiga birinchi marotaba joylashtirildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Duscher G.G., Harl J., Fuehrer H.P. Evidence of Troglotrema acutum and *Skrjabingylus* sp. coinfection in a polecat from lower Austria. // Helminthologia, 2015. 52: 63-6.

2. Gasser R.B., Chilton N.B., Hoste H., Beveridgi L. Rapid sequencing of rDNA from single worms and eggs of parasitic helminthes. // Nucleic Acids Res. 1993. 21: 2525–6. 29.

3. Hebert P.D.N., Ratnasingham S., de Waard JR.., Barcoding animal life: cytochrome c oxidase subunit 1 divergences among closely related species // Proc. R. Soc. Lond. B. V. 2003. 27. - P. 96-99.

4. Osterman L.A. Metodi issledovaniya belkov i nukleinovix kislot: elektroforez i ultrasentrifugirovanie (prakticheskoe posobie) / L.A. Osterman. – M.: Nauka, 1996. – 288 s. [Rus tilida].

5. Taberlet P., Griffin S., Goossens B., Questiau S., Manceau V., Escaravage N., Waits L P., Bouvet J. Reliable genotyping of samples with very low DNA quantities using PCR // Nucl. Acids Res. 1996. V. 24. № 16. - P. 3189-3194.

6. Shneer V.S. DNK-shtrixkodirovanie vidov jivotnix i rasteniy - sposob ix molekulyarnoy identifikasii i izucheniya bioraznoobraziya // Jurnal obshey Biologii, 2009, tom 70, № 4. - S. 296-315. [Rus tilida].

UO‘T 591.1/2

SAMARQAND VILOYATI KARTOSHKA FITONEMATODALARI

Narziqulova M.F., Eshova X.S.
O‘zbekiston Milliy universiteti, e-mail: mashhuranarziqulova@gmail.com

Annotation. *The article provides information about phytonematodes of potato agrocenoses of the Samarkand region. As a result of the research, the maximum number of plant nematode species was registered in the potato agrocenosis planted after the potato harvest, the smallest number of species was noted in potatoes planted in dry soils after hot peppers.*

O‘zbekistonda kartoshka ekini fitonematodalari, parazit turlari va ularning zarari, tur tarkibi, parazitlarga qarshi kurash choralari to‘g‘risidagi ma’lumotlar S.M. Rizaeva (1984) tadqiqotlarida keltirilgan. Biroq, O‘zbekistonda, xususan Samarqand viloyati sharoitida kartoshka ekinida uchrovchi fitonematodalar faunasining populyasiyasi, ekologiyasi va taksonomiyasini kompleks o‘rganishga doir keng ko‘lamli tadqiqotlar amalga oshirilmagan, yuqorida qayd etilgan ishlarda kartoshkaning bir yoki bir necha parazit turlarini o‘rganishga qaratilgan, shuningdek, kartoshka fitonematodalarini tadqiq qilish borasidagi mavjud ma'lumotlar kartoshka ekinida uchrovchi parazit turlarining hozirgi kundagi holatini batafsil yoritib bera olmaydi. Shu sababli, Samarqand viloyati kartoshka fitonematodalari faunasi tarkibini aniqlash va ekologik xususiyatlarini ochib berishdan iborat.

Material va metodlar. Tadqiqot materiallari Samarqand viloyati Tayloq, Bulung‘ur, Jomboy va Oqdaryo tumanlarining fermer xo‘jaliklari va shaxsiy tomorqalaridan yig‘ildi. Namunalar marshrut usulda (Kiryanova, Krall, 1969) kartoshka (*Solanum tuberosum* L.) ning “Arizona” va “Sante” navlarini poya va barglari, ildiz hamda ildiz atrofi tuproqlaridan olindi. Har bir tumandan 75 ta namuna (25 ta poya va barg, 25 ta ildiz, 25 ta tuproq), jami 300 ta namuna yig‘ildi. Namunalardan Berman voronkali uslubda nematodalar ajratib olindi va TAF (trietanolamin: formalin: 2 nisbatda suv) eritmasida fiksatsiya qilindi. A.A. Paramonov (1962), E.S. Kiryanova va E.L. Krall (1969) uslublari bo‘yicha doimiy va vaqtinchalik mikropreparatlar tayyorlandi. Nematodalarning tur tarkibi BX53, “Olimpus”, SC-180 yorug‘lik manbali mikroskop yordamida o‘rganildi.

Natijalar va ularning muhokamasi. Tadqiqotlar natijasida Samarqand viloyati Tayloq, Oqdaryo, Bulung‘ur, Jomboy tumanlari xo‘jaliklaridagi kartoshka agrotsenozlarida ikkita kenja sinf, 8 ta turkum, 22 ta oila, 42 avlodga mansub 67 tur fitonematodalar aniqlandi. Aniqlangan nematodalardan turlar tarkibi bo‘yicha Rhabditida (22 tur), Dorylaimida (14) va Tylenchida (13 tur) turkum vakillari ustunlik qildi. Aphelenchida (7 tur) turkumi o‘rtacha, Mononchida (4), Chromadorida (2), Plectida (4) va Enoplida (1) turkumlaridan kam tur uchrashi qayd etildi.

Tadqiqot materiallarimizda aniqlangan nematodalar A.A. Paramonovning (1964) ekologik tasnifi bo‘yicha beshta ekologik guruhga ajratildi: pararizobiontlar - 19 tur (topilgan barcha turlarning 28,3%), eusaprobiontlar - 9 (13,4%), devisaprobiontlar - 19 (28,3%), kasallik keltirib chiqarmaydigan fitogelmintlar - 13 (19,4%), xaqiqiy parazitlar - 7 tur (10,6%)ni tashkil etdi.

Tadqiqotlar davomida o‘rganilgan har bir hududdagi kartoshka va uning ildiz atrofi tuprog‘i nematodalar faunasida turlar tarkibi va individlar sonida o‘ziga xoslik kuzatildi. Tayloq tumani viloyatning asosiy kartoshka yetishtiriladigan hududi hisoblanadi, bu hududdagi kartoshkada 32 tur 321 nusxa nematodalar uchrashi aniqlandi. Bu hududda kartoshkadan oldingi ekin ham kartoshka bo‘lgan. Hudud uchun xaraterli nematoda 8 turni (*Proteroplectus longicaudatus, Alaimus primitivus, Eudorylaimus ettersbergensis, Heterocephalobus filiformis, Rhabditis longicaudata, Pelodera teres, Aphelenchoides subtenius va Pratylenchus pratensis)*

tashkil etdi. Tayloq tumanida nematodalar individ jihatdan nisbatan ko‘p uchradi, buning sababi kartoshka dalalarida oldingi yillarda ham kartoshka ekilganligi deb hisoblaymiz. Bu hududda pararizobiontlar - 5 tur, eusaprobiontlar – 5 tur, devisaprobiontlar - 13, kasallik keltirib chiqarmaydigan fitogelmintlar - 7, xaqiqiy parazitlar - 2 turni tashkil etdi.

Oqdaryo tumanida kartoshkada 49 tur 303 nusxa nematodalar uchrashi aniqlandi. Kartoshkadan oldingi ekin karam bo‘lgan. Hudud uchun xaraterli nematodalar 24 tur (*Monhystera filiformis, M.similis, Anaplectus granulosus, Proteroplectus parvus, Clarcus papillatus, Mononchus truncates, Anatonchus tridentatus, Prismatolaimus dolichurus, Paradorylaimus filiformis, Dorylaimoides elegans, Mesodorylaimus bastiani, Eudorylaimus acuticauda, E.centrocercus, Tylencholaimellus striatus, Eucephalobus oxyuorides, Acrobeles ciliates, Pelodera strogyloides, Filenchus leptosome, Bitylenchus dubius, Rotylenchus goodeyi, Helicotylenchus erythrinae, H.multicinctus, Hexatylus viviparous, Ditylenchus intermedius*). Bu hududdagi nematodalar faunasida turlar xilma-xilligi boshqa hududlarga nisbatan yuqori darajada kuzatildi. Turlarning xilma-xilligiga sabab kartoshkadan oldin ekilgan ekin turiga bog‘liq, oldingi ekin karam bo‘lgan. Pararizobiontlar - 14 tur, eusaprobiontlar – 6 tur, devisaprobiontlar - 15, kasallik keltirib chiqarmaydigan fitogelmintlar - 9, xaqiqiy parazitlar - 5 turni tashkil etdi.

Bulung‘ur tumanida 26 tur 110 nusxa nematodalar uchrashi aniqlandi. Tumanda kartoshka ekinidan oldin dalada piyoz ekilgan. Hudud uchun xarakterli nematodalar – 6 turni (*Labronema eudorylaimoides, Aporcelaimellus obscurus, Aphelenchus cylindricaudatus, Aphelenchoides tumulicaudatus, Tylenchus davainei va Filenchus filiformis*) tashkil etdi. Bu hududda nematodalar miqdor jihatdan nisbatan kam uchrashi kuzatildi. Pararizobiontlar - 5 tur, eusaprobiontlar – 3 tur, devisaprobiontlar - 9, kasallik keltirib chiqarmaydigan fitogelmintlar – 9 turni tashkil etdi, xaqiqiy parazitlar esa uchramadi.

Jomboy tumanida 17 tur 117 nusxa nematodalar uchrashi aniqlandi. Tumanda kartoshka ekinidan oldin dalada achchiq qalampir ekilgan. Eng kam turlar mazkur hududda qayd etildi. Pararizobiontlar - 5 tur, eusaprobiontlar – 4 tur, devisaprobiontlar - 6, kasallik keltirib chiqarmaydigan fitogelmintlar – 2 turni tashkil etdi, xaqiqiy parazitlar uchramadi. Hudud uchun xarakterli nematoda *Diphtherophora communis* turi ekanligi aniqlandi. Barcha tumanlar uchun 14 tur nematoda umumiy hisoblanadi, qolgan turlar esa 2 yoki 3 ta tumanlarda uchrashi kuzatildi.

Tadqiqot natijalarida turlarning maksimal soni kartoshka ekinidan keyin ekilgan kartoshka agrotsenozida qayd etilgan bo‘lsa, eng kam turlar achchiq qalampirdan keyin ekilgan quruq tuproqlardagi kartoshkada kuzatildi, bu holat ekinlarga agrotexnik tadbirlarning qo‘llanilish darajasi va tuproqlarning holatiga bog‘liq deb hisoblaymiz.

Xulosalar. Tadqiqot natijasida Samarqand viloyati sharoitida kartoshka ekini va ildiz atrofi tuprog‘ida 67 tur fitonematodalar aniqlandi. Nematodalarning turlar tarkibi bo‘yicha Rhabditida (22 tur), Dorylaimida (14) va Tylenchida (13) turkumlari vakillari ustunlik qildi. Aphelenchida (7) turkumi nisbatan kam, Mononchida (4), Chromadorida (2), Plectida (4) va Enoplida (1) turkumlaridan kam tur uchrashi aniqlandi.

Tadqiqot natijalarida har bir hududdagi kartoshka nematodalari faunasi ma’lum bir guruhi bilan ajralib turishi aniqlandi, turlarning maksimal soni kartoshka ekinidan keyin ekilgan kartoshkada qayd etildi, eng kam turlar achchiq qalampirdan keyin ekilgan quruq tuproqlardagi kartoshka agrotsenozida kuzatildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Eshova X.S. Nematodes of arid areas of Uzbekistan. // European Journal of Biomediacal and Pharmaceutical sciences, 2016. Volume 3 Issue 12. - P. 129-132.

2. Kiryanova E.S., Krall E.L. Paraziticheskie nematodi rasteniy i meri borbi s nimi. - Leningrad: Nauka, 1969. T. 1. – 441 s. [Rus tilida].

3. Paramonov A.A. Osnovi fitogelmintologii. - Moskva: Nauka, 1962, – T.1. – 480 s. [Rus tilida].

4. Rizaeva S.M. Nematodi osnovnix ovoshnix kultur i kartofelya Severo-vostochnoy zoni Uzbekistana: Avtoref. diss. … kand. biol. nauk. - Toshkent, 1984. - 15 s. [Rus tilida].

UO‘T 576.895.10

QORAQALPOG‘ISTON MAYDA SHOXLI MOLLARI GELMINTOFAUNASI

Palo‘aniyazova D.A.[1], Dadayev S.D.[2]
[1]Qoraqalpoq davlat universiteti, [2]Toshkent davlat pedagogika universiteti,
e-mail: dilbarpaluaniazova@gmail.com

Annotation. *In the conditions of Karakalpakstan, 34 species of helminths parasitize small cattle. At the same time, 31 species of helminths were identified in sheep and goats. The largest number of helminths identified, i.e. 20 species belong to the class of nematodes (64.7%), 8 species belong to the class of cestodes (23.5%) and 3 species belong to the class of trematodes (8.8%).*

Chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda mayda shoxli mollar yetakchi o‘rinlardan birini egallaydi. Bu borada, mayda shoxli mollarda parazitlik qilib, qator patogen kasalliklarni keltirib chiqarayotgan gelmintlarining tur tarkibini kompleks holda o‘rganish, invaziyalarga qarshi profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasida mayda shoxli mollar gelmintlari va gelmintozlari deyarli o‘rganilmagan. Ayrim ma’lumotlar M.A. Sultonov va b. (1969), D.A.Azimov va b. (2015) ishlarida keltirilgan.

Tadqiqotning maqsadi Qoraqalpog‘iston sharoitida mayda shoxli mollar gelmintlarining tur tarkibini kompleks holda o‘rganishdan iborat.

Material va metodlar. Qoraqalpog‘istonda mayda shoxli mollarning gelmintlarini o‘rganish maqsadida 2021-2023-yillar davomida tadqiqot ishlari olib borildi. Tadqiqot ishlari asosan Qoraqalpog‘iston Respublikasining Kegeyli, Qorao‘zak, Taxtako‘pir, Qo‘ng‘irot, Qonliko‘l, Amudaryo, To‘rtko‘l va boshqa tumanlaridagi chorvachilik fermer xo‘jaliklari hamda shaxsiy xonadonlarga tegishli qo‘y va echkilardan yig‘ildi.

K.I. Skryabinning (1928) to‘liq gelmintologik yorib ko‘rish usuli bilan jami 65 bosh qo‘y (65 bosh qo‘ylardan 37 boshi to‘liq yorib ko‘rish va 28 bosh qo‘y turli organlari to‘liq va to‘liq bo‘lmagan yorib ko‘rish usullari bilan) va 110 bosh echkilar (41 bosh echki to‘liq yorib ko‘rish va 69 bosh echki turli organlari to‘liq va to‘liq bo‘lmagan yorib ko‘rish usullari bilan) tekshirildi.

Shuningdek, tadqiqot olib borish davomida qo‘ylardan 250 ta va echkilardan 295 fekaliy namunalari olinib G.A. Kotelnikov (1974) tomonidan ishlab chiqilgan gelmintokoprologik usullar asosida o‘rganildi.

Tadqiqot davomida yig‘ilgan gelmintologik materiallarga kameral ishlov berish va gelmintlar tur tarkibini aniqlash Qoraqalpoq davlat universiteti Ekologiya va tuproqshunoslik kafedrasi hamda Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali, Veterinariya meditsinasi oziq-ovqat xafsizligi kafedrasida amalga oshirildi. Gelmintlar tur tarkibini aniqlashda tegishli ilmiy monografiyalardan foydalanildi (Ivashkin, 1989).

Natijalar va ularning muhokamasi. Olib borilgan tadqiqotlarimiz natijasida hamda adabiyotlar tahliliga ko‘ra Qoraqalpog‘iston Respublikasining turli hududlarida mayda shoxli mollarda 34 tur gelmintlar parazitlik qilishligi qayd etildi (jadval).

Jadval

Mayda shoxli mollarda aniqlangan gelmint turlari

Gelmint turlari	Qo‘yda	Echkida
1. *Fasciola gigantica* L., 1758	+	+
2. *Gastrothylax crumenifera (Creplin, 1847)*	+	+
3. *Schistosoma turkestanicum (Skrjabin, 1913)*	+	+
4. *Moniezia exspansa (Rudolphi, 1810)*	+	+
5. *M. benedeni (Moniez, 1879)*	+	+
6. *Avitellina centripunctata (Rivolta,1874)*	+	+
7. *Thysaniezia giardi (Moniez, 1879)*	+	+
8. *Taenia hydatigena (Pallas, 1766)(=Cysticercus tenuicollis) larvae*	+	+
9. *Multiceps multiceps (Leske, 1780) (=Coenurus cerebralis) larvae*	+	+
10. *Echinococcus granulosus (Batsch, 1786) larvae*	+	+
11. *Alveococcus multicularis (Leukart, 1863) larvae*	-	+
12. *Trichocephalus ovis Abildgaard, 1795*	+	+
13. *T. skrjabini (Baskakov, 1924)*	+	+
14. *Chabertia ovina (Fabricius, 1788)*	+	+
15. *Oesophagostomum venulosum (Rudolphi, 1809)*	+	+
16. *O. solumbianum Curtice, 1890*	+	+
17. *Dictyocaulus filaria (Rudolphi, 1809)*	+	+
18. *Trichostrongylus axei (Cobbold, 1879)*	+	+
19. *T. vitrinus Looss, 1905)*	+	+
20. *Trichostrongylus sp.,*	+	-
21. *Haemonchus contortus (Rudolphi, 1803)*	+	+
22. *H. placei (Place, 1893)*	+	+
23. *Marshallagia marshalli Ransom, 1907*	+	+
24. *Nematodirus abnormalis May, 1920*	+	+
25. *N. helvetianus May, 1920*	+	+
26. *N. oiratianus Rajewskaja, 1929*	+	+
27. *Ostertagia sp.*	+	-
28. *Skrjabinema ovis (Skrjabin, 1915)*	+	+
29. *S. caprae Schad, 1959*	-	+
30. *Gongylonema pulchrum Molin, 1857*	+	+
31. *Parabronema skrjabini Rassowska, 1924*	+	+
32. *Skrjabinodera saiga Gnedina et Vsevolodov, 1947*	+	-
33. *Setaria labiato-papillosa (Alessandrini, 1848)*	+	+
34. *Setaria digitata (Linstow,1906)*	-	+
Jami:	31	31

Mayda shoxli mollarda aniqlangan gelmintlardan qo‘y va echkilarda 34 tadan turi parazitlik qiladi. Qo‘ylarda parazitlik qiladigan gelmitlardan quyidagi 13 ta turlari: *Moniezia benedeni, Oesophagostomum venulosum, O. solumbianum, Dictyocaulus filaria, Trichostrongylus axei, T. vitrinus, Haemonchus placei, Marshallagia marshalli, Nematodirus abnormalis, N. helvetianus, Gongylonema pulchrum, Parabronema skrjabini, Skrjabinodera saiga* biz tomonimizdan Qoraqalpog‘istonda ilk bor aniqlandi. Shuningdek, echkilarda parazitlik qiladigan 31 tur gelmintlardan 27 turi: *Fasciola gigantica, Gastrothylax crumenifer, Schistosoma turkestanicum, Moniezia benedeni, Avitellina centripunctata, Thysaniezia giardi, Multiceps multiceps (larvae), Alveococcus multicularis (larvae), Trichocephalus ovis, Bunostomum trigonocephalum, Chabertia ovina, Oesophagostomum venulosum, O. columbianum, Dictyocaulus filaria, Trichostrongylus axei, T. vitrines, Haemonchus contortus,*

H. placei, Marshallagia marshalli, Nematodirus abnormalis, N. helvetianus, Skrjabinema ovis, S. caprae, Gongylonema pulchrum, Parabronema skrjabini, Setaria labiato-papillosa, S. digitata biz tomonimizdan Qoraqalpog‘istonda ilk bor topildi. Shuni aloxida ta’kidlash lozimki, Qoraqalpog‘iston sharoitida olib borilgan tadqiqot ishlarimiz natijasiga ko‘ra, mayda shoxli mollardan-merenos zotli qo‘ylarning jigari bilan bir qatorda, o‘pkasida ham *Fasciola gigantica* turining parazitlik qilishi biz tomonimizdan ilk bor aniqlandi. Bu trematoda turi bizgacha MDHda, shu jumladan O‘zbekiston sharoitida tuyoqli hayvonlar o‘pkasida parazitlik qilishi aniqlanmagan. Adabiyotlardan ma’lumki, fassiolalardan - *Fasciola hepatica* turi 1959-yilda Bolgariyada D. Bankov tomonidan bitta sigirning jinsiy yo‘li va bachadonidan topilgan (Bankov, 1959).

Xulosalar. Olib borilgan tadqiqot ishlarimizda qo‘y o‘pkasidan topilgan *F. gigantica* turining yetuk va voyaga yetmagan shakllari (har bir qo‘y o‘pkasida 14 nusxadan 34 nusxagacha) dan tashkil topganligi ma’lum bo‘ldi. Eng yuqori ko‘rsatgich bitta qo‘y o‘pkasida 34 nusxa *F.gigantica* parazitlik qilishi aniqlandi. Asosan bu ko‘rsatgichlar 2-3 yosh atrofidagi erkak va urg‘ochi ko‘ylarda uchrashi ma’lum bo‘ldi. Tahlillar natijasiga ko‘ra, *F. gigantica* voyaga yeta boshlagandan keyin o‘pka parenximasidan alveolalarga o‘tib, bronxga tushadi va o‘sha yerda bronx shillig‘i orqali harakatlanib traxeya va hiqqildoqqa keladi, u hiqqildoq orqali boshqattan yutilishi mumkin degan xulosaga kelish mumkin.

Shuningdek, Qoraqalpog‘iston sharoitida olib borgan tadqiqot ishlarimiz natijasida echkilar jigarida *Alveococcus multilocularis (larvae)* uchrashi kuzatildi. O‘zbekistonda, shu jumladan Qoraqalpog‘istonda alveokokk lichinkalari echkilar jigarida ilk bor biz tomonimizdan aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Azimov D.A., Dadaev S.D., Akramova F.D., Saparov K.A. Gelminti jvachnix jivotnix Uzbekistana. – T.: «Fan», 2015. [Rus tilida].

2. Bankov D. Naxodka Fasciola hepatica v matke i vlagalishe korovi. Izv. na sentr. xelmintolog. laboratoriya, kn. 4. Sofiya, izd. Bolgar. Akadem. nauk, 1959. - S. 79-83. [Rus tilida].

3. Ivashkin V.M., Oripov A.O., Sonin M.D. Opredelitel gelmintov melkogo rogatogo skota. - M., 1989. - 356 s. [Rus tilida].

4. Kotelnikov G.A. Diagnostika gelmintozov jivotnix. - M.,1974. - 240 s. [Rus tilida].

5. Skryabin K.I. Metod polnix gelmintologicheskix vskritiy pozvonochnix, vklyuchaya cheloveka. - M.: Izd. MGU, 1928. - 45 s. [Rus tilida].

6. Sultanov M.A., Sarimsakov F.S., Muminov P.A. i dr. Gelminti jivotnix Karakalpakskoy ASSR. // V kn.: Paraziti jivotnix i cheloveka nizovev Amudari – Tashkent: Izd-vo -Fan, 1969. - S. 3-66. [Rus tilida].

UO‘T 591.69.632.9

ISSIQXONALARDAGI SABZAVOT EKINLARIDA PARAZITLIK QILUVCHI (TYLENCHINA) FITONEMATODALAR

Raimov Sh.Q., Qarshiyeva M.G‘.

Termiz davlat universiteti, e-mail: doctorshahbobek@gmailcom

Annotation. *In this article, species of parasitic nematodes belonging to Tylenchina family found in vegetable crops in greenhouses are mentioned. Parasitic species belonging to this category live in the roots and around the roots of plants and cause serious damage to the plant. The damaged plant lags behind in development and productivity decreases.*

Keyingi yillarda issiqxona sharoitida yetishtiriladigan va agrosanoat majmualarida qayta ishlanayotgan mahsulotlar sifatini yaxshilash, ekinzorlar hosildorligini oshirish, ularning kasallik va zararkunandalari bilan qarshi kurashishda qo‘llaniladigan usullarni mukammallashtirish va yangi ekologik xavfsiz texnologiyalarni ishlab chiqish dolzarb muammolardan biri bo‘lib qolmoqda. Kimyoviy preparatlarni qo‘llashni kamaytirish va o‘rniga biologik vositalarni joriy etish bunday muammolarni hal etish yo‘llaridan biri hisoblanadi. Shunday usullardan biri, biologik usullar turkumiga kiruvchi mikrobiologik usullar hisoblanadi.

Material va metodlar. Issiqxonalardagi o‘rganilgan ekinlarda har bir topilgan parazit turning morfometriyasi, tarqalishi va individual soni bo‘yicha o‘zimizning ma‘lumotlarimiz keltirilgan. Shuningdek, A.A. Paramonovning (1962, 1964) keng tanilgan fitonematodalar ekologik klassifikatsiyasidan foydalandik.

Natijalar va ularning muhokamasi. Surxondaryo viloyati sharoitida issiqxonalarda sabzavot ekinlari, jumladan pomidor, bodring va bulg‘or qalampiri o‘simliklari va ularning ildiz hamda ildiz atrofida uchrovchi parazit fitonematodalar faunasi hamda ularning turlar tarkibini aniqlanib, shu bilan birga ekologik - faunistik kompleksi shakllantirilgan.

Turkum Tylenchida (Filipjev, 1934) Thorne, 1949.

Kenja turkum Tylenchina (Thorne,1949) Gerdert, 1966.

Katta oila Dolichodoridae (Chitwood et Chitwood, 1950) Siddiqi, 1986.

Oila Dolichodoridae (Chitwood et Chitwood, 1950) Skarbilovich, 1959.

Kenja oila Tylenchorhynchinae Eliava, 1964.

Avlod Tylenchorhynchus Cobb, 1913.

T. cylindricus Cobb, 1913.

(Xurramov bo‘yicha, 1990)

Urg‘ochi: L =0,56-0,62 mm; a =26,6-32,0; v =4.5-5,9; s =10,2-21,0; V=57,8-60,5 %

Erkak: L =0,56-0,57 mm; a =27,4- 31,3; v =4,9-5,7 mm; s =15,2-17,1.

Ushbu turga mansub nematodalar Surxondaryo viloyatining Termiz, Jarqo‘rg‘on, Angor, Denov, Sherobod tumanlarida pomidor, bodring va bulg‘or qalampiri o‘simliklari ildizda 34 nusxa va ildiz atrofidagi tuproqda 75 nusxada, jami 109 ta fitonematodalar umumiy hisobda qayd etilgan.

T. brassicae Siddiqi, 1961.

(Siddiqi bo‘yicha, 1961).

Urg‘ochi:L -0,58-0,72 mm; a =26-35; v =5-6; s =14-17; V =52-58 %; stilet =16-17 mkm.

Erkak:L =0,53-0,67 mm; a =29-35; v =4,8-8,8; s =15-17.

Bizning ma‘lumotlar:

Urg‘ochi: L =0,59-0,70 mm; a =23,9-29,4; v =4,8-6, 1; s = 16,2-18,1; V=54, 6-57, 3%.

Erkak:L =0,57-0,65 mm; a =32,8-34,3; v =5,2-5,6; s = 15,3-16,4.

Ushbu turga mansub nematodalar Termiz, Jarqo‘rg‘on, Angor, Denov, Sherobod tumanlarida pomidor, bodring, bulg‘or qalampiri o‘simliklari ildizda 44 nusxa va ildiz atrofidagi tuproqda 85 nusxada, jami 129 ta fitonematodalar umumiy hisobda qayd etilgan.

T. claytoni Steiner, 1937

(Steiner bo‘yicha, 1937).

Urg‘ochi: L =0,64-0,73 mm; a =24-25; v =5,0-6,2; s =17,9- 19.4; V =55-57%

Bizning ma‘lumotlar:

Urg‘ochi: L =0,62-0,71 mm; a =24,2-25,4; v =5,3-6,0; s =17,5-19,5; V =55, 0-57,2.

Ushbu turga mansub nematodalar Termiz, Jarqo‘rg‘on, Angor tumanlarida pomidor, bodring o‘simliklari ildizda 26 nusxa va ildiz atrofidagi tuproqda 35 nusxada, jami 61 ta fitonematodalar umumiy hisobda qayd etilgan.

Avlod Bitulenchus (Filipjev, 1934) Siddiqi, 1986.

B. *dubius* (Butschli, 1987) Siddiqi, 1986.

(Xurramov bo‘yicha, 1990)

Urg‘ochi: L =0,56-0,78 mm; a =27,0-36,6; v =4,2-5,5; s =13-18,5; V =47-60%

Erkak: L = 0,55-0,75 mm; a =25,7-37,6; v = 4,7-5,8; s =9,0-15,2.

Bizning ma‘lumotlar:

Urg‘ochi:L = 0,54-0,66 mm; a =27,7-32,8; v =4,5-5,9; s =12,0-15,0; V = 52,5-58,3%

Erkak: L =0,54-0,62 mm; a =31,2-36,2; v =5,1-5,4; s -11, 2-12, 8.

Ushbu turga mansub nematodalar Termiz, Jarqo‘rg‘on, Angor, Denov tumanlarida pomidor, bodring, bulg‘or qalampiri o‘simliklari ildizda 51 nusxa va ildiz atrofidagi tuproqda 74 nusxada, jami 125 ta fitonematodalar umumiy hisobda qayd etilgan (Xurramov, 1978).

Kenja oila Merliniinae Siddiqi, 1971.

Avlod Merlinius Siddiqi, 1970.

M. brevidens (Allen, 1955), Siddiqi, 1970.

(Xurramov bo‘yicha, 1990)

Urg‘ochi: L =0,54-0,75 mm; a = 26, 2-32,0; v =3,9-5,5; s =11,7-21,6; V =53, 7-59,0

Bizning ma‘lumotlar:

Urg‘ochi:L =0,34-0,57 mm; a =22,8-30,3; V =4,4-5,7; s =11,2-13,0; V =54,6-60,4%;

Ushbu turga mansub nematodalar Termiz, Jarqo‘rg‘on, Angor tumanlarida pomidor, bodring va bulg‘or qalampiri o‘simliklari o‘simliklari ildizda 19 nusxa va ildiz atrofidagi tuproqda 63 nusxada, jami 82 ta fitonematodalar umumiy hisobda qayd etilgan.

Xulosalar. Shunday qilib, tadqiqot natijasida biz Tylenchida turkumiga mansub parazit turlardan 29 turni ro‘yxatga oldik. Bu parazit asosan issiqxonalardagi pamidor, bodring hamda bulg‘or qalampirining ildizi hamda ildiz atrofi tuprog‘ida uchrashini kuzatdik. Ma‘lumki, Tylenchida turkumi vakillari ko‘plab yovvoyi va madaniy o‘simliklarning parazitlari hisoblanadi. Surxondaryo viloyati sharoitida, ya‘ni issiqxonlaridagi pamidor, bodring hamda bulg‘or qalampirining ildizi hamda ildiz atrofi tuprog‘ida ko‘p miqdorda *T. cylindricus, T. brassicae, T. claytoni* uchraydi.

Foydalanilgan adabiytlar ro‘yxati

1. Paramonov A.A. Osnovi fitogelmintologii - M.: Nauka, 1962. T. I. – 480 c. [Rus tilida].

2. Paramonov A.A. Osnovi fitogelmintologii - M. : Nauka, 1964. T. II. – 466 c. [Rus tilida].

3. Xurramov Sh.X. Krasprostroneniyu paraziticheskix nematod rasteniy yujnogo Uzbekistana // V kn. Fitogelmintologicheskie issledovaniya - M., 1978. – S.146-157. [Rus tilida].

UO‘T 591.69

OQ OSTONA SUVOMBORIDA UCHROVCHI QAMISH O‘SIMLIGI FITONEMATODALARINING SISTEMATIK TAHLILI

Raxmatullayev B.A., Mamarajabova M.T., Ulug‘ova N.B.

Termiz davlat universiteti, e-mail:brakhmatullayev254@gmail.com

Annotation. *This article presents a pre-analysis of the nematode fauna found in coastal plants of the Ak-Astana reservoir. The research yielded the discovery of 28 species of plant nematodes, which can be classified into 9 orders, 11 families, and 14 genera.*

Nematodalar xilma-xil muhitda hayot kechiradigan 26000 dan ortiq turlarni o‘z ichiga oladi. Ular orasida tuproq va suv havzalarida erkin yashovchi, hayvonlar va o‘simliklarda parazitlik qiladigan turlari mavjud (Kiryanova, Krall, 1971).

Keyingi paytda suv omborlarda erkin yashovchi va fitoparazit nematodalarning morfo-anatomik belgilari bo‘yicha klassifikatsiyasini, turlarning aniq taksonomik o‘rnini, populyatsion tuzilishi va funksiyasini aniqlash hamda parazit turlarga qarshi kurashga e’tibor qaratilmoqda.

Surxondaryo viloyati sharoitida suv omborlarda erkin yashovchi va fitoparazit nematodalar turlarining tarkibini aniqlash, fitonematodalar faunasini sistematik va ekologik tahlil qilish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Material va metodlar. Tadqiqot davomida Oq ostona suv omborlari qirg‘oq bo‘yi qamish (Phragmítes australis Cav.) o‘simligidan 100 ta namunalar olindi. Namunalardan turli uslublar bilan 533 ta individ ajratib olindi.

Namunalar yig‘ish ishlari 2022-2023 yillarda amalga oshirildi. Tadqiqot ishining ekologo-faunistik qismini amalga oshirish va qirg‘oq bo‘yi o‘simliklari nematodalari turlar tarkibini aniqlashda, MDH mamlakatlari fitogelmintologlari tomonidan keng qo‘llaniladigan umumiy qabul qilingan marshrut uslubidan foydalanildi.

Nematodalarni tuproq va o‘simlik to‘qimalaridan ajratib olish uchun asosan Bermanning voronkali uslubidan foydalanildi. Doimiy preparatlar tayyorlashda Saynxorst (Seinhorst) uslubidan foydalanildi.

Natijalar va ularning muhokamasi. Tadqiqot natijasida Oq ostona suvomborida uchrovchi qamish o‘simligi nematodalar faunasi o‘rganilib, 9 ta turkum, 11 ta oila va 14 ta avlodga mansub, 28 tur aniqlangan.

Tadqiqotlar davomida qamish (*Ph. australis*) o‘simligida aniqlangan nematodalarning ustunlik darajasini foiz holati bo‘yicha aniqlashda Krogerus (Krogerus) klassifikatsiyasidan foydalanib, to‘rt guruhga ajratildi: Qamish o‘simligida aniqlangan dominant nematodalar - 5 ta turni (*M. szunyoghyi, D. intermedius, P. wescolagricus, P. partensis, M. curvata*), subdominantlar 18 ta turni (*T. pellucidus, L.agilis, P. filiformis, P. salinarim, M. africana, Ch. typicus, P. cirratus, P. parietinus, R. brevispina, C. persegnis, H. elongatus, H. filiformis, A. emarginatus, A. dastylocercus, A. scalacaudatus, C. hexalineatus, F. filiformis, P. macrodorus*), retsedentlar 3 ta turni (*M. bastiani, A. obtusicaudatus, M. truncatus*), subretsidentlar 2 ta turni (*T. grasilis, A. buetschlii*) o‘z ichiga oladi.

Aniqlangan nematodalar 9 ta turkumga mansub bo‘lib, ular orasida Rhabditida turkumi vakillari yetakchi o‘rinni egallab (7 tur), jami aniqlangan turlarning 24,8% ini va Tylenchida turkumi vakillari (7; 24,8%) tashkil etadi. Keyingi o‘rinlarni Dorylaimida (4; 14,4%), Araeolaimida (3; 10,8%), Enoplida (2; 7,2%), Aphelenchida (2; 7,2%) egalladi. Mononchida (1; 3,6%), Chromadorida (1; 3,6%), Monhysterida (1; 3,6%) turkumlari vakillari kam sonda uchradi.

Enoplida turkumi 1 ta kenja turkum: Tripyloidina; 1 ta oila:Tobrilidae; 1 ta kenja oila: Tobrilinae; 1 ta avlod: Tobrilus; 2 tur (umumiy aniqlangan turlarning 7,2%) va jami 19 ta (barcha aniqlangan nematodalar sonining 3,5%) individdan iborat.

Dorylaimida turkumi 1 ta kenja turkum: Dorylaimina; 1 ta katta oila: Dorylaimoidea; 3 ta oila: Dorylaimidae, Aporcelaimidae, Paradorylaimidae; 4 ta kenja oila: Dorylaiminae, Mesodorulaiminae, Aporcelaiminae, Paradorylaiminae; 4 ta avlod: Laimydorus, Aporcelaimellus, Paradorylaimus, Mesodorulaimus; 4 turdan (14,4%) iborat. Jami 49 ta (9,1%) nematodani o‘z ichiga oladi.

Mononchida turkumi 1 ta kenja turkum: Mononchina; 1 ta oila- Mononchidae; 1 ta kenja oila: Mononchinae; 1 ta avlod: Mononchus; 1 turni (umumiy aniqlangan turlarning 3,6%) o‘z ichiga oladi. Jami 8 ta (barcha aniqlangan nematodalarning 1,5%) nematodadan iborat.

Chromadorida turkumi 1 ta kenja turkum: Chromadorina; 1 ta oila: Chromadoridae; 1 ta kenja oila: Chromadorinae; 1 ta avlod: Punctodora; 1 ta tur (umumiy aniqlangan turlarning 3,6%) va jami 19 ta (barcha aniqlangan nematodalarning 3,5%) individlarni o‘z ichiga oladi.

Monhysterida turkumi 1 ta kenja turkum: Monhysterina; 1 ta oila: Monhysteridae; 1 ta kenja oila: Monhysterinae; 1 ta avlod: Monhystera va 1 ta turni (3,6%), jami 15 ta (2,8%) nematodadan iborat.

Araeolaimida turkumi 1 ta kenja turkum: Araeolaimina: 2 ta oila: Chronogasteridae, Plectidae; 2 ta kenja oila: Chronogasterinae, Plectinae; 2 ta avlod: Chronogaster, Plectus va 3 turdan (umumiy aniqlangan turlarning 10,8 %) iborat. Jami 52 individni (aniqlangan nematodalarning 9,7%) o‘z ichiga oladi.

Rhabditida turkumi 2 ta kenja turkum: Rhabditina, Cephalobina; 1 ta katta oila: Cephaloboidea; 2 ta oila: Rhabditidae, Sephalobidae; 4 ta kenja oila: Mesorhabditinae, Rhabditinae, Cephalobinae, Acrobelinae; 5 ta avlod: Rhabditis, Mesorhabditis, Cephalobus, Heterocephalobus, Acrobeloides; 7 ta tur (24,8%), jami 112 ta (21,0%) nematodadan iborat.

Aphelenchida turkumi 1 ta kenja turkum: Aphelenchina; 1 ta katta oila: Aphelenchoidea; 1 ta oila: Aphelenchoididae; 1 ta kenja oila: Aphelenchoidinae; 1 ta avlod: Aphelenchoides va 2 ta turni (7,2%) o‘z ichiga oladi. Jami 27 ta (5,0%) nematodadan iborat.

Tylenchida turkumi 2 ta kenja turkum: Tylenchina, Criconematina; 1 katta oila: Criconematoidea; ta 5 ta oila:Tylodoridae, Anguinidae, Pratylenchidae, Criconematidae, Paratylenchidae; 3 ta kenja oila: Ditylenchinae, Protylenchinae, Paratylenchinae; 6 ta avlod: Cephalenchus, Filenchus, Ditylenchus, Pratylenchus, Macroposthonia, Paratylenchus; 7 tur (24,8%), jami 232 ta (43,9%) nematodadan iborat.

Qamish o‘simligida aniqlangan nematodalar A.A.Paramonovning ekologik klassifikatsiyasi bo‘yicha 4 ta ekologik guruh: parariziobiontlar – 12 tur (umumiy aniqlangan turlarning 43,1%), 162 ta individ (aniqlangan nematodalar sonining 30,4 %); eusaprobiontlar – 2 ta tur (7,1%), 44 ta (8,2%) nematoda; devisaprobiontlar – 5 ta tur (17,8%), 68 ta individ (12,7%), kasallik keltirib chiqarmaydigan fitogelmintlar 5 ta tur (17,8%), jami 98 ta (18,4%) individ; kasallik keltirib chiqaradigan fitgelmintlar 4 ta tur (14,2%), 161 ta (30.3%) individni o‘z ichiga oladi.

Pararizobiontlar guruhi Enoplida, Dorylaimida, Mononchida, Chromadorida, Monhysterida, Araeolaimida turkumlarini va Tobrilidae 2 tur (jami aniqlangan turlarning 7,1%), Dorylaimidae (2; 7,1%), Chromadoridae (1; 3,6%), Aporcelaimidae (1; 3,6%), Paradorylaimidae (1; 3,6%), Mononchidae (1;3,6%), Monhysteridae (1; 3,6%), Chronogasteridae (1; 3,6%), Plectidae (2; 7,1%) oilalarini o‘z ichiga oladi. Eusaprobiontlar guruhi 2 turga mansub nematodalarni o‘z ichiga olib, jami aniqlangan turlarning 7,1% ni tashkil etdi. Ushbu guruh vakillari Rhabditida turkumi, Rhabditidae oilasiga mansubdir.

Devisaprobiontlar guruhi Rhabditida turkumi, Cephalobidae oilasiga mansub 5 tur (jami aniqlangan turlarning 17,8%) nematodani o‘z ichiga oladi.

Kasallik keltirib chiqarmaydigan fitogelmintlar guruhi Tylenchida, Aphelenchida turkumlari va Aphelenchoididae (2; 7,1%), Tylodoridae, (2; 7,1%), Anguinidae (1; 3,6%) oilalari vakillarini o‘z ichiga oladi.

Kasallik keltirib chiqaradigan fitogelmintlar guruhi Tylenchida turkumi, Pratylenchidae (7,2%), Criconematidae (3,6%), Paratylenchidae (3,6%) oilalari vakillaridan iborat.

Qirg‘oq bo‘yi o‘simliklari katta iqtisodiy ahamiyatga ega bo‘lib, bioxilma-xillikni saqlashda, baliqlarning yashash makoni sifatida hamda ko‘payib tuxum qo‘yishida ahamiyatlidir. Shu sababli, ularni parazit nematodalardan himoya qilish muhim amaliy ahamiyatga ega.

Bundan tashqari, suv o‘tlarining tuproqni samarali va juda tez boyitib, uni madaniy o‘simliklarning o‘sishi va to‘g‘ri rivojlanishi uchun imkoniyat yaratadigan sapropel muhit hosil qilish ahamiyatlidir. Sapropelning ta’sir doirasi juda keng bo‘lib, ekologik xavfsiz universal o‘g‘it sifatida tayyor holda tavsiya qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Kiryanova Ye.S., Krall E.L. Paraziticheskie nematodi rasteniy i meri borbi s nimi. – M.: Nauka, 1971. T.2. - 521 s. [Rus tilida].

2. Krogerus R. Oekologische Studien nordis Mootarthropoden. // Comment boil. Soc. Sci. Fenn., 1960. Vol.21. No.3. - P. 1-239.

3. Seinhorst J.V. Bistriy sposob perevoda nematod iz fiksatora v bezvodniy gliserin // Nematologica. 1959. T.4. - S. 67-69. [Rus tilida].

UO‘T 576.895.132.577.215

KAVSH QAYTARUVCHI HAYVONLAR PARAZITI *NEMATODIRUS* (NEMATODA: MOLINEIDAE) AVLODI NEMATODALARI VA ULARNING TARQALISHI

Sobirov X.F.
O‘zR FA Zoologiya instituti, e-mail: xmirzo0524@gmail.com

Annotation. *The article presents the results of a study of the genus Nematodirus Ransom, 1907, found in domestic and wild animals living in some regions of Uzbekistan. A total of 113 small intestinal samples were collected from domestic sheep, goats and cattle and 10 fecal samples from wild ruminants. As a result of our research, four species of the genus Nematodirus were discovered.*

Ma’lumki qishloq xo‘jaligi hayvonlarining turli parazit nemtodalar bilan zararlanishining oshib borishi, chorvachilik sohasining rivojlanishi va mahsulot ishlab chiqarish hajmining keskin kamayishiga olib keladi.

Nematodirus avlodi nematodalari butun dunyo bo‘ylab tarqalgan va ularning 40 dan ortiq turi mavjud (Taylor et al., 2016). *Nematodirus* avlodiga kiruvchi turlar bilan asosan Yevropa davlatlaridagi uy hayvonlarining zararlanishi ko‘p uchraydi (Oliver et al., 2016). O‘zbekistonda dastlabki *Nematodirus* avlodi bo‘yicha ma‘lumotlar A. Kulmamatov (1967), B.X. Ruziyev (2001) ishlarida keltirilgan.

Mazkur tadqiqot ishining maqsadi O‘zbekistonning ayrim hududlarida uy va yovvoyi kavsh qaytaruvchi hayvonlarida parazitlik qiluvchi *Nematodirus* avlodi nematodalarining tur tarkibi va tarqalishini o‘rganishdir.

Material va metodlar. Tadqiqot uchun parazit nematodalar 2023 - yilning bahor va yoz mavsumlarida Jizzax, Sirdaryo, Surxondaryo, Samarqand, Qashqadaryo, Farg‘ona va Toshkent viloyatlaridagi qushxonalardan yig‘ildi. Jami 33 bosh uy echkisi (*Capra hircus*), 62 bosh uy qo’yi (*Ovis aries*), 18 bosh qoramoldan (*Bos taurus*) va 10 bosh Qizilqum arxaridan (*Ovis ammon ssp. severtzovi*) fekaliy namunalari olindi. Ushbu nematodalar uy hayvonlarning hazm qilish tizimining ingichka ichak qismidan topildi va 70 % etil spirtida saqlandi. Nematoda turlarini aniqlashda va rasmga olishda MEIJI ML2200 (Japan) mikroskopidan foydalanildi. Topilgan nematodalarni aniqlashda umumqabul qilingan aniqlagichidan foydalanildi (Andreeva, 1957; Ivashkin, 1989).

Natijalar va ularning muhokamasi. Olib borilgan tadqiqotlar natijasiga ko‘ra Jizzax, Sirdaryo, Samarqand, Surxondaryo, Qashqadaryo, Farg‘ona va Toshkent viloyatlaridagi kavsh qaytaruvchi o‘txo‘r hayvonlarning ovqat xazm qilish tizimining ingichka ichak qismidan topilgan nematoda turlari morfologik jihatdan tahlil qilinganda to‘rtta turga mansub nematodalar *N. oiratianus, N. helvetianus, N. abnormalis* va *N. spathiger* turlari borligi aniqlandi. Jumladan uy qo‘ylarida 3 ta tur, uy echkilarida 4 ta tur, qoramollarda 1 ta tur va Qizilqum arxarida 2 ta tur parazitlik qilishi aniqlandi va fekaliy namunalari tekshirilganda nematodirus tuxumlari topildi (jadval).


Jadval.

***Nematodirus* avlodi nematodalarining kavsh qaytaruvchi hayvonlarda uchrashi**

T/r	Tur nomi	Uchrash joyi	Hayvonlarda nematodalarni uchrashi			
			Ovis aries	*Capra hircus*	*Bos taurus*	*Ovis ammon*
1.	*N.oiratianus*	Ingichka ichak	+	+	+	-
2.	*N. helvetianus*		+	+	-	+
3.	*N. spathiger*		-	+	-	-
4.	*N. abnormalis*		+	+	-	+
Jami:			3	4	1	2

Tadqiqot davomida tekshirilgan hayvonlarning ingichka ichak qismidan topilgan nematodalar tekshirilganda, ularning ko‘pchiligi urg‘ochi nematodalar tashkil etishi va urg‘ochi nematodalar erkak nematodalarga nisbatan yirikroq ekanligi aniqlandi. Natijada o‘rganilgan nematodalarning jinslar nisbati o‘rtacha 10:1 (10♀: 1♂) ekanligi tadqiqot davomida qayd etildi. Aniqlangan turlarni tarqalishini viloyatlar kesimi bo‘yicha qaralsa *N. helvetianus* turi Surxondaryo, Qashqadaryo, Jizzax va Toshkent viloyatida uchrovchi hayvonlarda qayd etildi. *N. oiratianus* turi esa Surxondaryo, Qashqadaryo, Samarqand va Farg‘ona viloyatlarida qayd etildi. *N. spathiger* turi faqatgina Jizzax viloyatida uchrovchi uy qo‘yi va uy echkisida uchratildi. *N. abnormalis* turi Jizzax va Surxondaryo viloyatlarida aniqlandi. Tekshirilgan uy qo‘ylarining 37%, uy echkilarining 42%, qoramollarning 22%, arxarlarda esa 40% nematodiruslar bilan zararlanganligi tadqiqot davomida aniqlandi.

Nematodirus avlodi nematodalari boshqa oshqozon-ichak nematodalardan tuxumlari o‘lchamining nisbatan yirikligi bilan ajralib turadi. Tuxumlari katta (160-233 dan 87-121 mkm), shakli tuxumsimon, tiniq, o‘lchami boshqa nematodalarga nisbatan ikki baravar katta bo‘ladi. Tuxumlarda blastomerlar ko‘zga yaqqol tashlanib turishi bilan ham xarakterlanadi (rasm).



Rasm. *Nematodirus* avlodi nematodalari tuxumlarining ko‘rinishi
a – tuxum qobig‘i; b – blastomerlar.

Voyaga yetgan nematodalarning uzunligi 10-25 mm uzunlikda bo‘lib, urg‘ochilari erkak nematodalarga qaraganda yirikroq bo‘ladi. Erkak nematodalar ipsimon spikulalarining uzunligi va tugash qismining turli xildagi ko‘rinishi turlarni aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

Xulosalar. Topilgan nematoda turlari morfologik jihatdan tahlil qilindi va *Nematodirus* avlodiga mansub *N. oiratianus, N. helvetianus, N. abnormalis* va *N. spathiger* turlari aniqlandi. Ushbu nematodalarning barchasi geogelmint hisoblanib, oraliq xo‘jayinsiz rivojlanadi. Tuxumlari nisbatan yirik va blastomerlari ko‘rinib turadi. Ushbu avlod ichida *N. helvetianus* va *N. oiratianus* turlari ko‘p uchrashligi tadqiqot davomida aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Andreeva N.K. Atlas gelmintov (Strongilyat) selskoxozyaystvennix i dikix jvachnix Kazakstana. Tashkent, 1957. – 124-145 s [Rus tilida].
2. Ivashkin V. M., Oripov A. O., Sonin M. D. Opredelitel gelmintov melkogo rogatogo skota gelmintologii. M.: Nauka, 1989. – 160-168 s [Rus tilida].
3. Kulmamatov A. K poznaniyu nematodirin jvachnix jivotnix Uzbekistana: Materiali k nauchnoy konferensii Vsesoyuznogo obshestva gelmitologov. - M., 1967. Chast 5. – S. 216-219. [Rus tilida].
4. Oliver A., Pomroy W.E., Leathwick D.M. Benzimidazole resistance in *Nematodirus spathiger* and *N. filicollis* in New Zealand. // New Zealand Veterinary Journal, 2016. - P. 1-16.
5. Ruziev B.X. O gelmintofaune oves pustinnix ekosistem yuga Uzbekistana. // Parazitologiya, 2001. T. 35, Vip. 2. - S. 162-164 [Rus tilida].
6. Taylor M.A., Coop R.L., Wall R.L. // Veterinary Parasitology, 4th Edition. 2016. - P. 22-24.

UO‘T 576.895.1:599.75

ANDIJON VILOYATIDA *PARASCARIS EQUORUM* (GOEZE, 1782) NEMATODASINING TARQALISHI

Turgunov S.N.
O‘zR FA Zoologiya instituti, e-mail: turgunovsardorbek1995@gmail.com

Annotation. *The article is devoted to the study of the spread of the nematode Parascaris equorum in horses in the Andijan region. During 2022-2023 materials were collected by complete helminthological dissection of the small intestine of 59 horses, of which parascarids were found in 14 (23,7%). The intensity of invasion was 2-52 copies. Nematodes were recorded in all studied areas of the Andijan region.*


Otlar turli kasalliklarga moyil bo‘lib, ularda gelmintlar qo‘zg‘atadigan invazion kasalliklar ko‘p qayd etiladi. Gelmintlar turli organlar va to‘qimalarda parazitlik qilib, hayvonlar sog‘ligiga jiddiy zarar yetkazadi, tez toliqish, ish samaradorligi va chidamliligining pasayishi, yosh hayvonlarning o‘sish va rivojlanishdan ortda qolishi kuzatiladi (Arxipov va b. 2017; Domatskiy va b. 2002; Skryabin, Petrov, 1964).

Otlardagi gelmintozlar orasida paraskaridoz ancha keng tarqalgan. Ot paraskaridozini Ascaridae oilasiga mansub *Parascaris equorum* nematodasi qo‘zg‘atadi. U yirik nematoda bo‘lib, ingichka ichaklarda parazitlik qiladi (Arxipov va b. 2017; Kalugina, Stolbova, 2019; Skryabin, Petrov, 1964).

Tadqiqotning maqsadi – Andijon viloyati hududida *Parascaris equorum* nematodasining tarqalishini va otlarning zararlanish darajasini aniqlashdan iborat.


Material va metodlar. Tadqiqot ishlari uchun materillar 2022-2023-yillar davomida Andijon viloyatining Oltinko‘l, Andijon, Shahrixon, Buloqboshi, Jalaquduq va Qo‘rg‘ontepa tumanlaridagi fermer va uy xo‘jaliklardagi turli yoshdagi otlardan yig‘ilgan (1- rasm). Tadqiqot davomida 59 bosh ot to‘liq gelmintologik yorib ko‘rildi (Skryabin, 1928), 26 bosh otdan fekaliy

namunalari olib tekshirildi. Hayvonlar yorib ko‘rilgach, topilgan nematodalar 70% li etil spirtida fiksatsiya qilindi.



1-rasm. Tadqiqot olib borilgan hududlar (Andijon viloyati)


Natijalar va ularning muhokamasi. Andijon viloyatida olib borilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, fekaliy namunalari orqali tekshirilgan 26 ta otlardan 5 tasida (19,2%) *Parascaris equorum* tuxumlari aniqlandi (2-rasm).



2-rasm. Andijon viloyatida otlarining fekaliy namunalaridan topilgan *Parascaris equorum* tuxumi

Tuxumlarining rivojlanishi kislorod to‘liq yo‘qligi sharoitida sodir bo‘lmaydi yoki u yetarli bo‘lmaganda sezilarli darajada sekinlashadi. *Parascaris equorum* tuxumlarining invazion bosqichgacha rivojlanish davri, tashqi havo haroratiga bevosita bog‘liq. Tuxum laboratoriya sharoitida 15°C da 37 kundan keyin, 25°C da 8 kundan keyin, 28°C da 6 kundan keyin, 30°C da 5 kundan keyin va 35°C da 4 kundan keyin invaziv bosqichga yetadi. Paraskarid tuxumlarining rivojlanishi to‘xtaydigan yuqori harorat chegarasi 39°C, pastki chegarasi 9-10°C. Ikkinchi holda tuxum uzoq vaqt xayotiyligini saqlab qoladi. Yaylovda tuxumning rivojlanishi sekinroq, chunki harorat o‘zgarishlari mavjud (Skryabin, Petrov, 1964).

To‘liq va to‘liq bo‘lmagan gelmintologik yorib ko‘rish orqali tekshirilgan 59 bosh otdan 14 tasida *Parascaris equorum* nematodalari aniqlandi (3-rasm). Umumiy invaziya ekstensivligi 23,7% ni, invaziya intensivligi esa 2-52 nusxani tashkil etdi.



3- rasm. Andijon viloyatida otlardan topilgan *Parascaris equorum* nematodasi

Andijon viloyati hududida otlarda *Parascaris equorum* nematodasining jinsga oid, hamda mavsumlar kesimida uchrashi aniqlandi (jadval).

Jadval

Otlarning *Parascaris equorum* nematodasi bilan jinsga va mavsumga oid zararlanishi

Zararlanish darajalari	Jins		Mavsum			
	Erkak	Urg‘ochi	Qish	Bahor	Yoz	Kuz
IE	16,9%	6,78%	8,47%	8,47%	1,69%	5,08%
II	2-52	6-34	2-34	2-52	11	2-13

Xulosalar. Andijon viloyati otlari orasida paraskaridlarning keng tarqalganligini hamda ularning veterinariya ahamiyatini inobatga olib, paraskaridlarga qarshi profilaktik tadbirlarni ishlab chiqish zarurligini taqazo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Arxipov I.A., Limova Yu.V., Sadov K.M., Korogodina Ye.V., Xalikov S.S. Antigel'mintnaya effektivnost novix lekarstvennix form fenasala na osnove supramolekulyarnix, nanorazmernix sistem dostavki Drug Delivery System pri anoplosefalidozax loshadey // Rossiyskiy parazitologicheskiy jurnal. – M.: 2017. № 2. - S. 188-191. [Rus tilida].
2. Domaskiy V.N., Polkov V.V., Devetyarov B.A., Blagovistniy P.M. Rasprostranenie invazionnix bolezney loshadey v Zaurale // Problemi entomologii i araxnologii. Sbornik nauchnix trudov. - Tyumen, 2002. - S. 63-65. [Rus tilida].
3. Kalugina Ye.G., Stolbova O.A. Gelmintozi loshadey v usloviyax Tyumenskoy oblasti. APK: innovaionnie texnologii 2019: (2): 6-10. [Rus tilida].
4. Skryabin K.I. Metodi polnix gelmintologicheskix vskritiy pozvonochnix, vklyuchaya i cheloveka. - M.-L.: Izd.1-go MGU, 1928. - 45 s. [Rus tilida].
Xulosalar. Zarafshon vohasi sharoitida Kovul (Capparis spinosa L.) o‘simligi tabiiy biosenozda o‘sadi va unda fitofag hasharotlardan "Oq dog‘li atirgul qo‘ng‘izi" - Oxythyrea funesta, Osiyo (to‘qay) chigirtkasi.-Locusta migratoria migratoria L, O‘rgimchakkana - Tetranychus urticae Koch, shiralar – Aphididae kenja turkumiga mansubbo‘lgan beda yoki akatsiya shirasi-Aphis (medicaginis) craccivora Koch, poliz shirasi –Aphis gassypii Glov, katta g‘uza shirasi-Acyrthosiphon gassypii Mordv kabi hasharotlar rivojlanadi va osimlikka zarar etkazadi.

Bu zararkunandalardan Zarafshon vohasi tog‘ oldi mintaqasi sharoitida eng ko‘p uchraydigani va kovul o‘simligiga zarar yetkazadigani "Oq dog‘li atirgul qo‘ng‘izi" - Oxythyrea funesta ekanligi tadqiqotlar davomida aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoev tomonidan 2020 yilning 10 aprelida qabul qilingan PQ-4670 sonli “Yovvoyi holda o‘suvchi dorivor o‘simliklarni muhofaza qilish, madaniy holda yetishtirish, qayta ishlash va mavjud resurslardan oqilona foydalanish chora-tadbirlari to‘g’risida” gi qarori. Lex.uz.
2. Xolmatov X.X., Qosimov A.I. Dorivor o‘simliklar. Toshkent, 1994. - 102-103 b.
3. Bey-Bienko G.Ya., Bogdanov-Katkov N.N., Shegolev V.N. i dr. Sel'skoxozyaystvennaya entomologiya. 3-e izd. - M,- L.: Sel'xozgiz, 1955.
4. Yaxontov V.V. Urta Osiè Qishloq xujaligi zararkunandalari. - Toshkent: O‘rta va oliy maktab», 1962. – 693

UO‘T 595.782

URUG‘ MEVALI BOG‘ AGROTSENOZLARIDA ZARAR KELTIRUVCHI O‘RGIMCHAKKANA VA UNING TABIIY KUSHANDALARI

Ganiyeva Z.A., Axmedova Z.Yu.
O‘zR FA Zoologiya instituti, e-mail: zoologiya_zumrad@mail.ru

Annotation*. The article presents the results of a study of the species composition and harmfulness of arachnid insects in stone fruit gardens in the Tashkent region, as well as the role of natural enemies in regulating the number of these pests.*

Qishloq xo‘jaligi – O‘zbekiston iqtisodiyotining muhim tarmog‘i hisoblanadi. Bu tarmoq mamlakat aholisining oziq-ovqat mahsulotlariga, qayta ishlash sanoati tarmoqlarining esa xom-ashyoga bo‘lgan talabini qondiradi. Oziq-ovqat mahsulotlarining 90 foizga yaqini agrar tarmoqda tayyorlanadi. Qishloq xo‘jaligi respublikamizning iste’mol bozoriga oziq-ovqat mahsulotlari va kayta ishlash sanoatiga xom-ashyo yetkazib berish bilan birga, qishloq xo‘jaligi mashinasozligi, kimyo sanoati kabi bir qator tarmoqlar mahsulotlari uchun kafolatli bozor bo‘lib ham hisoblanadi (Xo‘jayev, 2019).

So‘ngi yillarda o‘simlikxo‘r kanalar Markaziy Osiyo respublikalarining barchasidagi bog‘ ekinlarining ommaviy va xavfli zararkunandasiga aylanib bormoqda. Bu O‘zbekistonda bog‘dorchilikka katta zarar yetkazadigan zararkunandalarning asosiy guruxlaridan biridir (Ganieva, 2021; Mansurkhudjaeva, 2021).

Ushbu zararkunanda hasharotlarga qarshi yiliga 3-4 marotaba turli akaritsidlar bilan ishlov berilishiga to‘g‘ri keladi, hususan, hozirda dunyo amaliyotida zararkunanda hasharotlarga qarshi an’anaviy qo‘llanilgan xlororganik preparatlar ekologiya va sog‘liqni saqlash sohasidagi kelib chiqayotgan muammolar sabab ma’n etilmoqda. Kimyoviy ishlovlar kana va boshqa zararkunanda xasharotlarda rezissentlik (moslanuvchanlik) xususiyatlarini keltirib chiqarib, meva bog‘laridagi kana va boshqa zararkunanda xasharotlarni zarar keltirish me’zonidan past darajada ushlab turuvchi yirtqich va parazit organizmlarni ham qirib yuborish xususiyatiga egadir. Bundan tashqari kimyoviy birikmalar qoldiqlari atrof-muhitning ifloslanishiga va ekologik vaziyatning taranglashuviga olib kelishi xech kimga sir emas.

Shu bilan zararkunanda xasharotlar va kanalar sonini cheklashda ularning tabiiy entamofaglari va akarifaglari muhim ahamiyatga egadir. Zero butun dunyoda biologik kurash tabiiy muvozanatni izdan chiqarmagan holda atrof muhitni toza sofligicha saqlab qoluvchi bezarar kurash vositasi sifatida doimo dolzarb usul xisoblanadi. Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, biz ushbu tadqiqot ishlarimizda urug‘ mevali bog‘larga zarar keltiruvchi zararkunanda xasharotlardan o‘rgimchakkanasimonlarning tur tarkibi, keltiradigan zarari va ularning sonini cheklashda tabiiy dushmanlarining ahamiyatini o‘rganishni maqsad qilib oldik.

Material va metodlar. Ilmiy-tadqiqot ishi yuzasidan Toshkent viloyatining turli tumanlarida statsionar, va marshrut izlanishlar olib borildi. Ja'mi Toshkent viloyatining 11 ta (Qibray, Toshkent, Yuqori Chirchiq, O'rta Chirchiq, Quyi Chirchiq, Zangiota, Ohangaron, Bekobod, Piskent, Bo'ka va Chinoz) tumanlaridagi fermer xo'jaliklarning gilos, olcha, shaftoli, o'rik va olxo'ri bog'larida kuzatuv ishlari olib borildi.

Urug' mevali bog'larda o'rgimchakkanasimonlarning rivojlanish dinamikasi, ularning biologiyasi, ekologiyasi va tabiiy dushmanlari bo'lgan akarifaglarining tur tarkibini, hamda ushbu zararkunandalarning sonini cheklashdagi ahamiyatini o'rganish yuzasidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlar uchun statsionar maydon sifatida Toshkent viloyatining O'rtachirchiq tumani "Qurbonali Agro" fermer xo'jaligidagi urug' mevali bog'lar tanlab olindi. Dala tadqiqot ishlari erta bahordan kech kuzga qadar (Lind, 1964; Xo'jayev, 2019.) usullari asosida olib borildi. Tadqiqotlarni amalga oshirish davrida umumiy qabul qilingan zoologik, entomologik, akorologik metodlardan foydalaniladi.

Olingan natijalar va ularning taxlili. Toshkent viloyatining deyarli barcha tumanlaridagi urug' mevali bog'larda olib borilgan dala tadqiqotlari natijalariga ko'ra kanasimonlilar (Arachnida) sinfiga, kanalar (Acariphormes) turkumiga, o'rgimchakkanalar (Tetranychidae) oilasiga mansub 2 ta tur o'simlikxo'r kana: bog' meva o'rgimchakkanasi (Tetranychus viennensis Zacner) ko'p uchrovchi tur va oddiy o'rgimchakkana (Tetranychus urticae C.L. Koch,1836) o'rtacha uchrovchi tur sifatida qayd etildi (1-jadval).

1-jadval

O'simlikxo'r kanalarning tarqalishi va tur tarkibi

№	Tur nomi	Tumanlararo tarqalishi		
		Bekobod, Bo'stonliq, Toshkent, Qibray	Zangi ota, Toshkent, Oqqo'rg'on, Ohangaron	Oxangaron, Piskent, Chinoz, Yangiyo'l
Katta oila - Tetranychoidea Oila -Tetranychidae				
1.	*Tetranychus viennensis* Zacner (meva bog' o'rgimchakkanasi)	+++	+++	+++
2.	*Tetranychus urticae* C.L. Koch, 1836 (oddiy o'rgimchakkana)	++	++	++

Izoh: *+ kam uchrovchi tur (100 ta bargga urtacha 10 - 100 tadan); ++ o'rtacha uchrovchi tur (100 ta bargga urtacha 101 - 300 tadan); +++ ko'p uchrovchi tur (100 ta bargga o'rtacha 301 tadan).*

Oddiy o'rgimchakkana (*Tetranychus urticae* C.L. Koch) dan zararlanish Toshkent viloyatining deyarli barcha tumanlarida (Bekobod, Bo'stonliq, Qibray, Zangi ota, Oqqo'rg'on, Oxangaron, Pskent, Chinoz, Toshkent va Qibray)dagi urug' mevali bog'lardagi olma, behi, nok bog'larida o'rtacha uchraydigan tur sifatida qayd etildi (2-jadval).

2-jadval

O'rgimchakkana turlarining urug' mevali daraxt turlari bo'yicha taqsimlanishi

№	Tur nomi	Qayd etilgan meva turi		
		olma	behi	nok
1.	Tetranychus viennensis Zacner	+++	++	+
2.	*Tetranychus urticae*	+++	+	

Izoh: *+ kam uchrovchi tur (100 ta bargga urtacha 10 - 100 tadan); ++ o'rtacha uchrovchi tur (100 ta bargga urtacha 101 - 300 tadan); +++ ko'p uchrovchi tur (100 ta bargga o'rtacha 301 tadan).*


Tadqiqotlarimiz davomida urug‘ mevali bog‘larda o‘rgimchakkanalardan jiddiy zarar ko‘ruvchi o‘simlik sifatida olma daraxtlari, undan keyingi o‘rinda esa behi va nok daraxtlari ekanligi aniqlandi.

O‘rgimchakkanalarning tabiiy kushandalari. Adabiyot ma’lumotlariga ko‘ra o‘rgimchakkananing ko‘pgina (qariyib 40 dan ortiq) kushandasi bor, ammo bulardan Stetorus qo‘ng‘izi (*Stethorus punctillum*), Kanaxo‘r trips (*Scolothrips acariphagus*), Yirtqich qandala (*Orius albidipennis*) va Oltinko‘z (*Chrysopa earned*) eng ko‘p ahamiyatlidir.

Kanaxo‘r trips bir kecha-kunduzda kananing 50 tagacha o‘rgimchakkananing tuxumi va lichinkalari bilan, Stetorus lichinkasi va qo‘ng‘izlari 100 tagacha, oltinko‘zning katta yoshdagi lichinkasi esa 800 tagacha o‘rgimchakkana tuxumi bilan oziqlanadi. Umuman olganda o‘rgimchakkananing tabiiy dushmanlari hammaxur va ixtisoslashgan yirtkich va tekinxo‘rlik kiladigan kushandalari xisoblanadi.

2021-yillarda Toshkent viloyatining turli tumanlaridagi urug‘ mevali bog‘larida olib borilgan tadqiqotlar natijasida o‘rgimchakkanalarning tabiiy dushmanlaridan 5 ta turkum va 7 ta oilaga mansub entamofaglarning 18 turi aniqlandi. Bular: *Anthosoridae* (2 tur), *Miridae* (2 tur), *Aeolothripidae* (1 tur), Thripidae (1 tur), *Coccinellidae* (7 tur), *Chrysopidae* (2 tur), *Surphidae* (2 tur).

Shunday qilib, urug‘ mevali bog‘ maydonlarida o‘rgimchakkana va boshqa zararli hasharotlar sonini cheklashda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan foydali hasharotlar orasida jami 17 ta tur: Hemiptera turkumidan - 4 ta (Anthoridae oilasidan 2ta Miridae oilasidan 2ta); Thysanoptera turkumidan-2ta (Aeolothripidae oilasidan 1 ta, Thripidae oilasidan 1 ta); Coleoptera turkumidan 7 ta (Coccinellidae oilasidan 7 ta); Neuroptera turkumidan 2 ta (*Chrysopidae* oilasidan 2 ta); Diptera turkumidan 2 ta (*Surphidae* oilasidan 2 ta) tur hasharotlar qayd etildi. Qayd etilgan foydali hasharotlar orasida Coleoptera turkumi vakillari dominantlik qilib, 41,2 % ni, Hemiptera turkumi esa, 23,5% ni, Thysanoptera, Neuroptera va Diptera turkumi vakillarining ulushi esa, 11,8% ni tashkil etdi (1-rasm).



1-rasm. O‘rgimchakkananing entomofaglarining miqdori (%, ko‘rsatgichda)

Urug‘ mevali bog‘ maydonlarida qayd etilgan foydali hasharotlar orasida o‘rgimchakkana sonini cheklashda ixtisoslashgan akarifaglar (Kanaxo‘r trips va Stetorus) muhim ahamiyat kasb etib, xammaxo‘rlar yirtqich entomofaglar (Yirtqich trips, Xonqizi, Oltinko‘zlar, Stetorus, Yirtqich qandalalar) ham zararkunanda sonini cheklashda ishtirok etadi (2-rasm).


A


B

2-rasm. O‘rgimchakkana va uning tabiiy dushmanlari

A - O‘rgimchakkana kolloniyasi va uning tabiiy kushandasi *Psyllobora bidintiduopunctata*; B - *Coccinella septempunctata* lichinkasi va imagosi, *Harmonia axyridis* lichinkasi, imagosi va tuxumi

Shunday qilib, kimyoviy usulning juda zarur bo‘lgan sharoitda entomofaglar uchun bezarar bo‘lganlarini qo‘llaganda yoki zararkunanda sonining iqtisodiy zarar keltirish me’zonidan past bo‘lgan sharoitlarda umuman qo‘llanilmasligi agrotsenozlar ekosistemasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatib, dalalarda sog‘lom muhitni yarata oladi va ixtisoslashgan va xammaxo‘r entomofaglar o‘rgimchakkana sonini to‘liq nazoratga olish qobiliyatiga ega bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. GanievaZ.A., Mansurkhudjaeva M.U., Akhmedova Z.Yu., Ganiev K, Burieva Kh.P, Sobirov O.T. Study of Main Pests of Seed Orchards of Tashkent Region in the Fall Season // Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry (TOJQI), 2021. Vol.12. – P.4591-4598.

2. Mansurkhudjaeva M.U, Ganieva Z.A., Zokirov I.I, Daminova D.B., Mirzaeva G.S, Burieva Kh.P. Biotsenotic relations of aphids (Homoptera, Aphidoidea) with acclimatized trees and shrubs // NVEO – Natural Volatiles & Essential Oils, 2021. Vol.8. – P. 4778-4790.

3. Xo‘jayev Sh.T. Umumiy va qishloq xo‘jalik entomologiyasi hamda uyg‘unlashgan himoya qilish tizimining asoslari. - Toshkent: Yangi Nashr Nashriyoti, 2019. - 377 b.

4. Lindt I.I. Biologiya obiknovennogo pautinnogo klesha (Tetranychus telarius L.) v Yujnom Tadjikistane. - Dushanbe, 1964. - 115 s. [Rus tilida].

UO‘T 595.782

MARKAZIY FARG‘ONA MEVALI BOG‘LARIDA UCHROVCHI YIRTQICH VA ENTOMOFAG HASHAROTLAR

Kimyonazarov S.Q.

O‘zR FA Zoologiya instituti, e-mail: kimyonazarov92@mail.ru

Annation. *The article presents information on the prevalence and species composition of predatory and entomophagous insects found in the gardens of Central Fergana.*

So‘nggi yillarda bog‘dorchilik, ayniqsa intensiv bog‘larning kengayishi tufayli respublikamizda qishloq xo‘jaligi ekinlari tarkibidagi o‘zgarishlar yillar davomida oziq-ovqat

zanjiri strukturasining o‘zgarishiga olib keldi. Yetishtirilayotgan mevani zararkunandalardan himoya qilish, unga qarshi kurash tadbirlarining ahamiyatini oshirish uchun ilmiy yondashuvni talab qiladi.

Zararkunanda hasharotlar sonini cheklashda ularning tabiiy entomofaglari muhim ahamiyat kasb etadi. Zero butun dunyoda biologik kurash tabiiy muvozanatni izdan chiqarmagan holda atrof muhitni toza sofligicha saqlab qoluvchi bezarar kurash vositasi sifatida doimo dolzarb usul hisoblanadi.

Bugungi kunda tabiatda 224 oilaga tegishli 10000 dan ortiq entomofag turlari aniqlangan, ularning 70 foizi agrobiotsenozdagi eng xavfli zararkunandalar bilan oziqlanishi aniqlangan (Rakhmanova, 2020).

Hymenoptera turkumi vakillari parazit hasharotlarning turlarga eng boy guruhlaridan biri bo‘lib, potentsial ravishda dunyodagi hasharotlarning 20% dan ortig‘ini tashkil qiladi (Smith 2008). Jumladan F.S. Abdunabiyev (2017) o‘z ilmiy izlanishlarida quyidagidek ma’lumotlarni keltirib o‘tgan. Jumladan, mevali ekinlar agrobiotsenozida 120 dan ortiq turdagi kuya tabiiy dushmanlari qayd etilgan bo‘lib, Qozog‘istonda olimlar yirtqichlarning 14 turini va 20 ta parazitlarni ro‘yxatga olishgani to‘g‘risida to‘xtalib o‘tgan.

D.A. Milko (2002) o‘z tadqiqotlari davomida olma daraxti zararkunandalarining entomofaglarini o‘rgangan. Unga ko‘ra D.A. Milko (2002) ilmiy izlanishlarini olib borgan Qirg‘iziston respublikasining Achchiqko‘l viloyatidagi olma daraxtlarida zararkunandalik qiluvchi Tortricidae oilasi vakillari bilan oziqlanuvchi 21 tur parazit hamda 5 tur yirtqich hasharotlar jamoasi ekologiyasi va populyatsiyasining dinamik soniga oid ma’lumotlarni keltirib o‘tgan.

Material va metodlar. Bizning ilmiy izlanishlarimiz 2022-2023 yillarda Markaziy Farg‘onaning Uchko‘prik tumani Davron, Qudratjon Komiljon Asadbek, Madina Odina bog‘i, Musayev Muxammadsoli, Nozigul Zilola bogi, Azizaxon Shuxratjon, Adxamjon Masturaxon bog‘i, Rishton tumanida Shokir polvon, Otaxon, Ilxomjon zamini, Ozoda Xusnida ziyosi, Abduxalimboy zamini, Maftunkor xayot zavqi, Bog‘dod tumani Bog‘dod diyori Jannat, Tongi sabo, Shokirjon bog‘i, “Xayotbek bog‘i, Charosxon o‘rik bog‘i shuningdek Yozyovon, Toshloq, Buvayda, Oltariq tumanlarida hamda Namangan viloyatining Mingbuloq, Andijon viloyatining Bo‘z va Ulug‘nor tumanlarida joylashgan bog‘dorchilik fermer xo‘jaliklari hududlarida amalga oshirildi.

Biomateriallarni yig‘ishda asosan yorug‘lik tuzog‘i hamda sachokdan foydalanildi. Morfologik tuzilishi Stereomikroskop SMZ-161-TL orqali kuzatildi. G‘umbaklarni yig‘ishda daraxtlarga belbog‘ bog‘lash hamda mevali daraxtlar atrofidagi tuproqlarni 10 smgacha bo‘lgan qismini elakdan o‘tkazish orqali yig‘ildi.

Yig‘ilgan materiallar O‘zR FA Zoologiya instituti Entomofaglar ekologiyasi va biousullarning nazariy asoslari laboratoriyasida kolleksiya qilindi hamda tur darajasida identifikatsiya qilindi. Turni aniqlashda aniqlagich kitoblardan va mutaxasis olimlar yordamidan foydalanilgan holda amalga oshirildi.

Natijalar va ularning muhokamasi. Olib borilgan tadqiqotlar natijalari asosida mevali bog‘larda quyidagi foydali hasharotlar aniqlandi, ya’ni Hemiptera turkumidan 3 oilaga mansub 5 tur uchrashi kuzatildi. Ular quyidagilar: *Nabis ferus* Linnaeus, 1758 (1-A rasm), *Deraeocoris punctulatus* Fallen, 1807 (1-B rasm), *Orius niger* Wolff, 1811 (1-C rasm), Campylomma verbasci Meyer-Dur, 1843 (1-D rasm), *Nabis brevis ferghanensis* Remane, 1964 (1-F rasm).

Yuqorida keltirilgan Hemiptera turkumi vakillarining har biri yirtqich ya’ni zoofag hasharotlar bo‘lib turli hasharotlarning tuxumi, lichinkasi va voyaga etgan yetuk formalari bilan oziqlanadi. Bu yirtqich turlar ichida Nabis brevis ferghanensis (Remane, 1964) turi respublikaning Farg‘ona vodiysi uchun xos tur hisoblanadi. Dastlab Kerzhner 1981 - yil ushbu tur haqida ma’lumot keltirib o‘tgan (Yesenbekova, 2008).


A

B

C

D

F

1-rasm. Mevali bog‘larda yirtqichlik qilib hayot kechiruvchi Hemiptera turkumi vakillari

A. *Nabis ferus* Linnaeus, 1758, B. *Deraeocoris punctulatus* Fallen, 1807, C. *Orius niger* Wolff, 1811, D. *Campylomma verbasci* Meyer-Dur, 1843, F. *Nabis brevis ferghanensis* Remane, 1964.

Coleoptera turkumidan bir oila yani Coccinellidae oilasiga mansub 6 tur aniqlandi. Ular quyidagilar: *Adalia bipunctata* Linnaeus, 1758 (2-A rasm), *Hippodamia tredecimpunctata* Linnaeus, 1758 (2-B rasm), *Propylea quatuordecimpunctata* Linnaeus, 1758 (2-C rasm), *Adonia variegata* Goeze, 1777, *Exochomus flavipes* Thunberg, 1781, *Coccinella septempunctata* Linnaeus, 1758.

Coccinellidae oilasi vakillari deyarli hammasi zoofag bo‘lib lichinkasi ham voyaga yetgan kattalari ham yirtqichlik qilib hayot kechiradi, bu orqali mevali bog‘lardagi zararkunanda hasharotlarni qirib qishloq xo‘jaligiga katta foyda keltiradi.

Hymenoptera turkumi vakillari orasida bog‘dorchilik xo‘jaliklarida zararkunanda hasharotlarda parazitlik hamda yirtqichlik qilib zararkunanda hasharotlarning sonini cheklab turishda muhim ahamiyat kasb etadi. Yirtqich va parazit hasharotlar ichida turlar sonining boyligi bilan ajralib turadi. M.K. Raxmonova (2018) o‘z ilmiy izlanishlari davomida birgina olma mevaxo‘rida Hymenoptera turkumining 6 oilaga mansub 15 turi parazitlik qilishi haqida alohida to‘xtalib o‘tgan.


A

B

C

2-rasm. Mevali bog‘larda keng tarqalgan Coccinellidae oilasi vakillari
A. *Adalia bipunctata* Linnaeus, 1758, B. *Hippodamia tredecimpunctata* Linnaeus, 1758, C. *Propylea quatuordecimpunctata* Linnaeus, 1758**.**

Tadqiqotlarimiz davomida Vespidae oilasiga mansub *Polistes wattii* Cameron, 1900, *Vespula germanica* Fabricius, 1793, *Vespa orientalis* Linnaeus, 1771 turlari Markaziy Farg‘onada joylashgan mevali bog‘larda keng tarqalgani kuzatildi. Ushbu turlar yirtqichlik bilan hayot kechirib zararkunanda hasharotlar bilan bir qatorda foydali hasharotlarni hamda pishiqchilik davrida mevalarni ham iste’mol qilib hosilga birmuncha zarar etkazadi.

Xulosalar. Shunday qilib, yildan – yilga aholi sonining oshib borishi, bu o‘z navbatida aholini sifatli oziq - ovqat mahsulotlarga bo‘lgan talabini oshiradi. Mevali bog‘larda yirtqich hamda entomofag hasharotlarning ko‘payishi zararkunanda hasharotlarning sonini cheklab zararini ham sezilarni darajada kamaytiradi.

Yuqorida keltirilganlardan hulosa qilgan holda shuni aytish mumkinki, mevali bog‘ agrotsenozlari foydali xasharotlar tur tarkibiga juda boy bo‘lib, zararkunanda hasharotlarga qarshi kurashda ulardan oqilona foydalanish uchun daraxtlarga agrotexnik ishlov berishda bo‘g‘imoyoqlilar majmuasining shakllanish muddatlari va tabiiy dushmanlarining faoliyati kabi muhitning turli faktorlarini hisobga olgan holda agrotexnika chora tadbirlarini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish juda muhim omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Abdunabiev F.S. Biologicheskaya zashita yabloni ot yablonnoy plodojorki (*Cydia pomonella* L.) v usloviyax Severnogo Tadjikistana: Avtoref. ... diss. kand. sel-xoz. nauk. - Dushanbe, 2017. - 22 s. [Rus tilida].

2. Milko D.A. Entomofagi listovertok – vrediteley yabloni v Priissikkule., Entomologicheskie issledovaniya v Kirgizii. – Bishkek, 2002. Vip. 22. – S. 69-78 [Rus tilida].

3. Raxmonova M.K. Olma mevaxo‘ri (*Carpocapsa pomonella*) Bioekologiyasi va uning miqdorini boshqarishda uyg‘unlashgan kurash usullarini ishlab chiqish: Qish. xo‘j. fan. fal. dok. diss. ... avtoreferati. - Toshkent. 2018.- 22 b.

4. Smith M.A., Rodriguez J.J., Whitfield J.B., Deans A.R., Janzen D.H., Hallwachs W., & Hebert P.D. Extreme diversity of tropical parasitoid wasps exposed by iterative integration of natural history, DNA barcoding, morphology, and collections // Proceedings of the National Academy of Sciences, 2008. T. 105 (34). – P. 12359-12364.

5. Pakhmanova M.K. et al. Systematic analysis of the dominant types of entomophages in fruit orchards // Pelita: Jurnal Penelitian dan Karya Ilmiah. – 2020. – P. 26-31.

6. Yesenbekova P. A. Xishnie klopi (Heteroptera) Yugo-Vostochnogo Kazaxstana // Entomologicheskie issledovaniya, 2008. – T. 16. – S. 79-86 [Rus tilida].

UO‘T 595.7.632/799.15

DUNYO AMALIYOTIDA VA O‘ZBEKISTONDA TERMITLARGA QARSHI KURASHISH VOSITALARI VA USULLARI

Rustamov Q.J.[1], G‘anieva Z.A.[2], Xashimova M,X.[2], Xolmatov B.R.[2], Axmedov V.N.[2]

[1]O‘zR FA Zoologiya instituti huzuridagi Respublika termitlarga qarshi kurashish markazi, [2]O‘zR FA Zoologiya instituti, e-mail: termit_markaz@mail.ru

Annotation. *The interest of biologists in studying the life of termites is increasing, since the termite problem has affected many countries of the world. The Republican Center for Termite Control has developed a new design of anti-termite bait for implementation in the termite control system. Transportation and packaging of products have been improved.*

Dunyoda termitlarning 3 mingga yaqin turi ma’lum. Termitlar o‘zining butun tarixiy rivojlanishi jarayonida son jihatdan mutassil ko‘payib borar ekan, urbanlashgan xududlardava biogeotsenozlarga kirib borib, o‘z arealini nihoyatda kengaytirib yubordi. Butun dunyoda qurilmalar va inshootlarni biozararlovchilar ta’siridan himoya qilish va saqlash jiddiy xarajatlarni va mehnatni talab qiladigan tadbirdir. Osiyo, Afrika, Avstraliya va Amerika qit’alaridagi tropik mamlakatlarda termitlar nafaqat odamlar yashaydigan inshootlar va binolarni, balki ko‘plab madaniy o‘simliklar plantatsiyalarini ham zararlaydi – ularni termitlardan himoya qilish nihoyatda katta ahamiyatga ega.(Amburgey, 1981).

Ma’lumki termitlar hayot tarziga ko‘ra, yashirin hayot kechiradigan hasharotlar toifasiga kiradi. Shu yo‘l bilan ular o‘zlarini tashqi muhitdan ajratib, uyada hosil qilgan “steril” muhitda yashaydi, harakatlanadi va faoliyat yuritadi.Termitlarning bunday faoliyat yuritishi ularga qarshi kurashish, tarqalishini monitoring qilish va aniqlashni bir muncha murakkablashtiradi. Shunga qaramasdan, insoniyat tarixida termitlarga qarshi kurash ishlari olib borilgan va bir nechta yo‘nalishlari ishlab chiqilgan. Hozirgi kunda kimyoviy yoki biologik preparatlarni termitlarga qarshi qo‘llashda keng foydalaniladigan usullarga: ishchi eritma tayyorlash va purkash; yem-xo‘rak tayyorlash va o‘rnatish usullariga ajraladi.Tajribada sinalgan usullar ichida keng qo‘llanilayotgan va yuqori samara berayotgan usullardan biri, bu - zaharli yem-xo‘raklardan foydalanish usulidir. Bu usuldan hozirgi kunda Yevropa va AQSh mamlakatlarida Germaniyaning BASF firmasi ishlab chiqarayotgan zaharli yem-xo‘raklardan (Amburgey. 1981) keng foydalanib kelinmoqda (1-2-rasm). Bu yem-xo‘rakka qo‘shiladigan modda Novaluron bo‘lib, miqdori 0,5% ni tashkil etadi. Bu modda termitlarni xitin qoplamini yemiruvchi xususiyatga ega.

Termitlarga qarshi turli-xil kimyoviy preparatlardan tajribalarda foydalanilgan. Jumladan, fosfor organik moddalar, xlororganik moddalar, sintetik peritroidlar va xitin ingibitor preparatlaridir. Xorijda olib borilgan bir qator tadqiqot natijalariga ko‘ra, xitin ingibitor moddalar eng maqbul deb topilgan. Chunki bu moddalar ekologik nuqtai nazardan optimal tarkibga ega, hasharotlarga uzoq muddatda ta’sir qilish hususiyati termitlarning koloniyasidagi sezgir va “aqlli” hatti harakatlari uchun mos keladi degan fikrga kelingan.



1-rasm. Germaniyaning BASF firmasi tomonidan ishlab chiqariladigan yem-xo‘rak

Em-xo‘rakdan foydalanishda bino atrofini termitlardan himoya qilish maqsadida qo‘rg‘on sifatida 2-3 metr oralatib yem-xo‘rakni yerga joylashtirib chiqiladi va har 3 oyda nazorat qilib turiladi, agar yem-xo‘rakka termitlar kelganligi aniqlansa, uni zaharli preparat joylashgan qismi almashtirib qo‘yiladi va kuzatishda davom etiladi (2-rasm). Shu usulda binoni doimiy nazorat qilib turiladi (Rustamov, 2021).



2-rasm. Germaniyaning BASF firmasi tomonidan ishlabchiqarilgan em-xo‘rakni termit tarqalgan hududda qo‘llash

Xuddi shunday yem-xo‘rak AQSh ning Dow Agro Sciences firmasi tomonidan ham ishlab chiqilgan bo‘lib, uning tarkibida Diflyubenzuronning 0,05% li eritmasi singdirilgan yog‘ochdan foydalaniladi. Bu yem-xo‘rak nisbatan soddaroq tuzilishga ega. Uni binoning atrofiga har 1-2 metr oraliqda o‘rnatib chiqiladi. Xar oyda, agar termit hujumi ehtimoldan yiroq bo‘lganda 2 oyda bir marta kuzatib nazorat qilib turish talab etiladi. Ta’sir etuvchi modda laboratoriya tajribalarda sut emizuvchilarga nisbatan eng kam ta’sir etish xususiyatiga ega ekanligi aniqlangan. Shu bilan birgalikda, termitlarni jalb qilish maqsadida 20 ml suv yoki shakar eritmasi bilan namlab turish maqsadga muvofiq. Agar termit yem-xo‘rakka tushganligi aniqlansa, unga yaqin bo‘lgan lekin boshqa yem-xo‘rakdan qarama-qarshi tomonga yana qo‘shimcha xo‘rak o‘rnatilish talab etiladi.

Termitlar faoliyatidan keladigan iqtisodiy zarar nihoyatda yuqori hisoblanganligi tufayli, ulardan materiallarni, jumladan yog‘ochga aloqador materiallarni himoya qilish nafaqat O‘zbekistonda, balki Markaziy Osiyoda va boshqa chet elmamlakatlarida ham hal qilinishi lozim bo‘lgan dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Mamlakatimizda bugungi kunda, termitlarga qarshi samarali kurash vositalarini ishlab chiqish, hamda binolarni, strategik ob’ektlarni va madaniy-tarixiy yodgorliklarni ulardan himoya qilishga alohida e’tibor berilmoqda, bu borada O‘zR FA Zoologiya instituti huzuridagi Respublika termitolarga qarshi kurashish markazi DM da ham salmoqli ishlar olib borilmoqda, jumladan: *Anacanthotermes*

avlodi termitlariningoziqa yig‘ishi, oziqlanishi, namlikka nisbatan intiluvchanligi,o‘zaro oziqlanirishi kabi xususiyatlarini xisobga olgan xolda yangi yem-xo‘raklarini yaratishda 3 xil ko‘rinishdagi yem-xo‘raklar konstruksiyasi ishlab chiqilib sinovdan o‘tkazildi:

Yem-xo‘rak №1 To‘rt burchak shaklidagi hajmi - 140×40×10 mm bo‘lgan yangi ko‘rinish va tarkibdagi “Antitermit” yem-xo‘ragi tayyorlandi.Em-xo‘rakning korpusi tekis to‘rtburchak shaklli 20x7sm. o‘lchamdagi karton qog‘ozidan konvert shaklida ishlangan va bir tomoni berkitilib, boshqa tomonidan oziqa substrati solinib, so‘ngra berkitiladi. Yem-xo‘rakning oziqa asosi sifatida yangi tarkib ishlab chiqildi bunda uglevod va kimyoviy preparat (0,05 g.) shimdirilgan maydalangan kungaboqar poyasi (100 g.) joylashtirilgan bo‘ladi. Yem-xo‘rakning umumiy og‘irligi 30±2 g., undan 5 g. karton qog‘ozining og‘irligi, oziqa aralashmasining og‘irligi, yoki tabiiy komponent (birlashtirilgan: uglevod+vitamin+mineral) (3-rasm, A).

Yem-xo‘rak №2 Termitlarning namlikka bo‘lgan intiluvchilanligini xisobga olinib, termitlarga nisbatan samaradorligini oshirishda doimiy nam xolatdagi yem-xo‘raklar ishlab chiqishda piaflor yoki floristik shimgichdan foydalanildi. Qalinligi 3mm, yarim aylana shaklidagi suv shimdirilgan, piaflora zaharli yem-xo‘raklar solingan konteynerning ustiga qo‘yiladi. Bu zaharli yem-ho‘rak tarkibini qurib qolishdan saqlashi ko‘zda tutilgan (3-rasm, B).



A



B

3-rasm. Yem-xo‘rak

A - karton konvert shaklidagi ichiga insektitsid va kimyoviy modda shimdirilgan oziqa modda to‘ldirilgan yem-xo‘rak №1; B - Namlik xolatini uzaytirish uchun piaflor solingan yem-xo‘rak №2.


Em-xo‘rak №3 “Antitermit” em-xo‘rak konteyner to‘rt burchak shaklda, korpusi presslangan gofre qog‘ozdan tashkil topgan bo‘lib og‘irligi-5g. Uzunligi 140 mm, eni 40 mm, qalinligi 10 mm Yem-xo‘rakning yadro qismiga o‘rnatilgan kimyoviy moddaning yelim bilan aralashmasi singdirilgan oziqaning og‘irligi-5 g bo‘lib umumiy massa-20 g ni tashkil etadi.

“Antitermit”em-xo‘rak tayyorlash uchun foydalaniladigan xom ashyo va mahsulotlarning 90% mahaliy xom ashyolardan tayyorlanadi- yem-xo‘rakning oziqa tarkibi kungaboqar poyasi *Helianthus annus* L. namligi 5% dan oshmagan xolda, biriktiruvchi qo‘shimcha - KMS yelimi (karboksi-metilsellyuloza)dan iborat (4-rasm).

Respublika termitlarga qarshi kurashish markazining termitlar zararini bartaraf etishda olib borayotgan ko‘p yillik tajribalariga asosan xar qanday yem-xo‘rakni o‘rnatgandan so‘ng termitlarning zaharlanish belgisining boshlanishi 30 kundan keyin kuzatiladi. Termitlarning nobud bo‘lish jarayoni 3 oy davomida kuchayib boradi. Qoldiq ta’siri 6 oydan kam bo‘lmagan muddat davom etadi.

Sinovdan o‘tkazilgan 3 ta yem-xo‘rak orasida tajriba sifatida ishlab chiqilgan “Antitermit” yem-xo‘ragi (Em-xo‘rak №3) katta dala tadqiqotlarida termitlarning tabiiy tarqalgan joylaridagi termit uyalarida, hamda aholi yashash joylaridagi turar joy inshootlarida mutlaqo yangi kurash vositasi sifatida yuqori biologik samaradorlik namoyon etdi. Bundan

tashqari mazkur yem-xo‘rak qulay shaklli konstruksiyaga va yuqori attraktantlik va insektitsidlik xususiyatiga ega bo‘lib, transportirovkasi va bino va inshoatlarga o‘rnatilish tartibi ham ancha qulaydir.



4- rasm. Yangi “Antitermit” yem xo‘ragining sxematik ko‘rinishi

Sinovlardan o‘tkazilgan yangi namunadagi termitlarga qarshi «Antitermit» yem-xo‘ragining (Em-xo‘rak №3)sanoat namunasi O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligi tomonidan ro‘yxatdan o‘tkazildi hamda termitlarga qarshi yem-xo‘rakning yangi sanoat namunasi uchun № SAP 02151 raqamli patent olindi.

Shunday qilib, Respublika termitlarga qarshi kurashish markazida yem-xo‘raklarni transportirovkasi va qadoqlash mahsulotlarini takomillashtirish termitlarga qarshi kurash tizimida joriylashtirish uchun «Antitermit» yem-xo‘ragining yangi shakldagi konstruksiyasi ishlab chiqildi. Shuningdek «Antitermit» yem-xo‘ragining termitlarga qarshi foydalanish qoidalari bo‘yicha yo‘riqnoma tayyorlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Amburgey Jerry J., Johnson Glen N., Etheridge Joed J. A method to mess-produce decoyed wood termite bait blocks // J. Ga. Entomology. Soc., 1981. 16 № (1). - P. 112-115.

2. Rustamov K.J. Termitlarga qarshi kurashda insektitsidli vosita tayyorlash usulini ishlab chiqish: Dissertatsiya himoyasisiz ixtiro patenti asosida biol. fan. falsafa doktori taqdimnoma. - Toshkent. 2021. - 33 b.

3. www.mmg.com. - US Patent #D471,950 Witmire Micro-gen // Prescription treatment

UO‘T 598. 2:591.5

O‘ZBEKISTONDA QUSHLARNING BIOZARARLANISHDAGI ISHTIROKI: MUAMMO VA YECHIMLAR

Xolboyev F.R.[1], Shodiyeva F.O.[1], Barotov A.H.[2]
[1]O‘zbekiston Milliy universiteti, [2]Buxoro davlat pedagogika instituti,
e-mail: xolboevfaxriddin66@gmail.com

Annotation*. In recent years, adaptation and concentration in a large number of predominantly synanthropic animal species, including birds, have been observed in human habitats. Under such conditions, the types and scale of associated biological damage are expanding. The paper discusses the issues of determining the participation of synanthropic species in biological damage, as well as assessing existing problems and their prevention.*

Urbolandshaftlarda hayvonot dunyosini muhofaza qilish, foydali turlarni jalb etish, faunaning inson manfaatlariga mos ravishda shakllanishini ta’minlash hamda biozararlanishda faol ishtirok etuvchi turlarning sonini boshqarish masalalari hozirgi kunda ham dolzarb bo‘lib qolmoqda. Bu o‘z navbatida odamlar va qushlar orasidagi munosabatlarni optimallashtirish bilan bog‘liq qator masalalarni hal etishni taqazo etadi (Jabborov, 2008; Xolboyev, 2005; Xolboyev, 2010).

Bugungi kunda respublikamizda dehqonchilik yuritish, ishlab chiqarish, maishiy, turar joy binolari va boshqa inshootlarni qurishda, binolarning tashqi fasadlarini jihozlashda ularga nisbatan hayvonot dunyosi, jumladan qushlarning ta’siri hamda uning oqibatlari hisobga olinmaydi. Natijada bu kabi joylarda ko‘p sonda uchrovchi va sinantropizatsiyalashgan qush turlarining ko‘payishi va yashashi uchun qulay sharoitlar yaratiladi, qushlarning biozararlanishdagi ishtiroki kuchayib borishi kuzatiladi.

Material va metodlar. Tadqiqotlar O‘zbekistonning tabiiy cho‘l bilan chegaradosh bo‘lgan Buxoro viloyatining barcha tumanlarida va Buxoro shahrida olib borildi. Biz tomonimizdan ishlab chiqilgan “Qushlarning sinantroplik darajasini aniqlash mezonlari” asosida viloyatdagi aholi yashash joylarida uchrovchi sinantrop qushlar faunasining tur tarkibi aniqlandi. Qushlarning sinantroplik darajasini aniqlash mezonlari sifatida ularning 10 ga.gi o‘rtacha soni, uchrash xususiyati, inson xo‘jaligi bilan bog‘liqlik darajasi va odamni o‘ziga yaqinlashtirish masofasi inobatga olindi.

Natijalar va ularning muhokamasi. Dastlabki tadqiqotlar natijasida viloyatda ko‘k kaptar - *Columba livia*, qumri - *Streptopelia decaocto,* musicha - *Streptopelia senegalensis,* oddiy chug‘urchuq - *Sturnus vulgaris,* mayna - *Acridotheres tristis,* zag‘izg‘on - *Pica pica,* go‘ng qarg‘a - *Corvus frugilegus,* dala chumchug‘i - *Passer montanus* sinantrop turlar ekanligi qayd etildi.

Ta’kidlash lozimki, qayd etilgan sinantrop turlar urbofil turlar ham ham sanaladi. Ular ba’zan tabiiy va madaniy landshaftlar chegarasida uchrasada, ularning tarqalishi, ekologik xususiyatlari va umuman hayotiy sikllari to‘liq inson xo‘jaligi bilan uzviy bog‘liq. Viloyatdagi sinantrop turlarning madaniy landshaftlarga nisbatn moslashish evolyutsiyasi bugungi kunda ham davom etmoqda.

Ma’lumki, keyingi yillarda ayniqsa yirik shaharlarda, chorvachilik va parrandachilik xo‘jaliklarida hamda don mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash korxonalarida va shu kabi qushlar uchun ozuqa va boshpana vazifasini o‘tovchi joylarda sinantrop turlarning ko‘p sonda yig‘ilishi, yildan-yilga populyatsiya zichligining oshib borishi kuzatilmoqda. Natijada sinantrop turlarning ifloslantiruvchi omil sifatida shovqinni yuzaga keltirishi, antisanitariya holatining shakllanishida ishtiroki, oziq-ovqat mahsulotlarini ifloslantirishi, chorva mollari va parrandalar bilan hamtavoqlik va sig‘indilik ko‘rinishidagi biotsenotik munosabatlarida bo‘lishi kabi turli biozararlanishlardagi ishtiroki ham oshib bormoqda.

Mazkur ishda asosiy e’tibor sinantrop qush turlarining epidemiologik jihatdan biozararlanishlardagi ishtirokni o‘rganishga qaratildi. Jahonda qushlarning turli parazitlar bilan kasallanishi, ularni tashishi va tarqatishi orqali noqulay epidemiologik vaziyatni yuzaga keltirishi va boshqa biozararlanishlarda ishtirok etishi bo‘yicha juda ko‘p tadqiqotlar olib borilgan, ammo O‘zbekistonda yovvoyi qushlarning ektoparazitlari deyarli o‘rganilmagan.

2022-2023 yy. Buxoro viloyatida keng tarqalgan ko‘k kaptar - *Columba livia,* go‘ng qarg‘a - *Corvus frugilegus* va mayna - *Acridotheres tristis* ning tanasi va uyasida uchrovchi ektoparazitlarning tur tarkibi aniqlandi hamda ularning qushlar tanasi va uyasida mavsumiy tarqalishi, zararlanish darajalari o‘rganildi (jadval).

Jadval

Dastlabki o‘rganishlar natijasida Buxoro viloyatida uchrovchi sinantrop qush turlarining tanasi va uyalarida qayd etilgan ektoparazitlarning tur tarkibi

T/r	Parazit turi	*Columba livia*		*Corvus frugilegus*		*Acridotheres tristis*	
		Tanasida	uyasida	tanasida	uyasda	tanasida	uyasida
1	Kanalar: *Dermanyssus hirundinis*	+	+	+	+	+	+
2	*Dermanyssus gallinae*	+	+	+	-	-	+
3	*Dermanyssus passerinus*	+	+	+	-	-	-
4	Burgalar: *Ceratophillus gallinae*	+	+	+	+	-	+
5	*Ceratophillus hirundinis*	+	+	-	-	-	+
6	*Ceratophillus affinis*	+	+	+	-	+	-
7	Qattiq qanotlilar: *Attagenus unicolor*	-	+	-	+	-	-
Jami:		6	7	5	2	2	4

Dastlabki o‘rganishlar natijasida o‘rganilgan qushlarda 7 turdagi ektoparazitlarning uchrashi aniqlandi. Ularning 4 turi kanalar, 3 turi burgalar va 1 turi qattiq qanotlilarga tegishli. Parazitlarning 6 turi qushlarning uyasi va tanasida va faqat bir turning (Attagenus unicolor) qushlarning uyasidan topildi.

Sinantrop turlarning chorva mollari va parrrandalar bilan yaqindan trofik aloqada bo‘lishi ularning turli kasallik tug‘diruvchi parazitlarni tarqatish ehtimollarini oshishiga sabab bo‘ladi. Dunyoda bu kabi biozararlanishlarga qarshi kurash bo‘yicha hozirgi vaqtda ikkita alternativ usullar muhokama qilinmoqda. Birinchisi, biozararlanturuvchi faoliyatga ega bo‘lgan turlar sonini keskin qisqartirish, ya’ni ularni avitsid vositalar yordamida qirish (eliminatsiya), ikkinchisi, ekologik vositalarni qo‘llash, ya’ni qushlarning hatti-harakatini boshqarish orqali ularning sonini saqlab qolish va hududiy qayta taqsimlanishini ta’minlashga (ekologik usul) asoslangan (Ilichev, 2007).

Biz o‘z tadqiqotlarimizni ekologik usulda, ya’ni qushlarning hatti-harakatini boshqarish orqali ularning sonini saqlab qolish va hududiy qayta taqsimlanishini ta’minlash asosida olib bordik. Bunda sinantrop qushlar ko‘p yig‘iladigan parrandachilik va chorvachilik xo‘jaliklarida, binolarning cherdaklarida ularning ozuqlanish, dam olish, tunash va ko‘payish statsiyalarida ularning bu joylarda uchrashiga to‘sqinlik qiluvchi vositalar qo‘llanildi. Mazkur usulning samaradorligi quyidagilardan iborat: qushlarning bu kabi joylarda yig‘ilishining oldi

olinadi, populyatsiya soni saqlab qolinadi, qushlarnin qayta taqsimlanishi, ya'ni boshqa joylarga tarqalish imkoniyati paydo bo'ladi. Umuman kelgusida turar joy va ma'muriy binolarni, xo'jalik yuritishga ixtisoslashgan turli inshootlarni qurishda sinantrop qushlarni ekologik omil sifatida hisobga olish, sinantrop utrlarning biozararlanishdagi ishtirokini kamaytirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Jabborov A.R. O'zbekistonda qushlar keltirib chiqaradigan bioshikastlanishlarning nazariy va amaliy jihatlari // Hayvonlar ekologiyasi va morfologiyasi/ SamDU ilmiy ishlar to'plami. – Samarqand, 2008. – B. 38-44.

2. Xolboyev F.R. Agroekotizimlarda ornitofaunaning ishtiroki va uni boshqarish masalalari // Fan yutuqlari va qishloq xo'jaligini rivojlantirish istiqbollari: Ilmiy–amaliy anjuman materiallari. – Samarqand, 2005. – B. 361–362.

3. Ilichev V.D. i dr. Zashita samoletov i drugix ob'ektov ot ptis. - M.: KMK, 2007. - 320s.

2. Xolboev F.R. Prakticheskoe znachenie ptis i kontrol ix chislennosti v gorodskix usloviyax Kizilkuma // Dokladi Akademii nauk Respubliki Uzbekistan. – Tashkent, 2010. №6. - S. 67-68. [Rus tilida].

УДК 595.632.7.15

ИЗУЧЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ ПРЕПАРАТА CORAL 10% В.Р.К. В БОРЬБЕ С ТЛЯМИ И ЛИСТОВЕРТКАМИ НА ДЕКОРАТИВНЫХ И ЛЕСНЫХ РАСТЕНИЯХ

Хашимова М.Х., Ахмедова З.Ю., Рустамов К.Ж., Даминова Д.Б.
Институт Зоологии АН РУз, e-mail: m_khasimova@mail.ru

Annotation. *The conservation of landscape and introduced plants in botanical gardens is of great importance. This type of planting represents a unique ecosystem, adapted to negative anthropogenic impacts. They connect the landscapes of natural and cultural biocenoses. Tests of the drug against a complex of pests of ornamental and forest crops were carried out in the Tashkent Botanical Garden.*

На внешнем облике городов большое значение имеют скверы и другие насаждения цветочно-декоративных растений, деревьев лесных пород. Во-первых, помимо эстетического значения эти насаждения благоприятно влияют на экологическую обстановку в городах, очищая атмосферу от вредных примесей ввиду растущей численности населения и автомобилей. Во-вторых, большое число деревьев препятствует эрозии, особенно ветровой. В-третьих, что особенно относится к большим городам Узбекистана, в летний период деревья защищают от жары в летний период. В последнее время в городах Узбекистана все больше развиваются парков, а озеленение и создание благоприятной экологической обстановки в городах внесены в национальную программу. Однако это влечет и некоторые проблемы, особенно в области защиты этих культур от вредителей и болезней. Особенно это относится к древесным культурам, так как они являются многолетней стацией обитания насекомых, что способствует развитию вредных организмов. Меры борьбы с ними так же осложнены и тем, что применение массового опрыскивания химических средств защиты растений в городах не допустимо.

Поэтому защита декоративных культур и лесных насаждений должна постоянно развиваться и совершенствоваться, с углубленными знаниями биологии, и закономерности массового размножения и распространения вредных насекомых и

возбудителей заболеваний насаждений. Должны разрабатываться более совершенные методы и средства выявления и учета очагов вредителей и болезни, прогноза их развития и борьба с ними.

Значительный ущерб цветоводству и декоративному растениеводству наносят растительноядные нематоды, слизни, клещи и насекомые, кроме того, что они повреждают, они ещё являются переносчиками заболеваний. Лесные насаждения так же повреждаются в основном членистоногими, где первое место по количеству занимают насекомые, из паукообразных вредят клещи, немногочисленны вредители из класса многоножек (кивсяки) и класса ракообразных (мокрицы). Среди позвоночных имеется ряд вредных видов из класса млекопитающих, особенно из отряда грызунов. Почти все виды птиц полезны (Белосельская, 1970).

Защита лесных культур кардинально отличается от защиты сельскохозяйственных культур, поэтому здесь необходимо использование лесоводственных и лесокультурных приёмов, которые повышают устойчивость лесных насаждений к вредным организмам, создают неблагоприятные условия для развития и широкого распространения вредных насекомых и заболеваний при одновременном улучшении обитания полезных видов (Маслов и др., 1988).

В городах значение защиты цветочных и декоративных растений с каждым годом увеличивается за счет роста новых площадей зеленых насаждений и зеленых зон городов. Защита декоративных цветочных растений и особенно интродуцентов в ботанических садах и парках тоже имеет много особенностей (Синадский и др., 1987). Декоративные насаждения представляют собой весьма своеобразные экосистемы, адаптированные к неблагоприятным антропатогенным воздействиям. В них переплетаются элементы открытого и закрытого грунта, ландшафтов природных и культурных биоценозов различных физико-географических зон, изменённых урбанизацией микроусловиями городов (Воронцов, 1971).

Материал и методы. Испытания препарата Coral 10% в.р.к. против комплекса вредителей декоративных и лесных культур проводили в Ботаническом саду города Ташкента. Против тлей препарат применяли на белой акации, против – листоверток на карагаче и против червеца на можжевельнике.

Препарат Coral 10% в.р.к. (перметрин 100 гр/л) ООО «АГРО REEF» Узбекистан, норма расхода препарата - 0,3 л/га, место проведения испытаний - Ботанический сад г. Ташкента. Вредные объекты - тли и листовертки. Культура - Акация, карагач. Размер делянок -1,5 га.

Опрыскивание препаратом Coral 10% в.р.к. провели при температуре воздуха не выше 23°С. В качестве эталона применяли препарат Багира 20% в.р.к. Обработки провели при помощи ранцевого моторного опрыскивателя КА-90. Учеты проводили через каждые 3, 7 и 14 дни после опрыскивания.

Методика постановки опыта, учеты и расчет биологической эффективности проведены в соответствии с методикой (Методические указания…, 1986). В качестве критерия биологической эффективности используется процент снижения численности вредителя, отражающий эффект непосредственного действия испытываемого препарата на подопытный объект в сравнении с контролем или без контроля в зависимости от вида вредителя и принятой методики. Критерием положительной оценки препарата для борьбы с тлями и листовертками, принята биологическая эффективность не менее 95,%; Расчет биологической эффективности выполнен по формуле Аббота (Методические указания…, 1986).

Результаты расчета биологической эффективности препарата Coral 10% в.р.к. и эталона Багира 20% в.р.к. приведены в таблицах 1-2.

Результаты и их обсуждение. Анализ полученных значений биологической эффективности исследуемого и эталонного препаратов при использованных нормах расхода приводит к следующему:

Против тлей по дням учета при норме расхода препарата 0,3 л/га биологическая эффективность составляет на третий день 78,0%, на седьмой 89,3% и на четырнадцатый день 97,2%, для эталона Багира 20% в.р.к. соответственно имеем биологическую эффективность 82.5, 91.5 и 98.0%, (табл.1).

Для листоверток по дням учета при норме расхода препарата 0,3 л/га биологическая эффективность составляет на третий день 57,4%, на седьмой день 81,6% и на четырнадцатый день учета 96,8%, для эталона Багира 20% в.р.к. соответственно имеем биологическую эффективность 64,3; 82,5% и 97,5%, (табл. 2).

Таблица 1

Биологическая эффективность препарата Coral 10% в.р.к.в борьбе с тлями на акации (Ташкентский ботанический сад)

№	Вариант опыта	Норма расхода л/га		Средняя численность вредителя на один лист, экз.				Биологическая эффективность, по дням учета		
		Пре-парата	Рабоч. жидк.	До обра-ботки	После обработки по дням учета					
					3	7	14	3	7	14
1	Coral 10% в.р.к.	0,3	300	25,7	5,6	2,7	0,7	78,0	89,3	97,2
2	Багира 20% в.р.к. эталон	0,3	300	25,3	4,4	2,1	0,5	82,5	91,5	98,0
3	Контроль	без/ обр.-	-	25,8	25,6	25,3	25,1			

Таблица 2

Биологическая эффективность препарата Coral 10% в.р. в борьбе с в борьбе с листовертками на карагаче (Ташкентский ботанический сад)

№	Вариант опыта	Норма расхода л/га		Средняя численность вредителя на один лист, экз.				Биологическая эффективность, по дням учета		
		Пре-парата	Рабоч. жидк.	До обра-ботки	После обработки по дням учета					
					3	7	14	3	7	14
1	Coral 10% в.р.	0,3	300	15,7	6,6	2,8	0,8	57,4	81,6	96,8
2	Багира 20% в.р.к. эталон	0,3	300	15,3	5,4	2,6	0,6	64,3	82,5	97,5
3	Контроль	без/ обр.-	-	15,8	15,6	15,3	25,1			

Выводы. Таким образом, проведенные испытания показали, что препарата CORAL 10% в.р.к. против тлей и листоверток, полностью соответствует принятым критериям положительной оценки препарата на декоративных и лесных растениях. На основании полученных данных рекомендовано включить препарат Coral 10% в.р.к. (перметрин 100 гр/л) ООО «АГРО REEF» Узбекистан в список препаратов, разрешенных для борьбы с тлями и листовертками в норме расхода препарата 0,3 л/га и норме расхода рабочей жидкости 1000 л/га на декоративных растениях методом сплошного опрыскивания растений.

Список использованной литературы

1. Белосельская З.Г., Сильвестров А.Д., Ильичев В.В. Защита зеленых насаждений от вредителей и болезней. - М.: Изд.лит. по строит, 1970. - С. 42-50.
2. Воронцов А.И. Научные основы и практика защиты интродуцированных растений. // Бюлл. ГБС АН СССР, 1971. Вып. 81. - С. 50-54.
3. Маслов А.Д., Ведерников Н.М., Андреева Г.И. и др. Защита леса от вредителей и болезней. - М.: «Агропромиздат», 1988. - С. 7-20.
4. Методические указания по испытанию инсектицидов, акарицидов и моллюскоцидов в растениеводстве. - Москва, 1986. - с.146.
5. Синадский Ю.В., Корнеева И.Т., Доброчинская И.Б. и др. Вредители и болезни цветочно-декоративных растений. - М.: «Наука», 1987. - С. 13-17.

УДК 595.7.632/799.15

ИСПЫТАНИЯ ВЫСОКОЭФФЕКТИВНЫХ ПРЕПАРАТОВ ДЛЯ БОРЬБЫ С ТЕРМИТАМИ

Хашимова М.Х.[1], Ганиева З.А.[1], Тилябаев З.[2], Рустамов К.Ж.[1]
[1]Институт зоологии АН РУз, [2]Институт биоорганической химии АН РУз,
e-mail: m_khasimova@mail.ru

Annotation. *Our research was based on the study of a number of chemical compounds as potential termiticides with the aim of developing highly effective termite control agents. The mechanism of action of these compounds is not fully understood. The identification of effective termiticides is done by studying the degree of exposure of termites to a number of chemical compounds.*

Масштабное освоение степных зон привело к видоизменению термитов и смене мест их обитания. В результате они стали переселяться ближе к людям, особенно рядом с историческими памятниками и объектами культурного наследия. Это привело к возрастанию ущерба, наносимого термитами. Особую угрозу эти насекомые представляют для исторических памятников. Именно поэтому борьба с термитами является одной из острых проблем науки (Ганиева, 2019).

Термиты рода *Anacanthotermes* – сухо древесные насекомые. Их любимая пища – сухая растительность. В последние годы нападения термитов на здания и сооружения городов и сельских районов резко увеличились и это создает неспокойную обстановку в республиках Центральной Азии, в том числе и в Узбекистане (Ганиева, 2019).

Общественный образ жизни, высокая численность, сложная взаимосвязь, функциональная специализация каст в термитниках, хорошая защищённость от внешних экологических факторов, доступность и обилие пищи в жилых строениях, делают их способными быстро восстанавливать популяцию с ничтожно малого числа оставшихся в живых после истребительных мероприятий (Брайен, 1986).

На территории Средней Азии наиболее широко распространены два вида из рода *Anacanthotermes,* большой закаспийский термит - *Anacanthotermes ahngerianus*) и туркестанский термит - *Anacanthotermes turkestanicus*. На протяжении долгого времени наиболее успешным способом борьбы с термитами было применение отравляющих веществ из различного класса химической соединений хлорорганической, фосфорорганической, карбаматной, пиретроидной природы.

Используемые в настоящее время химические соединения (пиретроиды) часто оказывались неэффективными из-за невозможности непосредственного применения их

против колоний термитов в глубоких гнездах. Кроме того, пиретроиды имеют свойства репеллентов и это приводит к тому, что термиты обходят обработанную древесину или почву.

В связи с этим в настоящее время возросла потребность в создании высокоэффективных препаратов для борьбы с термитами. При поиске наиболее безвредных препаратов первостепенное значение отводится биологическим испытаниям различных соединений синтетического и природного происхождения.

Потребность в создании высокоэффективных препаратов для борьбы с термитами послужила основой для проведения нами исследований по изучению ряда химических соединений в качестве потенциальных термитоцидов. Механизм действия этих соединений окончательно не выяснен. Однако наиболее вероятным считается, что соединения такого типа воздействуют на вкусовые качества, ингибируя процесс питания, в результате которого уменьшается скорость прохождения пищи по кишечнику, за счет их тормозящего воздействия на сокращение мускулатуры кишечника. Поиск эффективных термитоцидов проводили по изучению токсичности, ряда химических соединений синтезированных в ИБОХ АН РУз под шифрами №2,8 и 10.

Материал и методы. В опытах использовали термитов, привезенных из ширкатного хозяйства “Хива” Хивинского района Хорезмской области и сельского схода граждан Окбулок, Зарбдорского района, Джизакской области. Лабораторные испытания химических соединений против термитов проводили в Институте зоологии.

Фильтровальная бумага, соответственно пропитанная препаратом, в размере (2х2 см) выкладывалась в стерилизованные чашки Петри, куда предварительно были помещены рабочие термиты по 10 особей. В качестве пищи для термитов использовали фильтровальные бумаги. Одним мл. рабочих растворов соответствующей концентрации смачивали корм, свернутую фильтровальную бумагу размером 2х2 см. Для контрольных термитов корм смачивали дистиллированной водой. Потом чашки содержали в темном месте. Ежедневно делали учет и наблюдения, чашки выносили из темного места для просмотра термитов. При этом оценивали их состояние, поедаемость ими обработанного корма, подсчитывали число живых, парализованных и погибших термитов. Ежедневно оставшихся термитов подпаивали дистиллированной водой. Эксперименты продолжались 7-10 дней. Опытные и контрольные пробы тестировались в 5-кратной повторности.

Процент смертности подсчитывали по формуле Аббота, с учетом процента смертности в контроле (Мет. указ. 2004).

Результаты и их обсуждение. Результаты проведенных опытов на жизнеспособность термитов представлены в таблице.

Таблица

Тестирование химических соединений № 2 - 8 - 10 для рабочих особей термитов

№	Препарат	Концен-трация в %	До обработ-ки	Живые после обработки по дням учета, экз.			Эффективность в %, по дням учета		
				3	5	7	3	5	7
1.	№2	0,5	50	14,0	5,5	0	72,0	88,5	100,0
2.	№2	1,0	50	9,0	0	-	82,0	100,0	-
3.	№8	0,5	50	10,0	2,0	0,5	80,0	95,8	98,9
4.	№8	1,0	50	11,0	3,0	1,0	78,0	93,8	97,9
5.	№10	0,5	50	21	15,5	3,5	58,0	67,7	92,6
6.	№10	1,0	50	11,5	9,0	1,5	77,0	81,3	96,8
7.	Контроль	без обр.	50	50	48	47	-	-	-

Анализ полученных значений биологической эффективности исследуемых химических веществ, при использованных концентрациях приводит к следующему:

Фильтровальной бумагой, пропитанной препаратом №2 при 0,5% концентрации термиты питались охотно, на 3 день учета отмечено 72,0% смертности, на 5 день учета 88,5%, а на седьмой день смертность составила 100,0%. При повышении концентрации в два раза пропитанную фильтровальную бумагу смоченной препаратом №2 при 1,0% концентрации термиты почти не ели, в этом варианте смертность составила 82,0 и 100,0 % сответственно. В этом варианте термиты почти не питались обработанным кормом.

В следующим варианте под действием препарата №8, при концентрации 0,5% мало ели обработанный корм, на третий день учета отмечено 80,0% смертности, на пятый день смертность составила 95,8% и седьмой день учета отмечено 98,9%-ная смертность. При 1% концентрации препарата №8 также оказался токсичным по отношению к термитам, термиты не питались обработанным кормом. В данном варианте смертность по дням учета составило на третий день 78,0%; на пятый день 93,8% и на седьмой день учета 97,9% соответственно.

В варианте под действием препарата №10 в 0,5% концентрации очень мало питались обработанным кормом, на третий день учета отмечено 58,0% смертности, на пятый день смертность составила 67,7%, а на седьмой день учета отмечено 92,6% смертности соответственно. При 1% концентрации препарата №10 также оказался токсичным, термиты также мало питались обработанным кормом. В данном варианте смертность по дням учета составило на третий день 77,0%; на пятый день смертность составила 81,3%, на седьмой день 96,8% соответственно. (Таблица).

Выводы. Таким образом, полученные данные показали, что препараты №2 и- №8 в 0,5 и 1,0% ной концентрации оказались более токсичными (82,0 - 100,0%; 80,0 - 98,9%), чем препарат №10, где смертность составила (58,0 - 92,6%).

Все три испытанных веществ наиболее оказались эффективными в борьбе с термитами. Следовательно эти вещества можно рекомендовать в качестве эффективных средств борьбы против термитов.

Список использованной литературы

1. Брайен М. Общественные насекомые, экология и поведение / Под ред. Г.М. Длусского. – М.: Мир, 1986. – 400 с.

2. Ганиева З.А., Рустамов К.Ж., Хашимова М.Х., Мирзаева Г.С., Лебедева Н.И. Термиты Централной Азии и как бороться сними в памятниках культурно исторического наследия // Сборник трудов: Межд. науч. практ. конф. «Наука, производство, бизнес»: современное состояние и пути инновационного развития аграрного сектора на примере Агрохолдинга Байсерке-Агро. - Алмата, 2019 Т.2. – С. 230-234.

3. Методические указания по испытанию инсектицидов, акарицидов, биологически активных веществ и фунгицидов. /на узб. языке/. -Ташкент, 2004,103 с.

4. Хамраев А.Ш. и др. Рекомендации по системе борьбы против термитов. – Ташкент, 2016. - 44 с.

GIDROBIONTLAR EKOLOGIYASI, IXTIOLOGIYA VA BALIQ RESURSLARI

UO‘T 597:639.2.053.7

AYDAR-ARNASOY KO‘LLAR TIZIMIDAGI ASOSIY OVLANADIGAN BALIQ TURLARINING HOZIRGI HOLATI VA KO‘PAYISH SHAROITLARI

Azizov N.Y.
O‘zR FA Zoologiya instituti, e-mail: n.y.azizov@gmail.com

Annotation. *The article provides data on the study of the state and conditions of reproduction of populations of the main fished fish of the Aydar-Arnasay Lakes System. As a result of the research, the breeding conditions of the main commercial fish species of the Aydar-Arnasay Lakes System were determined and assessed. The places, conditions, and efficiency of spawning of commercial fish and reproductive capacity are characterized. The dependence of absolute fecundity on fish body size was determined, and regression equations were calculated.*

Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimi yirik baliqchilik suv havzasi hisoblanadi. Ko‘llar tizimida sazan, oq sla, oqqayroq, ilonbosh, laqqa, cho‘rtanbaliq va boshqa qimmatbaho ovlanish ahamiyatiga ega bo‘lgan baliqlar ovlanadi. Biroq ularning zaxiralari hozirda ko‘p emas. Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimi baliq zahiralarining kamayishi, asosan, suv havzalarining gidrologik rejimining o‘zgarishi va ulardan samarasiz foydalanish bilan bog‘liq.

Suv havzalarining gidrologik va biologik rejimlarining o‘zgarishi sharoitida ovlanish ahamiyatiga ega bo‘lgan baliq turlarini ko‘payishning ekologik xususiyatlarini o‘rganish katta ahamiyatga ega bo‘lib, baliq resurslarini muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish chora-tadbirlarini ishlab chiqish uchun asosiy ma’lumotlarni beradi.

Ushbu tadqiqot ishning asosiy maqsadi Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimidagi asosiy ovlanish ahamiyatiga ega bo‘lgan baliqlarning holatini va ko‘payish sharoitlarini o‘rganishdir.

Material va metodlar. Materiallarni yig‘ish 2021–2022-yillarning bahor oylarida Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimida (Sharqiy Arnasoy, Tuzkon va Aydarko‘l ko‘llarida) amalga oshirildi. Materiallarni ovlab olishda kataklari 24–55 mm bo‘lgan baliq ovlash to‘rlaridan foydalanilgan.

Umumiy biologik tahlillar, shuningdek, baliqlarning urchish sharoiti, jinsiy yetukligi, serpushtligi, o‘lcham-yosh va vazn ko‘rsatkichlarini aniqlash umume’tirof etilgan standart usullar bo‘yicha amalga oshirildi (Chugunova, 1959; Sakun, Butskaya, 1968; Spanovskaya, Grigorash, 1976; Ivankov, 1985).

Natijalar va ularning muhokamasi. Ma’lumki baliqlarning ko‘payishi ular yashayotgan suv havzalaridagi qulay sharoitlar mavjudligi bilan belgilanadigan alohida bir davrdir. Bu davrda baliqlar urchish joylariga migratsiya qiladilar. Baliqlarda urchish migratsiyalari – qishlash yoki oziqlanish joylaridan urchish joylariga o‘tishi bo‘lib, uvildiriq va chavoqlarning rivojlanishi uchun eng qulay sharoitlarni ta’minlashga moslashuv sifatida vujudga kelgan (V.V. Vasnetsov, 1953).

Olib borilgan tadqiqotlarimiz natijasiga ko‘ra, Aydar-Arnasoy tizimidagi ko‘llarda asosan sho‘rlangan suv sharoitlariga moslashgan bir qator baliq turlarining (sazan, kumush tovonbaliq, chavoqbaliq, oq sla) ko‘payishi kuzatiladi. Baliqlarning urchish migratsiyalarini boshlanish vaqti ko‘p jihatdan turning biologik xususiyatlariga bog‘liqdir. 1-jadvalda Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimidagi asosiy ovlanish ahamiyatiga ega bo‘lgan baliq turlarining urchish migratsiyasi va urchish muddatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar keltirilgan.

Baliqlarning urchishiga ko‘plab sharoitlar, birinchi navbatda, suv havzasidagi suvning harorati ta’sir qiladi. Har bir baliq turi o‘ziga xos harorat oralig‘iga ega. Aydar-Arnasoy ko‘llar

tizimidagi ko‘pchilik baliqlarning urchish davri bahordan yozning boshigacha sodir bo‘ladi. Baliqlarning har bir turi urchish uchun ma’lum joylarda to‘planadi. Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimidagi ovlanish ahamiyatiga ega bo‘lgan baliqlarining urchish joylari asosan o‘simliklar bilan qoplangan sayoz qirg‘oqoldi hududlarida joylashgan (2-jadval).

1-jadval

Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimidagi ovlanish ahamiyatiga ega bo‘lgan baliq turlarining urchish migratsiyasi va urchish vaqti

Baliq turlari	Urchish migratsiyasi	Suv harorati (t°C)	Urchishning boshlanishi	Suv harorati (t°C)
Esox lucius	25-28/02.2022	10-12	13-18/03.2022	12-15
Cyprinus carpio	17-25/04.2021	13-16	15-20/05.2021	18-22
Carassius gibelio	16-19/04.2021	14-16	15-26/05.2021	16-20
Rutilus aralensis	15-17/04.2022	10-13	10-15/05.2022	14-16
Sander lucioperca	15-20/02.2022	9-13	05-10/03.2022	12-15

2-jadval

Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimidagi ovlanish ahamiyatiga ega bo‘lgan baliqlarining urchish joylari

Baliq turlari	Urchish joylari
Esox lucius	Suv ostida qolgan quruqlik o‘simliklari bo‘lgan qirg‘oqoldi qismlari
Cyprinus carpio	Suv ostida qolgan quruqlik o‘simliklari bo‘lgan qirg‘oqoldi qismlari
Carassius gibelio	Ko‘llarning qirg‘oqoldi suv o‘simliklari mavjud bo‘lgan sayoz qismlari
Rutilus aralensis	Ko‘llarning suv o‘simliklari qoplagan qirg‘oqoldi qismlari
Sander lucioperca	Oqbuloq kollektori va Qili daryosining quyulish joyi

Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimining asosiy ovlanish ahamiyatiga ega bo‘lgan baliqlaridan biri sazan (*Cyprinus carpio*) bo‘lib, ovning asosiy qismini 3-4 yoshli baliqlar tashkil qiladi. Bizning ma’lumotlarga ko‘ra, Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimida sazan balig‘i aprel-may oylarida uvildirig‘ini suv harorati +18-22ºC bo‘lganda, suv ostida qolgan quruqlik o‘simliklari mavjud bo‘lgan qirg‘oqoldi qismlariga qo‘yadi. Urg‘ochi sazanning 2021-yilda uvildiriq qo‘yishdan oldin yetuklik darajasi 4,7 dan 15,0% gacha bo‘lgan. Tadqiqotlarimizda Aydarko‘l ko‘lida 2021-yil may oyining boshlarida suv harorati +17-19°C bo‘lganida uvildiriqlarni qo‘yib bo‘lgan dastlabki sazan baliqlarining uchrashini aniqladik. Sharqiy Arnasoy ko‘lidagi tana uzunligi 35,8-53,5 sm bo‘lgan urg‘ochi sazanning mutlaq serpushtligi 50369-219367 ikrani tashkil qiladi (3-jadval).

3-jadval

Sharqiy Arnasoy ko‘lidagi urg‘ochi sazanning ko‘payish qobiliyatining ko‘rsatkichlari

l, sm	*W*, g	*Yk*, %	*IMS*	*n*
35,1-40,0	740-972	4,9-10,5	50369-18225	12
40,1-45,0	810-1105	5,5-13,0	90617-189865	10
45,1-50,0	1033-1424	4,7-15,0	108736-198115	8
50,1-55,0	1225-1519	7,9-11,5	153726-219367	3

Izoh. *Bu va shunga o‘xshash jadvallarda hamda matnda: l – tana uzunligi, sm; W – tana vazni, g; Yk – yetuklik koeffitsiyenti; IMS – individual mutlaq serpushtlik, ming dona; INS – individual nisbiy serpushtlik, dona; n – namunalar soni.*

Sazanning serpushtligi, urg‘ochilarning tana uzunligi va vaznining ortishi bilan oshib boradi, bu o‘rganilayotgan ko‘rsatkichlarning korrelyatsiya koeffitsiyentlari (*r*) bilan tasdiqlanadi (4-jadval).

Quyida hisoblab chiqilgan regressiya tenglamalari keltirilmoqda:

IMS = 437,2 x *l* –88794 (ikra);

IMS = 42,5 x *W* 18354 (ikra).

4-jadval

Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimidagi urg‘ochi sazanlarning o‘rganilayotgan ko‘rsatkichlarini korrelyatsiya koeffitsiyentlari (*r*)

Ko‘rsatgichlar	*l*, sm	*W*, g.	*IMS*	*INS*
l, sm		0,97(*)	0,85(*)	-0,40
W, g.			0,81(*)	-0,41
IMS				0,10
INS				-

** Korrelyatsiya 0,05 darajasida ahamiyatli.*

Orol chavoqbalig‘i ham Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimida eng keng tarqalgan va ko‘p sonli baliq turlaridan biridir. Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimidagi orol chavoqbalig‘i 2-3 yoshida jinsiy jihatdan voyaga yetadi. Urg‘ochi chavoqbaliqlarning urchishdan oldingi yetuklik darajasi 9,3 dan 15,6% gacha bo‘ladi. Chavoqbaliqning mutlaq serpushtligi tana uzunligi 15,8-21,3 sm bo‘lganda, 10205-140359 ikradan iborat bo‘ladi (5-jadval). Chavoqbaliqning mutlaq serpushtligi tana hajmi bilan juda chambarchas bog‘liq bo‘ladi (6-jadval).

Quyida hisoblab chiqilgan regressiya tenglamalari keltirilmoqda:

IMS = 525,9 x *l* –7023 (ikra);

INS = 210,2 x *W* 407,1 (ikra).

5-jadval

Tuzkon ko‘lidagi urg‘ochi orol chavoqbalig‘ini ko‘payish qobiliyatining ko‘rsatkichlari

l, sm	*W*, g	*Yk*, %	*IMS*	*n*
15,1-16,0	110-150	10,1-12,5	10205-25164	9
16,1-18,0	121-160	9,3-15,6	23821-74679	15
17,1-20,0	142-233	12,5-13,9	52951-102697	12
18,1-22,0	190-335	9,5-14,0	96352-140359	7

6-jadval

Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimidagi urg‘ochi orol chavoqbaliqlarining o‘rganilayotgan ko‘rsatkichlarini korrelyatsiya koeffitsiyentlari (*r*)

Ko‘rsatgichlari	*l*, sm	*W*, g	*IMS*	*INS*
l, sm		0,91(*)	0,80(*)	0,26
W, g			0,78(*)	0,29
IMS				0,17
INS				-

** Korrelyatsiya 0,05 darajasida ahamiyatli*

Ko‘pincha ov jarayonlarida kumush tovonbaliq ham uchraydi. Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimidagi kumush tovonbaliq 2-3 yoshida, tana uzunligi 11-17 sm bo‘lganda jinsiy voyaga yetadi. Sharqiy Arnasoyda uvildiriq qo‘yishdan oldin urg‘ochi kumush tovonbaliqlarning yetuklik koeffitsiyenti 7,1 dan 14,3% gacha boradi. Tana uzunligi 14,0 dan 27,0 sm gacha

bo‘lgan kumush tovonbaliqlarining mutlaq serpushtligi 8657-157249 ikrani tashkil qiladi (7-jadval). Kumush tovonbaliqda tana uzunligi va vazni ortishi bilan mutlaq serpushtlik oshib boradi (8-jadval).

Quyida hisoblab chiqilgan regressiya tenglamalari keltirilmoqda:

IMS = 12131 x *l* –207941 (ikra);

INS = 169,2 x *W* –7493,2 (ikra).

7-jadval

Sharqiy Arnasoy ko‘lidagi urg‘ochi kumush tovonbaliqni ko‘payish qobiliyatining ko‘rsatkichlari

l, sm	*W*, g	*Yk*, %	*IMS*	*n*
10,1-15,0	100-210	7,1-11,0	8657-10281	6
15,1-20,0	275-348	7,9-12,5	45167-949923	10
20,1-25,0	332-663	9,2-14,3	79463-115145	7
25,1-30,5	515-751	8,2-12,2	102398-157249	4

8-jadval

Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimidagi urg‘ochi kumush tovonbaliqlarning o‘rganilayotgan ko‘rsatkichlarini korrelyatsiya koeffitsiyentlari (*r*)

Ko‘rsatgichlar	*l*, sm	*W*, g	*IMS*	*INS*
l, sm		0,91(*)	0,76(*)	0,21
W, g			0,71(*)	0,19
IMS				0,14
INS				-

** Korrelyatsiya 0,05 darajasida ahamiyatli.*

Xulosalar. Shunday qilib, 2021–2022-yillarda olib borilgan tadqiqotlarimiz natijasida Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimidagi asosiy ovlanish ahamiyatiga ega bo‘lgan baliq turlarining ko‘payish sharoitlari va xususiyatlari o‘rganildi. Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimidagi ovlanish ahamiyatiga ega bo‘lgan baliqlar asosan ko‘llarning qirg‘oqoldi, sayoz, suv o‘simliklari hamda suv ostida qolgan quruqlik o‘simliklari mavjud bo‘lgan qismlarida urchishi aniqlandi. Baliqlarning serpushtligi, yetuklik koeffitsiyentlari tavsiflandi. Mutlaq serpushtlikning baliq tanasi uzunligi va vazniga bog‘liqligi aniqlandi va regressiya tenglamalari hisoblab chiqildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Ivankov V.N. Plodovitost rib. Metodi opredeleniya, izmenchivost, zakonomernosti formirovaniya. – Vladivostok: Izd-vo Dalnevostochnogo universiteta, 1985. – 88 s [Rus tilida].

2. Sakun O.F., Butskaya N.A. Opredeleniye stadiy zrelosti i izucheniye polovix siklov rib. – Murmansk: Glavribvod, 1968. – 47 s [Rus tilida].

3. Spanovskaya V.D., Grigorash V.A. K metodike opredeleniya plodovitosti yedinovremennix i porsionno ikrometushix rib // V kn.: Tipovie metodiki issledovaniya produktivnosti vidov rib v predelax ix arealov. – Vilnyus: Mokslas, 1976. Ch. 2. – S. 54-62 [Rus tilida].

4. Vasnetsov V.V. Proisxojdenie nerestovix migratsiy proxodnix rib // Ocherki po obshim voprosam ixtiologii. – M.-L.: Izd-vo AN SSSR, 1953. – S. 227-241[Rus tilida].

5. Chugunova N.I. Rukovodstvo po izucheniyu vozrasta i rosta rib. – M.: Izd-vo AN SSSR, 1959. – 163 s [Rus tilida].

UO‘T 597.55

SHARQIY ARNASOY VA TUZKON KO‘LLARIDAGI OVLANISH AHAMIYATIGA EGA BO‘LGAN BALIQ CHAVOQLARINING MIQDOR KO‘RSATKICHLARI

Atamuratova M.Sh.
O‘zR FA Zoologiya instituti, e-mail: muhayyo.atamuratova@mail.ru

Annotation. *The article provides data on the condition and productivity of juveniles of commercial fish species in Lake East Arnasay and Tuzkan. As our studies conducted in the summer (July-August) of 2023 have shown, the yield of juveniles is stable in the natural reproduction of the main commercial fish species. Catches of juvenile fish showed a predominance in the summer (August) in the coastal part of Lake East Arnasay of juveniles Rutilus aralensis (33.83%), Cyprinus carpio (17.29%), Carassius gibelio (11.28%) and Sander lucioperca (4.51%). In Lake Tuzkan, the juvenile catches were: fingerlings of Rutilus aralensis (30.10%), Cyprinus carpio (17.48%), Carassius gibelio (9.71%) and Sander lucioperca (2.91%).*

Suv havzalari ovlanish ahamiyatiga ega bo‘lgan baliqlarning zaxira holatini aniqlash zarurati hozirgi davrda muhim masalalardan bo‘lib hisoblanadi. Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimi O‘zbekistonning yirik baliqchilik xo‘jaligi suv havzasi bo‘lishiga qaramasdan undagi baliq resurslari holati va zaxirasi haqida deyarli hech qanday ma’lumotlar mavjud emas. Shu munosabat bilan Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimi ovlanish ahamiyatiga ega bo‘lgan yosh baliqlarning hosildorligini aniqlash dolzarb muammolardan biri bo‘lib hisoblanadi.

Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimi baliq resurslari holati va baliq mahsuldorligi bo‘yicha ma’lumotlar I.S. Tagaev (1991), U.T. Mirzayev (2001, 2013) ishlarida keltirilgan. Biroq baliq chavoqlarining hajmi bo‘yicha aniq ma’lumotlar mavjud emas.

Material va metodlar. Tadqiqot materiallari Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimi: – Sharqiy Arnasoy va Tuzkon ko‘llaridan umumiy qabul qilingan ixtiologik metodlar (I.F. Pravdin, 1966) yordamida 2023-yilning yoz (iyul-avgust) oyidagi nazorat ovlari jarayonida yig‘ilgan. Tadqiqotlarda 5 m uzunlikdagi tortma to‘rlardan foydalanildi.

Natijalar va ularning muhokamasi. Bizning olib borilgan ilmiy tadqiqotlarimiz natijasida Sharqiy Arnasoy ko‘lidagi yozgi (iyul) nazorat ovlarida ovlanish ahamiyatiga ega bo‘lgan 4 tur baliq chavoqlari (*Rutilus aralensis, Cyprinus carpio, Carassius gibelio, Sander lucioperca*) qayd qilindi. *Abramis brama orientalis, Aspius aspius iblioides, Hypophthalmichthys molitrix, Chalcalburnus chalcoides aralensis, Pelecus cultratus, Silurus glanis, Esox lucius, Channa argus* kabi turlarning chavoqlari uchramadi.

Tuzkon ko‘lidagi yozgi (avgust) nazorat ovlarida ovlanish ahamiyatiga ega bo‘lgan baliq chavoqlarining ham 4 turi (*Rutilus aralensis, Cyprinus carpio, Carassius gibelio, Sander lucioperca*) qayd qilindi.

Ikkala ko‘lda *Rutilus aralensis, Cyprinus carpio, Carassius gibelio, Sander lucioperca* balig‘i chavoqlaridan tashqari boshqa ovlanish ahamiyatiga ega bo‘lgan baliq chavoqlari uchramadi. Boshqa turlarning chavoqlaridan juda ko‘p miqdorda *Hemiculter leucisculus* va *Rhinogobius brunneus* qayd qilindi.

Quyidagi jadvalda Sharqiy Arnasoy va Tuzkon ko‘lining qirg‘oq bo‘yi qismida tortma to‘rni bir marotaba cho‘ktirib tortish asosida baliq chavoqlarini ovlash va ularning hisoblangan soni bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Sharqiy Arnasoyda yoz oyida (iyul) voyaga yetmagan baliq chavoqlari orasida *Rutilus aralensis* (33,8%), *Cyprinus carpio* (17,2%), *Carassius gibelio* (11,2%) ustunlik qildi. Voyaga yetmagan *Sander lucioperca* 4,5% ni tashkil etdi. Boshqa turlar (*Hemiculter leucisculus, Rhinogobius brunneus*) 33,08% ni tashkil etdi (1-rasm). Tuzkon ko‘lida yozda (avgust) yosh baliqlarni ovlashda *Rutilus aralensis* (30,0%), *Cyprinus carpio* (17,4%) va *Carassius gibelio*


(9,7%) ko‘proq bo‘ldi. Voyaga yetmagan *Sander lucioperca* 2,9% ni tashkil etdi. Boshqa turlarning chavoqlari (*Hemiculter leucisculus, Rhinogobius brunneus*) esa 39,81% ni tashkil etdi (2-rasm).

Jadval


Tortma to‘rni cho‘ktirib tortish asosida ovlanish ahamiyatiga ega bo‘lgan baliq chavoqlarini ovlash va ularning hisoblangan soni

Ko‘rsatkichlar	*Cyprinus carpio*	*Rutilus aralensis*	*Carassius gibelio*	*Sander lucioperca*
Sharqiy Arnasoy ko‘li (iyul, 2023-y.)				
Bir marta to‘rlarni cho‘ktirib tortish asosida chavoqlarni ovlash, dona.	8	12	5	2
Chavoqlarning umumiy soni.	23	45	15	6
Tuzkon ko‘li (avgust, 2023-y.)				
Bir marta to‘rlarni cho‘ktirib tortish asosida chavoqlarni ovlash, dona.	7	10	4	1
Chavoqlarning umumiy soni.	18	31	10	3

Olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, asosiy ovlanish ahamiyatiga ega bo‘lgan baliq chavoqlarining (*Rutilus aralensis, Cyprinus carpio, Carassius gibelio, Sander lucioperca*) umumiy hosildorligi 60,20-66,91% tashkil enadi.



1-rasm. Sharqiy Arnasoy ko‘lidagi baliq chavoqlarining ulushi



2-rasm. Tuzkon ko‘lidagi baliq chavoqlarining ulushi

Xulosalar. Shunday qilib, 2023-yil yoz (iyul-avgust) oylarida o‘tkazilgan tadqiqotlar natijasida Sharqiy Arnasoy va Tuzkon ko‘llarida *Rutilus aralensis, Cyprinus carpio, Carassius gibelio, Sander lucioperca* balig‘i chavoqlaridan tashqari boshqa ovlanish ahamiyatiga ega bo‘lgan baliq chavoqlari uchramadi. Boshqa turlarning chavoqlaridan juda ko‘p miqdorda *Hemiculter leucisculus* va *Rhinogobius brunneus* qayd qilindi. Sharqiy Arnasoyda baliq chavoqlari orasida *Rutilus aralensis* ning salmog‘i 33,83%, *Cyprinus carpio* 17,29%, *Carassius gibelio* 11,28% va *Sander lucioperca* 4,51% ni tashkil etdi. Tuzkon ko‘lida esa *Rutilus aralensis* 30,10%, *Cyprinus carpio* 17,48%, *Carassius gibelio* 9,71% va *Sander lucioperca* 2,91% ni tashkil etdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Mirzaev U.T. Soxranenie promislovix vidov rib vodoemov pustinnoy zoni Uzbekistana (na primere Aydaro-Arnasayskoy sistemi ozer) // Biologik, ekologik va agrotuproqshunoslik ta’limi muammolari va istiqboli / Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya tezislari to‘plami. Toshkent, 25-26 aprel 2001 y. – Tashkent, 2001. – S. 95-96 [Rus tilida].

2. Mirzaev U.T. Vidovoe i promislovoe raznoobrazie rib Aydar-Arnasayskoy sistemi ozer Uzbekistana. // Bioraznoobrazie i ratsionalnoe ispolzovanie prirodnix resursov: Materiali dokladov Vserossiyskoy nauchno-prakticheskoy konferensii s mejdunarodnim uchastiem, posvyashyonnoy 50-letiyu kafedri botaniki DGPU. Rossiya, Maxachkala 27-28 marta 2013 g. – Maxachkala: ALEF (IP Ovchinnikov M.A.), 2013. – S. 114-115 [Rus tilida].

3. Pravdin I.F. Rukovodstvo po izucheniyu rib. 4-ye izd. - M.: Pishevaya promishlennost, 1966. – 376 s [Rus tilida].

4. Tagaev I.S. Ekologiya osnovnix vidov semeystva karpovix rib (Cyprinidae) i ix rol v biotsenozax ozer Arnasayskoy sistemi basseyna r.Sirdari: Avtoref. diss. ... kand. biol. nauk. – Tashkent, 1991. – 22 s [Rus tilida].

UO‘T 597.551.2

ShARQIY ARNASOY VA TUZKON KO‘LLARIDAGI OROL QIZILKO‘Z BALIG‘I (*RUTILUS ARALENSIS*) CHAVOQLARINING TANA UZUNLIGI VA VAZN KO‘RSATKICHLARI TAVSIFI

Atamuratova M.Sh, Azizov N.Y., Mirzayev U.T., Ismatillayeva G.M.
O‘z FA Zoologiya instituti, e-mail: muhayyo.atamuratova@mail.ru

Annotation. *The article presents the results of studies of the size and weight composition of juveniles of Rutilus aralensis of the Eastern Arnasay and Tuzkan lakes. The size and weight parameters were characterized, and information was obtained about the nature of the relationships between the characteristics. Based on univariate regression analysis, a strong correlation (r = 0.886-0.900; P<0.05) was established between body length and mass of juvenile fish.*

Keyingi yillarda mamlakatimiz suv havzalarida baliqchilikni rivojlantirishga tobora ko‘proq e’tibor qaratilmoqda. Ularning resurslaridan oqilona foydalanish yuqori sifatli baliq mahsulotlari olishda muhim omil bo‘lib hisoblanadi.

Maydoni 365 ming gektardan ortiq bo‘lgan Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimi O‘zbekistondagi eng yirik baliqchilik suv havzasi hisoblanadi. Ko‘llar tizimida baliqlarning 26 turi qayd etilgan bo‘lib, ulardan 16 turi asosiy ovlanish ahamiyatiga ega bo‘lgan baliqlar, 8 turi Markaziy Osiyoga endemiklaridir (Mirzaev, 2001).

Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimida sazan, chavoqbaliq, oq sla, ilonbosh, laqqa va boshqa qimmatbaho baliqlar ovlanadi. Jami ovlanadigan baliqlarning 61,5 foizini orol qizilko‘zi (chavoqbalig‘i) tashkil etadi (Golubenko va boshq., 2006; Golubenko, Mirzayev, 2013).

Adabiyotlarda Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimidagi orol qizilko‘z balig‘ining chavoqlari bo‘yicha ma’lumotlar keltirilmagan.

Mazkur ishda Sharqiy Arnasoy va Tuzkon ko‘llaridagi orol qizilko‘z balig‘i chavoqlarining tana uzunligi va vazn ko‘rsatkichlari tavsifi hamda belgilar o‘rtasidagi bog‘liqlik xarakteri to‘g‘risidagi ma’lumotlar keltirilgan.

Material va metodlar. Orol qizilko‘z balig‘i chavoqlari bo‘yicha materiallar 2023-yilning iyul – avgust oylarida Sharqiy Arnasoy va Tuzkon ko‘llaridan umumiy qabul qilingan usullar yordamida yig‘ilgan (I.F. Pravdin, 1966). Baliq chavoqlarini ovlashda 5 m uzunlikdagi tortma to‘rlardan foydalanildi. Baliqlarning tana uzunligi (*l*) – to‘g‘ri chiziq bo‘yicha tumshug‘ining uchidan tortib to dum suzgich qanotining asosigacha bo‘lgan masofada o‘lchangan. Vazni (*W*) grammda berilgan. O‘zgaruvchan belgilar o‘rtasidagi bog‘liqlik xarakterini aniqlash uchun bir faktorli regression tahlil metodi qo‘llanildi (Rokidskiy, 1967). Ma’lumotlarning ishonchliligini ta’minlash uchun to‘plangan materiallarni qayta ishlash variatson-statistika va korrelyatsiya usullaridan foydalangan holda amalga oshirildi (Rokidskiy, 1967).

Natijalar va ularning muhokamasi. Orol qizilko‘zi (chavoqbalig‘i) (*Rutilus aralensis* Berg, 1916) Amudaryo, Sirdaryo, Surxondaryo, Qashqadaryo va Zarafshon daryolari suv havzalarida keng tarqalgan (Kamilov, 1973; Amanov, 1985; Abdullayev, Urchinov, 1989). Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimida ko‘p sonli muhim ovlanish ahamiyatiga ega bo‘lgan baliqlar qatoriga kiradi (Golubenko va boshq., 2006).


Sharqiy Arnasoy va Tuzkon ko‘llaridagi biz o‘rgangan orol qizilko‘z balig‘i chavoqlari 64-94 (o‘rtacha 74,73±1,80) mm uzunlikda va 5-14 (7,42±0,54) g og‘irlikdagi namunalardan tashkil topdi (jadval).

Tadqiqot natijasida Sharqiy Arnasoy ko‘lida orol qizilko‘z balig‘i chavoqlarining tana uzunligi va vazni o‘rtasida o‘zaro kuchli bog‘liqlik mavjudligi aniqlandi (1-rasm). Bu esa quyidagi regressiyaning tenglamasi bilan ifodalanadi: $W = 0,27 \times l - 12,981$ (r = 0,900; P<0,05).


Jadval

Sharqiy Arnasoy va Tuzkon ko‘llaridagi orol qizilko‘z balig‘i chavoqlarining tana uzunligi va vazn ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkichlar	Sharqiy Arnasoy ko‘li (*n*=19)		Tuzkon ko‘li (*n*=18)	
	l, mm	*W, g*	*l, mm*	*W, g*
Min-max.	64-94	5-14	64-86	5-11
M±m	74,73±1,80	7,42±0,54	73,05±1,58	6,55±0,50
σ	7,87	2,38	6,71	2,14
S^2	62,09	5,70	45,11	4,61
Cv %	10,54	32,17	9,19	32,76



1-rasm. Sharqiy Arnasoy ko‘li orol qizilko‘z balig‘i chavoqlarining tana uzunligi va vaznining o‘zaro bog‘liqligi



2-rasm. Tuzkon ko‘li orol qizilko‘z balig‘i chavoqlarining tana uzunligi va vaznining o‘zaro bog‘liqligi

Shuningdek, Tuzkon ko‘li orol qizilko‘z balig‘i chavoqlarining tana uzunligi va vazni o‘rtasida ham o‘zaro kuchli bog‘liqlik mavjudligi aniqlandi (2-rasm) va u quyidagi regressiyaning tenglamasi bilan ifodalanadi: $W = 0{,}2835 \times l - 14{,}157$ (r = 0,886; P<0,05).

Xulosalar. Shunday qilib, o‘tkazilgan tadqiqotlar natijasida Sharqiy Arnasoy va Tuzkon ko‘llaridagi orol qizilko‘z balig‘i (*Rutilus aralensis*) chavoqlarining tana uzunligi va vazn ko‘rsatkichlari tavsiflandi hamda belgilar o‘rtasidagi bog‘liqlik xarakteri to‘g‘risidagi ma’lumotlar olindi. Sharqiy Arnasoy va Tuzkon ko‘llari orol qizilko‘z balig‘i chavoqlarining tana uzunligi va vazni o‘rtasida o‘zaro kuchli bog‘liqlik (r = 0,886-0,900; P<0,05) mavjudligi bir faktorli regression tahlil asosida aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Abdullaev M.A., Urchinov D., Promislovie ribi vodoyomov nizovev r.Zarafshan. – Tashkent: Fan, 1989. – 61 s [Rus tilida].

2. Amanov A.A. Ekologiya rib vodoemov yuga Uzbekistana i sopredelnix respublik. – Tashkent: Fan, 1985. – 160 s [Rus tilida].

3. Golubenko Yu.A., Mirzayev U.T. Promislovie zapasi rib Aydar-Arnasayskoy sistemi ozer Uzbekistana // Bioraznoobrazie i ratsionalnoe ispolzovanie prirodnix resursov: Materiali dokladov Vserossiyskoy nauchno-prakticheskoy konferensii s mejdunarodnim uchastiem, posvyashyonnoy 50-letiyu kafedri botaniki DGPU. -Maxachkala, 2013. – S. 189-191 [Rus tilida].

4. Golubenko Yu.A., Mirzayev U.T., Abduvaliyev A.S., Xudoyberganova G.M. Sostoyanie promislovix zapasov rib Aydar-Arnasayskoy sistemi ozer Uzbekistana // Biologiya nauka XXI veka / Sbornik tezisov 10-y Mejdunarodnoy Pushinskoy shkoli-konferensii molodix uchenix posvyashennoy 50-letiyu Pushinskogo nauchnogo sentra RAN, 17-21 aprelya 2006 g. Pushino, Rossiya. -Pushino, 2006. -S. 269 [Rus tilida].

5. Kamilov G.K. Ribi i biologicheskie osnovi riboxozyaystvennogo osvoeniya vodoxranilish Uzbekistana. – Tashkent: Fan, 1973. – 234 s [Rus tilida].

6. Mirzaev U.T. Conservation of Commercial Fishes in Waterbodies of Arid Zones in Uzbekistan: Aidar-Arnasai Lake System as a Case in Point // Ecological Construction, Environmental Protection and Regional Development in Arid Land / Desert Technology VI International Conference, Ururmqi, China, September 16-24, 2001. – Ururmqi, 2001. – 71-72 pp.

7. Rokidskiy P.F. Biologicheskaya statistika. – Minsk: Visshaya shkola, 1967. – 328 s [Rus tilida].

UO‘T 597.551.2

QORATOG‘ DARYO VA UNING IRMOQLARIDA TARQALGAN *PARACOBITIS LONGICAUDA (*KESSLER, 1872*)* NING MORFOLOGIK XUSUSIYATLARI

Fayziyeva D.B., Allayarov S.K.

Termiz davlat universiteti, e-mail: fayzievad@tersu.uz

Annotation. *The only species of Paracobitis genus is distributed in the water bodies of Uzbekistan: Paracobitis longicauda. The article describes the morphological characteristics of Paracobitis longicauda, which occupies a wide area in the middle and lower stream of the Karatog River.*

Paracobitis longicauda (Kessler, 1872) Yalangbaliqlar (*Cobitoidei sensu* Tan & Armbruster, 2018) kenja turkumi, Nemacheilidae (Regan, 1911) oilasi, *Paracobitis* urug‘i

vakili hisoblanib (Fricke et al., 2023), Markaziy Osiyoda *Paracobitis* urug‘iga mansub 2 tur *Paracobitis longicauda* (Kessler, 1872) (Sheraliyev & Qayumova, 2023) hamda *Noemacheilus* (*Troglocobitis*) *starostini* Parin, 1983 (Prokofiev, 2009; Zimmerman et al., 2019) O‘zbekistonda esa 1 tur *Paracobitis longicauda* (Kessler, 1872) uchraydi (Sheraliev & Kayumova, 2022).

Material va metodlar. Biz Surxondaryo havzasidagi Qoratog‘ daryo ixtiofaunasini o‘rganish maqsadida 2022-2023 yillar iyun-iyul oylarida ixtiologik tadqiqotlar olib bordik. Tadqiqotlarimiz davomida *Paracobitis longicauda* (Kessler 1872) namunalari kichik to‘rdan foydalanilgan holda tutildi. Tutilgan namunalarning morfologik ko‘rsatkichlarini o‘lchash uchun 4% li formalin eritmasiga fiksatsiya qilindi. Fiksatsiyalangan namunalar 5 kundan so‘ng doimiy saqlash uchun 70% li spirtga ko‘chirildi. Morfometrik o‘lchovlar Kottelat va Freyhof (2007) metodi asosida baliqning chap tomonidan o‘lchandi. *Paracobitis longicauda* ning yon tomondan umumiy ko‘rinishi 1-rasmda tasvirlangan.



1-rasm. *Paragobitis longicauda* (Qoratog‘ daryo, 2023)

Natijalar va ularning muhokamasi. Qoratog‘ daryo (n=27) dan tutilgan *Paracobitis longicauda* namunalarining morfometrik ko‘rsatkichlari o‘lchandi (jadval).

Jadval

Qoratog‘ daryodan tutilgan *Paracobitis longicauda* (Kessler 1872) morfometrik ko‘rsatkichlari

Morfologik tavsifi	*Paracobitis longicauda* (n=27)			
	Min	Max	Mean	SD
Umumiy uzunlik	46,1	142,5	89,59	29,08
Standart uzunlik	38,4	122,7	75,67	24,82
Standart uzunligiga nisbatan % hisobida				
Boshining uzunligi	21,02	24,55	22,92	0,97
Tana balanligi orqa suzgich asosidan	12,19	23,34	15,10	2,05
Tana eni orqa suzgich asosian	8,98	14,29	11,47	1,24
Predorsal uzunlik	46,86	54,75	50,19	1,83
Postdorsal uzunlik	36,17	42,62	38,96	1,98
Bosh uchidan qorin suzgichigacha bo‘lgan uzunlik	37,59	55,79	51,56	3,61
Bosh uchidan anal suzgchgacha bo‘lgan uzunlik	72,77	83,47	75,71	2,13
Dorsal qanot balandligi	14,02	19,83	16,29	1,29
Dorsal qanot asosining uzunligi	9,66	14,46	11,28	0,88
Anal qanot uzunligi	12,29	16,53	13,92	1,05
Anal qanot asosining uzunligi	5,89	9,29	7,04	0,76
Ko‘krak suzgich uzunligi	12,40	18,39	14,57	1,59
Qorin suzgich uzunligi	11,65	16,12	13,53	1,09
Dum suzgich qanot uzunligi	15,64	21,07	18,50	1,34

Dum bandining uzunligi	14,56	18,89	16,65	1,25
Dum bandining balandligi	9,63	12,81	11,06	0,76
Dum bandining eni	3,09	5,41	4,29	0,52
Ko‘krak va qorin suzgich orasidagi masofa (qanotlarning boshlanish qismidan)	32,02	40,08	34,20	1,66
Qorin va anal suzgich orasidagi masofa	29,02	33,83	31,30	1,22
Anal teshigi va anal suzgichi orasidagi masofa	2,18	4,09	3,05	0,52
Bosh uzunligiga nisbatan % hisobida				
Boshning balandligi ensa qismidan	46,15	57,34	51,89	3,11
Boshning balandligi ko‘z sohasidan	39,31	50,46	43,05	2,58
Boshning eni ensa qismidan	48,35	68,47	59,37	4,30
Tumshuq uzunligi	37,21	45,14	41,36	2,34
Ko‘z diametri	10,63	19,78	13,85	2,59
Ikki ko‘z oralig‘ining masofasi	21,26	30,73	26,12	2,76
Postorbital uzunlik	35,46	50,00	44,62	3,04
Og‘iz kengligi	24,11	36,63	31,03	3,11
Burun kengligi	12,06	25,39	19,42	2,85
Maksillar mo‘ylov (og‘izdagi)	11,70	33,33	22,95	4,93
Ichki kichik mo‘ylov	7,45	23,39	14,98	4,45
Tashqi kichik mo‘ylov	12,72	35,09	21,85	5,34

Izoh. Min - minimal uzunlik, Max - maksimal uzunlik, Mean - o‘rtacha uzunlik, SD - standart og‘ish.

Orqa suzgich qanotidagi nurlar soni: II-6; anal suzgich qanoti: II-5; ko‘krak suzgich qanoti: II-7; qorin suzgich qanoti: II-6.

Xulosalar. Yuqoridagi jadvalda keltirilgan 27 namunadagi baliqlarning eng kichik uzunlik o‘lchamdagisi 4,61 sm, eng katta uzunlik o‘lchamdagisi esa 14,25 sm ni tashkil etdi. Bosh uzunligining standart uzunligiga nisbati o‘rtacha 22,92% ni, predorsal uzunlik standart uzunlikka nisbatan 50,19% ni, postdorsal uzunlik 38,96% ni, bosh uchidan qorin suzgichigacha bo‘lgan uzunlik 51,56% ni, bosh uchidan anal suzgchgacha bo‘lgan uzunlik 75,71% ni, dum bandining uzunligi 16,65% ni, ko‘krak va qorin suzgich orasidagi masofa 34,20% ni tashkil qildi. Shuningdek, boshning balandligi (ensa qismidan) bosh uzunligiga nisbatan 52% ni, boshning eni (ensa qismidan) 59,37% ni, tumshuq uzunligi 41,36% ni tashkil etdi.

Tadqiqotlarimiz natijasiga ko‘ra ushbu tur Qoratog‘ daryoning O‘zbekiston Respublikasi hududidagi o‘rta va quyi oqimlarida keng arealga ega ekanligi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Fricke R., Eschmeyer W.N. & Fong J.D. Eschmeyer’s Catalog of Fishes: Genera/Species by Family/Subfamily. 2023. http://researcharchive.calacademy.org/research/ichthyology/catalog/SpeciesByFamily.asp

2. Kottelat M., Freyhof J. Handbook of European freshwater fishes. Berlin: Kottelat, Cornol & Freyhof 2007. Doi:10.1007/s10228-007-0012-3

3. Prokofiev A.M. Problems of the classification and phylogeny of Nemacheiline loaches of the group lacking the preethmoid I (Cypriniformes: Balitoridae: Nemacheilinae). Journal of Ichthyology, 2009. Vol. 49(10). – P. 874-898.

4. Sheraliyev B.M., Qayumova Y.K. Markaziy Osiyo yalangbaliqlari (Teleostei: Cobitoidei) ning taksonomik o‘rganilish tarixi. // Namangan davlar universiteti ilmiy axborotnomasi. Namangan – 2023/3 – B. 38-47.

5. Sheraliev B.M., Kayumova Yo.K. Voprosi taksonomicheskogo polojeniya i oxrani golsov (Teleostei: Cobitoidei), rasprostranennix v vodoemax Uzbekistana. // Uzb. boil. jurnal, 2022. 2. – S. 35-40. [Rus tilida].

6. Zimmerman B., Jones R., Ball S. Fish. In: A report of RSPB-supported scientific research at Koytendag State Nature Reserve, East Turkmenistan. Pensoft Publishers, Sofia, 2019. – P. 42-58.

UO‘T 597.552.1

AYDAR-ARNASOY KO‘LLAR TIZIMIDAGI KUMUSH TOVONBALIQNING (*CARASSIUS GIBELIO*) MORFOLOGIK XUSUSIYATLARI

Mirzayev U.T., Azizov N.Y.
O‘z FA Zoologiya instituti, e-mail: umirzayev@gmail.com; n.y.azizov@gmail.com

Annotation. *The article presents an external morphological description and analysis of the variability of morphometric features of Carassius gibelio in the Aydar-Arnasay Lake system. Carassius gibelio in the Aydar-Arnasay lake system are morphologically similar, and only Carassius gibelio from Eastern Arnasay differs from the rest by smaller scales in the lateral line. Carassius gibelio in the lakes of Eastern Arnasay and Tuzkan is distinguished by a large body height, the size of the pectoral and ventral fins, and the Aydarkul Carassius gibelio has relatively small eyes and smaller body sizes.*

Kumush tovonbaliq (*Carassius gibelio* (Bloch, 1782)) Yevroosiyo qit‘asidagi eng keng tarqalgan karpsimon baliq turlaridan biridir (Berg, 1949; Kottelat, Freyhof, 2007). O‘zbekiston suv havzalarida XIX asrdan Amudaryoning quyi oqimidagi ko‘llardan ma’lum bo‘lgan (Kessler, 1877, Berg, 1905, 1949). Aborigen populyatsiyalaridan tashqari XX asrning 50-yillari boshlarida O‘zbekiston suv havzalarining baliq mahsuldorligini oshirish maqsadida Rossiyaning Moskva viloyatidan, kelib chiqishi Amur daryosidan bo‘lgan kumush tovonbaliqlari olib kelingan (Stepanova, 1955).

Hozirgi vaqtda O‘zbekiston suv havzalarida kumush tovonbaliqning ham mahalliy, ham iqlimlashtirilgan turlari mavjud bo‘lib, ularning zamonaviy areali Amudaryo, Sirdaryo, Qashqadaryo, Surxondaryo va Zarafshon daryolarining o‘rta va quyi oqimlarining deyarli barcha suv havzalarini qamrab oladi (Mirzayev, 2001). Kumush tovonbaliq yashash muhitining keng doiradagi ekologik sharoitlariga g‘ayrioddiy bardoshliligi bilan ajralib turadi va ko‘pincha bir qator biologik va morfologik belgilarda keng o‘zgaruvchanlikka ega bo‘lgan baland va past tanali shakllarni (forma) hosil qiladi (Berg, 1949; Mirzayev, 2016).

Ishning maqsadi – Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimidagi kumush tovonbaliqning tashqi morfologik tavsifi va morfometrik xususiyatlarining o‘zgaruvchanligini tahlil qilish.

Material va metodlar. Ushbu tadqiqot ishi uchun material sifatida 2021-2023-yillarning bahor oylarida (mart-may) Aydar-Arnasoy tizimidagi Sharqiy Arnasoy, Tuzkon va Aydarko‘l ko‘llaridan ovlangan kumush tovonbaliqlar namunalaridan foydalanildi. Baliqlar 25-45 mm gacha bo‘lgan to‘rlar yordamida ovlangan. Baliqlar 10% formalin eritmasi bilan fiksatsiyalangan.

Baliqlarning morfometrik o‘lchovlari karpsimon baliqlarni o‘lchash sxemasiga asosan uslubiy ko‘rsatmalarga muvofiq amalga oshirildi (Zinovyev, Mandritsa, 2003).

Olingan miqdoriy natijalarni statistik qayta ishlash Minitab Statistical (v.18.0) dasturi (Minitab Inc., 2013: AQSh) asosida amalga oshirildi. Morfometrik belgilarning o‘lchamlari chegaralari minimal (*min*), maksimal (*max*), o‘rtacha ko‘rsatkichi (*M*), o‘rtachaning standart xatosi (*m*), standart og‘ish (σ), dispersiya (S^2), variatsiya koeffitsiyenti (*Cv*) va belgilar

o‘rtasidagi farqlar (*t*) hisoblab chiqildi. Hammasi bo‘lib 81 dona kumush tovonbaliq namunalari o‘rganildi.

Natijalar va ularning muhokamasi. O‘zbekiston suv havzalarida kumush tovonbaliq populyatsiyasi ko‘pincha bir jinsli va ikki jinsli shakllar bilan ifodalanadi (Shamsiev, Mirzaev, 2013). Biz o‘rgangan namunalarda kumush tovonbaliqlar deyarli to‘liq urg‘ochilardan iborat bo‘lib, quyidagi biologik parametrlardan iborat bo‘ldi: tana uzunligi 15,0 dan 29,0 *sm* gacha, tana og‘irligi 115 dan 731 *g* gacha, yoshi 2+ dan 4+ yoshgacha (uch yoshli baliqlar ustunlik qilgan holda, 56,7%).

Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimidagi kumush tovonbaliqning og‘zi kichik, jag‘ tishlari va mo‘ylablari yo‘q. Tanasi ko‘proq yoki kamroq qavariq yelka bilan cho‘zilgan, yon tomonlaridan qisilgan. Yelka suzgich qanoti baland, qirralari tekis yoki botiq. Dum suzgich qanoti kesimtalik. Rangi: Yelka (orqa) qismi to‘q, ba’zi namunalarda och jigarrang, yon tomonlari to‘q kumushsimon, ba’zilarida ular sarg‘ish-kumush rangda, qorin kumush rang bilan sarg‘ish. Ko‘krak va qorin suzgichlari och, anal qanoti to‘qroq. Qorin pardasi qora rangda.

Tashqi morfologik belgilar quyidagicha tavsiflanadi: *D* III-IV 17-18, *A* III 5, Yelka va anal suzgich qanotlarining so‘nggi shoxlanmagan nurlari qattiq, orqa chetida tikanlar bor. *P* I 14-16, *V* I 7-8, *l.l.* 28-33, *sp.br.* 40-52, *vert.* 29-30 ta, tomoq tishlari bir qatorli – 4-4 (umumlashtirilgan ma’lumot).

Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimi kumush tovonbalig‘i morfologik belgilarining ko‘rsatkichlari 1-3-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Sharqiy Arnasoy ko‘li kumush tovonbalig‘ining morfologik belgilarining ko‘rsatkichlari (*n*=29)

Belgilar	*Min-max*	*M±m*	σ	S^2	*Cv %*
l, sm	16,0-29,0	21,7±0,67	3,61	13,09	16,59
D	III-IV 17-18	17,4±0,09	0,50	0,25	2,90
A	III 5	-	-	-	-
P	I 14-16	14,4±0,13	0,73	0,54	5,09
V	I 7-8	7,3±0,09	0,49	0,24	6,69
l.l.	28-31	29,1±0,17	0,93	0,88	3,22
sp.br	40-52	48,5±0,59	3,20	10,25	6,56
vert.	29-30	29,4±0,09	0,50	0,25	1,70
Tana uzunligiga nisbati (*l*), %					
c	25,6-31,5	28,4±0,32	1,77	3,14	6,23
ao	6,9-9,1	8,2±0,11	0,64	0,41	7,75
o	4,2-5,1	4,4±0,04	0,22	0,05	5,07
po	13,0-16,3	14,6±0,18	0,98	0,96	6,64
hc	21,3-26,8	23,9±0,29	1,59	2,53	6,64
io	10,5-13,1	12,0±0,12	0,66	0,44	5,55
H	31,2-43,8	39,1±0,48	2,59	6,71	6,62
h	14,2-18,5	16,2±0,25	1,37	1,88	8,44
aD	46,0-53,7	48,6±0,41	2,25	5,09	4,63
pD	21,4-28,5	25,1±0,39	2,10	4,44	8,39
lca	17,9-24,7	22,3±0,34	1,86	3,49	8,35
lD	30,6-41,8	39,0±0,61	3,33	11,12	8,54
hD	19,3-25,9	21,5±0,35	1,89	3,58	8,78
lA	9,6-13,6	11,9±0,21	1,17	1,38	9,80
hA	17,2-21,2	19,5±0,22	1,22	1,49	6,26
lP	18,1-25,1	20,6±0,41	2,22	4,93	10,75
lV	26,6-35,0	31,3±0,42	2,28	5,21	7,28

PV	19,2-25,5	22,2±0,37	1,99	3,97	8,95
VA	26,5-34,0	30,9±0,47	2,57	6,62	8,31
Bosh uzunligiga nisbati (*c*), %					
ao/c	26,9-29,7	29,0±0,12	0,69	0,48	2,41
o/c	15,0-16,6	15,7±0,08	0,43	0,18	2,76
po/c	50,7-52,1	51,5±0,05	0,31	0,10	0,61
hc/c	83,2-85,1	84,2±0,11	0,62	0,39	0,74
io/c	41,0-43,2	42,1±0,09	0,51	0,26	1,22

1-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, Sharqiy Arnasoy ko‘li kumush tovonbalig‘i tana uzunligi bilan bog‘liq bo‘lgan 19 ta morfometrik belgilari variatsiya koeffitsiyentlarining aksariyati (*ao, h, pD, lca, lD, hD, lA, lV, PV, VA*) o‘rtacha darajadagi o‘zgaruvchanlik bilan tavsiflanadi. Faqat ko‘krak suzgich qanoti (*lP*) uzunligi yuqori o‘zgaruvchanlikni (*Cv* =10,75) namoyon etdi. Qolgan belgilar – *c, o, po, hc, io, H, aD, hA* kam o‘zgaruvchan belgilar hisoblanadi. Boshning 5 ta morfometrik belgilari ham kam o‘zgaruvchan belgilar qatoriga kiradi.

2-jadval

Tuzkon ko‘li kumush tovonbalig‘ining morfologik belgilarining ko‘rsatkichlari (*n*=27)

Belgilar	*Min-max*	*M±m*	*σ*	S^2	*Cv %*
l, sm	15,6-28,3	21,4±0,70	3,63	13,19	16,95
D	III-IV 17-18	17,5±0,09	0,50	0,25	2,90
A	III 5	-	-	-	-
P	I 14-16	14,4±0,13	0,70	0,49	4,83
V	I 7-8	7,4±0,09	0,50	0,25	6,80
l.l.	29-33	29,7±0,19	1,02	1,04	3,43
sp.br	41-52	48,7±0,48	2,53	6,44	5,21
vert.	29-30	29,4±0,09	0,50	0,25	1,70
Tana uzunligiga nisbati (*l*), %					
c	25,0-31,3	28,2±0,35	1,82	3,30	6,43
ao	6,5-8,9	8,0±0,13	0,66	0,44	8,23
o	4,2-4,9	4,3±0,03	0,16	0,02	3,62
po	12,5-16,2	14,5±0,20	1,04	1,08	6,81
hc	21,0-26,6	23,8±0,31	1,62	2,62	6,81
io	9,7-13,0	11,9±0,15	0,76	0,57	6,36
H	25,5-36,2	30,6±0,65	3,39	11,51	11,06
h	14,2-18,4	16,1±0,27	1,40	1,97	8,70
aD	46,0-53,3	48,4±0,41	2,13	4,55	4,40
pD	21,3-28,4	24,8±0,42	2,16	4,65	8,68
lca	17,5-24,6	22,1±0,40	2,07	4,27	9,35
lD	29,6-41,8	38,5±0,73	3,81	14,53	9,89
hD	19,3-25,5	21,3±0,34	1,77	3,14	8,29
lA	9,5-13,5	11,8±0,24	1,25	1,55	10,52
hA	14,5-20,6	16,9±0,30	1,56	2,43	9,21
lP	18,0-24,8	20,4±0,41	2,13	4,55	10,43
lV	25,7-34,9	31,0±0,48	2,50	6,27	8,07
PV	18,5-24,7	21,5±0,39	2,01	4,02	9,29
VA	24,5-33,1	30,5±0,51	2,64	6,95	8,63
Bosh uzunligiga nisbati (*c*), %					
ao/c	26,0-29,1	28,3±0,13	0,69	0,48	2,44
o/c	14,3-16,8	15,2±0,13	0,70	0,49	4,58
po/c	50,0-52,1	51,4±0,09	0,46	0,22	0,90

hc/c	83,2-85,0	84,2±0,13	0,65	0,42	0,77
io/c	38,8-43,1	42,2±0,16	0,82	0,68	1,95

Tuzkon ko‘li kumush tovonbalig‘i tana uzunligiga nisbati bo‘yicha *H, lA, lP* belgilar yuqori o‘zgaruvchanlikni, *ao, h, pD, lca, lD, hD, lA, lV, PV, VA* o‘rtacha o‘zgaruvchanlikni, qolgan belgilari (*c, o, po, hc, io, aD*) kam o‘zgaruvchanlikni namoyon etdi. Shuningdek boshning nisbati bo‘yicha belgilari ham kam o‘zgaruvchanlikni namoyon etdi (2-jadval).

3-jadval

Aydarko‘l ko‘li kumush tovonbalig‘ining morfologik belgilarining ko‘rsatkichlari (*n*=25)

Belgilar	*Min-max*	*M±m*	*σ*	S^2	*Cv %*
l, sm	15,0-27,0	19,9±0,71	3,55	12,63	17,81
D	III-IV 17-18	17,4±0,10	0,50	0,26	2,91
A	III 5	-	-	-	-
P	I 14-16	14,5±0,16	0,82	0,67	5,63
V	I 7-8	7,4±0,10	0,50	0,25	6,75
l.l.	29-33	29,6±0,25	1,25	1,57	4,23
sp.br	44-52	49,1±0,36	1,82	3,32	3,71
vert.	29-30	29,3±0,09	0,47	0,22	1,62
Tana uzunligiga nisbati (*l*), %					
c	24,6-30,7	27,5±0,36	1,80	3,24	6,54
ao	5,9-8,3	7,4±0,14	0,69	0,48	9,36
o	4,2-4,6	4,2±0,02	0,09	0,01	2,14
po	11,8-16,0	14,1±0,22	1,08	1,18	7,02
hc	20,6-26,1	23,1±0,33	1,63	2,64	7,02
io	9,5-12,9	11,6±0,16	0,79	0,62	6,77
H	24,8-35,5	29,3±0,68	3,39	11,52	11,55
h	13,8-18,2	15,6±0,27	1,36	1,84	8,67
aD	44,7-52,6	47,6±0,38	1,90	3,59	3,98
pD	19,5-27,8	23,9±0,46	2,31	5,32	9,62
lca	14,9-24,4	21,1±0,53	2,66	7,06	12,57
lD	26,5-41,7	36,7±1,02	5,12	26,22	13,93
hD	17,8-24,5	20,6±0,32	1,59	2,54	7,71
lA	9,2-13,3	11,3±0,28	1,40	1,96	12,34
hA	13,9-19,7	16,2±0,34	1,69	2,84	10,37
lP	16,4-24,2	19,6±0,38	1,92	3,68	9,76
lV	17,9-33,7	27,7±1,02	5,10	25,99	18,41
PV	17,5-23,7	20,2±0,37	1,83	3,36	9,06
VA	23,0-32,5	27,2±0,58	2,90	8,40	10,63
Bosh uzunligiga nisbati (*c*), %					
ao/c	23,9-27,9	26,8±0,20	1,01	1,01	3,76
o/c	14,2-17,0	15,5±0,16	0,79	0,62	5,07
po/c	47,9-52,3	51,2±0,16	0,80	0,65	1,57
hc/c	83,1-85,0	84,0±0,13	0,64	0,41	0,77
io/c	38,6-43,1	42,3±0,17	0,85	0,73	2,01

Aydarko‘l ko‘li kumush tovonbalig‘i tana uzunligiga nisbati bo‘yicha *H, lca, lD, lA, hA, lV, VA* belgilar yuqori o‘zgaruvchanlikni, *ao, po, hc, h, pD, hD, lP, PV* o‘rtacha o‘zgaruvchanlikni, qolgan belgilar (*c, o, io, aD*) kam o‘zgaruvchanlikni namoyon etdi.

Shuningdek boshning morfometrik belgilari ham kam o‘zgaruvchan sifatida qayd qilindi (3-jadval).

Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimi kumush tovonbalig‘ining morfometrik belgilari ko‘rsatkichlarining qiyosiy tahlili 4-jadvalda keltirilgan.

4-jadval

Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimi kumush tovonbalig‘ining morfometrik belgilari ko‘rsatkichlarining qiyosiy tahlili

Belgilar	Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimi			*t* - kriteriya		
	Sh.Arnasoy (I)	Tuzkon (II)	Aydarko‘l (III)	I-II	I-III	II-III
l, sm	21,7±0,67	21,4±0,70	19,9±0,71	-	-	-
Tana uzunligiga nisbati (*l*), %						
c	28,4±0,32	28,2±0,35	27,5±0,36	0,44	1,88	1,38
ao	8,2±0,11	8,0±0,13	7,4±0,14	1,37	1,85	3,33*
o	4,4±0,04	4,3±0,03	4,2±0,02	3,15*	4,77*	1,22
po	14,6±0,18	14,5±0,20	14,1±0,22	0,43	4,30*	1,41
hc	23,9±0,29	23,8±0,31	23,1±0,33	0,40	1,89	1,43
io	12,0±0,12	11,9±0,15	11,6±0,16	0,59	1,86	1,20
H	39,1±0,48	30,6±0,65	29,3±0,68	10,49*	1,87	1,35
h	16,2±0,25	16,1±0,27	15,6±0,27	0,36	11,90*	1,31
aD	48,6±0,41	48,4±0,41	47,6±0,38	0,35	1,71	1,40
pD	25,1±0,39	24,8±0,42	23,9±0,46	0,42	1,73	1,43
lca	22,3±0,34	22,1±0,40	21,1±0,53	0,48	1,87	1,50
lD	39,0±0,61	38,5±0,73	36,7±1,02	0,51	2,00	1,42
hD	21,5±0,35	21,3±0,34	20,6±0,32	0,36	1,95	1,45
lA	11,9±0,21	11,8±0,24	11,3±0,28	0,45	1,79	1,36
hA	19,5±0,22	16,9±0,30	16,2±0,34	6,91*	1,84	1,50
lP	20,6±0,41	20,4±0,41	19,6±0,38	0,33	8,20*	1,43
lV	31,3±0,42	31,0±0,48	27,7±1,02	0,53	1,76	3,02*
PV	22,2±0,37	21,5±0,39	20,2±0,37	1,27	3,49*	2,50*
VA	30,9±0,47	30,5±0,51	27,2±0,58	0,60	3,84*	4,25*
Bosh uzunligiga nisbati (*c*), %						
ao/c	29,0±0,12	28,3±0,13	26,8±0,20	3,43*	9,46*	6,60*
o/c	15,7±0,08	15,2±0,13	15,5±0,16	2,89*	1,24	1,14
po/c	51,5±0,05	51,4±0,09	51,2±0,16	0,37	1,65	1,26
hc/c	84,2±0,11	84,2±0,13	84,0±0,13	0,11	1,18	1,25
io/c	42,1±0,09	42,2±0,16	42,3±0,17	0,51	0,10	0,48

Izoh: *yulduzcha (*) t_{st} qiymatlarini bildiradi va $P \leq 0,05$ ahamiyatlilik darajasida haqiqiy farqlar mavjudligini ko‘rsatadi.*

Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimi kumush tovonbalig‘ining morfometrik belgilari ko‘rsatkichlarining qiyosiy tahlili natijasida tana uzunligiga nisbati bo‘yicha Sharqiy Arnasoy ko‘li kumush tovonbalig‘i Tuzkon ko‘li tovonbalig‘idan 3 ta (*o, H, hA*), Aydarko‘l ko‘li tovonbalig‘idan 6 ta belgisi (*o, po, h, lP, PV, VA*) bilan farqlanishi, Tuzkon ko‘li tovonbalig‘i esa Aydarko‘l ko‘li tovonbalig‘idan 4 ta belgisi (*ao, lV, PV, VA*) bilan farqlanishi aniqlandi. Shuningdek, Sharqiy Arnasoy va Tuzkon ko‘llari kumush tovonbaliqlari o‘zaro boshining 2 ta belgisi (*ao/c, o/c*), Sharqiy Arnasoy va Aydarko‘l, Tuzkon va Aydarko‘l tovonbaliqlari 1 belgisi (*ao/c*) bilan farqlanishi aniqlandi (4-jadval).

Xulosalar. Shunday qilib, Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimi kumush tovonbalig‘ining tana uzunligi bilan bog‘liq bo‘lgan 19 ta morfometrik belgilari variatsiya koeffitsiyentlari tahliliga ko‘ra Sharqiy Arnasoy ko‘li kumush tovonbalig‘ining faqat bir belgisi (*lP*), Tuzkon ko‘li tovonbaliqlarining 3 belgisi (*H, lA, lP*) va Aydarko‘l tovonbaliqlarining 7 ta belgisi (*H, lca, lD, lA, hA, lV, VA*) yuqori o‘zgaruvchanlikni namoyon etdi. Plastik belgilarning o‘zgarishi, birinchi navbatda, tananing turli qismlari va organlarining o‘sish tezligining o‘zgarishi bilan bog‘liq.

Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimi kumush tovonbalig‘ining tashqi morfologik belgilari bir-biriga yaqin bo‘lib, faqat Sharqiy Arnasoy ko‘li tovonbalig‘i Tuzkon va Aydarko‘l ko‘llari tovonbaliqlaridan yon chizig‘idagi tangachalarning kamligi bilan ajralib turadi. Sharqiy Arnasoy va Tuzkon ko‘llaridagi kumush tovonbalig‘i tanasining balandligi, ko‘krak va qorin suzgich qanotlarining kattaligi, Aydarko‘l kumush tovonbalig‘i esa nisbatan ko‘zining va tanasining kichikligi bilan xarakterlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Berg L.S. Ribi Turkestana. Izv. Turk.otd. Rus.geogr. obshestva. – S.Peterburg, 1905. – 261 s. [Rus tilida].
2. Berg L.S. Ribi presnix vod SSSR i sopredelnix stran. Chast-2. – Moskva, 1949. – S. 470-925 [Rus tilida].
3. Zinovyev E.A., Mandritsa S.A. Metodi issledovaniya presnovodnix rib: Uchebnoe posobie po spetskursu. – Perm: Permskiy un-t., 2003. – 113 s [Rus tilida].
4. Kessler K.F. Ribi, vodyashiesya i vstrechayushiesya v Aralo-Kaspiysko-Ponticheskoy ixtiologicheskoy oblasti. – Moskva: Sankt-Peterburg, 1877. – 360 s [Rus tilida].
5. Mirzayev U.T. Bioraznoobraziya rib Uzbekistana: strategiya soxraneniya mnogoobraziya vidov // Uzbekskiy biologicheskiy jurnal. 2001. №. 3. – S. 40-44 [Rus tilida].
6. Mirzayev U.T. Nizkotelaya forma serebryanogo karasya (*Carassius gibelio morpha humilis*) iz reki Zarafshan // Hayvonlar ekologiyasi va morfologiyasi (Ilmiy maqolalar to‘plami). – Samarqand, 2016. – B. 120-122 [Rus tilida].
7. Stepanova N.A. O nekotorix rezultatax introduksii serebryanogo karasya v Katta-Kurganskoe vodoxranilishe // Dokladi AN UzSSR. 1955. № 4. S. 47–50 [Rus tilida].
8. Shamsiyev N.A., Mirzayev U.T. Usloviya razmnojeniya nekotorix promislovix vidov rib ozero Ayakagitma Uzbekistana. // Bioraznoobrazie i ratsionalnoe ispolzovanie prirodnix resursov: Materiali dokladov Vserossiyskoy nauchno-prakticheskoy konferensii s mejdunarodnim uchastiem, posvyashyonnoy 50-letiyu kafedri botaniki DGPU. Rossiya, Maxachkala 27-28 marta 2013 g. – Maxachkala: ALEF (IP Ovchinnikov M.A.), 2013. – S. 129-131 [Rus tilida].
9. Kottelat M., Freyhof J. Handbook of European Freshwater Fishes. Cornol and Berlin: Kottelat and Freyhof, 2007. 646 p. https://doi.org/10.1007/s10228-007-0012-3

UO‘T 597.554.3

AYRIM NOYOB VA YO‘Q BO‘LIB KETISH XAVFI OSTIDA TURGAN BALIQ TURLARINING QISQACHA TAVSIFI

Quvatov A.Q.
O‘zR FA Zoologiya instituti, e-mail: asqarquvatovxabb@mail.ru

Annotation: *The article presents a brief analysis of the morphological characteristics of 6 species of fish listed in the Red Book of the Republic of Uzbekistan. Observations were carried out on a sufficient number of specimens in the field, under which they were not isolated*

from nature. The article mentions information about when and from which water bodies' ichthyological specimens were taken.

O‘rta Osiyo mintaqasi suv havzalari jumladan, O‘zbekiston Respublikasi suv havzalarida tarqalgan baliq turlari bo‘yicha dastlabki ixtiologik tadqiqotlar K.F. Kessler (1872), L.S. Berg (1948) larning ishlarida o‘z aksini topgan. Oxirgi yillarda U.T. Mirzaev (2001), A.Q. Quvatov (2022) larning ishlarida keltiriladi.

Material va metodlar. Materiallar 2019-2023 yillarda Qashqadaryo, Sherobod, Chirchq daryolari suv havzalaridan yig‘ildi (jadval).

Baliq namunalarida morfologik hisoblash ishlari I.F. Pravdin (1966) tomonidan taklif etilgan baliqlar oilasi bo‘yicha o‘lchash chizmasi asosida amalga oshirildi.

Jadval

Tadqiqotda foydalanilgan ixtiologik namunalarning turlar tarkibi va ularning yig‘ilgan hududlari

№	Oila va turlar kesimida	Ixtiologik namunalar yig‘ilgan hudud	Ixtiologik namunalar yig‘ilgan suv havzasi
Salmonidae – oilasi			
1	*Salmo oxianus* Kessler, 1874	Qashqadaryo viloyati	Qarshi magistral kanali
Cyprinidae – oilasi			
2	*Luciobarbus conocephalus* Kessler, 1872	Toshkent viloyati	Chirchiq daryosining quyi qismi
3	*Alburnus oblongus* Bulgakov, 1923	Toshkent viloyati	Chirchiq daryosining o‘rta oqimi
Cobitidae – oilasi			
4	*Sabanejewia aralensis* Kessler, 1877	Toshkent va Surxondaryo viloyatlari	Chirchiq va Sherobod daryolari
Sisoridae – oilasi			
5	*Glyptosternon oschanini* Herzenstein, 1889	Toshkent viloyati	Ugom daryosi
Cottidae – oilasi			
6	*Cottus jaxartensis* Berg, 1916	Toshkent viloyati	Ugom va Pskom daryolari

Natijalar va ularning muhokamasi. Turkiston laqqachasi *Glyptosternon oschanini* (Herzenstein, 1889)

Tabiiy areali. Amudaryoning yuqori oqimi, Sirdaryo daryosi suv havzalari (Norin, Qoradaryo, Chirchiq), Inda hamda Tarim daryolari hisoblanadi (Berg, 1949).

Tavsifi. Soy suvlarining nisbatan iliq, sekin oqadigan, tiniq, uncha chuqur bo‘lmagan (20-30 sm), kichik o‘lchamdagi tabiiy toshlar ostida, mayda-shag‘alli toshlar orasida (qisman ko‘milib olib) yashaydi. Tashqi ta’sirlarga juda sezgir. Hayoti davomida kam harakat qiladi. Tanasining rangi asosan, yosh individlarda qoramtir-qo‘ng‘ir tusda, katta yoshlilarida esa qoramtir-kulrang tusga o‘zgaradi.

Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasi Qizil kitobining (2019) 2-jildida “2 (VU:D): Zaif, qisqarib borayotgan, mozaik tarqalgan tog‘li Osiyo endemik turi” sifatida muhofazaga olingan.

O‘lchash va hisoblash ishlari natijasi quyida keltiriladi. Meristik belgilari: suzgich qanotlaridagi shu’lalar soni; yelkada I-II 6 ta, qorinda I 5 ta, ko‘krakda I 9-10 ta, analda II-III 5 tani tashkil qildi.

Chotqol toshbuqasi *Cottus jaxartensis* Berg, 1916

Tabiiy areali. Chirchiq daryosi suv havzasining Ugom daryosi hisoblanadi (Berg, 1916).

Tavsifi. Bosh va peshana sohasida yaxshi rivojlangan tikanchalari bor. Tana rangi odatda qoramtir-qo‘rg‘ir tusda.

Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasi Qizil kitobining (2019) 2-jildida “2 (VU:D): G‘arbiy Tyan-Shanning zaif, qisqarib borayotgan, lokal tarqalgan endemik relikt turi” sifatida muhofazaga olingan.

Hisoblash ishlari natijasi quyidagicha: suzgich qanotlaridagi shu’lalar soni; yelkada *I D* 7-8 ta, *II D* 17-18 ta, qorinda 5 ta, ko‘krakda 14-15 ta, analda 12 ta, dumda 17-18 ta, yon chizig‘idagi tangachalari soni 34-36 tani tashkil qildi.

Turkiston mo‘ylovdori *Luciobarbus conocephalus* Kessler, 1872

Tabiiy areali. Zaravshon daryosining suv havzalari (Kessler, 1872).

Tavsifi. Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasi Qizil kitobining (2019) yilda nashr qilingan 2-jildida “2 (VU:D): Zaif, qisqarib borayotgan Orol endemik kenja turi” sifatida muhofazaga olingan.

Meristik (hisoblash) belgilari bo‘yicha ko‘rsatkichlari: suzgich qanotlaridagi shu’lalar soni; yelkada III 8 ta, analda III 5 ta, ko‘krakda I 16 ta, qorinda I 8 ta, yon chizig‘idagi tangachalari soni 60 tani tashkil etadi.

Toshkent yuzasuzari *Alburnus oblangus* Bulgakov, 1923

Tabiiy areali. Sirdaryo daryosi suv havzasi: Chirchiq daryosi (Sirdaryo daryosining Toshkent viloyati airofi), Aris suv havzasining Badam daryosi (Berg, 1949).

Tasnifi. Anal suzgich qanoti tugash qismi biroz o‘yilgan shaklda bo‘ladi. Jabra qopqoqlarining o‘rta qismidan to dum suzgich qanotining o‘rta qismigacha qora chiziq tortilgan va chiziq tanasining yuqorigi tomoni rangiga uyg‘unlashib qoramtir-qo‘ng‘ir rangni hosil qiladi.

Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasi Qizil kitobining (2019) 2-jildida “2 (VU:D): Sirdaryoning zaif, qisqarib borayotgan, lokal tarqalgan endemik turi” sifatida muhofazaga olingan.

Hisoblash ishlari natijasi quyidagicha: suzgich qanotlaridagi shu’lalar soni; yelkada III 7-8 ta, analda III 10-11 ta, qorinda II 7 ta, ko‘krakda I 13-14 ta, dumda 30-34 (o‘rtacha 31) ta, yon chizig‘idagi tangachalari 50-56 (o‘rtacha 53) tani tashkil qildi.

Orol tikanagi *Sabanejewia aralensis* Kessler, 1877

Tabiiy areali. Amudaryo va Sirdaryo daryolari suv havzalari (Kessler, 1877).

Tavsifi. Tanasi yon tomondan biroz teng miqdorda qisilgan. Yon tomondan qaralsa tik qomatda ko‘rinadi. Tanasida turli-xil o‘lchamda dog‘lari mavjud bo‘lib, ularning rangi tanasini oqish tusda ifodalaydi.

Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasi Qizil kitobining (2019) 2-jildida “3 (NT): Yo‘q bo‘lib ketish ehtimoliga yaqin Orol endemik kenja turi. TMXI Qizil ro‘yxatiga kiritilgan [LC]” sifatida muhofazaga olingan.

Hisoblash ishlari natijasi quyidagicha: meristik belgilari suzgich qanotlaridagi shu’lalar soni; yelkada III 6 ta, qorinda I-II 6 ta, ko‘krakda I 7-8 ta, analda III 5 ta, dumda 21-22 tani tashkil qildi.

Amudaryo gulbalig‘i *Salmo oxianus* Kessler, 1874

Tabiiy areali. Amudaryo daryosining asosiy irmog‘i, shimoliy tomondan Qizilsu va Surxab (Kessler, 1874).

Tavsifi. Tanasida yorqin-qizil va ko‘k rangdagi dog‘lar bilan qoplangan.

Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasi Qizil kitobining (2019) 2-jildida “2 (VU:D): Zaif, qisqarib borayotgan, Amudaryo endemik relikt kenja turi” sifatida muhofazaga olingan.

Hisoblash ishlari natijasi quyidagicha: suzgich qanotlaridagi shu’lalar soni; yelkada III 9-10 ta, qorinda I-II 7-8 ta, ko‘krakda I 12 ta, analda III 7-8 ta, dumda 29-30 ta, yon chizig‘idagi tangachalari soni 114 dan 126 gacha (o‘rtacha, 118) tani tashkil qildi.

Xulosalar. Shunday qilib, Respublikaning turli suv havzalarida Qizil kitobda (2019) muhofazaga olingan 6 ta – *Glyptosternon oschanini, Cottus jaxartensis, Luciobarbus conocephalus, Alburnus oblangus, Salmo oxianus* va *Sabanejewia aralensis* kabi turlar

bo‘yicha qisqacha morfologik tahlili keltirilgan. Turlardagi tahliliy ko‘rsatkichlar adabiyot manbalari bilan solishtirilganda jiddiy morfologik o‘zgarishlar kuzatilmadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Kessler K.F. Izv. ob-va lyubit. yestestvozn., antropologii i etnografii. – Moskva, 1872. T. 10, Vip. 1. – S. 3-168. [Rus tilida].
2. Kessler K.F. Puteshestvie A.P.Fedchenko v Turkestana. Ribi. // Izv. ob-va lyubit. yestestvozn., antropologii i etnografii, – Moskva, 1874. T. 2. Vip. 3. – S. 3-63. [Rus tilida].
3. Kessler K.F. Ribi, vodyashiesya i vstrechayushiesya v Aralo-Kaspiysko-Ponticheskoy ixtiologicheskoy oblasti // Tr. Aralo-Kasp. eksp. – SPb, 1877. Vip. 4. – 360 s. [Rus tilida].
4. Berg L.S. Ribi presnix vod Rossiyskoy imperii. – Moskva, 1916. – S. 3-563. [Rus tilida].
5. Berg L.S. Berg L.S. Ribi presnix vod SSSR i sopredel'nix stran. – Moskva, 1949. Chast-2. ss. 470-925. [Rus tilida].
6. Berg L.S. Berg L.S. Ribi presnix vod SSSR i sopredel'nix stran. – Moskva, 1949. Chast-3. ss. 930-1381. [Rus tilida].
7. Mirzaev U.T. Ekologiya rib Chatkalskogo zapovednika // Trudi zapovednikov Uzbekistana. Tashkent, 2001. Vip. 3. ss. 56-62. [Rus tilida].
8. Pravdin I.F. Rukovodstvo po izucheniyu rib. 4-e izd. M.: Pishevaya promishlennost'. 1966. S. 376. [Rus tilida].
9. O‘zbekiston Respublikasi Qizil kitobi II-jildi – Toshkent: “Chinor ENK” nashriyoti, 2019. – B. 106-125.

UO‘T 597.551.2:59.018

QARSHI MAGISTRAL KANALIDAGI TURKISTON MO‘YLABDORINING (*LUCIOBARBUS CONOCEPHALUS*) O‘LCHAM VA VAZN TAVSIFI

Quvatov A.Q., Mirzayev U.T.
O‘zR FA Zoologiya instituti, e-mail: asqarquvatovxabb@mail.ru

Annotation. *The article presents the results of studies of the size and weight indicators of Luciobarbus conocephalus included in the Red Book of the Republic of Uzbekistan. External morphological features were characterized, and the growth rate of length and weight indicators was determined, as well as the degree of interdependence of length and body weight.*

Turkiston mo‘ylabdori (*Luciobarbus conocephalus* Kessler, 1872) kamayib borayotgan va yetarlicha o‘rganilmagan Orol dengizi havzasining endemik turi hisoblanadi. O‘zbekistonda Amudaryo, Sirdaryo, Zarafshon, Qashqadaryo, Surxondaryo havzasining tekislik qismida, suv omborlari, ko‘llar, magistral va oqova kanallarda tarqalgan (Kamilov, 1973; Amanov, 1985; Abdullaev, Urchinov, 1989; Mirzayev, 2001). O‘zbekiston Respublikasining Qizil kitobiga kiritilgan (Mirzayev, 2019).

Mazkur tadqiqot ishda Qarshi magistral kanalidagi Turkiston mo‘ylabdorining tashqi morfologiyasi, tana uzunligi va vazn ko‘rsatkichlari hamda tana uzunligi va vaznining o‘zaro bog‘liqlik darajasi to‘g‘risidagi ma’lumotlar keltirilgan.

Material va metodlar. Material sifatida 2021 yil may oyida Qarshi magistral kanalida brakonyerlar tomonidan noqonuniy ovlanib Qashqadaryo viloyat Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish boshqarmasi tomonidan musodara qilingan va Zoologiya institutiga

topshirilgan 25 dona hamda Zoologiya kolleksiyasida saqlanayotgan 14 dona namunalardan foydalanilgan.

Baliqlarning morfologik tavsifi, o‘lchash va hisoblash ishlari umumiy qabul qilingan usullar yordamida olib borildi (Pravdin, 1966). Belgilar o‘rtasidagi bog‘liqlik darajasini aniqlashda korrelyatsion va regression tahlil metodlari qo‘llanildi (Rokidskiy, 1967).

Natijalar va ularning muhokamasi. O‘rganilgan turkiston mo‘ylabdorining meristik belgilari quyidagicha tavsiflanadi: yelka suzgich qanotidagi nurlar soni III 8, anal suzgich qanotida III 5 ta. Yon chizig‘idagi tangachalar soni 55-67 ta. Baliq tanasining uzunligi 17,1-39,2 (o‘rtacha 24,89±1,07) sm va og‘irligi 105-680 (249,84±23,66) g ni tashkil qildi (1-jadval).

1-jadval

Qarshi magistral kanalidagi turkiston mo‘ylabdorining o‘lcham va vazn tavsifi (*n*=39)

Ko‘rsatkichlar	*l, sm*	*W, g*
Min-max.	17,1-39,2	105-680
M±m	24,89±1,07	249,84±23,66
σ	6,72	147,81
S^2	45,17	21848,45
Cv, %	26,99	59,16

Qarshi magistral kanalidagi turkiston mo‘ylabdorining tana uzunligi va vazn ko‘rsatkichlarini o‘sishini 5 guruhga ajratgan holda o‘rgandik (2-jadval).


2-jadval

Qarshi magistral kanalidagi turkiston mo‘ylabdorining tana uzunligi va vazn ko‘rsatkichlarini guruhlar bo‘yicha o‘sishi (empirik ma’lumotlar bo‘yicha)

Guruhlar	*l, sm*		*W, g*		*n*
	Min-max.	*M±m*	*Min-max.*	*M±m*	
1	17,1-20,0	18,80±0,25	105-140	122,91±2,98	12
2	20,2-23,5	21,30±0,30	110-250	160,90±11,07	11
3	25,5-30,0	27,54±0,65	300-361	336,85±7,69	7
4	31,2-34,9	32,87±0,81	370-418	389,75±10,44	4
5	35,7-39,2	37,32±0,68	420-680	516,40±47,37	5

Guruhlar bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarda 4-5-guruhlardagi baliqlarda tana uzunligi ko‘rsatkichining o‘sish tezligini 6,24 sm dan 4,45 sm gacha pasayishi kuzatildi. Vazn ko‘rsatkichining o‘sish tezligi esa 2-3-guruhlardagi baliqlarda 175,95 g dan 52,90 g gacha pasayishi va 4-5-guruhlardagi baliqlarda 126,65 g gacha oshishi kuzatildi.

Olib borilgan tadqiqot natijasida Qarshi magistral kanalida turkiston mo‘ylabdorining tana uzunligi va vazni o‘rtasida o‘zaro kuchli bog‘liqlik (r = 0,823; P<0,05) mavjud bo‘lib (rasm), to‘g‘ri chiziqli regressiya tenglamasi bilan ifodalanadi: $W = 19,541 \times l - 247,59$.



Rasm. Qarshi magistral kanali turkiston mo‘ylabdorining tana uzunligi va vaznining o‘zaro bog‘liqligi (*n*=24)

Xulosalar. Shunday qilib, olib borilgan tadqiqotlar natijasida Qarshi magistral kanalidagi turkiston mo‘ylabdorining tashqi morfologik belgilari tavsiflandi, tana uzunligi va vazn ko‘rsatkichlarining o‘sish tezligi hamda tana uzunligi va vaznining o‘zaro bog‘liqligi darajasi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Abdullaev M.A., Urchinov D., Promislovie ribi vodoyomov nizovev r.Zarafshan. – Tashkent: Fan, 1989. – 61 s [Rus tilida].

2. Amanov A.A. Ekologiya rib vodoemov yuga Uzbekistana i sopredelnix respublik. – Tashkent: Fan, 1985. – 160 s [Rus tilida].

3. Kamilov G.K. Ribi i biologicheskie osnovi riboxozyaystvennogo osvoeniya vodoxranilish Uzbekistana. – Tashkent: Fan, 1973. – 234 s [Rus tilida].

4. Mirzayev U.T. Bioraznoobraziya rib Uzbekistana: strategiya soxraneniya mnogoobraziya vidov // Uzbekskiy biologicheskiy jurnal. 2001. №. 3. – S. 40-44 [Rus tilida].

5. Mirzayev U.T. Baliqlar. O‘zbekiston Respublikasi Qizil kitobi. – Toshkent: «Chinor ENK» ekologik-noshirlik kompaniyasi, 2019. II jild. Hayvonlar. – B. 114.

6. Pravdin I.F. Rukovodstvo po izucheniyu rib. 4-ye izd. – M.: Pishevaya promishlennost, 1966. – 376 s [Rus tilida].

7. Rokidskiy P.F. Biologicheskaya statistika. – Minsk: Visshaya shkola, 1967. – 328 s [Rus tilida].

UO‘T 597.554.3(577.2)

COTTUS JAXARTENSIS TURINING MOLEKULYAR-GENETIK TAHLILI

Quvatov A.Q., Kuchboev A.E., Mirzaev U.T., Amirov O.O., Atamuratova M.Sh.
O‘zR FA Zoologiya instituti, e-mail: asqarquvatovxabb@mail.ru

Annotatsiya. *The article presents the results of morphometric and molecular genetic studies of the fish species Cottus jaxartensis collected from the Ugam River of the watershed of the Chirchik River (Uzbekistan). A comparative study of the nucleotide sequence of the 16S gene of mtDNA of the species C. jaxartensis with the nucleotide sequence of the species C. ricei was carried out from GenBank of the National Center for Biotechnology Information.*

Cottus urug‘i turlari bo‘yicha ko‘plab molekulyar genetik tadqiqotlar o‘tkazilgan bo‘lib, ushbu turlarning mitoxondrial genini genom nukleotidlar o‘lchami o‘rganilgan, jumladan, *Cottus asper* turining genomi nukleotidlari o‘lchami 16511 juft, *C. perifretum* turining genomi nukleotidlari o‘lchami 16523 juft, *C. rhenanus* turini genomi nukleotidlari esa 16522 juftni tashkil etgan. Ushbu turlarning nukleotidlar ketma-ketligi xalqaro bioinformatik genlar ba’zasiga joylangan (Genbankdagi kirish raqami: MF326939, MF326940, MF326941) bo‘lib, ularning vaucher namunalar esa *Cottus asper* turining namunasi Los Angeles unversiteti, Koliforniya shtatida, *C. rhenanus* turining vaucher namunasi esa A.N. Oldenburg unversitetida saqlanadi (Kayla Fast, 2017).

Respublikamizda *Cottus* urug‘iga mansub 2 ta baliq turi uchrab, *Cottus spinulosus* Kessler, 1872 va *Cottus jaxartensis* Berg, 1916 turlari qayd etilgan (Berg, 1949).

Ushbu tadqiqot ishimizning maqsadi, *Cottus* Linnaeus, 1758 urug‘iga mansub *C. jaxartensis* turining molekulyar-genetik tahlil qilishdan iborat.

Material va metodlar. *C. jaxartensis* molekulyar-genetik tadqiqotlar o‘tkazish uchun namunalar 2019-2023 yillar davomida Chirchiq daryosi suv havzasining Ugom irmog‘ining quyi qismi 41°41'59.34"N, 69°56'24.02"E (1-rasm) koordinata manzilidan namunalar yig‘ildi.




1-rasm. Ixtiologik namunalar yig‘ilgan nuqtalarning geoaxborot tizimi xaritasi

C. jaxartensis turidan genom DNK ajratishda 96% etanolda saqlangan namunani muskul qismidan (50-100 mg) olindi. Ushbu turning genom DNK ajratishda QIAamp DNA Mini Kit (QIAGEN, Germany) reaktivlaridan foydalanildi.

Polemeraza zanjir reaktsiyasini (PZR) o‘tkazishda umurtqali hayvonlarni molekulyar-genetik identifikatsiya qilishda keng qo‘llaniladigan mitoxondrial genining rDNK sini 16S sohasi praymerlaridan foydalanildi (Caragiulo et al., 2013; Chaves et al., 2010; Wultsch et al., 2016). PZR da suv 16,1 mkl, 10x PZR buferi 2 mkl, dNTP 0,4 mkl, xar bir praymerdan (*5'-CGAGGGCTTTACTGTCTCTT-3', 5'-CCTATTGTCGATATGGACTCT-3')* 2 mkl, Taq polimerazadan 0,4 mkl solinib jami 20 mkl aralashma tayyorlandi.

PZR quyidagi bosqichlarda amalga oshirildi. 94°C da 2 min, 10 sikl, 94°C da 15 s, 52.5°C da15 s, 72°C da 45 s, 15 sikl 94°C da 15 s, 52°C da 15 s, 72°C da 45 s, 20 sikl 94°C da 15 s, 51.5°C da 15 s, 72°C da 45 s va oxirgi bosqichi 68°C da 20 daqiqa.

Natijalar va ularning muhokamasi. Olib borilgan molekulyar-genetik tadqiqot natijalariga ko‘ra *C. jaxartensis* turining mitoxondrial genining rDNK sini 16S sohasiga mansub 327 juft asosga ega bo‘lgan nukleotidlar ketma-ketligi ajratib olinib, xalqaro bioinformatik genlar ba’zasidagi (https://www.ncbi.nlm.nih.gov) *S. ricei* (kirish raqami: MT539215) turi bilan nukleotidlar ketma-ketligi solishtirilib o‘rganildi (2-rasm).



2-rasm. *Cottus* avlodiga mansub *C. jaxartensis* va *S. ricei* turlarining mitoxondrial genining rDNK sini 16S sohasi nukleotidlar ketma-ketligi

Yuqoridagi rasmdan (2-rasm) ko‘rinib turibdiki, *C. jaxartensis* turi bilan *S. ricei* turi nukleotidlari o‘rtasida beshta nukleotidlarda farqlanishlar borligi qayd etildi. Jumladan, 31 va 108 chi nukleotidlarda *C. jaxartensis* turida G-guanin, *S. ricei* turida A-adenin, 38 chi nukleotidda *C. jaxartensis* turida S-tsetozin, *S. ricei* turida T-timin, 188 chi nukleotidda *C. jaxartensis* turida A-adenin, *S. ricei* turida G-guanin hamda 310 chi nukleotidda *C. jaxartensis* turida T-timin, *S. ricei* turida esa S-tsitozin asoslari almashganligi aniqlandi.

Cottus avlodiga mansub xalqaro bioinformatik genlar ba’zasidagi boshqa turlar bilan ham mitoxondrial genining rDNK sini 16S sohasiga mansub nukleotidlar ketma ketligi solishtirilib o‘rganildi (jadval).

Jadval

Xalqaro bioinformatik genlar ba’zasidagi *Cottus* avlodiga mansub turlar bo‘yicha ma’lumot

Genbank ba’zasidan olingan *Cottus* avlodi turlari	Kirish raqami	Tadqiqot olib borilgan davlat	Nukleotidlar o‘rtasidagi farqlanishlar, son/%
Cottus jaxartensis	OR470689	O‘zbekiston	0/0
C. aleuticus	OM256460	AQSh	6/1.8
C. asper	EF458400	AQSh	9/2.7
C. bairdii	AY539018	AQSh	12/3.6
C. beldingii	OL688775	AQSh	12/3.6
C. cognatus	MT539221	AQSh	11/3.5
C. dzungaricus	NC024739	AQSh	7/2.13
C. gobio	KJ128752	Shvetsiya	6/1.8
C. gulosus	OL404934	AQSh	12/3.6
C. klamathensis	OK945944	AQSh	13/3.9
C. koreanus	MW894645	Koreya	10/3
C. marginatus	NC066924	AQSh	9/2.7
C. perifretum	NC036146	AQSh	5/1.5
C. perplexus	OL339397	AQSh	9/2.74

C. pitensis	OL825618	AQSh	11/3.3
C. poecilopus	NC014849	AQSh	9/2.7
C. pollux	LC097787	Yaponiya	9/2.7
C. reinii	NC004404	AQSh	11/3.3
C. rhenanus	NC036147	AQSh	8/2.4
C. ricei	MT539215	AQSh	5/1.5
C. szanaga	NC032039	AQSh	12/3.6
C. volki	KY563344	AQSh	9/2.7

Yuqoridagi jadvaldan ko‘rinib turibdiki, *C. jaxartensis* turi bilan *C. aleuticus* va *C. gobio* turlarining mitoxondrial genining rDNK sini 16S sohasidagi nukleotidlar o‘rtasida 6 ta nukleotid farqlanish bo‘lib, umumiy nukleotidlar o‘rtasida 1.8% farqlanish borligi, *C. asper C. marginatus C. perplexus C. poecilopus C. pollux* va *C. volki* turlari o‘rtasida 9 ta nukleotid 2.7%, *C. bairdii, C. beldingii C. gulosus* va *C. szanaga* turlari o‘rtasida 12 ta nukleotid 3.6%, *C. cognatus, C. pitensis* va *C. reinii* turlari bilan 11 ta nukleotid 3.5%, *C. dzungaricus* turi bilan 7 ta nukleotid 2.13%, *C. klamathensis* turi bilan 13 ta nukleotid 3.9%, *C. koreanus* turi bilan 10 ta nukleotid 3%, *C. perifretum* va *C. ricei* turlari bilan 5 ta nukleotid 1.5%, *C. rhenanus* turi bilan esa 8 ta nukleotid 2.4 % farqlanishlar borligi qayd etildi.

Xulosalar. *Cottus* aurug‘iga mansub *C. jaxartensis* turi bo‘yicha olib borilgan molekulyar-genetik tadqiqotlar natijasiga ko‘ra, ushbu turni mitoxondrial genining rDNK sini 16S sohasiga mansub 327 juft nukleotidlar ajratib olinib, xalqaro bioinformatik genlar ba’zasidagi *S. ricei* (kirish raqami: MT539215) turiga yaqin kelib umumiy nukleotidlar orasidagi farqlanish beshta nukleotid bilan ifodalanib, 1.5% ni tashkil qildi. Olingan nukleotidlar ketma ketligi xalqaro bioinformatik genlar ba’zasiga birinchi marotaba joylashtirildi va kirish raqami OR470689 olindi.

Ushbu turning vaucher na’munalari O‘zR FA Zoologiya instituti ixtiologiya va gidrobiologiya kollektsiyasida № “ICIZ (UZZI) 2200254” shtrix kodi ostida saqlanmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Berg L.S. Berg L.S. Ribi presnix vod SSSR i sopredel'nix stran. – Moskva, 1949. Chast-3. S. 930-1381. [Rus tilida].

2. Caragiulo A., Dias-Freedman I., Clark J.A., Rabinowitz S., & Amato G. Mitochondrial DNA sequence variation and phylogeography of Neotropic pumas (Puma concolor). // Mitochondrial DNA, 1736, 2013. – P. 1-9.

3. Chaves S. L., Dias I., & Pomilla C. Extraction of genomic DNA from carnivore fecal samples using QIAamp DNA Stool. 2010. https://www.amnh.org/our-research/sackler-institute-for-comparative-genomics/resources/resources-for-section-20/extraction-of-genomic-dna.

4. Kayla Fast, Andres Aguilar, Arne W. Nolte & Michael W. Sandel. Complete mitochondrial genomes for Cottus asper, Cottus perifretum, and Cottus rhenanus (Perciformes, Cottidae). // Mitochondrial DNA Part B, 2017. 2:2. – P. 666-668,

5. Wultsch C., Caragiulo A., Dias-freedman I., Quigley H., Rabinowitz S., & Amato G. Genetic diversity and population structure of Mesoamerican Jaguars (Panthera onca): Implications for conservation and management. PLoS ONE, 11, 2016. – P. 1-25.

UO‘T 597.554.3

AYDAR-ARNASOY KO‘LLAR TIZIMIDA OVLANADIGAN BALIQ TURLARINING SANOG‘I TO‘G‘RISIDA

Quvatov A.Q., Sobirov J.J., Atamuratova M.Sh.
O‘zR FA Zoologiya instituti, E-mail: asqarquvatovxabb@mail.ru

Annotation. *The article provides information on the number and monitoring of the current state of commercial fish in the Tuzkan, East Arnasoy, and Aidar lakes of the Aidar-Arnasoy lake system, carried out during the spring and summer seasons of 2023. 328 specimens of 5 fish species were collected from Tuzkan Lake, 523 specimens of 5 fish species from East Arnasoy Lake, and 375 specimens of 4 fish species from Aidar Lake.*

O‘zbekistonda oziq-ovqat masalasiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Shu jumladan baliq va baliq mahsulotlarining sifat va miqdor ko‘rsatkichlarini alohida ta’kidlash mumkin. Bu yo‘nalishda ko‘plab tadbirlar jumladan raqamlashtirish jarayonlari olib borilmoqda. Shu boisdan, respublikadagi mavjud daryolar va tabiiy ko‘llardagi baliq turlarining son va miqdor ko‘rsatkichlarini aniqlash, ulardan samarali va unumli foydalanish maqsadida ko‘plab ilmiy-amaliy ishlar o‘tkazilmoqda. Bu esa jamiyatning hozirgi jadal rivojlanish bosqichida juda ham dolzarb muommolardan biri hisoblanadi.

Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimida 1990 yildan 1999 yilgacha bo‘lgan davrdagi baliq ovlash ko‘rsatkichlarida keltirilishicha oq sla, sazan, Orol chavoqbalig‘i, kumush tovonbaliq turlari bilan bir qatorda Sharq oqchasi, oq do‘ngpeshona Orol oqqayrog‘i, laqqa hamda ilon bosh va cho‘rtan kabi baliq turlari ham teng sonda uchraganligi keltirib o‘tilsada, qilich baliq va xramulya kabi turlar ayrim yillarda juda kam sonda uchraganligini ko‘rish mumkin (Xurshut, 2001).

Material va metodlar. Bunda baliq ovlash to‘rining katak o‘lchamlari 28 mm dan 65 mm gacha, uzunligi 60 m dan 70 m gacha, eni 3 m dan, 10 m gacha bo‘lgan baliq ovlash to‘rlaridan foydalanildi. Olib borilgan barcha nazorat ovlari kunning kechki vaqtida belgilangan hududga to‘r tashlash va kunning birinchi qismida to‘rlarni yig‘ish jarayonlari tarzida amalga oshirildi. Ovlangan baliq namunalarini sanash, uzunlik va vazn o‘lchash ishlari qirg‘oq bo‘yida yoki baliq yig‘ish punktlarida olib borildi. Quyidagi jadvallarda (1, 2, 3) ovlangan baliq turlari, ularning soni, o‘lcham ko‘rsatkichlari, ov to‘rlari uzunligi, eni, kataklari orasidagi masofasi va shu kabi turli xil parametrlar bilan tanishish mumkin.

Baliq namunalarining parametrlarini aniqlash va kameral qayta ishlash umumiy qabul qilingan usullar asosida amalga oshirildi (Pravdin, 1966). Sanash va hisoblash ishlari kompyuter dasturlarida va biologik statistika ma’lumotlaridan foydalangan holda (Microsoft excel, 2019) amalga oshirildi.

Natijalar va ularning muhokamasi. Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimining Tuzkon ko‘lida baliq ovlash to‘ri kataklari o‘lchami 32 mm dan 65 mm gacha, uzunligi 60 m dan 70 m gacha, eni 3 m dan 10 m gacha, jami soni 5 tadan 15 tagacha (har bir kombinatsiyada) bo‘lgan ipak va sun’iy tolali to‘rlarning qirg‘oqdan 0,1 km dan 2 km gacha, chuqurligi 3 m dan 15 m gacha bo‘lgan qismlarida 5 marta tashlab-tortish natijasida – uzunligi 18 sm dan 35 sm gacha, og‘irligi 100 g dan 2000 g gacha bo‘lgan 65 ta Oq sla namunalari; uzunligi 16 sm dan 32,5 sm gacha, og‘irligi 200 g dan 500 g gacha bo‘lgan 15 ta Kumush tovonbaliq namunalari; uzunligi 18 sm dan 25 sm gacha, og‘irligi 200 g dan 300 g gacha bo‘lgan 238 ta Orol chavoqbalig‘i namunalari; uzunligi 18 sm dan 45 sm gacha, og‘irligi 200 g dan 900 g gacha bo‘lgan 9 ta Sazan namunalari hamda uzunligi 20 sm, og‘irligi 220 g bo‘lgan 1 ta Orol oqqayrog‘i namunalari sanaldi (1-jadval).

1-jadval

AAKT ning Tuzkon ko‘lida bahor va yoz fasllarida kompleks olib borilgan ikki martalik nazorat ovlarida kuzatilgan sanash natijalari

№	Ovlangan baliq turlari	Ovlangan baliq namunalarining o‘lcham ko‘rsatkichlari				Baliq ovlash to‘rining tashlanganlik holati		Baliq ovlash to‘ri ko‘rsatkichlari			
		Uzunligi (sm)	Og‘irligi (g)	Soni (dona)	Jami og‘irligi (kg)	Qirg‘oqdan uzoqlik masofasi (km)	Ko‘lning joriy chuqurligi (m)	Uzunligi (m)	Eni (m)	Kataklari o‘lchami (mm)	Soni (dona)
1	*Sander lucioperca*, (Linnaeus, 1758))	18-35	100-500	2	0,6	0,1	3-5	60-65	3-5	30-32	25
		30-35	350-400	25	10	4-5	10-15	60-70	3-4	32	20
		38-48	1,5-2	3	4	1,5-2	7-8	70	9-10	55-60	30
		25-40	350	27	11	1-1,5	3-4	60-70	3-4	32	40
		38-40	500	8	4,3	1,5-2	6-7	70	10	45	50
2	*Carassius gibelio*, (Bloch, 1782)	16	200	1	0,2	0,05-0,1	2-5	60-65	3-5	30-32	40
		29-30	400-500	5	1,8	1,5-2	7-8	60-70	9-10	30-32	25
		20-25	400	5	2,3	1-1,5	3-4	60-70	3-4	32	20
		29,5-32,5	440	4	1,8	1,5-2	6-7	70	10	45	25
3	*Rutilus aralensis*, (Berg, 1916)	18-25	200-300	94	23,5	0,5-0,1	2-5	60-65	3-5	30-32	40
		17-23	200-250	116	28,6	1-1,5	5-5,5	60-70	9-10	28-30-32	20
		17-24	250	28	9	1-1,5	3-4	60-70	3-4	32-36	25
4	*Cyprinus carpio*, (Linnaeus, 1759)	18	200	3	0,3	0,05-0,1	2-5	60-65	3-5	30-32	35
		22-25	500	4	2	4-5	10-15	60-70	3-4	32	40
		45	900	2	1,7	1,5-2	6-7	70	10	45	25
5	*Aspius aspius iblioides*, (Kessler, 1872)	20	220	1	0,22	0,05-0,1	2-5	60-65	3-5	30-32	40

Izoh. *Jadvalda Tuzkon ko‘lining 5 ta qismidan (konturlardan) yig‘ilgan natijalar keltirilgan. Bunda noqulaylik yoki tushunmovchiliklar keltirib chiqarmasligi uchun o‘lchov birliklari ko‘rsatkichlarining jami holati keltirilmadi.*

2-jadval

AAKT ning Sharqiy Arnasoy ko‘lida bahor va yoz fasllarida kompleks olib borilgan ikki martalik nazorat ovlarida kuzatilgan sanash natijalari

№	Ovlangan baliq turlari	Ovlangan baliq namunalarining o‘lcham ko‘rsatkichlari				Baliq ovlash to‘rining tashlanganlik holati		Baliq ovlash to‘ri ko‘rsatkichlari			
		Uzunligi (sm)	Og‘irligi (g)	Soni (dona)	Jami og‘irligi (kg)	Qirg‘oqdan uzoqlik masofasi (km)	Ko‘lning joriy chuqurligi (m)	Uzunligi (m)	Eni (m)	Kataklari o‘lchami (mm)	Soni (dona)
1	*Sander lucioperca*, (Linnaeus, 1758)	30-40	700-800	22	18-19	3-4	6-8	70	3-4	55	50
		55-65	3000-5000	15	55-60	1-2	10-12	60-70	8-9	65	60
		25-30	400	5	2-2,5	0,5-0,8	3-4	60-70	3-4	32	25
		25-50	600	83	49,8	1,5-2	6-8	60-70	3-4	40-36-32	25
2	*Carassius gibelio*, (Bloch, 1782)	22-25	300	16	5-5,5	1,5-2	6-8	60-70	3-4	40-36-32	35
3	*Rutilus aralensis*, (Berg, 1916)	12-20	250	85	25	4-5	7-8	60-70	3-4	30	10
		18-20	300	15	3-5	1-2	8-9	60-70	3-4	40	25
		17-23	220	100	22	0,8	1-1,5	60-70	3-4	32	15
		18-22	200-250	100	25	2	6-7	60-70	3-4	28	20
		18-23	200-250	60	13,8	1,5-2	6-8	60-70	3-4	32	30
4	*Cyprinus carpio*, (Linnaeus, 1759)	50-55	3000-5000	12	48-50	2	10-12	60-70	8-9	65	15
		25-30	350	8	2,5	1,5-2	6-8	60-70	3-4	40-36-35	30
5	*Chalcarburnus chalcaoides aralensis* (Berg, 1923)	25	300	1	0,3	4-5	9-10	60-70	3-4	32	20
6	*Channa argus*, Contor, 1842)	20-35	4500-5000	10	4,5-5	0,001	1-2	70	2	35-45	5

Izoh. *Jadvalda Tuzkon ko‘lining 5 ta qismidan (konturlardan) yig‘ilgan natijalar keltirilgan. Bunda noqulaylik yoki tushunmovchiliklar keltirib chiqarmasligi uchun o‘lchov birliklari ko‘rsatkichlarining jami holati keltirilmadi.*

3-jadval

AAKT ning Aydar ko‘lida bahor va yoz fasllarida kompleks olib borilgan ikki martalik nazorat ovlarida kuzatilgan sanash natijalari

№	Ovlangan baliq turlari	Ovlangan baliq namunalarining o‘lcham ko‘rsatkichlari				Baliq ovlash to‘rining tashlanganlik holati		Baliq ovlash to‘ri ko‘rsatkichlari			
		Uzunligi (sm)	Og‘irligi (g)	Soni (dona)	Jami og‘irligi (kg)	Qirg‘oqdan uzoqlik masofasi (km)	Ko‘lning joriy chuqurligi (m)	Uzunligi (m)	Eni (m)	Kataklari o‘lchami (mm)	Soni (dona)
1	*Sander lucioperca*, (Linnaeus, 1758)	30-35	500-700	50	30	4-5	10-15	60-70	3-4	32	20
		30-35	600-700	2	1,3-1,4	1-1,5	2-3	60-70	7-8	40	10
		35-45	1,5-1,9	6	9-10	1,5-2	7-8	70	9-10	55-60	35
		25-30	450	40	18,5	1-1,5	4-5	60-70	3-4	32	30
2	*Carassius gibelio*, (Bloch, 1782)	18	220	1	0,22	1	5-6	60-65	3-5	30-32	25
		18-20	200-240	5	1,5-1,8	1-1,5	2-4	60-70	7-8	40	30
		25-28	400-450	4	1,8	4-5	9-10	60-70	9-10	30-32	20
3	*Rutilus aralensis*, (Berg, 1916)	18-23	250-300	54	14,5	0,5-0,1	2-5	60-65	3-5	30-32	40
		18	200	1	0,2	1-1,5	2-4	60-70	7-8	40	15
		18-20	200-250	70	16	2-2,5	6-7	60-70	6-7	28-33	50
		18-23	200-250	100	25,6	1-1,5	5-5,5	60-70	9-10	28-30-32	20
		19-24	230	30	5-6	1-1,5	3-4	60-70	3-4	32-36	25
4	*Cyprinus carpio*, (Linnaeus, 1759)	25-28	700	4	2,4	4-5	10-15	60-70	3-4	32	40
		20-22	300-400	5	2-2,5	1-1,5	2-4	60-70	7-8	40	10
		40	950	3	2,8	2-3	6-7	70	10	50	20

Izoh. *Jadvalda Aydar ko‘lining 5 ta qismidan (konturlardan) yig‘ilgan natijalar keltirilgan. Bunda noqulaylik yoki tushunmovchiliklar keltirib chiqarmasligi uchun o‘lchov birliklari ko‘rsatkichlarining jami holati keltirilmadi.*

Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimining Sharqiy Arnasoy ko‘lida baliq ovlash to‘ri kataklari o‘lchami 28 mm dan 65 mm gacha, uzunligi 60 m dan 70 m gacha, eni 3 m dan 9 m gacha, jami soni 5 tadan 15 tagacha (har bir kombinatsiyada) bo‘lgan ipak va sun’iy tolali to‘rlarning qirg‘oqdan 0,5 km dan 5 km gacha, chuqurligi 1 m dan 12 m gacha bo‘lgan qismlarida 5 marta tashlab-tortish natijasida – uzunligi 25 sm dan 65 sm gacha, og‘irligi 400 g dan 5000 g gacha bo‘lgan 125 ta Oq sla namunalari; uzunligi 22 sm dan 25 sm gacha, og‘irligi 300 g dan 350 g gacha bo‘lgan 16 ta Kumush tovonbaliq namunalari; uzunligi 12 sm dan 23 sm gacha, og‘irligi 200 g dan 300 g gacha bo‘lgan 360 ta Orol chavoqbalig‘i namunalari; uzunligi 25 sm dan 55 sm gacha, og‘irligi 350 g dan 5000 g gacha bo‘lgan 22 ta Sazan namunalari, uzunligi 25 sm, og‘irligi 300 g bo‘lgan 1 ta Orol maybalig‘i namunalari hamda uzunligi 25-30 sm, og‘irligi 4,5-5 kg bo‘lgan 10 ta Ilonbosh namunalari sanaldi (2-jadval).

Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimining Aydar ko‘lida baliq ovlash to‘ri kataklari o‘lchami 28 mm dan 60 mm gacha, uzunligi 60 m dan 70 m gacha, eni 3 m dan 10 m gacha, jami soni 5 tadan 15 tagacha (har bir kombinatsiyada) bo‘lgan ipak va sun’iy tolali to‘rlarning qirg‘oqdan 0,1 km dan 5 km gacha, chuqurligi 2 m dan 15 m gacha bo‘lgan qismlarida 5 marta tashlab-tortish natijasida – uzunligi 25 sm dan 45 sm gacha, og‘irligi 400 g dan 1,9 kg gacha bo‘lgan 98 ta Oq sla namunalari; uzunligi 18 sm dan 28 sm gacha, og‘irligi 220 g dan 450 g gacha bo‘lgan 10 ta Kumush tovonbaliq namunalari; uzunligi 18 sm dan 24 sm gacha, og‘irligi 200 g dan 300 g gacha bo‘lgan 255 ta Orol chavoqbalig‘i namunalari hamda uzunligi 20 sm dan 40 sm gacha, og‘irligi 250 g dan 950 g gacha bo‘lgan 12 ta Sazan namunalari sanaldi (3-jadval).

Biz olib borgan nazorat ovlarida asosan oq sla, sazan, kumush tovonbaliq va Orol chavoqbalig‘i kabi turlar son jihatidan hamda uchrash ko‘rsatkichlari bo‘yicha yuqori o‘rinda turdi. Cho‘rtan, qilich baliq va xramulya kabi turlar uchratilmadi.

Xulosalar. Umumiy hisobda 15 marta baliq ovlash to‘rini tashlab-ko‘tarish jarayoni o‘tkazildi. Har bir tashlangan to‘rlar kombinatsiyasi (yig‘indisi) soni o‘rtacha 10 tadan iborat bo‘ldi. Bunda ko‘lning chuqur va qirg‘oqdan uzoq masofalariga tashlab-ko‘tarilgan to‘rlarda asosan oq sla va sazan baliqlari uchratildi. Nisbatan kam sonda kumush tovonbaliq namunalari tashkil qildi. Qirg‘oqdan uncha uzoq bo‘lmagan va 3-4 m chuqurlikda asosan orol chavoqbalig‘i son jihatidan dominantlik qilishi aniqlandi. Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimining Sharqiy Arnasoy ko‘lida kuzatilgan ovlanish ahamiyatiga ega bo‘lgan baliq turlarining soni Tuzkon va Aydar ko‘llariga nisbatan ortiqligi aniqlandi. Sharqiy Arnasoy ko‘lida uchratilgan Orol maybalig‘i boshqa qismlarda kuzatilmadi. Bunga sabab sifatida suvning chuchukligini misol qilib keltirish mumkin. Orol chavoqbalig‘i ovlanish ahamiyatiga ega bo‘lgan baliqlar kesimida Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimining barcha qismlarida ko‘p sonda tarqalganligi kuzatildi. Kumush tovonbaliqning son ko‘rsatkichlari boshqa turdagi baliq namunalariga qaraganda kam sonda uchraganligi aniqlandi. Olib borilgan nazorat ovlarida baliq namunalari to‘rga tushish koeffitsienti ipak tolali to‘rlarga qaraganda sun’iy tolali to‘rlarda ko‘p miqdorda bo‘lishi kuzatildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Pravdin I.F. Rukovodstvo po izucheniyu rib. 4-e izd. Pishevaya promishlennost'. – Moskva, 1966. – 376 s. [Rus tilida].

2. Rokiskiy P.F. Biologicheskaya statistika. Visshaya shkola. – Minsk. 1967. – 328 s. [Rus tilida].

3. Xurshut E.E. Ribnie resursi Aydaro-Arnasayskoy sistemi ozer // Problemi oxrani i rasional'nogo ispol'zovaniya biologicheskix resursov vodoemov Uzbekistana. Materiali respublikanskogo Nauchno-prakticheskogo sovesheniya. – Tashkent, 2001. – S. 109-112. [Rus tilida].

УДК 597.55

МОРФОЛОГИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ГОДОВИКОВ БЕЛОГО ТОЛСТОЛОБИКА, *HYPOPHTHALMICHTHYS MOLITRIX*, В ПРУДАХ ТАШКЕНТСКОЙ ОБЛАСТИ

Бозорова Д.С.[1], Рахимбердиева Э.М.[2], Камилов Б.Г.[3], Тураев Л.Ғ[4].
[1]Ташкентский филиал Самаркандского университета ветеринарной медицины, животноводства и биотехнологии, [2]Филиал Астраханского гос. технического университета в Ташкентской области, [3]Ташкентский гос. аграрный университет, [4]Институт зоологии АН РУз, e-mail: turayevlaziz089@gmail.com

Annotation*. We studied the morphological characteristics of yearlings of the silver carp (Hypophthalmichthys molitrix), the main commercial fish produced in Uzbekistan. The following meristic indicators were revealed: D III 8, A II 11-13 (on average 12), in the lateral line 104-128 (on average 119) scales. The gill rakers are long, thin, fused together to form a sieve, through which the silver carp filters water. Indices of plastic characteristics using the method of geometric morphometry are given.*

Белый толстолобик, *Hypophthalmichthys molitrix* (Valenciennes) - инвазивный вид рыб для бассейна Аральского моря, был целевым образом завезен личинкой четырьмя партиями в начале 1960-х из которых три (основные) были из северной части Китая, одна партия – из реки Амур. В Узбекистан они были завезены в прудовые хозяйства Ташкентской области. (Алиев и др., 1963; Камилов, 1973). Еще в 1960-х в республике были отработаны методы искусственного воспроизводства белого толстолобика с применением гонадотропного стимулирования созревания, искусственного оплодотворения и инкубирования икры (Камилов, 1973; Юлдашов, Камилов, 2018). С тех пор прошло более 10 полных смен поколения в новых условиях. Для важных объектов рыбного хозяйства важно отслеживать биологические характеристики и их изменения. Надежным способом обнаружения количественных характеристик, контролируемых полигенами, является морфометрия. Она отражает не только генетические условия, но адаптационный потенциал, что важен для промышленности. Важно понимание фенотипических изменений вида в процессе их онтогенеза. К сожалению, работ по морфологическим особенностям белого толстолобика в стране не проводили. В практике прудового рыбоводства основными возрастными группами являются годовики, товарная рыба (двухлетки) и производители (3-5-годовики).

Белый толстолобик в последние десятилетия является основным видом рыб, производимом в Узбекистане. В основном его производят в прудовой поликультуре. Также есть его вылов в лентических водоемах в случае их зарыбления. Для рыбохозяйственного сектора страны важно иметь объективные характеристики основных объектов. Во-первых, белый толстолобик был завезен в новые условия, он мог измениться. Во-вторых, идет постоянные воздействия антропогенного фактора на водные ресурсы (гидростроительство, загрязнение воды и др.). Регулярно большие количества выращиваемой рыбы зарыбляют в равнинные водоемы, что постоянно воздействует на банк генов.

Целью данной работы было исследование морфологических особенностей годовиков белого толстолобика в рыбопитомнике Научно-исследовательского института рыбоводства Ташкентской области.

Материал и методы. Материал собирали в апреле 2023 года в Рыбопитомнике НИИ рыбоводства (бывшем Государственном зональном рыбопитомнике), который начал формирование собственных маточных стад и воспроизводство белого толстолобика одним из первых, т.е. является часть ядра вселения белого толстолобика в

бассейн Аральского моря. Во время пересадки годовиков белого толстолобика после зимовки на нагул отобрали случайных рыб (без выбора), зафиксировали в 4%ном растворе формалина. В лабораторных условиях у рыб измеряли общую (TL) и стандартную (SL) длины тела, общую массу (W) тела, просчитывали меристические признаки. Выделили 10 ориентиров по периметру тела рыбы, лежащей на боку. Фотографировали рыб целиком под строгим прямым углом с помощью зафиксированного штатива. По фотографиям измеряли расстояния по прямой между ориентирами, т.е. составили т.н. «truss»-протокол (Strauss, Bookstein, 1982; Strauss, Bond, 1990;) Линии промеров указаны в следующем формате: например, «2 – 4» обозначает промер между ориентирами 2 и 4 по прямой (рис.).




Рисунок. Ориентиры на поверхности тела годовиков белого толстолобика, Ташкентская область, рыбопитомник

Результаты и их обсуждение. В исследованной выборке годовиков были представлены рыбы общей длиной_18,5- 25,0 см, стандартной длиной 20,0 – 23,0 см, общей массой 58,8 – 170,8 г.

Это были рыбы одной возрастной группы, довольно «дружные» по росту. В пределах такой группы не была выявлена зависимость между стандартной длиной тела и общей массы тела (r = 0,15).

У белого толстолобика глаза расположены заметно ниже оси тела. У годовиков хорошо заметен острый киль на брюхе, который тянется от горла до анального отверстия, киль на брюхе частично не покрыт чешуей. При вскрытии видно, что кишечник очень длинный, в 10-13 раз превышает длину тела. Жаберные перепонки образуют складку поперек межжаберного промежутка, к которому они прикреплены.

Выявлены следующие меристические показатели белого толстолобика: формулы лучей: D III 8, A II 11-13 (в среднем 12), в боковой линии 104-128 (в среднем 119) чешуй. В отношении первого луча спинного плавника отметим, что внешне один луч при помещении луча в воду и очистке от мягких тканей, луч распадается на два. В отношении тычинок на первой жаберной дуге отметим следующую особенность вида. Жаберные тычинки длинные, тонкие, сросшиеся в виде сита, через которое толстолобик процеживает воду. Вследствие этого количество тычинок у вида не просчитывают. Белый толстолобик относится к мелкочешуйным рыбам.

Пластические признаки белого толстолобика по «truss-protocol» исследуемого стада приведены в таблице.

Таблица

Пластические признаки годовиков белого толстолобика, Ташкентская область, рыбопитомник, 2023

Показатель	Мин.	Макс.	$X_{сред.} \pm S_x$	Cv, %
2-4	20,7	24,6	23,02 ± 0,23	4,9
4-6	28,7	34,7	31,34 ± 0,26	4,2
6-8	9,6	13,9	11,53 ± 0,22	9,7
8-10	31,3	37,1	33,71 ± 0,28	4,1
9-10	11,7	13,6	12,60 ± 0,10	4,2
7-9	10,1	15,4	12,29 ± 0,25	10,0
5-7	13,2	17,4	15,40 ± 0,20	6,5
3-5	18,6	27,6	23,44 ± 0,34	7,2
2-3	30,8	53,2	49,23 ± 0,80	8,2
1-2	18,4	22,8	20,59 ± 0,25	6,0
1-4	21,8	24,6	22,92 ± 0,14	3,0
1-3	28,4	38,1	31,19 ± 0,36	5,8
3-4	30,3	39,6	37,72 ± 0,38	5,0
5-6	25,7	34,6	31,82 ± 0,39	6,1
7-8	22,7	53,5	27,44 ± 1,14	20,7
4-5	29,6	57,6	53,48 ± 1,04	9,8
3-6	28,5	35,5	31,55 ± 0,34	5,4
6-7	33,9	40,0	36,99 ± 0,29	3,9
5-8	20,9	34,7	25,44 ± 0,47	9,3
7-10	16,1	19,9	17,77 ± 0,21	6,0
8-9	34,8	39,5	36,88 ± 0,29	3,9

Видно, что в пределах поколения большинство признаков были малоизменчивыми, коэффициент вариации был в пределах до 10 %. Только признак «7-8» имел коэффициент вариации 20 %.

Выводы. В Узбекистане ранее (в 1970-х) указывали следующие меристические признаки белого толстолобика в среднем течении Сырдарьи: D III 7, A II-III 12 – 14, 100-125 чешуй в боковой линии. Наши данные близки к указанным, но в спинном плавнике в нашей выборке было 8 ветвистых лучей, в боковой линии несколько увеличилось количество чешуй.

Список использованной литературы

Алиев Д.С., Световидова А.А., Веригина И.А. Видовой состав рыб, завозимых вместе с белым амуром и толстолобиком из Китая: Материалы совещания по рыбохозяйственному освоению растительноядных рыб. - Ашхабад: Изд-во АН ТССР, 1963. - С. 178-180.

Камилов Г.К. Рыбы водохранилищ Узбекистана. - Ташкент, ФАН, 1973. - 234 с.

Юлдашов М.А., Камилов Б.Г. Результаты интродукций чужеродных видов рыб в водоемы Узбекистана. // Научные труды Дальрыбвтуза, 2018. 44 (1). – С. 40-48.

Strauss, R.E., Bond, C.E. Chapter 4 Taxonomic Methods: Morphology. – In: Methods for fish biology, Carl B Schreck; Peter B Moyle editors, Bethesda, Md., USA: American Fisheries Society, 1990. – P. 109-140.

Strauss R.E., Bookstein F.L. The truss: body form reconstruction in morphometrics. // Syst. Zool., 1982. 31 (2). – P. 113-135.

УДК 597.55

ВНЕСЕЗОННОЕ ВОСПРОИЗВОДСТВА КАРПА В УСЛОВИЯХ УМЕРЕННОГО КЛИМАТА УЗБЕКИСТАНА

Зохидова И.С.[1], Муллабаев Н.Р.[2], Салихов Т.В.[3]
[1]Самаркандский гос. университет, [2]Ташкентский гос. аграрный университет,
[3]Институт зоологии АН РУз, e-mail: t_v_salikhov@mail.ru

***Annotation**: In December in Uzbekistan, at a pond water temperature of 12°C, 4 mature females and 2 male carp (3–4 kg of mass) were placed in RAS pools. In January, the water temperature was increased daily by 1°C for two days; from January 20 it was constantly 22-24°C. On February 3, we carried out injections with the pituitary gland, carried out artificial insemination and incubated eggs in the Weiss apparatus. On February 7, the larvae hatched, the yield was 64%.*

Бурный рост производства рыбы в Узбекистане с 2009 года произошел в основном за счет экстенсивного роста создания земляных прудов для полу-интенсивной поликультуры карповых рыб. В результате площадь прудов увеличилась с 10-12 тысяч га до более 55 тысяч га, пруды заняли практически все возможные земельные ресурсы в зоне поливного земледелия. Для дальнейшего роста прудового рыбоводства свободных земельных ресурсов осталось мало. Объективно пруды не могут увеличить далее рыбопродуктивность в наших географических условиях. Стране необходимо развитие интенсивных технологий аквакультуры, наиболее перспективными являются рыбоводные садки в лентических ирригационных водоемах. Для производства рыбы в них необходимо полностью использовать вегетационный год с апреля до начала ноября. Для этого необходимы подходы массового получения посадочного материала к апрелю, например, в условиях установок замкнутого водоснабжения. В этом случае возможно выращивание товарной рыбы за 1 год (Камилов и др., 2018).

Важными биологическими характеристиками воспроизводительной способности самок рыб являются показатели плодовитости. Размер созревших и овулировавших икринок связан с важными жизненными процессами при эмбриогенезе, личиночном развитии рыб, влияет на вылупления личинок, жизнеспособность потомства и т.д. (Мейен, 1940; Слуцкий, 1980; Камилов и др., 2019).

Карп (*Cyprinus carpio*) является аборигенным видом рыб для бассейна Аральского моря, где расположен Узбекистан (Берг, 1949). Однако в прудовом рыбоводстве страны используют потомков украинских пород, литовского со смешением с местным карпов. Карп пользуется повышенным спросом на местном рынке, предпочтение отдается более крупной свежей рыбе.

Целью данного исследования была оценка возможности проведения зимнего воспроизводства карпа путем реализации температурных программ в бассейновой воде с созревающими производителями.

Материал и методы. В зимний период 2022-2023 гг в экспериментальном модуле с закрытой оборотной водой использовали 3 бассейна, температура воды в которых регулируется. Опытные производители обоих полов (4 самки и 2 самца) были завезены из рыбопитомника НИИ рыбоводства (Янгиюль) в середине декабря при отлове нагульных прудов и переводе рыб в зимовальные пруды (температура воды в прудах 10-11 °С). Рыб посадили в бассейны с такой же температурой раздельно по полу.

Результаты и их обсуждение. В начале января температуру воды стали повышать: в один день ее повышали на 1°С, затем сутки держали на одном уровне и т.д. К 18 января температура воды достигла 20°С; в таком состоянии рыб выдерживали 2

недели. Когда температура воды достигла 14°, рыб стали кормить кормом «Аллер Аква» для товарного карпа с рационом 1%, а далее - 3% от биомассы рыбы в сутки.

Эксперимент был начат 3 февраля, самкам и самцам были проведены гипофизарные инъекции по общепринятой схеме (двукратная гипофизарная инъекция самкам и однократная инъекция самцам). Зрелые половые продукты получили 4 февраля. Оплодотворенную икру инкубировали в аппаратах Вейса, вылупившихся личинок содержали в бассейнах (Камилов, Курбанов, 2009).

Рыбы-производители были общей массой 2950-3980 (средняя 3235) г. Первую инъекцию самкам провели 3 февраля в 10-00 из расчета 0,5 мг/кг массы тела самок. Вторую инъекцию самкам (3,5 мг/кг) проводили через 12 часов, в то же время однократно вводили самцам (0,5 мг/кг массы тела). Через 14 ч после второй инъекции от рыб обоего пола получали зрелую икру и молоки. Все самцы давали молоко; объем эякулята составлял 15–20 мл у каждого самца. Из 4 самок зрелые яйца дали 3 самки, общий объем икры составил 920 г икры.

Процент оплодотворения икры был 85-90%. Утром 7 февраля было отмечено начало вылупления личинок. Вылупления проходило в течение 20 часов. Всех личинок помещали в садки из антикомаринной сетки с уровнем воды 10 см и выдерживали там 3 суток. Всего получили 560 000 личинок, выход личинок из икры составил 64%.

Вариабельность размеров овулировавших яиц отмечена у каждой из 3-х самок, однако эта изменчивость была невысокой: различия между самой маленькой в диаметре яйцеклеткой и самой крупной от одной самки различались на 5–8%. У всех самок распределение овулировавших яиц приближалось к норме, асимметрии размеров яиц не отмечалось. Выявлена также некоторая изменчивость размеров яиц между самками. Минимальные индивидуальные размеры яиц у трех самок варьировали в пределах 1,1—1,3 мм, максимальные индивидуальные размеры – 1,41-1,65 мм, в среднем у каждой самки – 1,49-1,51 мм.

Выводы. Можно считать, что первая попытка добиться созревания карпа за счет подогрева воды до нерестовых значений зимой в Узбекистане была успешной. Мы не только постепенно повышали температуру воды, но и держали в ней рыб 2 недели.

Для выращивания товарного карпа за один астрономический год необходим технологический прием искусственного воспроизводства карпа зимой, дальнейшее доращивание личинок до мальков и до сеголетков к середине апреля, что можно осуществить в условиях замкнутых систем водоснабжения с постоянно теплой водой.

Список использованной литературы

Как было сказано выше, во всех прудах присутствуют нематоды, а также моллюски родов *Physa, Unio, Lemnaea*, которые в свою очередь, являются одним из промежуточных хозяев паразитического червя *Postodiplostomum cuticola*, вызывающего у карповых рыб заболевание под названием постодиплостомоз. Болезнь регистрировалась главным образом в водоемах, где больше обитает цапель. Заражение рыб происходило преимущественно в весенний период, что связано с развитием возбудителя, экстенсивность инвазии составила 12,8 - 26,9%, интенсивность инвазии составила 1-2 экземпляра. Средняя зараженность ботриоцефалезом рыб составила 26,9%.




Рисунок. Уровень сапробности рыбохозяйственных прудов, находящихся в Янгиюльском районе Ташкентской области в период с ноября 2022 по март 2023 г.

Также в данном рыбоводном хозяйстве было обнаружено, что у сазана, белого толстолобика в кишечнике паразитирует цестода *Bothricephalus opsariichthydis* Yamaguti, 1934, промежуточным хозяином, которого являются веслоногие рачки рода Copepoda. Этот вид цестод провоцирует ботриоцефалез у рыб, и он обнаруживается у рыб в осенние сезоны, экстенсивность инвазии составила 16,7 - 34,7%, интенсивность инвазии составила 1-4 экземпляра. Средняя зараженность ботриоцефалезом рыб составила 28,6%.

По результатам нашего исследования было установлено, что рыба в рыбоводных хозяйствах Ташкентской области была на 28,6% поражена ботриоцефалезом. Этот паразит приводит не только к потере рыбой своих товарных свойств, но и к развитию вторичной инфекции. Кроме того, наносит большой экономический ущерб фермерским хозяйствам.

Выводы. Таким образом, гидрохимический сосав воды, большое количество поступающих в водоем органических веществ, влияет на кислородный режим водоемов, который является одним из наиболее важных абиотических факторов, существенно влияет на рыб и косвенно на характер возникновения и течения заразных болезней. Направленным изменением газового режима в водоеме возможно создавать благоприятные условия для рыб, стимулировать их рост, повышать упитанность и тем самым профилактировать возникновение заразных болезней (https://arktikfish.com/index).

Важнейшим профилактическим мероприятием в борьбе с инвазивными заболеваниями, вызываемым паразитическими червями, цестодами, трематодами является разрыв жизненного цикла возбудителей. Учитывая, что развитие данных возбудителей происходит с участием моллюсков, профилактировать заболевание рыб можно путем уничтожения или резкого снижения численности моллюсков в водоеме. Проводить дезинфекцию прудов негашеной известью, особенно заболоченные участки ложа, где больше всего обитает моллюсков. Занос моллюсков из головных и водоснабжающих прудов можно предотвратить путем устройства заградительных решеток. Снижение численности моллюсков в прудах может быть достигнуто регулированием водного режима.

Список использованной литературы

1. Влияние экологических и зоогигиенических условий на возникновение болезней у рыб, характер их течения и распространение // https://arktikfish.com/index.php/bolezni-ryb/114

2. Инструкция по химическому анализу воды прудов. – М., ВНИИПРХ, 1984. – С.31-33

3. Мустафаева З.А., Мирзаев У.Т., Камилов Б.Г. Методы гидробиологического мониторинга водных объектов Узбекистана // Методическое пособие. – Ташкент: Навруз, 2017. – 112 с.

4. Узгидромет призвал срочно принять меры по улучшению состояния канала Салар в Ташкенте // https://darakchi.uz/ru/105884

УДК 574.583, 597.08

ИССЛЕДОВАНИЕ ЗООПЛАНКТОНА В КАРАКАЛПАКСТАНЕ

Туремуратова Г.И.[1], Нагметов Х.С.[2]

[1]Каракалпакский гос. университет, [2]Иркутский гос. аграрный университет

Annotation. *The article presents the results of hydrobiological studies of zooplankton, which are one of the most important functional links in the ecosystem of any reservoir. Its composition, structure and level of development determine the direction and intensity of the flow of substances and energy in watercourses and reservoirs. Zooplankton is a good food source for zoobenthos and fish; being an active filtrate, it plays an important role in the self-purification of water bodies. The results of our work were successfully used to assess the ecological state and water quality of reservoirs.*

Гидробиологические исследования водоемов Каракалпакстана ведутся на протяжении более 100 лет. К настоящему времени накоплен большой фактический материал по видовому составу, количественным, продукционным характеристикам и роли зоопланктона в питании рыб пресных и минерализованных водоемов. Описаны особенности формирования гидроценозов озера с момента их заполнения. Обобщены сведения по фауне коловраток, ветвистоусых, веслоногих, зоопланктону минерализованных озер.

Общебиологической теоретической и прикладной проблемой до конца не разработанной не только в Каракалпакстане, но и в других регионах, является реакция водных сообществ в ответ на токсическое загрязнение водоемов.

Зоопланктон, наряду с фитопланктоном и зообентосом, играет ключевую роль в функционировании гидроценозов. Он является важным звеном в трофических цепях водных экосистем и принимает непосредственно участие в процессах биологической очистки воды, способствуя улучшению ее качества.

Роль зоопланктона в системе биологической индикации качества воды и экологического состояния водоемов количественные показатели и видовой состав зооплактона зависят от ряда факторов, важнейшими из которых являются физико-химические условия среды (температура, минерализация и химический состав воды), уровень развития кормовой базы (фитопланктона и бактериопланктона), характер и степень загрязнения.

Материал и методы. Сбор полевого материала проводился в период 2020-2022 гг. на озерах Акшакуль, Каратерень, Атакуль с использованием общеизвестными гидробиологическими методами (Абакумов, 1989, 1992; Мустафаева и др., 2017).

Результаты и их обсуждение. За рассматриваемый (2021-2022) период состав доминирующих групп зоопланктона практически не изменился, при сохранении ведущей роли ракообразных. Вспышка численности коловраток отмечалась в 2020-2021 гг. в озере Акшакуль, однако биомасса сообществ в этот период была низкой. *Mesocyclops leuckarti*, доминантом был сохранил лидирующее положение в

зоопланктоне трех озер из четырех Акшакуль, Атакуль, Каратерен. Его отсутствие в озере Атакуль обусловлено, вероятнее всего, существенным ростом минерализации воды. Той же причиной объясняется, очевидно, и полная смена состава доминирующих видов; вместо *Keratella quadrata, Filinia longiseta, Daphnia cucullata, Mesocyclops leuckarti* в период исследований в доминантный комплекс зоопланктона вошли *Daphnia pulex* и *Arctodiaptomus salinus*.

Иисследование структурных показателей зоопланктона пресных озер Каракалпакстана показали, что в условиях благоприятной токсикологической ситуации было выявлено сравнительно высокий уровень разнообразия зоопланктона, как по общему числу видов, так и по их выравненности, выраженный размах колебаний количественных показателей, доминирующую роль ракообразных, преобладание в популяциях веслоногих самок и отсутствие в планктоне особей с морфологическими отклонениями.

Таким образом, на основе собственных исследований и обобщения имеющихся литературных сведений выявлено, что при незакономерном многолетнем изменении биомассы, динамика численности зоопланктона озера Атакуль имела тенденцию к увеличению в многоводные годы. Для биоценоза озера наиболее неблагоприятными являлись 2021-2022 гг., характеризовавшиеся нарушением гидрологического режима и интенсивным токсическим загрязнением его экосистемы. Существенные изменения произошли в составе доминирующих видов, выразившиеся в распространении нехарактерного для системы ветвистоусого рачка *Daphnia magna* в усилении роли более устойчивых к действию токсических веществ веслоногих, изменении показателей размерно-массовой структуры сообщества. Период наших исследований (2020-2022 гг.) при снижении уровня антропогенного воздействия на все озера, характеризовался невысоким разнообразием зоопланктона по числу составляющих видов и стабильной структурой доминирования, как по составу, так и соотношению видов в количественных показателях сообщества, доминированием самок или незначительным преобладанием самцов в популяциях веслоногих. Несмотря на стабильное состояние зоопланктонного сообщества озера Атакуль в последнее десятилетие, опасения вызывает наличие в популяциях циклопов Mesocyclops leuckarti и Thermocyclops crassus особей с отклонениями в морфологии.

Численность зоопланктона в летний период находилась на невысоком уровне в среднем 36,9±2,8 тыс. экз/м^3. Биомасса сообществ характеризовалась мизерными величинами – в среднем для всех озер 0,98±0,06 г/м^3 (чаще менее 0,001 г/м^3). В озере Сайкуль состав доминирующих видов зоопланктона был аналогичен летнему. В Акшакуль и Каратерен к сентябрю произошла смена состава доминантных комплексов (таблица).

Таблица

Состав доминирующих видов зоопланктона озеры

Озеро	Доминирующие виды	
	По численности	По биомассе
Акшакуль	*Mesocyclops leuckarti, Bosmina longirostris, Brachionus angu-laris bidens, Keratella cochlearis, Thermocyclops crassus*	*B. longirostris, M. leuckarti. A. salinus, C.reticulata, B. longi-rostris*
Каратерень	*Polyarthra dolichoptera, Asplanchna brightwelli, Synchaeta sp. C. reticulate, A. salinus*	*Thermocyclops crassus*
Атакуль	*M. leuckarti, Diaptomidae, Euchlanis dilatata*	*Diaphanosoma lacustris, M.leuckarti, Diaptomidae*

То есть, структура зоопланктона дельтовых озер Акашакуль, Каратерен, Атакуль (данной категории водоемов) в летний период характеризовался сравнительно высоким разнообразием и низкими количественными показателями. Основу численности и биомассы сообществ формировали коловратки или веслоногие, при малочисленности ветвистоусых ракообразных и отсутствии или чрезвычайно низкой численности половозрелых особей веслоногих.

Распределение зоопланктона по акватории открытой части озера имел однородный состав из 5-8 видов, с ведущим положением ракообразных. В зарослевой литорали разнообразие расширялось до 20-28 видов за счет коловраток и, в меньшей степени, зарослевых ветвистоусых. Среднее число видов на пробу в литоральной зоне было достоверно выше в три раза, чем в пелагиали. Наибольшее обилие зоопланктона отмечалось в открытой части. В литорали численность и биомасса планктонных организмов были в 1,6-1,7 раз меньше, при статистически недостоверной разнице средних значений.

Выводы. Таким образом, наши исследования показали, что при отсутствии источников антропогенного воздействия, зоопланктон озер Каракалпакстана характеризовался выраженным размахом количественных показателей, сниженным разнообразием по общему числу и выравненности видов, сменой доминирующих групп и структуры доминирования видов по годам.

Список использованной литературы

1. Абакумов В.А.. Руководство по методам гидробиологического анализа поверхностных вод и донных отложений СПб.: Гидрометеоиздат, 1983. 239 с.

2. Абакумов В.А. Руководство по гидробиологическому мониторингу пресноводных экосистем. СПб.: Гидрометеоиздат, 1992. 318 с.

3. Мустафаева З.А., Мирзаев У.Т., Камилов Б.Г. Методы гидробиологического мониторинга водных объектов Узбекистана. Ташкент: Навруз, 2017. 112 с.

UMURTQALI HAYVONLAR FAUNASI, ZAMONAVIY HOLATI, RESURSLARDAN OQILONA FOYDALANISH MASALALARI

UO‘T 598.2.574

NUKUS SHAHRI QUSHLARI FAUNASI VA EKOLOGIYASI BO‘YICHA MATERIALLAR

Ametova N.I., Jumanov M.A., Ametov Ya.I., Nurimov B.J., Babanov R.S.
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti,
e-mail: nargizaidirisonva@gmail.com;

Annotation. *The article describes the materials collected on birds distributed in the city of Nukus and its locality for 2019-2023. In doing so, the authors studied the current composition of the bird fauna of the city of Nukus, distribution and residence patterns, as well as the ecology of birds, including adaptation and nutrition.*

Madaniy landshaftlar ichida shahar landshafti keng tarqalgan landshaftlar turiga kiradi. Lekin shu kungacha Qoraqalpog‘istonda shahar landshafti ornitofaunasi to‘liq o‘rganilmagan. Shu sababdan Nukus shahri qushlarining tur tarkibi, tarqalishi, soni, ekologiyasi va moslashish yo‘llarini kompleks o‘rganish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Qoraqalpog‘istonda ornitologik kuzatishlar olib borgan olimlarning ko‘pchiligida madaniy landshaft, shu jumladan shahar qushlari qiziqish uyg‘otgan. Lekin shahar qushlari faunasi va ekologiyasi alohida o‘rganilmagan. Faqat bazi tadqiqotchilarning ishlarida bu masala uziq-uziq ma’lumotlar shaklida berilgan.

Material va metodlar. İlmiy-tadqiqot ishlari 2019-2023 yillari Amudaryoning qo‘yi oqimida, yilning barcha mavsumlarida Qoraqalpog‘iston Respublikasining Nukus shahri va uning atrofida olib borildi.

Qushlar faunasi tadqiqotida umum qabul qilingan metodlardan foydalanildi: kuzatuv va sanoq o‘tkazishning marshrutli metodi (piyoda, avtomobilda); qush turlarining ovozi, aniqlash va tahlil qilish uchun turlarning rasmlarini fotokamera va videoga olish; kuzatuv joylarida asosiy biotop belgilarini ro‘yxatga olish v.b.

Yashash joylarida qushlarni kuzatuv va sanoq o‘tkazish Viking 10x50 durbin va 10x60 trubasi orqali amalga oshirildi. Sanoq o‘tkazish punktlarida kuzatuv uzoqligi 5 minutdan 20 minutgacha davom etdi.

Natijalar va ularning muhokamasi. Bugungi kungacha mavjud adabiyot manbalari (Ametov, 1981; Jumanov, 2017; Ametov, 2019) va o‘zimizning olib borgan kuzatishlarimiz bo‘yicha Nukus shahrida qushlarning 18 turkum va 46 oilaga mansub 198 turi tarqalganligi aniqlandi (jadval).

Jadval

Nukus shahri qushlarining sistematik tarkibi va kelib-ketish maqomi

Turkum	Turlar soni		O‘troq		Uya quruvchi		Uchub o‘tuvchi		Qishlovchi	
	abs.	%	abs	%	abs	%	abs.	%	abs.	%
Podicipediformes	5	2,52	-	-	4	4,35	5	3,40	-	-
Pelecaniformes	4	2,02	-	-	4	4,35	3	2,04	-	-
Ciconiformes	7	3,53	-	-	7	7,61	2	1,36	2	4,25
Phoenicopteriformes	1	0,51	-	-	1	1,09	1	0,68	-	

Anseriformes	19	9,6	-	-	11	11,95	19	12,92	5	10,64
Falconiformes	14	7,07	2	8,7	6	6,52	10	6,80	7	14,89
Galliformes	2	1,01	1	4,35	1	1,09	1	0,68	1	2,13
Gruiformes	7	3,53	-		3	3,26	7	4,76	1	2,13
Charadriformes	39	19,7	-		16	17,39	36	24,49	3	6,38
Columbiformes	5	2,52	3	13,04	2	2,17	2	1,36	1	2,13
Cuculiformes	1	0,51	-		1	1,09	1	0,68	-	
Strigiformes	4	2,02	2	8,7	1	1,09	-	-	1	2,13
Caprimulgiformes	1	0,51	-		1	1,09	1	0,68	-	
Apodiformes	1	0,51	-		1	1,09	1	0,68	-	
Coraciiformes	3	1,51	-		3	3,26	2	1,36	-	
Upupiformes	1	0,51	-		1	1,09	1	0,68	-	
Piciformes	2	1,01	1	4,35	-		1	0,68	-	
Passeriformes	82	41,41	14	60,86	29	31,52	54	36,73	26	55,32
Jami	198	100	23	11,61	92	46,46	147	74,24	47	23,74

Izoh. Kelib ketish maqomi bo‘yicha guruhlangan turlarning umumiy soni Nukus shahri qushlar faunasidagi turlar soniga nisbatan ko‘p. Sababi ko‘pchilik uya quruvchi turlarning shimoliy geografik populyatsiyalari uchub o‘tuvchi ham hisoblanadi.

1-jadvalda Nukus shahrida tarqalgan qushlarning sistematik tarkibi va kelib-ketish maqomi bo‘yicha malumotlar aks ettirilgan. Unga ko‘ra, uchib o‘tuvchi qush turlarining (74,24%) uya quruvchi (46,46%), qishlovchi (23,74%) va o‘troq (11,61%) qushlarga nisbatan ancha ustunligi ko‘zga tashlanadi.

Yuqorida ko‘rsatilgan turkumlar orasida eng keng tarqalgani chumchuqsimonlar - 82 tur yoki 41.41%, rjankasimonlar - 39 tur (19.7%), g‘ozsimonlar - 19 tur (9.6%), lochinsimonlar - 14 (7.07%), laylaksimonlar va turnasimonlar - 7 turdan (har biri 3.53%), qo‘ng‘irsimonlar va kaptarsimonlar – har biri 5 turdan (har biri 2.52% dan), kurakoyoqlilar va yapaloqqushsimonlar - 4 turdan (har biri 2.02%), ko‘kqarg‘asimonlarga esa 3 tur (1.51% dan) mansubdir va h.k.

Agar qushlar tarkibini mavsumiy jihatdan tahlil qiladigan bo‘lsak, uya quruvchi qushlar faunasi vakillari orasida ham aynan shu turkumlar ustunlik qiladi: chumchuqsimonlar (31.52%), rjankasimonlar (17.39%), g‘ozsimonlar (11.95%), laylaksimonlar (7.61%), lochinsimonlar (6.52%), qo‘ng‘irsimonlar va kurakoyoqlilar (har biri 4.35%), turnasimonlar va ko‘kqarg‘asimonlar (har biri 3.26%), kaptarsimonlar (2.17%). Qolgan turkumlar ko‘rsatkichi 1,09% dan to‘g‘ri keladi. Uchib o‘tuvchi qush turlarining nisbati ham shu darajada saqlanadi, yani chumchuqsimonlar (36.73%), rjankasimonlar (24.49%), g‘ozsimonlar (12.92%), lochinsimonlar (6.80%), turnasimonlar (4.76%), qo‘ng‘irsimonlar (3.40%), kurakoyoqlilar (2.04%), laylaksimonlar, kaptarsimonlar va ko‘kqarg‘asimonlar (har biri 1.36% dan). Qolgan turkumlar ko‘rsatkichi 0.68% dan to‘g‘ri keladi. Qishlovchi turlar orasida ham chumchuqsimonlar 26 tur (55.32%) bilan dominantlik qiladi, undan so‘ng lochinsimonlar - 7 tur (14.89%), g‘ozsimonlar – 5 tur (10.64%), rjankasimonlar – 3 tur (6.38%), laylaksimonlar – 2 turni (4.25%) o‘z ichiga oladi. Qolgan turkumlarning har biri 2.13% (1 turdan) ni tashkil etadi. O‘troq qushlar 23 turni tashkil etib, ular qo‘yidagi turkumlarga jamlangan: chumchuqsimonlar - 14 tur (60.86%), kaptarsimonlar - 3 tur (13.04%), lochinsimonlar va yapaloqqushsimonlar har-biri 2 tur (8.7% dan), tovuqsimonlar va qizilishtonsimonlar 1 turni (har-biri 4.35% ni) tashkil etadi.

Nukus shahri avifaunasining shakllanish manbasini cho‘l, suv va to‘qayzorlik qushlarining vakillari tashkil etadi. Bugungi kunda qushlar Nukus shahrida qo‘yidagi 7 ta asosiy statsiyada (biotop) tarqalgan. Bular:

1. Kichik tumanlar va ko‘p qavatli aholi yashash binolari
2. Eski shahar va bir qavatli binolardan iborat aholi punktlar
3. Bog‘lar, xiyobonlar, shahar chetidagi to‘qaylar

4. İndustrial markazlar (zavod, fabrika, vokzal, idoralar va h.k.)
5. Ruderal maydonlar (chiqindi joylari, yo‘llar)
6. Suv havzalari va uning sohillari (daryo, kanal, ko‘llar, hovuzlar)
7. Qabristonlar.

Bu statsiyalarning barchasi bir-biridan qushlarning yashash sharoiti bilan farq qilib, ular o‘ziga xos indikator qushlarga ega. Hozirda qushlar faunasi tarkibi asta-sekin madaniy landshaft qushlarning vakllari bilan to‘lishib bormoqda. Shuning bilan birga turar joylarning va madaniy o‘rinlarning ko‘payishi o‘sha joyda oldindan yashovchi qushlarning turlarini siqib chiqarmoqda.

Qushlarning yashash muhiti sifatida shaharning o‘zlashtirilishi ularning ekologiyasidagi o‘zgarishlar bilan birga amalga oshadi. Shuning uchun shahar sharoitida barcha qushlar birgalikda moslasha olmaydi.

Yirtqich qushlarning kamligi, tunashning xavotirsizligi va oziqaning mo‘lligi shaharga uchib o‘tuvchi shuningdek qishlovchi qushlarning kirib kelishiga imkoniyat yaratadi. Bizning kuzatuvimiz bo‘yicha qishda qarg‘alarning ko‘pchiligi shahardagi baland yog‘ochlarda tunab panoh topadi. Kuzgi – qishgi davrda donxo‘r qushlarning soni va ovqat qoldiqlari bilan oziqlanuvchi qushlar *(Columbidae, Corvidae, Sturnidae, Passeridae)* ancha ko‘payib ketadi.

Shahar sharoitida uya qurish uchun ham keng imkoniyatlar mavjud. Uya qurish uchun qushlar turli hil joylarda, bazan o‘zlariga avval odat bo‘lmagan joylarni tanlaydi. Masalan, ko‘k kaptar *Columba livia,* mayna *Acridotheres tristis,* qumri *Streptopelia decaocto,* dala chumchug‘i *Passer montanus,* qishloq qaldirg‘ochi *Hirundo rustica,* qora uzunqanotlar *Apus apus* tarixiy yoki zamonaviy arxitekturali imoratlarga, baland yorug‘lantiruvchi ustunlarga uya qurishi mumkin. Mayna, qumri, dala chumchuq, ko‘k kaptar, chug‘urchuq tashlandiq tashlangan joylarda ko‘proq oziq izlashadi, bozorlarda, transport turargohlarida va omborxona atroflarida oziq topadi. Bu qushlar odamlardan unchalik qo‘rqishmaydi ham.

Sanoat ishlab chiqarish va ijtimoiy obektlarning intensiv shaklda rivojlanib borishi shahar landshafti sharoitida qushlarning biologik xilma-xilligiga, ularning ekologiyasiga ancha tasir ko‘rsatadi. Shuningdek, har-xil daraxtlar va butazorlar ekilgan parklar bilan xiyobonlar maydonining kengayishi ko‘plab qushlarni o‘ziga jalb etadi.

Bazi qushlar bu erlarda uya quradi, qishlaydi va sovuq qish vaqtida o‘zlariga oziqa topadi. Bazilari esa mavsumiy uchib o‘tish vaqtida shaharning ichida yoki chetida joylashgan suv akvatoriyalarida vaqtincha to‘xtab o‘tadi. Biz bu vaqtda hattoki Wzbekiston Respublikasi Qizil kitobiga (2019) kirgan kamyob qushlarni ham Nukus shahri chetidagi Ashshi ko‘l ko‘lida uchratganmiz. Masalan, xar yili bahorgi va kuzgi migratsiya vaqtida bu ko‘lda oqbosh o‘rdaknining *Oxyura leucocephala* 100 ga yaqin individini ko‘zatamiz. 2021 yilning 2 may kuni esa ushbu ko‘lda biz flamingo *Phoenicopterus roseus* qushining 17 ta individini uchrataganmiz. Takidlab o‘tish joyiz, bu kamyob qushlar odamlar yashaydigan joydan hamisha o‘zlarini olib qochadigan qushlar bo‘lib, Nukus shahri atrofida ilk bor ro‘yxatga olindi.

Shahar ko‘chalarida avtomashinalarning ko‘payib ketishi va ko‘pchilik yo‘llarning asfaltlanishi cho‘l sog‘ini *Otus brucei*, ko‘k qarg‘ani *Coracias garrulus,* sassiqpopishakni *Upupa epops* va qishloq qaldirg‘ochini *Hirundo rustica* shahardan tashqariga siqib chiqardi.

Ko‘pchilik kaptarsimonlar va chumchuqsimonlar odamlar ko‘p bo‘lgan joylarda, juda jonlangan bozorlarda va avtobazalarda oziqlanadi hamda uya quradi.

Qora qarg‘alar *Corvus frugilegus* shahar ichida daraxtlarda koloniya bo‘lib yig‘ilib uya quradi. Kuchli shovqin bilan odamlarga halaqt beradi va ahlati bilan daraxtlarning poyalarini va ko‘chalarni ifloslaydi. Shuning uchun ko‘pchilik odamlar ularning uyalarini buzib, quvib yuborishga harakat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Ametov M. Ptisi Karakalpakii i ix oxrana. – Nukus: Karakalpakstan, 1981. – 138 s.
2. Ametov Ya.I. Bioraznoobrazie ptis Karakalpakstana i ix oxrana (fauna, ekologiya, oxrana).: Avtoref. diss. … dokt. biol. nauk. – Tashkent, 2019. - 58 s.

3. Jumanov M.A. Pozvonochnie jivotnie Yujnogo Priaral'ya v usloviyax antropogennoy transformasii sredi ix obitaniya.: Avtoref. diss. … dokt. biol. nauk. – Tashkent, 2017. - 52 s.
4. Krasnaya kniga Respubliki Uzbekistan. Jivotnie. Tom 2. - Tashkent, 2019. - 215 s.

UO‘T 598.2

SULTON UVAYS TOG‘ TIZMASI VA UNING ATROFIDA YOZ MAVSUMIDA OLIB BORILGAN ORNITOLOGIK KUZATISHLAR

Ametov Ya.I., Nurimov B.J., Ametova N.I., Turdıbaev K.P., Abdikarimova M.G., Orınbaev D.J.
Qoraqalpoq davlat universiteti, e-mail: raf_78@inbox.ru

Annotation: *The scientific paper describes the results of ornithological observations conducted in the summer season of 2021 around the Sultan Uvais mountain range. In particular, the authors studied the systematic composition, prevalence, abundance and nature of the summer bird fauna of the Sultan Uvais mountain range.*

Sulton Uvays tog‘i – Qoraqalpog‘istondagi tog‘ tizmasi. Qizilqumning shim. g‘arbida, Amudarening o‘ng sohilida. Kenglik bo‘ylab 40- 45 km masofaga cho‘zilgan, eni 10-15 km. Tog‘ unchalik baland emas, atrofdagi tekislikdan 350-400 m ko‘tarilib turadi. Eng baland joylari: Qoraching‘il (485 m), Achchiktog‘ (473 m). Janubiy yon bag‘ri nisbatan tikroq. G‘arbiy qismi bir qancha tepaliklarga bo‘lingan. Doimiy oqar suvlar yo‘q (https://qomus.info/encyclopedia/cat-s/sulton-uvays-togi-uz/).

Ta’kidlab o‘tish joiz, oldin mazkur hududda alohida ornitologik tadqiqotlar olib borilmagan. Faqat qisqa ma'lumotlar adabiyotlarda keltirilgan (Ametov, 1981; Mambetjumaev, 1995, Ametov, 2019).

Material va metodlar. Qushlarni kuzatish 2021-yili yoz mavsumida (2021-yili 26-27-iyun, 17-18-iyul, 7-8-avgust kunlari) olib borildi.

Natijalar va ularning muhokamasi. Ornitologik kuzatishlar natiyjasida Sulton Uvays tog‘i va uning atrofida 8 turkumga tegishli 40 tur qushlar ro‘yxatga olindi (jadval).

Jadval

Sulton Uvays tog‘i va uning atrofida yozda ro‘yxatga olingan qushlar va ularning soni

№	Turlar	2021-yil	Kelib -ketish xususiyati
1	*Circus aeruginosus*	4	BMW
2	*Milvus migrans*	1	BM
3	*Buteo lagopus*	1	MW
4	*Buteo rufinus*	9	BMW
5	*Circaetus gallicus*	1	BM
6	*Aquila nipalensis*	2	BMW
7	*Aquila chrysaetos*	1	R
8	*Falco tinnunculus*	24	R
9	*Alektoris chukar*	10	R
10	*Pterocles orientalis*	24	BM
11	*Athene noctua*	28	R
12	*Caprimulgus aegyptius*	2	BM
13	*Coracias garrulous*	7	BM

14	*Merops persicus*	64	BM
15	*Upupa epops*	3	BM
16	*Hirundo rustica*	35	BM
17	*Galerida cristata*	79	R
18	*Calandrella brachydactyla*	389	BM
19	*Calandrella rufescens*	489	BMW
20	*Alauda arvensis*	1	MW
21	*Anthus campestris*	3	BM
22	*Motacilla personata*	41	B
23	*Lanius collurio*	2	M
24	*Lanius phoenicuroides*	16	BM
25	*Lanius excubitor*	9	R
26	*Pica pica*	2	R
27	*Corvus corone*	8	R
28	*Hippolais languida*	39	B
29	*Sylvia nana*	34	BM
30	*Saxicola caprata*	5	B
31	*Oenanthe pleschanka*	3	B
32	*Oenanthe hispanica*	36	B
33	*Oenanthe deserti*	27	BM
34	*Oenanthe finschii*	77	B
35	*Oenanthe isabellina*	610	BM
36	*Phoenicurus ochruros*	1	M
37	*Passer indicus*	477	BM
38	*Passer hispaniolensis*	2	BMW
39	*Rhodospiza obsoleta*	27	B
40	*Bucanetes githagineus*	62	R

Eslatma. *R - (residens) o‘troq, W - (wintering) qishlovchi, M - (migrant) ko‘chib yuruvchi, B - (breeding) uyalovchi.*

Ularning ichida eng ko‘p songa chumchuqsimonlar turkumi ega bo‘lib, 25 turni o‘z ichiga olgan. Ikkinchi o‘rinni 8 turni o‘z ichiga olib lochinsimonlar egallagan bo‘lsa, uchunchi o‘ringa 2 tur bilan ko‘kqarg‘asimonlar ega bo‘ldi. Qolgan turkumlar bo‘lsa 1 tadan turni o‘z ichiga olgan.

Jadvaldan ko‘rinib turganiday Sulton Uvays tog‘i va uning atrofida yoz mavsumida O‘zbekiston Respublikasi Qizil kitobi (2019) ga kirgan kam uchraydigan va yo‘qolib ketish arafasida turgan turlardan 3 tur ro‘yxatga olindi. Bular – ilonxo‘r burgut *Circaetus gallicus,* cho‘l burguti *Aquila nipalensis* va burgut *Aquila chrysaetos* hisoblanadi. Bu turlarga izoh beradigan bo‘lsak ilonxur burgutning 1 individi 2021-yili 22-may kuni kuzatildi. Cho‘l burgutinıng 1 individi 2021-yili 31-may kuni 1-statsionar tochkada kuzatilgan bo‘lsa, yana bir individi 2021-yili 21-iyul kuni kuzatilgan. Burgutga keladigan bo‘lsak, 1 individi 2021-yili 5-iyun kuni kuzatildi. Yirtqich qushlardan bu yerda soz bo‘ktargisi *Circus aeruginosus,* qora kalxat *Milvus migrans,* oq sor *Buteo lagopus,* sariq sor *Buteo rufinus* va miqqiy *Falco tinnunculus* lar uchradi. Ularning orasida eng ko‘p sonda miqqiy (24 individ), sariq sor (9 individ) va soz bo‘ktargisi (4 individ) uchradi. Ayni damda bu yirtqich qushlar har doim 2-statsionar tochkada va 2 aylanma marshrutlarda ro‘yxatga olindi.

Qora kalxat va oq sornı bizlar eng kam sondagi qushlar deb hisoblasak bo‘ladi. Sababi butun yoz davomida bu qushlarning faqat 1 individini uchratdik.

Qolgan 32 qush turlari ichida yoz mavsumida eng ko‘p sonda o‘ynoqi toshsirchumchuq *Oenanthe isabellina* (610 individ), kulrang to‘rg‘ay *Calandrella rufescens* (489 individ), hind chumchug‘i *Passer indicus* (477 individ), kichik to‘rg‘ay *Calandrella brachydactyla* (389

individ), so‘fi to‘rg‘ay (79 individ) va ko‘k kurkunak *Merops persicus* (64 individ) lar uchradı. O‘rtacha sonda niqobli jiblajibon *Motacilla personata* (41 individ), cho‘l kurgalagi *Hippolais languida* (39 individ), qishloq qaldirg‘ochi *Hirundo rustica* (35 individ), cho‘l moyquti *Sylvia nana* (34 individ) va bo‘yug‘li *Athene noctua* (24 individ) ro‘yhatga olındı. Eng kam sonda qorato‘sh chumchuq, ispan chumchug‘i *Passer hispaniolensis* (2 individ), qora qizilquyruq *Phoenicurus ochruros* (1 individ), olatug‘onoq *Lanius collurio* (2 individ), zag‘izg‘on *Pica pica* (2 individ) malla tentakqush *Caprimulgus aegyptius* (2 individ) va dala to‘rg‘ayi *Alauda arvensis* (1 individ) 1 yoki 2 individdan uchradi. Qushlarning bunday oz sonda uchrashi ularning ko‘payish davri bilan aloqador bo‘lsa kerak. Sababi bizlar kuzatishlarni olib borgan vaqtimiz qushlarning uyalash davriga to‘g‘ri keldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Ametov M. Ptisi Karakalpakii i ix oxrana. – Nukus: Karakalpakstan, 1981. – 138 s. [Rus tilida].

2. Ametov Ya.I. Bioraznoobrazie ptis Karakalpakstana i ix oxrana (fauna, ekologiya, oxrana): Avtoref. diss. … dokt. biol. nauk. – Tashkent, 2019. - 58 s. [Rus tilida].

3. Krasnaya kniga Respubliki Uzbekistan. Jivotnie. Tom 2. - Tashkent, 2019. - 215 s. [Rus tilida].

4. Mambetjumaev A.M. Polniy sistematicheskiy spisok ptis Yujnogo Priaral'ya. Soobshenie 1-oe: Nevorob'inie – Non-Passeriformes // Vestnik KKO AN RUz. – Nukus, 1995. №1. - S. 55-68. [Rus tilida].

O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. https://qomus.info/encyclopedia/cat-s/sulton-uvays-togi-uz/

UO‘T 598.279.23-25

SIRDARYO VA JIZZAX VILOYATLARIDA UCHROVCHI YIRTQICH QUSHLARGA DOIR MA’LUMOTLAR

Azimov N.N., Kashkarov R.D.
O‘zR FA Zoologiya instituti, e-mail: nodirzoo@mail.ru

Annotation. *The analysis of available data sources shows that there are 37 species of birds of prey in Syrdarya and Jizzakh regions of Uzbekistan: 27 species in Syrdarya and 36 species in Jizzakh. Our research confirmed the meeting of 21 species of birds of prey for the 2021-2022 Syrdarya region: 2 of them are settled, 2 species are adapted to build nests in developed areas; Sightings of Oriental Honey-buzzard and Himalayan Buzzard were recorded for the first time; Cinereous Vulture and Short-toed Snake-eagle are confirmed habitats. We confirmed that 30 species of birds of prey were observed in Jizzakh region. It was determined that currently 9 species are sedentary, 7 are migratory and 5 are nesting. It has been noted that natural habitats play an important role for many species of birds. 9 species out of 10 previously known migratory and wintering species were found in the study area and 6 out of 8 seasonal migratory species were encountered.*

Sirdaryo viloyati Mirzacho‘l tekisligida joylashgan bo‘lib O‘zbekistonning boshqa hududlariga nisbatan turlar xilma-xilligi kambag‘al hisoblanadi. Ilmiy manbalarda ushbu hududda yirtqich qushlarning aksariyati uyalash davri bo‘lmagan mavsumlarda (uchib o‘tish va qishlash) uchrashi to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan.

Mirzacho‘l XX asr davomida qishloq xo‘jaligi yerlarini barpo etish maqsadida o‘zlashtirilgan. Bugungi davrda cho‘lning tabiiy manzarasi va o‘ziga xos xususiyatdagi

biotoplar, tabiiy yaylovlar maydoni keskin qisqarib o‘rnida yirik agrolandshaftlar shakllangan. Agrosenozlarda monokultura asosida madaniy o‘simliklarni yetishtirish yo‘lga qo‘yilgan. Bu holat Sirdaryo viloyati hududida o‘tgan asrda uchratilgan *Circus cyaneus*, *Circus macrourus*, *Circus pygargus*, *Buteo buteo*, *Buteo rufinus*, *Aquila clanga*, *Aquila chrysaetos*, *Aquila nipalensis*, *Aquila heliaca*, *Hieraaetus pennatus*, *Neophron percnopterus*, *Falco peregrinus* kabi turlarning biotoplari qisqarishiga, migratsiya davrida dam olish, oziqlanish joylarining yo‘q qilinishiga sabab bo‘lgan. Qolaversa agrolandshaftlar *Falco columbarius*, *Milvus migrans*, *Circus cyaneus*, *Accipiter nisus*, *Buteo lagopus* kabi uchib o‘tuvchi va qishlovchi turlar uchun ham mavjud imkoniyanlarni cheklaydi.

Material va metodlar. Kunduzgi yirtqich qushlarning uchrash xususiyatini o‘rganishga doir materiallar Sirdaryo va Jizzax viloyatlari hududida 2021-2023 yillar davomida o‘tkazilgan dala tadqiqotlari jarayonida umum qabul qilingan ornitologik uslublar yordamida to‘plandi.

Natijalar va ularning muhokamasi. Zoologiya instituti Umurtqali hayvonlar laboratoriyasining 2020-2023 yillar davrida bajarilayotgan “Umurtqali hayvonlar faunasining inventaritsiyasi, hozirgi holatini baholash va barqaror foydalanish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish” mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari dasturi doirasida Sirdaryo va Jizzax viloyatlarida uchrovchi qushlar faunasi o‘rganildi. Ilmiy manbalar, hisobotlar va 3 ta ornitologik kolleksiyalarda (O‘zR FA Zoologiya instituti, M.Ulugbek nomidagi O‘zMU, Nurota davlat qo‘riqxonasi) saqlanayotgan materiallar umumlashtirilganda tadqiqot hududida yirtqich qushlarning 37 turi jumladan, Sirdaryoda – 27, Jizzaxda – 36 tur uchrashi ma’lum bo‘ldi (Beshko, 2008; Kashkarov, 1931; Ostapenko va bosh, 1980; Pavlenko, 1962; Salixbayev va bosh., 1970; Fundukchiyev, 1984; Kashkarov, Mitropolskaya, 2023). Ulardan 10 tur Tabiat va tabiiy resurslarni muhofaza qilish xalqaro ittifoqining **(**IUCN) Qizil ro‘yxatiga, 19 tur O‘zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga noyob, yo‘qolib borayotgan tur sifatida, jumladan 37 tur CITES va SMS konvensiyalarining Ilovalariga kiritilgan (jadval).

Jadval

Sirdaryo va Jizzax viloyatlarida uchrovchi yirtqich qushlar va ularning muhofaza maqomlari

Turlar nomi	Uchrash xus-yati	O‘zR QK	IUCN	CITES	SMC	Sirdaryo	Jizzax
Falco naumanni Fleischer, 1818	BM	3(NT)		II	I	🕮 ✓	🕮✓
Falco tinnunculus Linnaeus, 1758	R			II	II	🕮 ✓	🕮 ✓
Falco columbarius Linnaeus, 1758	MW			II	II	🕮	🕮 ✓
Falco subbuteo Linnaeus, 1758	BM			II	II	🕮 ✓	🕮 ✓
Falco cherrug J.E. Gray, 1834	R	1(EN)	EN	II	I	-	🕮 ✓
Falco peregrinoides Temminck, 1829	R	2(VU:R)		I	II	-	🕮 ✓
Falco jugger J.E. Gray, 1834			NT	I	II	🕮	-
Falco peregrinus Tunstall, 1771	MW	2(VU:R)		I	II	🕮	🕮
Pandion haliaetus (Linnaeus, 1758)	M	2(VU:R)		II	II	🕮 ✓	🕮 ✓
Pernis apivorus (Linnaeus, 1758)	M			II	II	🕮 ✓	🕮 ✓

Pernis ptilorhynchus (Temminck, 1821)	M			II	II	✓	🕮
Milvus migrans (Boddaert, 1783)	MW			II	II	🕮 ✓	🕮 ✓
Haliaeetus leucoryphus (Pallas, 1771)	MW	1(EN)	EN	II	I	-	🕮 ✓
Haliaeetus albicilla (Linnaeus, 1758)	MW	2(VU:R)		I	I	🕮 ✓	🕮 ✓
Gyps fulvus (Hablizl, 1783)	R	2(VU:D)		II	II	?	🕮✓
Aegypius monachus (Linnaeus, 1766)	R	3(NT)	NT	II	II	? ✓	🕮 ✓
Gypaetus barbatus (Linnaeus, 1758)	R	2(VU:R)	NT	II	II	-	🕮 ✓
Neophron percnopterus (Linnaeus, 1758)	BM	2(VU:D)	EN	II	II	🕮 ✓	🕮 ✓
Circaetus gallicus (Gmelin, 1788)	BM	2(VU:D)		II	II	? ✓	🕮 ✓
Circus aeruginosus (Linnaeus, 1758)	R			II	II	🕮 ✓	🕮 ✓
Circus cyaneus (Linnaeus, 1766)	MW			II	II	🕮 ✓	🕮 ✓
Circus macrourus (S.G. Gmelin, 1771)	M	3(NT)	NT	II	II	🕮	🕮 ✓
Circus pygargus (Linnaeus, 1758)	M			II	II	🕮	🕮
Accipiter badius (J.F. Gmelin, 1788)	BM			II	II	🕮 ✓	🕮 ✓
Accipiter nisus (Linnaeus, 1758)	MW			II	II	🕮 ✓	🕮 ✓
Accipiter gentilis (Linnaeus, 1758)	W			II	II	🕮	🕮 ✓
Buteo buteo Linnaeus, 1758	MW			II	II	🕮 ✓	🕮 ✓
Buteo rufinus (Cretzschmar, 1827)	R			II	II	🕮 ✓	🕮 ✓
Buteo japonicas Temminicus & Schlegel 1844	M			II	II	-	🕮
Buteo hemilasius Temminck et Schlegel, 1844	M			II	II	✓	🕮 ✓
Buteo lagopus (Pontoppidan, 1763)	W			II	II	🕮	🕮
Aquila clanga Pallas, 1811	MW	2(VU:R)	VU	II	I	🕮	🕮 ✓
Aquila chrysaetos (Linnaeus, 1758)	R	2(VU:R)		II	II	🕮 ✓	🕮 ✓

Aquila nipalensis Hodgson, 1833	M	2(VU:D)	EN	II	II	🕮 ✓	🕮 ✓
Aquila heliaca Savigny, 1809	MW	2(VU:D)	VU	I	I	🕮 ✓	🕮 ✓
Hieraaetus pennatus (Gmelin, 1788)	BM	2(VU:D)		II	II	🕮	🕮 ✓
Hieraaetus fasciatus (Vieillot, 1822)	BM	1(CR)		II	II	-	🕮

Eslatma. R – o‘troq, B – uyalovchi, M – uchib o‘tuvchi (migrant), W – qishlovchi; O‘zR Qizil kitobi: CR – butunlay yo‘q bo‘lib ketish arafasidagi, EN – yo‘q bo‘lib ketayotgan, VU:D – qisqarib borayotgan, VU:R – qisqarib borayotgan, VU:R – tabiatan kamyob, NT – yo‘q bo‘lib ketish ehtimoliga yaqin; Tabiat va tabiiy resurslarni himoya qilish halqaro ittifoqi (IUCN) : NT – yo‘q bo‘lib ketish ehtimoliga yaqin, VU – zaif, EN – yo‘q bo‘lib ketayotgan; 🕮 – uchrashi manbalarda keltirilgan, ? – aniqlik kiritishni talab etadi, ✓ – kuzatuvlar jarayonida uchratilgan.

Sirdaryo viloyati hududi kesimida yirtqich qushlar inventarizatsiya qilinganda, turli mavsumlarda 21 turning uchrashi tasdiqlandi. Ikki tur – *Falco tinnunculus, Circus aeruginosus* yil davomida qayd etildi. *Falco tinnunculus* Sirdaryo daryosi qirg‘og‘idagi jarliklar devorida uyalashi aniqlandi. O‘zlashtirilgan hududlarda esa bu qush zag‘izg‘onning tashlandiq uyasidan foydalanishi kuzatildi. Tabiiy biotoplarga nisbatan uning zichligi kam miqdorni tashkil qilishi ma’lum bo‘ldi. Sirdaryo daryosining eski o‘zani o‘rnida saqlanib qolingan katta Qolgansir, kichik Qolgansir, Uchtepa, Axmonko‘l, Qolgan, Sho‘r (Solyoniy) kabi kichik ko‘llardagi qamishzorlar, Yettisoy pastligi va Sardoba ko‘li o‘rnida taskil etilgan baliqchilik hovuzlari atrofidagi qamishzorlar *Circus aeruginosus* uchun uyalash joylari sifatida xizmat qilishi ma’lum bo‘ldi.

Sirdaryo daryosi bo‘yidagi to‘qaylar, madaniy landshaftdagi daraxtzorlarda 2 tur – *Falco subbuteo* va *Accipiter badius* ko‘payishi kuzatildi. Bu turlarni o‘zlashtirilgan hududlarga to‘liq moslashganligi tadqiqotimizda namoyon bo‘ldi.

Sirdaryo daryosi chap qirg‘og‘idagi tuproqli jarliklarda ehtimol *Falco naumanni* uyalashi mumkin, ammo dala tadqiqotlarimiz davomida qayd qilinmadi.

Migratsiya jarayonida tranzit qush sifatida Sirdaryo viloyati orqali 5 tur – *Falco naumanni, Pernis apivorus, Aquila chrysaetos, Aquila nipalensis, Aquila heliaca* qayd etilgan bo‘lsa, mavsumiy uchib o‘tishi davrida esa 4 tur – *Pandion haliaetus, Neophron percnopterus, Circaetus gallicus, Circus cyaneus* oziqa zaxirasiga bog‘liq holda to‘xtab o‘tishi kuzatildi. Uchib o‘tish va qishlash davrida suv havzalari atrofida *Haliaeetus albicilla, Milvus migrans*, to‘qay va daraxtzorlarda *Accipiter nisus*, ekindan bo‘shagan dalalar hamda maysa bilan qoplangan bug‘doyzorlarda *Buteo buteo, Buteo rufinus* kabi turlar uchrashi aniqlandi. Adabiyot manbalarida qayd etilgan 9 tur – *Falco columbarius, Falco jugger, Falco peregrinus, Circus macrourus, Circus pygargus, Accipiter gentilis, Buteo lagopus, Aquila clanga, Hieraaetus pennatus* olib borilgan kuzatuvlarimiz davomida uchratilmadi. *Aegypius monachus* va *Circaetus gallicus* viloyat hududida uchrashiga aniqlik kiritildi. Bundan tashqari ilgari ushbu hududda uchrashiga doir ma’lumotlar bo‘lmagan *Pernis ptilorhynchus* hamda *Buteo hemilasius* Sirdaryo viloyatida ilk bor qayd etildi.

Jizzax viloyatining tabiati xilma-xil ekosistemalardan iborat. Uning g‘arbiy qismi shimoli-sharqiy Qizilqum cho‘lini, janubiy sarhadlari Turkiton, Molguzar va Nurota tog‘ tizmalarini, shimoli-sharqiy qismi Mirzacho‘lning g‘arbidan markaziy qismigacha bo‘lgan hududlarni egallagan. Viloyatning shimoli-g‘arbida Aydar-Arnasoy ko‘llari tizimi joylashgan. Turkiston tizmasining shimoliy qismidagi suv manbalaridan shakllangan Sangzor daryosi viloyatning markaziy qismi orqali Tuzkon ko‘liga quyiladi. Tabiiy hududlarning yirik maydonni egallashi, o‘zlashtirish ko‘rsatkichining past darajadaligi, ornitofaunasining Sirdaryo viloyatiga nisbatan boyligida namoyon bo‘ladi.

Jizzax viloyati hududi yirtqich qushlari inventarizatsiya qilinganda, turli mavsumlarda 30 turning uchrashi tasdiqlandi. Jumladan, 9 tur – *Falco tinnunculus*, *Falco cherrug*, *Falco peregrinoides*, *Gyps fulvus*, *Aegypius monachus*, *Gypaetus barbatus*, *Circus aeruginosus*, *Buteo rufinus* va *Aquila chrysaetos* yil davomida uchrab, uya qurib ko‘payishi qayd etildi. Tog‘ va tog‘ oldi mintaqasi xususan, qo‘riqlanadigan hududlar 8 tur uchun yashash joyi sifatida muhim o‘rin tutishi namoyon bo‘ldi.

Uchib o‘tuvchi, uyalovchi xususiyatidagi 7 turdan faqatgina *Falco subbuteo*, *Neophron percnopterus*, *Circaetus gallicus*, *Accipiter badius*, *Hieraaetus pennatus* kabi qushlarning bugungi kunda ham uyalashi ma’lum bo‘ldi. Ammo *Falco naumanni* kam sonda uchrasada, uyalash holati kuzatilmadi. N.A. Zarudniy (1915) tomonidan XX asr boshida Nurota tizmasida uyalovchi sifatida keltirilgan *Hieraaetus fasciatus* (Mitropolskiy va b., 1987.) tadqiqotlarimizda qayd etilmadi. Aksariyat uyalovchi yirtqich qushlar uchun tabiiy biotoplar muhim o‘rin tutishi yana bir bor tasdiqlandi. Aksincha 2 tur – *Falco subbuteo* va *Accipiter badius* Jizzax viloyatida ham madaniy landshaftlardagi daraxtzorlarda uyalashi aniqlandi.

Uchib o‘tuvchi, qishlovchi qush sifatida 10 tur adabiyotlarda keltirilgan bo‘lib, shundan 9 tur – *Falco columbarius*, *Haliaeetus leucoryphus*, *Haliaeetus albicilla*, *Circus cyaneus*, *Accipiter nisus*, *Accipiter gentilis*, *Buteo buteo*, *Aquila clanga*, *Aquila heliaca*; mavsumiy migrant bo‘lgan 6 turning (adabiyotlarda 8) – *Pandion haliaetus*, *Pernis apivorus*, *Milvus migrans*, *Circus macrourus*, *Buteo hemilasius*, *Aquila nipalensis* ayni davrda ham viloyat hududida uchrashi ma’lum bo‘ldi.

Chop etilgan mabaalarda Jizzax viloyatida uchrashi qayd etilgan 6 tur – *Falco peregrinus*, *Pernis ptilorhynchus*, *Circus pygargus*, *Buteo japonicus*, *Buteo lagopus*, *Hieraaetus fasciatus* olib borilgan kuzatuvlarimiz jarayonida uchramadi.

Xulosalar. qilib aytganda, Sirdaryo viloyatida yirtqich qushlarning yashash joyi bo‘lgan tabiiy biotoplarning o‘zlashtirilishi turlar xilma-xilligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Jizzax viloyati hududida ekotizim va landshaftlarning turfaligi, tabiiy biotoplarga antropogen ta’sirlar darajasining kamligi yirtqich qushlarning turlar xilma-xilligini o‘zida namoyon qiladi shuningdek, turlar boyligi har xil toifadagi muhofaza etiladigan hududlarining mavjudligi bilan bevosita bog‘liq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Beshko N.Yu. Fauna pozvonochnix jivotnix Nuratinskogo zapovednika. Trudi zapovednikov Uzbekistana. Vip. 6. – Tashkent, 2008. – S. 8-26. [Rus tilida].

2. Kashkarov D.N. Jivotnie Turkestana. – Tashkent, 1931. – 448 s.

3. Kashkarov R.D., Mitropol'skaya Yu.O. Analiz sovremennoy fauni ptis i mlekopitayushix Sirdar'inskoy i Djizakskoy oblastey (Uzbekistan) // Nazemnie pozvonochnie aridnix i subaridnix ekosistem Aralo–Kaspiyskogo regiona. Materiali III Mejdunarodnoy konferensii, posvyashyonnoy pamyati vidayushegosya ornitologa, naturalista i puteshestvennika Nikolaya Alekseevicha Zarudnogo. – Rossiya, Orenburg, 2023. – S. 78-87. [Rus tilida].

4. Mitropol'skiy O.V., Fotteler E.R., Tret'yakov G.P. otryad Sokoloobrazni // Ptisi Uzbekistan. T.1. – Tashkent, 1987. – S. 123-246. [Rus tilida].

5. Ostapenko M.M., Kashkarov D.Yu., Shernazarov E., Lanovenko Ye.N., Filatov A.K. Vesenyaya migratsiya ptis na Djizakskom perevale (Uzbekistaana). Migrasii ptis v Azii. Izdatel'stvo “Donish”, – Dushanbe, 1980. – S. 75-97. [Rus tilida].

6. Pavlenko T.A. Pozvonochnie jivotnie Golodnoy stepi. Jivotniy mir Golodnoy stepi. – Tashkent, 1962. – S. 127-175. [Rus tilida].

7. Salixbaev X.S., Kashkarov D.Yu., Sharipov A. Ptisi // Ekologiya pozvonochnix jivotnix xrebta Nuratau. – Tashkent, 1970. – S. 42-99. [Rus tilida].

8. Fundukchiev S.E. Zimnee naselenie ptis “Golodnoy stepi” // Sbornix nauchnix trudov Samarkandskogo universiteta “Ekologiya i morfologiya jivotnix”. – Samarkand, 1984. – S. 59-63. [Rus tilida].

9. MSOP 2023. Krasniy spisok ischezayushix vidov MSOP. Versiya 2022-2. https://www.iucnredlist.org [Rus tilida].

10. http://www.cites.org.

UO‘T 591.13:621.039. 577.21

YOVVOYI CHO‘CHQA (*SUS SCROFA*) TURINING MOLEKULYAR IDENTIFIKATSIYASI

Karimova R.R., Amirov O.O., Ubaydullayev O.X., Kuchboev A.E.
O‘zR FA Zoologiya instituti, e-mail: rokhatoy_karimova@mail.ru

Annotation. *In this article, the nucleotide sequence of the mitochondrial DNA 16S rRNA region of Sus scrofa Linnaeus, 1758, belonging to the genus Sus, of the family Suidae, was analyzed, and the phylogenetic relationships of this species with other subspecies were studied.*

Yovvoyi cho‘chqalar (*Sus scrofa* Linnaeus, 1758) kosmopolit tur hisoblanadi. Ular Yevropa va Osiyoda paydo bo‘lgan, ammo Shimoliy Amerikada keng tarqalgan va AQShning janubiy-sharqida va Kaliforniyada esa invaziv tur hisoblanadi. Ular butun Yevrosiyoda keng tarqalgan va Antarktidadan tashqari barcha qit'alarda yashaydi (Vud et Barret, 1979; Chepman et Trani, 2007; Oliver et Leus, 2008).

Ularning keng tarqalishini hisobga olgan holda, yovvoyi cho‘chqalarni turli xil yashash joylaridan topish mumkin. Ular o‘tloqzorlarda, o‘rmonzorlarda, daryo bo‘ylaridagi qamishzorlarda, butazorlarda va botqoqliklarda yashashi mumkin. Yirtqichlardan himoyalanish va yashirinish uchun ular yaqin atrofdagi suv manbai va boshpana (zich o‘simliklar) talab qiladi. Ular turli xil iqlim sharoitida o‘sadi, lekin odatda haddan tashqari issiqlik yoki sovuqdan qochadi. Qishning qattiq harorati va qorning ko‘payishi kuzatilishi mumkin bo‘lgan joylarda aholi zichligi oziq-ovqat manbalari bilan cheklanishi mumkin (Melis et al., 2006; Oliver et Leus, 2008).

Cho‘chqalar Artiodactyla turkumiga mansub juft tuyoqli hayvonlar bo‘lib, bu tur filogenetik jihatdan primatlarga yaqinroqdir. Cho‘chqaning butun genomi sekvensi loyihasi “Cho‘chqa genomlarini tartiblash konsepsiyasi (CHGTK)” mavjud tashabbusi bilan 2006 yil boshida ishga tushirilgan (http://www.piggenome.org/). Hozirgi vaqtga kelib *Sus* avlodini 11 kenja turi bo‘lib, ularning *S. s. domesticus* (AP003428) va *S. s. taiwanensis* (GU147934) turlarining mitoxondrial genom DNKsi o‘qitilgan (Chen et al., 2011). Keyinchalik Yevropada tarqalgan *S. s. scrofa* kenja turining mitoxondiril genom DNKsi to‘liq birinchi marotaba o‘qitilib, umimiy nukleotidlar soni 16770 juft nukleotid ekanligi aniqlandi (Xiao-Di Hu, 2015).

Ushbu tadqiqot ishimizning maqsadi respublikamizni Toshkent viloyatida tarqalgan *Sus scrofa* turining molekulyar identifikatsiya qilishdan iborat.

Material va metodlar. Molekulyar-genetik tadqiqot ishini amalga oshirish uchun, respublikamizni Toshkent viloyatida tarqalgan *S. scrofa* turini fekaliysi, yungi va muskulidan genetik namunalar olindi.


Ushbu turning genom DNKsini ajratishda QIAamp DNA Mini Kit (QIAGEN, Germany) reaktivlaridan foydalanildi.

Polimeraza zanjir reaksiyasini (PZR) o‘tkazishda umurtqali hayvonlarni molekulyar-genetik identifikatsiya qilishda keng qo‘llaniladigan mitoxondrial genini 16S sohasiga mansub nukleotidlarini o‘qiydigan praymerlardan foydalanildi (Caragiulo et al., 2013; Chaves et al., 2010; Wultsch et al., 2016). PZR da suv 16,1 mkl, 10x PZR buferi 2 mkl, dNTP 0,4 mkl, har

bir praymerdan (5′-CGAGGGCTTTACTGTCTCTT-3′, 5′-CCTATTGTCGATATGGACTCT-3′) 2 mkl, Taq polimerazadan 0,4 mkl solinib jami 20 mkl aralashma tayyorlandi.

PZR quyidagi bosqichlarda amalga oshirildi. 94°C da 2 min, 10 sikl, 94°C da 15s, 52.5°C da 15 s, 72°C da 45 s, 15 sikl 94°C da 15 s, 52°C da 15 s, 72°C da 45 s, 20 sikl 94°C da 15 s, 51.5°C da 15 s, 72°C da 45 s va oxirgi bosqichi 68°C da 20 min.

Natijalar va ularning muhokamasi. Olib borilgan molekulyar-genetik tadqiqot natijalariga ko‘ra, *S. scrofa* turining mtDNK 16S sohasiga mansub 309 juft asosga ega bo‘lgan nukleotidlar ketma-ketligi ajratib olinib, xalqaro Genbank bazasidagi (https://www.ncbi.nlm.nih.gov) *S. scrofa* (kirish raqami: LC500155) turi bilan nukleotidlar ketma-ketligi solishtirilib o‘rganildi (1-rasm).



1-rasm. *Sus* avlodiga mansub *S. scrofa* turining mitoxondrial genini rDNKsining 16S sohasi nukleotidlar ketma-ketligi


S. scrofa turi bilan xalqaro Genbank bazasidagi S. scrofa (kirish raqami: LC500155) turi nukleotidlari o‘rtasida farqlanishlar aniqlanmadi.

Keyingi tadqiqot ishlarimiz *S. scrofa* turi va shu turga yaqin bo‘lgan kenja turlar o‘rtasidagi filogenetik aloqalarini o‘rganish bo‘lib, buning uchun molekulyar genetik jixatdan nukleotidlari o‘rganilgan tur bilan shu turga yaqin bo‘lgan kenja turlarni xalqaro Genbank bazasidagi nukleotidlari asosida filogenetik daraxti tuzildi (2-rasm).

Filogenetik daraxtdan ko‘rinib turibdiki, Sus avlodi turlari 3 kladalarga birlashganligi aniqlandi.

Birinchi monofiletik gurux *Sus* avlodiga mansub, Xitoy davlatida tarqalgan (*S. scrofa* kirish raqami: MH603005, MN258706) turi bilan Tayvan davlatida tarqalgan (*S. scrofa* taivanus kirish raqami: GU147934) kenja turlari 99% butstrap yuklanish qiymatini hosil qildi.

Ikkinchi monofiletik guruhda esa, Xitoy davlatida tarqalagan (*S. scrofa* kirish raqami: KC250275) *S. scrofa* turi bilan Ispaniya davlatida tarqalgan (*S. scrofa* kirish raqami: FJ237003) individlari 99% butstrap yuklanish qiymatini namoyon qilib, Yaponiya davlatida tarqalgan (*S. scrofa* kirish raqami: AP003428) individi shu ikkala davlatda tarqalgan namunalarga nisbatan 98% butstrap yuklanish qiymatini namoyon qilib filogenetik jihatdan yaqin ekanligi aniqlandi.



2-rasm. *Sus* avlodiga mansub *S. scrofa* tur va kenja turlarining filogenetik aloqalari

Uchinchi monofiletik gurux esa, respublikamizni Toshkent viloyatida tarqalgan (*S. scrofa* kirish raqami: OR234746) individi bilan Yaponiya davlatida tarqalgan (*S. scrofa* kirish raqami: LC500155) namunasi 99% butstrap yuklanish qiymatini hosil qilib birlashtirdi.

Yovvoyi cho‘chqalarning *S. scrofa* turining molekulyar genetik tahlili bo‘yicha olib borilgan tadqiqot ishlariga ko‘ra, respublikamizning Toshkent viloyatida tarqalgan *S. scrofa* turining mitoxondrial genining 16S rRNK sohasiga mansub 309 juft nukleotidlar sekvens qilinib, xalqaro Genbank bazasiga joylashtirildi va kirish raqami olindi (OR234746). Sekvensdan olingan ma'lumotlar asosida qurilgan filogenetik daraxt natijasiga ko‘ra, o‘rganilgan tur Yaponiya davlatida tarqalgan *S. scrofa* turiga genetik jihatdan yaqin kelganligi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Chapman B., Trani M. Feral Pig (*Sus scrofa*). in M. Trani (Griep), W. Ford, B. Chapman, eds. ‘The Land Manager’s Guide to Mammals of the South”. Durham, NC: The Nature Conservancy and the US Forest Service, Southern Region. 2007. - P. 540-544.

2. Chen C., Huang H., Yang H., Lai S., Yen N., Wu M., Huang M. Mitochondrial genome of Taiwan pig (*Sus scrofa*)// Afr J Biotechnol. 2011. 13. - P. 2556-61.

3. Melis C., Szafranska P., Jedrzejewska B., Barton K. Biogeographical variation in the population density of wild boar (*Sus scrofa*) in western Eurasia // Journal of Biogeography. 2006. 33/5: - P. 803-811.

4. Oliver W., Leus K. "IUCN Red List of Threatened Species. Version 2013.2." (On-line). *Sus scrofa*. Accessed November 01, 2013 at http://www.iucnredlist.org/details/41775/0. 2008.

5. Webster W., Parnell J., Biggs W. Mammals of the Carolinas, Virginia, and Maryland. Chapel Hill and London: The University of North Carolina Press. 1985. - 154 p.

6. Xiao-Di Hu, Xiao-Tian Yang, En-Yang. The complete mitochondrial genome of European wild boar, *Sus scrofa scrofa* // Mitochondrial DNA, Early Online: 1–2. 2015 Informa UK Ltd.

UO‘T 598.243.8

AMUDARYONING QUYI OQIMIDA DARYO CHIGIRTCHISI (*STERNA HIRUNDO*) BIOEKOLOGIYASIGA OID MATERIALLAR

Matekova G.A.[1], Ayimbetova Sh.J.[2], Abdikarimova M.G.[2], Alpısbaeva A.J.[2], Jumabaeva A.K.[2], Matekova T.A.[3]

[1] *O‘zR FA QQ bo‘limi Qoraqalpoq tabiiy fanlar ITI,* [2]*Qoraqalpoq davlat universiteti,* [3]*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali, e-mail: gmatekova@gmail.ru*

Annotation. *The scientific work presents materials on biology and ecology of the Common Tern (Sterna hirundo) in the lower reaches of the Amu Darya. The authors studied the distribution of the species, migration timing, nest construction, incubation, nutrition of chicks and adult birds.*

Amudaryoning quyi oqimi sharoitida daryo chigirtchisi (*Sterna hirundo*) uchib kelib uya quruvchi, ko‘p sonli qush sanaladi. Lekin shunga qaramay bu qushning biologiyasi va ekologiyasi to‘liq o‘rganilmagan.

Adabiyot ma’lumotlarida (Kenjegulov, 1972; Ametov, 1981) daryo chigirtchisi Amudaryoning quyi oqimlarida uya quruvchi qush ekanligi qayd etilgan.

Tadqiqot hududida daryo chigirtchilarining bahorda uchib kelishi mart oyining ikkinchi o‘n kunligidan boshlab, aprel oyining oxirigacha davom etadi. K.K. Kenjekulov (1972) tomonidan 30.03.1964 y., A.M. Mambetjumaev va bosh. (1973) 11.03.1966; 13.03.1967; 14.03.1968; 25.04.1969; 18.03.1972; M.B. Ametov (1981) mal’umoti bo‘yicha 12.04.1973; 16.03.1974; 21.04.1975; 20.04.1976 yy. kuzatilgan.

Bizning kuzatishimiz bo‘yicha daryo chigirtchilarining bahorgi uchib kelishi odatda mart oyining o‘rtasidan boshlanib aprel oyining oxirigacha davom etishi qayd etilgan (07.04.2002; 24.03.2003; 30.04.2004; 22.04.2005; 20.04.2006; 27.04.2007; 14.03.2013; 25.03.2017).

Adabiyot manbalarida chigirtchilarning kuzgi uchib ketishi iyul oyining ikkinchi o‘n kunligidan sentyabrning birinchi o‘n kunligigacha davom etadi. Orol dengizining janubiy qirg‘oqlari bo‘lgan Aqqala hududida 28-31.08.1961 y. oralig‘ida 200 dan ortiq sonda ro‘yxatga olingan (Kenjegulov, 1972). Nukus atrofida daryo chigirtchisining eng so‘ngi individlari 27.08.1971; 14.08.1972; 02.08.1973; 01.09.1975 yy. kuzatilgan (Ametov, 1981).

Bizning tadqiqotlarda Amudaryoning quyi oqimida bu turning so‘nggi individlari 26.08.2002; 11.09.2005; 03.08.2008; 23.09.2010; 24.08.2014; 12-14.08.2019 yy. kunlari kuzatildi.

K. Kenjegulov (1972) ma’lumotlari bo‘yicha qush uyasining diametri 11-19,5 sm (o‘rtacha 15,3), chuqurligi 3,5-4,1 sm; tuxumlari o‘lchami 39,5-43x29-31 mm, massasi 16,9-20,3 g (o‘rtacha 18,6) ni tashkil etadi. M.B. Ametov (1981) tomonidan chigirtchi uyalarida tuxumlar 3 ta, ba’zan 2 ta yoki kamdan-kam hollarda 1 ta bo‘lishi aniqlangan. Tuxumlarning uzunligi 37,8-45,0 mm, eni 28,2-32,0 mm, massasi 25,5-23,9 grammni tashkil etgan. Inkubatsiya davri 20-21 kun davom etib, tuxumdan chiqqan polaponlarning massasi 13,0-14,7 g., ikkinchi kun 16,3-19 grammga, 5 kunlik - 37,2-42,5 g., 20 kunlik yosh qushlar esa 103,5 grammga o‘zgargan.

So‘nggi yillardagi tadqiqotlarda daryo chigirtchisi Amudaryoning quyi oqimi sharoitida asosan ozuqa resurslari ko‘p va xilma-xil bo‘lgan kichik va yirik ko‘llarda, shuningdek daryoning o‘rtasidagi suvdan qurigan mayda qamish va qo‘g‘ali gil toproqli orolchalarga koloniya yoki 2-3 juft bo‘lib uya qurishi kuzatildi. Uya materialari sifatida yaqin atrofda o‘sib turgan o‘simliklarning qurigan novdalari va mollyuskalarning qattiq chig‘anoqlaridan foydalanadi. Ayrim vaqtlari tuxumlarini o‘simlik qoldiqlari yig‘ilgan chuqurlarga qo‘yadi.

Masalan, 2005 yili 14x8 m o‘lchamga ega bo‘lgan orolchada 95 ta uya ro‘yxatga olindi. Uyalar orasidagi masofa 37-75 sm ni tashkil etdi.

Tadqiqotlarimizda daslabki uyalar 26.05.2002; 20.05.2003; 17.05.2004; 07.05.2005; 27.05. 2006; 03.06. 2007; 12.06. 2008; 17.06. 2014 yy. kuzatildi. Uyalarning (n=193) diametri 110-230 mm (o‘rtacha 170 mm), uya asosi (lotka) diametri 70-120 mm (o‘rtacha 95), uya chuqurligi 20-43 mm (o‘rtacha 31,5) ni tashkil etishi aniqlandi. Tuxumlarning (n=416) uzunligi 37,0-45,2 mm (o‘rtacha 41,1), diametri 27,0-33,7 mm (30,4), tuxumlarning (n=79) massasi 16-23,7 g (o‘rtacha 19,9) ni tashkil etadi.

Polaponlar may oyining oxiridan boshlab tuxumdan chiqadi va bu jarayon iyun oyining ikkinchi o‘n kunligigacha davom etadi (12.06.2002; 09.06.2003; 03.06.2004; 21.05.2005; 03.06.2007; 25.05.2008; 17.06.2014). Tuxumdan chiqqan polaponlarning (n=89) massasi 12,0-17,5 g (o‘rtacha 14,8) ni tashkil etadi. Inkubatsiya davri o‘rtacha 20-21 kun davom etishi aniqlandi.

Amudaryoning quyi oqimi sharoitida daryo chigirtchisining oziqlanishi olimlar tomonidan yaxshi o‘rganilgan. Oziqaning asosiy qismi mayda baliqlar, suv hasharotlari va ularning lichinkalari va mollyuskalardan iborat. A.M. Mambetjumaev (1971) 22 ta polapon oshqozonini tekshirib, ozuqasining 60% i mayda yosh baliqlar (mo‘ylovdor baliq *Barbus* va zog‘ora baliq *Cyprinus carpio*), 33,3% ni qizil chumolilar, 6,6% ni o‘simlik qoldiqlari tashkil etishini aniqlagan. M.B. Ametov (1981) malumoti bo‘yicha tuxumdan chiqqan polaponlar dastlab mayda baliqlar bilan, keyinchalik esa unlarga qo‘shimcha mollyuskalar, suv hasharotlari va ularning lichinkalari bilan oziqlantirishi aniqlangan.

Daryo chigirtchisining oziqlanishi va oziqa ratsioni yashash joyiga bog‘liq bo‘lib, ba’zan uzoq bo‘lmagan dasht, o‘tloqlarida, ochiq joylarda uchib boradi. Havoda parvoz paytida to‘g‘ridan-to‘g‘ri xasharotlarni tutadi, suv havzalarida esa o‘ljasiga uzoqdan tashlanib shung‘ishi, shuningdek o‘z turiga mansub individlardan o‘ljani kleptoparazitlik yo‘li bilan olib qo‘yishi kuzatildi. Ularning oshqozoni tekshirilganda faqat katta bo‘lmagan mayda baliq chavoqlari (do‘ngpeshona *Hypophthalmichthys*, kumushtovon baliq *Carassius gibelio*, zog‘ora baliq *Cyprinus carpio*), kaltakesaklar va amfibiyalarning qoldiqlari, quruqlik va suvda yashovchi umurtqasizlar, chuvalchanglar, bazan chayon, hasharotlar - ninachi, to‘g‘ri qanotlilar (chigirtkalar), qo‘ng‘izlar, suv qandalalari, buzoqboshi va kapalaklar topildi.

Daryo chigirtchisining tuxum va polaponlarning nobud bo‘lishiga iqlim omillari, jumladan kuchli shamol va yomg‘irlar hamda antropogen omillar shuningdek, yirtqich hayvonlar tomonidan uyalarning buzilishi kabi salbiy ta’sirlar qayd etildi.

Amudaryoning quyi oqimi sharoitida daryo chigirtchisi baliq chavoqlari bilan oziqlanib ma’lum darajada baliqchilikka ziyon keltiradi. Ammo bu tur tadqiqot hududida migratsiya va ko‘payish davrida zararkunanda xasharotlarni qirib, qishloq xo‘jaligiga katta foyda keltiradi. Qushni yashash va uya qurish joylarida muhofaza qilish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Ametov M. Ptisi Karakalpakii i ix oxrana. – Nukus: Karakalpakstan, 1981. – 138 s. [Rus tilida]

2. Kenjegulov K.K. Ekologii golenastix i chaykovix ptis del’ti Amudar’i // Ekologiya vajneyshix mlekopitayushix i ptis Karakalpakii. – Tashkent, 1972. – S. 158-192. [Rus tilida]

3. Mambetjumaev A.M. K gnezdovoy biologii i pitaniyu nekotorix okolovodnix i vodoplavayushix ptis nizov’ev Amudar’i // Vestnik KK FAN UzSSR. – Nukus, 1971. – S. 36-43. [Rus tilida]

4. Mambetjumaev A.M., Abdireymov T., Ametov M. Vesenniy ornitologicheskiy fenokalendar’ v nizov’yax Amudar’i // Vestnik KK FAN UzSSR. – Nukus, 1973. - №1. – S. 24-28. [Rus tilida]

UO‘T 596.599.73.5.

SHIMOLI-G‘ARBIY QIZILQUMDA TARQALGAN JAYRON (GAZELLA SUBGUTTUROSA) POPULYATSIYASINING MONITORINGI

Toremuratov M.Sh.
Qoraqalpog‘iston qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti,
e-mail: m.toremuratov@mail.ru

Annotation. *This article describes the monitoring of goitered gazelles distributed in Northwestern Kyzylkum during 2019-2023. The results of studies of 11 natural lakes, 46 artesian wells and underground wells in the Takhtakupir, Karauzak, Ellikkala, Beruni, and Muynak regions, where the northwestern Kyzylkum desert is located, are presented. During the research, 431 goitered gazelle individuals were registered and their distribution area was determined. Of the registered goitered gazelles, 30.4% were males, 50.6% were females, 12.3% were young animals, and 6.3% were of unknown sex.*

Qizilqum Osiyoning eng katta cho‘llaridan biri bo‘lib, Amudaryo va Sirdaryo oralig‘ida, O‘zbekiston, Qozog‘iston va qisman Turkmaniston hududida joylashgan. Taxminan 300 ming km^2 (30 mln.ga) maydonni o‘z ichiga oladi (Baratov, Mamatqulov, Rafiqov, 2002).

Qoraqalpog‘iston hududidagi Qizilqum sahrosi o‘zining fizik – geografik hususiyatiga asosan Shimoli–g‘arbiy Qizilqum deb nomlanadi va 3,5 mln. ga dan ortiq maydonni egallaydi (Ametov, Saparniyazov, 1995).

Qizilqum cho‘lining hayvonot dunyosida jayron populyatsiyalari alohida o‘ringa ega. Jayronlarning asosiy yashash joyi gilli cho‘llardir. Ular kamdan-kam hollarda qumlarda, taqirlarda va tog‘ etaklarida uchraydilar. Ilgari jayronlar O‘zbekistonda, shu jumladan Qoraqalpog‘istonda katta podalar hosil qilib yashagan (Jumanov, 2017). Turning yashash muhiti cho‘l hududlari hisoblanib, asosan, Ustyurt platosi, Janubiy Orol bo‘yi, Qizilqum, Kimirekqum qumlari, Sandiqli, Yakkachakka, Qarshi dashtlari, Surxondaryo viloyatidagi cho‘l hududlari kiradi. O‘zbekiston tashqarisida: Markaziy Osiyo mamlakatlari, Qozog‘iston, Kavkaz, Eron, Iroq, Suriya, Afg‘oniston, Pokiston, Mo‘g‘uliston mamlakatlarida uchraydi (Qizil kitob, 2019).

Material va metodlar. Tadqiqot ishlari 2019-2023 yilda Shimoli – g‘arbiy Qizilqum cho‘lida va u yerda joylashgan 11 ta tabiiy ko‘l, 46 ta artizan quduq va yerosti kranlar atirofidagi adir va yaylov yerlarda olib borildi. Olib borilgan tadqiqotlar umum qabul qilingan bioekologik metodlar: statsionar, marshrutli va piyoda yurib vizual kuzatib hisobga olish, hayvon izlari, fekaliylarini aniqlash usulari orqali olib borildi. Kuzatish va ularni sonini hisobga olish ishlari “Bushnell” (16x52) durbinidan foydalanildi.

Natijalar va ularning muhokamasi. Jayron har xil sharoitlarda yashaydi, mavsumga qarab migratsiya qiladi. Tadqiqot jarayonida Qizilqum cho‘lining Nukus qumligi (Tabesqum) qismida keng uzun past tekisliklarida joylashgan “Sassiq ko‘l” atrofida 28 bosh jayron uchradi. Shundan, 2020 yilda 7 ta, 2022 yilda 12 ta, 2023 yilda 9 bosh jayronlar uchradi. Nukus qumligi ichkarisida joylashgan Nukus harbiy garnizoni o‘quv poligonining sharqiy-janubidagi Gindikli havzasi (kotlovani) atroflarida 40 bosh jayron ruyxatga olindi. Tadqiqotlar davomida, 2020 yilda 11 bosh, 2022 yilda 12 bosh, 2023 yilda 17 bosh jayron uchradi (jadval, rasm).

Jadval

***Gazella subgutturosa* ning 2019-2023 yy. Shimoli-g‘arbiy Qizilqumda tarqalishi**

Tadqiqot olib borilgan hududlar	Umumiy ro‘yxatga olingan individlar soni	shu jumladan					Tadqiqot olib borilgan yillar
		erkak	urg‘ochi	bolasi	jinsi noaniq	fekaliylari, izlari va so‘qmoqlari	
Nukus qumligi (Tabeskum)	18	5	9	4	-	++	2020 y
	24	9	11	2	2	++	2022 y
	26	8	10	4	4	++	2023 y
Taxtako‘pir tumani	36	9	26	1	-	++	2020 y
	52	14	32	4	2	++	2022 y
	57	19	24	7	7	++	2023 y
Qorao‘zak tumani	11	2	6	3	-	++	2019 y
	4	-	4	-	-	+	2020 y
	7	2	5	-	-	+	2022 y
	28	8	14	2	2	+	2023 y
Ellikqala tumani	38	13	17	8	-	+	2020 y
	42	15	15	6	6	+	2022 y
	48	18	19	9	2	+	2023 y
Beruniy tumani	7	2	5	-	-	+	2020 y
	13	3	9	1	-	+	2023 y
Muynoq tumani	7	1	4	2	-	++	2020 y
	13	3	8	-	2	++	2022 y
Jami	431	131	218	53	27	2019-2023 yy	
	100%	30,4%	50,6%	12,3%	6,3%		


Keyingi tadqiqot marshruti Taxtako‘pir tumanida joylashgan, Qizilqum cho‘lining Akchadaryo, Beltog‘ va Aqpetki qismlari, Aqchadaryo kollektorining (Qitayqazg‘an, L-193,2 km) quyi oqimi bo‘ylab, yer osti quduqlari atiroflarida olib borildi. Tadqiqotlar davomida jami 145 bosh jayron ruyxatga olindi.

Qizilqumning Aqchadaryo, Beltau va Aqpetki qismi va yer osti quduqlari (Baljan, Bayshuvak) atroflarida 2020 yilda jami 36 bosh, 2022 yilda 52 ta, 2023 yilda 57 bosh jayron ro‘yxatga olindi (jadval, rasm).

Bundan tashqari, Qorao‘zak tumani Quralpa QFY atrofida 2019 yilda – 11 ta, 2023 yilda 17 ta, Duztobe yer osti krani atrofida 2020 yilda 4 bosh, 2022 yilda 7 ta, 2023 yilda 13 ta bosh jayron aniqlandi. Umumiy ruyxatga olingan jayronlar soni 52 tani tashkil qildi.

Muynoq tumanida joylashgan Jaltirbas ko‘li atrofida 2019 yilda – 7 ta, 2022 yil 11 bosh jayron uchradi. Tadqiqot davomida 18 bosh jayron ro‘yxatga olindi.

Beruniy tumanida joylashgan Xojabergen ko‘li, Nadir va Turimbet yer osti quduqlari atrofida 2020 yilda 7 ta, 2023 da 13 ta jami 20 tasi ro‘yxatga olindi.



1-rasm. Janubi-g‘arbiy Qizilqumda 2019-2023 yillar davomida jayronning populyatsiyasining jins va yosh nisbati

Tadqiqot ishlarimiz Ellikqala tumani hududida joylashgan ko‘l va yer osti quduqlari (Qalamqosh ko‘li, Kenes, Bekjan, Bekturli artezian quduqlari) atirofida davom ettirildi va 128 bosh jayron uchradi. Jumladan, 2020 yil 38 bosh, 2022 yil 42 bosh, 2023 yil 48 bosh. Bekjan, Bekturli artezian quduqlari atrofida so‘qmoqlari va izlari topildi.

Taqiqot va monitoring ishlari natijasida ko‘p sonda tarqalgan hududlari va podasi bilan suv ichishga keladigan joylari aniqlandi (Qalamqosh ko‘l, Xojabergen ko‘l, Bekjan kran, Bekturli kran, Biyteleo‘ kran, Bulan kran).

Keyingi yillarda o‘tkazilgan tadqiqotlardan ma’lum bo‘ldiki, Janubi-g‘arbiy Qizilqumda bir muncha jayron to‘dalari uchrashi kuzatildi. Undan tashqari jayronlar tarqalgan hududlarning qo‘riqxona tassarufiga o‘tishi natijasida, antropogen tasirlarni kamaytirish evaziga, jayronlar eski suv ichadigan joylari va yaylovlariga qaytayotganini kuzatish mumkin. Ayniqsa, Taxtako‘pir va Ellikqala tumanlarining hududlarida, yani cho‘l ichkarisidagi yer osti quduqlari atirofida kichik to‘dalarini tez – tez uchratish mumkin.

Monitoring ishlari natijasida jayron populyatsiyasining jinsi va yosh tarkibini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, populyatsiyadagi erkak va urg‘ochi nisbati mos ravishda 2019-2020 yillarda 18,2% : 54,5% va 27,3:59,1% ga teng bo‘ldi. Ya’ni, urg‘ochilari erkaklariga nisbatan 2-3 barobar ko‘p bo‘lgan. 2022 – 2023 yilgi tadqiqotlarda erkak va urg‘ochilarning nibatlari 31,6% : 51,4% va 33% : 44,7% ga teng bo‘lishi ko‘zatildi va urg‘ochilari erkaklariga nisbati 1,5 barobarga kamaygan.

Xulosalar. Jayronlar Qizilqum ichkarisida tabiiy ko‘llar, ko‘lmak suvlari va chorva mollarini sug‘orish uchun qurilgan yer osti suv kranlari hisobidan suv ichish uchun bu joylarga 2-5 kun oralig‘ida kelib turishi kuzatilmoqda. Shu bois jayronlarni yilning muayyan muddatlarida, asosan ko‘payish va bolalarini o‘stirish davrlarida qattiq muhofaza qilish choralari ko‘rishni taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Ametov M.B., Saparniyazov J.S. Pustini Karakalpakstana. Nukus: “Bilim”, 1995. – S. 45-48. [Rus tilida]
2. Baratov P., Mamatqulov M., Rafiqov A. O‘rta Osiyo tabiiy geografiyasi. – Toshkent, 2002. – 440 s.
3. Jumanov M.A. Pozvonochnыe jivotnie Yujnogo Priaral’ya v usloviyax antropogennoy transformatsii sredi ix obitaniya: avtoref. dis… dokt. biol. nauk. – Tashkent, 2017.- 52 s. [Rus tilida]
4. O‘zbekiston Respublikasi Qizil kitobi. Hayvonlar. J. 2. – Toshkent, 2019. – S. 340-353.

UO‘T 598.2:502.743

FARG‘ONA VODIYSIDA TARQALGAN NOYOB QUSH TURLARI HAQIDA YANGI MA’LUMOTLAR

Umarov S.S.

O‘zR FA Zoologiya instituti, e-mail: Sanjarbek5671@gmail.com

Annotation. *The article provides information about new sightings of rare bird species in Namangan and Fergana regions of Fergana Valley, listed in the "Red Book" of the Republic of Uzbekistan. During the period of ornithological observations in 2023, we registration 10 species belonging to 6 families of 3 orders. Among them is a meeting of one of the rarest inhabitants of the Fergana Valley, the white-tailed eagle Haliaeetus albicilla.*

Farg‘ona vodiysi respublikaning sharqiy qismida joylashgan. Shimoldan Tyan-Shan, janubdan Hisor-Oloy, shimoli-g‘arbdan Qurama va Chotqol, shimoli-sharqdan Farg‘ona tizmalari bilan o‘ralgan tekislikdan iborat. Vodiyning faqat g‘arbida ochiq 7-9 km kenglikdagi “Farg‘ona darvozasi” deb atalgan joy orqali Mirzacho‘l hududi bilan tutashgan. Farg‘ona vodiysining yer usti relefi 4 qismga bo‘linadi. 1.Tog‘lik. 2. Tog‘oldi va tog‘ yonbag‘irlari. 3. Adirlar. 4. Tekislik qismi. Bu landshaftlarning o‘ziga xos hayvonot dunyosi mavjud (Yusupov, 2006).

Material va metodlar. Bizning tadqiqot ishlarimiz 2023 yil Farg‘ona vodiysining Namangan va Farg‘ona viloyatlarida uchrovchi noyob qush turlarining xilma-xilligini o‘rganish maqsadida dala tadqiqotlari amalga oshirildi.

Tadqiqotlarda qushlarni kuzatish va hisobga olishda nuqtali va marshrut usullaridan foydalanildi (Novikov, 1949). Turlarni aniqlash va suratga olishda Nikon P1000 fotoapparatidan va dala qo‘llanmalaridan foydalanildi (Raffael va boshq., 2012).

Natijalar va ularning muhokamasi. Ornitologik kuzatuvlarimiz davrida quyidagi turlar uchrashi aniqlandi.

Kichik qorovoy *(Phalacrocorax pygmaeus)* – O‘zbekstonda uchib o‘tuvchi, uyalovchi va qishlovchi tur. R.N. Meklenbursev (1987), M.G. Mitropolskiy (2008) ishlarida, “Farg‘ona vodiysining umurtqali hayvonlari” (1974) nomli monografiyada Farg‘ona vodiysida uchrashiga doir ma’lumotlar mavjud emas.

2016 yil 10 yanvarda “O‘zbekiston qushlarini muhofaza qilish jamiyati” a’zolari tomonidan suvda suzuvchi qushlarni qishki ro‘yxatga olish vaqtida Namangan viloyatidagi Rezaksoy suv omborida ro‘yxatga olingan (www.uzspb.uz). 2021 yil 28-fevral kuni Farg‘ona viloyatining Beshariq tumanidagi Sariqamish ko‘lida M. Gritsiyna tomonidan ham qayd etilgan (www.uzbekistan.birds.watch). 2023 yilning 20-mart kuni dala tadqiqotlarimizda ham Sariqamish ko‘lida 5 qush uchratildi. Bahor mavsumi davomida biz ularni baliq yetishtirish hovuzlarning bo‘ylarida yakka holatda, ba’zan 2-5 ta gacha kuzatdik.

Oq laylak *(Ciconia ciconia)* – Bugungi kunga kelib tur Farg‘ona vodiysi bo‘ylab keng tarqala boshladi. Kuzatishlarimiz davomida laylakning tarqalish maydoni ortganini ko‘rishimiz mumkin. Farg‘ona viloyatining Markaziy Farg‘ona suv ombori va uning atroflarida 2023 yil 8 -fevralda 1 ta, 27-may 150 ta, 26-iyun 34 ta, 29-iyulda 197 ta, 29-avgustda 25 ta, 2-sentabrda 35 qush, Oltiariq tumanidagi Qo‘rg‘ontepa suv ombori hududida 2 ta , 24-aprelda 2 ta, 24-may kuni 14 ta qushning Quva tumanida joylashgan Karkidon suv omborida uchratildi, 31-iyulda Beshariq tumanidagi baliqchilik hovuzlari va Qayroqqum qum tepaliklarida 220 qush, 31-avgustda Sariqamish ko‘lining janubiy qismi daryoning chap qirg‘og‘ida 12 ta qush ro‘yxatga olindi.

2023 yil 11-fevral kuni Namangan viloyatining Rezaksoy suv omborida 2 ta, 22-mart, 22-aprel va 30-iyunda 2 ta dan, 30-avgustda 5 qush, 22-mart kuni Namangan viloyatining Chust tumanidagi Varzik suv omborida 4 ta, 30-avgustda 18 ta, 28-aprelda Ko‘ksarek suv omborida 12 ta, 30-iyulda 9 ta, 30-avgustda 14 qush hisobga olindi.

Qora laylak *(Ciconia nigra)* – O‘zbekstonda uchib o‘tuvchi, uyalovchi va kam sonda qishlovchi tur. 2016 yil 7-aprel kuni Namangan, Andijon va Farg‘ona viloyatlarining chegarasidagi baliq xo‘jaliklarida V.E. Yusupov (2016) tomonidan 1 qush ro‘yxatga olingan. Zoologiya instituti hodimlari tamonidan olib borilgan dala kuzatuv ishlarida Farg‘ona viloyatidagi noyob hayvon turlari ro‘yxatida berib o‘tilgan (Bikova va boshq., 2022).

Bizning kuzatishlarimizda 2023 yil 7-fevralda Namangan viloyatining Rezaksoy suv omborida 2 ta, 30-iyulda 1 ta va 30-iyul kuni Pop tumanidagi Jiydalisoy suv omborining qirg‘oq bo‘ylarida 8 ta, 30-avgustda 3 ta, 27-may kuni Farg‘ona viloyatining Markaziy Farg‘ona suv omborida 2 yosh laylak oq laylaklar bilan birga ko‘rildi.

Qorovoy *(Plegadis falcinellus)* – O‘zbekistonda uchib o‘tuvchi va uyalovchi tur hisoblandi. R.N. Meklenbursev (1987), M.G. Mitropolskiy (2008) ishlarida, “Farg‘ona vodiysining umurtqali hayvonlari” (1974) nomli monografiyada Farg‘ona vodiysida uchrashiga doir ma’lumotlar keltirilmagan.

2023 yil 1-iyuldagi tadqiqotlarimizda Farg‘ona viloyatining Markaziy Farg‘ona suv omborida 1 qushni oq laylak va kulrang qarqaralar bilan birgalikda oziqlanib yurganida uchratdik.

Dasht miqqiysi *(Falco naumanni)* – O‘zbekistonda odatiy, uyalovchi, uchib o‘tuvchi qush. Turning Farg‘ona vodiysida uchrashi haqida ma’lumotlar mavjud (Mitropolskiy va boshq., 1987) 2023 yil 28-aprel kuni Namangan viloyatining Chust tumanidagi Ko‘ksareksoy suv omboridagi qoyalar atrofida 2 qushni oziqlanayotgan vaqtda uchratdik.

Oq dumli suv burgut *(Haliaeetus albicilla)* – O‘zbekistonda uchib o‘tuvchi, uyalovchi, juda kam sonda qishlovchi tur hisoblanadi. Farg‘ona vodiysidan tashqari respublikaning boshqa hududlarida qishlashiga oid materiallar yetarlicha mavjud. Keyinchalik Farg‘ona vodiysida olib borilgan dala tadqiqotlarida bu hududda ham uchrashi qayd etildi. Ornitologik kuzatishlarimiz natijasida 2023 yil 11-fevralda Namangan viloyatining Chust tumanidagi Rezaksoy suv omborida voyaga yetgan 1 qushni uchratdik. Ilmiy manbalarda bu turning yoz mavsumida ham uchratilganligi haqida ma’lumotlar keltirilgan (Mitropolskiy va boshq., 1987). Shu yilning 29-iyulida Farg‘ona viloyatining Markaziy suv omborida voyaga yetgan va tullayotgan 1 qushni qarqarlar bilan birgalikda uchratdik. Bu qush Farg‘ona vodiysida biz tomonimizdan yoz faslida uchratildi.

Tasqara *(Aegypius monachus)* – O‘zbekistonda o‘troq tur hisoblanadi. Asosan yashash joylari tog‘li hududlar bo‘lib, tekisliklarda uyalash davrdan boshqa vaqtlarda uchratish

mumkin. Farg‘ona vodiysining shimoli, shimoli – g‘arb va janubiy qismlarida bu turni uyalash vaqtdan tashqari uchrashi haqida ma’lumotlar mavjud (Lanavenko, Azimov., 2019). 2016 yil 17-aprel kuni Namangan viloyatining Chust tumanidagi adirlarda V.E. Yusupov (2016) tomonidan 1 qush, Zoologiya instituti xodimlari tamonidan olib borilgan tadqiqotlarda ham Farg‘ona viloyatidagi noyob hayvon turlar ro‘yxatida ham berib o‘tilgan (Bikova va boshq., 2022).

Bizning datqiqotlarda 2023 yil 28-aprelda Namangan viloyatining Pop tumanidagi Qurama tog‘ tizmalarida 2 qush parvoz vaqtida uchratildi.

Katta vereternik *(Limosa limosa)* – O‘zbekistonda bahorgi va kuzgi migratsiya vaqtida uchraydigan noyob tur. Uchib o‘tishda davrida tekisliklarda kuzatiladi. R.N. Meklenbursev (1990), M.G. Mitropolskiy (2008), “Farg‘ona vodiysining umurtqali hayvonlari” (1974) kabi manbalar va Birds. uz ma’lumotlarida turning Farg‘ona vodiysida uchrashiga doir ma’lumotlar mavjud emas.

2023 yil 26-aprel bahorgi migratsiya vaqtida Farg‘ona viloyatining Markaziy Farg‘ona suv ombori hududida 4 yirik qushni bir nechta loyxo‘raklar bilan birga oziqlanayotgan vaqtda uchratildi.

Katta uzunburun balchiqchi *(Numenius arquata)* – O‘zbekistonda faqat migratsiya vaqtida uchratish mumkin. Uchib o‘tishda asosan pastlik va tog‘oldi hududlarida qayd etiladi (Mitropolskiy va boshqalar., 1987). O‘zbekistonda turning 2 ta kenja turi *Numenius a.arquata* va *Numenius a.orintalis* mavjud (1-a/b rasm). *Numenius a.orintalis* faqat sharqiy O‘zbekistonda uchraydi (Мекленбурцев, 1990). Lekin, bu kenja turning Farg‘ona vodiysida uchrashiga doir ma’lumotlar mavjud emas. Biz dala tadqiqotlarimiz davrida turning Farg‘ona vodiysida uchrashini qayd etdik. Ko‘rinishidan *Numenius arquata* ga o‘xshaydi, lekin qanotlarining ostki par qoplamalari sof och oq rangda bo‘lishi bilan farq qiladi (Ryabitsev va boshq., 2019). 2023 yil 29-avgust kuni Farg‘ona viloyatining Markaziy Farg‘ona suv omborida 28 qushning hudud atrofida aylanib va janub tamon uchib ketayotgan vaqtida uchratildi. Kenja turning Respublika sharqiy qismi orqali migratsiya qilishi tasdiqlandi.

Shu yilning 2-sentabrida hududga qayta tashrif buyurilganda *Numenius arquata* ning o‘rdak, loyxo‘rak va oq laylaklar bilan birga oziqlanayotgan 2 qush uchratildi.



a b v

1-rasm. a). *Numenius a.orintalis* b). *Numenius arquata*

Qoraboshli baliqchi *(Larus ichthyaetus)* – O‘zbekistonda uchib o‘tuvchi, uyalovchi va qishlovchi tur hisoblanadi. Bu turning Farg‘ona vodiysi hududida uchrashiga oid materiallar mavjud. Namangan, Andijon va Farg‘ona viloyatlarida turning bird.uz saytiga yuklangan suratlari mavjud. 2016 yil 3-yanvar kuni viloyatlar chegarasidagi baliq xo‘jaliklarida 1 qush (Yusupov, 2016), 2021-yil 26-fevral kuni Rezaksoy suv omborida, 2023 yil 8-fevralda Andijon viloyatidagi va 2021 yil 27-fevral Farg‘ona va Andijon viloyati chegarasidagi baliqchilik xo‘jaliklarida, 2022 yil 7-fevralda Ulug‘nor tumanidagi Andijon baliqchilik markazlari hududida uchrashi haqida ma’lumotlar mavjud (birds.uz).

Bizning tadqiqotlarimiz davrida 2023 yil 6-fevral kuni Farg‘ona viloyatining Beshariq tumanidagi Sariqamish ko‘lida 8 qushning muz ustida, 8-fevralda Markaziy Farg‘ona suv omborida 16 ta, 25-martda 19 ta, 7-fevralida Namangan viloyatidagi Rezaksoy suv omborida 23 ta, 11-fevralda 10 ta, 22-martda 1 ta qush qayd etildi.

1-jadval

Farg‘ona vodiysida uchratilgan noyob qush turlari ro‘yxatining xavf darajasi bo‘yicha holati (2023 y.)

№	Turlar	O‘zR Qizil kitobi (2019)	Xalqaro qizil ro‘yxat	SITES	SMS
1.	Kichik qorovoy *Phalacrocorax pygmaeus*	3(NT)			II
2.	Oq laylak *Ciconia ciconia*	3(NT)			II
3.	Qora laylak *Ciconia nigra*	2(VU:R)		II	II
4.	Qorovoy *Plegadis falcinellus*	2(VU:D)			II
5.	Oq dumli suv burgut *Haliaeetus albicilla*	2(VU:D)		I	I
6.	Tasqara *Aegypius monachus*	3(NT)	NT	II	II
7.	Katta vereternik *Limosa limosa*	2(VU:D)	NT		II
8.	Katta uzunburun balchiqchi *Numenius arquata*	2(VU:D)	NT		II
9.	Qoraboshli baliqchi *Larus ichthyaetus*	2(VU:D)			II
10.	Dasht miqqiysi *Falco naumanni*	3(NT)		II	I

Xulosalar. 2023 yilgi dala tadqiqotlarimiz davrida Farg‘ona vodiysi hududida noyob qushlarning 3 turkum, 6 oilaga mansub 10 turi qayd etildi. Manbalarda Farg‘ona vodiysi hududida uchrashi munozarali bo‘lgan *Haliaeetus albicilla* ning uchrashi tasdiqlandi. Ro‘yxatga olingan turlarning asosiy uchrash manzili sifatida Farg‘ona viloyatining Markaziy Farg‘ona suv ombori noyob turlarning migratsiya, oziqlanishi, dam olishi va qishlashida muhim o‘rin tutishi qayd etildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Bikova Ye.A., Abduraupov T.V., Grisina M.A., Yesipov A.V., Dexkonov Sh.I. Sovremennoe costoyanie redkix i naxodyashixsya pod ugrozoy ischeznoveniya vidov Pozvonochnix jivotnix Ferganskoy oblasti Uzbekistana. // X Mejdunarodnoy nauchno-prakticheskoy konferensii «Aktual’nie problemi matematiki i yestestvennix nauk», posvyashennoy 75-letiyu dosenta R.A. Akberdina. Petropavlovsk-Barnaul-Surgut-Novosibirsk. 2022. – C. 257-263. [Rus tilida]

2. Mitropolskiy M.G., Tugay Mirzaaral: Vajneyshie ornitologicheskie territorii Uzbekistana / Red. R.D. Kashkarov, D.R. Uelsh, M. Brombaxer pri uchastii Ye.N. Lanovenko. – Tashkent: Obshestva oxrani ptis Uzbekistana, 2008. – S. 127-128. [Rus tilida]

3. Ptitsi Uzbekistana. Tom 1. Tashkent: Fan UzSSR, 1987. 291 s [Rus tilida]

4. Ptitsi Uzbekistana. Tom 2. Tashkent: Fan UzSSR, 1990. 290 s [Rus tilida]

5. Novikov G.A. Polevie issledovaniya ekologii nazemnix pozvonochnix jivotnix. – M. Izd-vo Sovetskaya nauka, 1949. – 346 s. [Rus tilida]

6. Ryabisev V.K., Abdulnazarov A.G., Belyalov O.V., Berezovikov N.N., Kovshar A.F., Kovshar V.A., Kulagin S.V., Mitropol'skiy O.V., Rustamov E.A. Ptisi Sredney Azii: v 2

t. / [pod P874 obsh. red. V.K. Ryabiseva]. – Moskva-Ekaterinburg: Kabinetniy ucheniy, 2019. T. 2. – C. 132-133. [Rus tilida].

7. Umarov S.S., Kashkarov R.D., Abduraupov T.V., Gritsina M.A. Vstrechi orlana beloxvosta Haliaeetus albicilla v Ferganskoy doline (Uzbekistan). // Russkiy ornitologicheskiy jurnal. Sankt-Peterburg. 2023. №: 32(2350), - S. 4439-4441.[Rus tilida]

8. Lanovenko E.N., Azimov N.N. O‘zbekiston Respublikasi Qizil kitobi. 2 jild. Toshkent. “Tasvir” nashriyoti., 2019 yil. - b. 226-227.

9. Yusupov M. Farg‘ona viloyati (Respublikada tutgan mavqei, tabiati, aholisi va mehnat resurslari, iqtisodiyoti, istiqbolli va tashqi iqtisodiy aloqalari). Farg‘ona. 2006. – 175 b.

10. Pozvonochnie jivotnie Ferganskoy dolini. Tashkent: Fan UzSSR, 1974. - 217 s. [Rus tilida]

11. Yusupov V.E. Nekotoriy vstrechi redkix vidov ptis v Ferganskoy doline // O‘zbekistonda noyob, yo’qolib borayotgan va kam o‘rganilgan hayvonlarni saqlashning zamonaviy muammolari va ularning muhofazasi. Toshkent. 2016. – b. 169-170. [Rus tilida]

12. www.birds.uz [2023 yil 25 avgustda murojaat qilingan].

UO‘T 598.28/.29 (575.1)

UYALOVCHI CHUMCHUQSIMONLARNING DALVARZIN CHO‘LIDA MAVSUMIY TAQSIMLANISHI

G‘aniyev B.N.

O‘zR FA Zoologiya instituti, e-mail: bunyodganiyev91@mail.ru

Annotation: *The article provides information on the distribution and abundance of nesting passerine (Passeriformes) bird species recorded on the territory of the Dalverzin sands (Tashkent region) during the period 2021-2022. The obtained data are new for the past century. A total of 44 species were counted, of which 23 were nesting.*

Kirish. Dalvarzin cho‘li joylashishiga ko‘ra Toshkent viloyatining janubi-g‘arbiy qismida ya’ni, Bekobod tumani hududida joylashgan (E 40,477276; N 69,199727). Dengiz sathiga nisbatan balandligiga ko‘ra viloyatining eng past (280 metr) hududi hisoblanadi. Viloyatning boshqa tog‘ oldi hududlari singari Dalvarzin cho‘li ham intensiv ravishda qishloq xo‘jaligi yerlari sifatida o‘zlashtirilgan bo‘lib, hozirgi kunda cho‘lning 1000 gektarga yaqin qismi izolyatsiyalangan tabiiy hudud sifatida saqlanib qolgan. Cho‘l maydonining shimoli-g‘arbiy yarmi barxanli qumlar va botiq yerlarida sizot suvlarining ko‘tarilishidan hosil bo‘lgan botqoq va qamishzorlarni hosil qilgan bo‘lib, aholi tomonidan chorva mollarini boqishda yaylov sifatida intensiv foydalaniladi. Shimoli-sharqiy yarmi Mo‘yinqum o‘rmon xo‘jaligi yeri sifatida muhofaza qilinib, hududida qamishli botqoqliklar, ularning atrofida yuzaga kelgan turang‘il va yulg‘undan iborat to‘qaylar hamda qisman ekilgan manzarali daraxtlardan tashkil topgan o‘rmonni hosil qiladi. Maydoni kichik hududda turli biotoplarning mavjuligi, unda har-xil ekologik guruhlarga xos bo‘lgan qushlarning uchrashiga imkon yaratgan. Mavjud manbalarda Dalvarzin cho‘li ornitofaunasini o‘rganishga doir ma’lumotlar juda kam. Lekin unga chegaradosh Sirdaryo daryosi terassasida joylashgan, Dalvarzin ovchilik xo‘jaligida suv va suv oldi qushlari (Mitropolskiy, 2008), to‘qay-o‘rmonga xos turlarni (Kazbekov, 2017) o‘rganishga doir tadqiqotlar mavjud. Dalvarzin cho‘lida ornitologik tadqiqot olib borishimizdan maqsad: viloyat hududida uyalovchi tur sifatida ta’riflangan Chumchuqsimonlar turkumi vakillarining xilma-xilligi, ularning yil fasllari kesimida uchrashi, soni va taqsimlanishiga doir zamonaviy malumotlarga ega bo‘lishdan iborat.

Material va metodlar. Dalvarzin cho‘lida uyalovchi Chumchuqsimonlarning mavsumiy taqsimlanishi va sonini o‘rganish maqsadida 2021-2022 yillarning barcha

mavsumlarida ornitologik dala tadqiqotlari amalga oshirildi. Tadqiqotlarda asosan, marshrutli sanoq metodidan (Novikov, 1949) foydalanildi. Turli fasllarda jami 34 marotaba sanoq amalga oshirildi, marshrutlarning umumiy masofasi 159 kilometrni tashkil qildi. Tadqiqotlar davrida uchratilgan qushlar sonini mavsumlar kesimida solishtirish uchun, har bir mavsumdagi sanoq natijalari o'rtacha 10 km masofaga hisoblab olindi.

Dala tadqiqotlari jarayonida qushlarni kuzatish vositasi sifatida durbin (Viking 10x50), tasvirga tushirishda Canon fotoapparati, (obe'ktiv 400 mm) marshrutlarning yo'nalishini belgilash, masofasini hisoblash va koordinatalarni aniqlashda Locus Pro android ilovasidan foydalanildi.

Tadqiqot hududida uyalovchi Chumchuqsimonlarning soni jihatdan turlar orasidagi ustunlikni aniqlash maqsadida A.M. Chelsov-Bebutov (1954) taklif etgan shkaladan foydalanildi. Unga ko'ra ulushi 10 % dan ortiq turlar dominant, 1-10 % sodominant, 0.1-1 % ikkinchi darajali va 0.1 % dan kam bo'lsa uchinchi darajali turlarga ajratildi.

Natija va muhokamalar. Dala tadqiqotlarimiz natijasiga ko'ra Toshkent viloyati hududida uyalovchi hisoblangan Chumchuqsimonlar turkumiga mansub 44 turning Dalvarzin cho'lida uchrashi va yil fasllari kesimida taqsimlanishi o'rganildi. Unga ko'ra bahor mavsumida 39 tur, yozda 29, kuzda 32 va qishda 22 tur qayd etildi (jadval).

Jadval

Uyalovchi Chumchuqsimonlarning Dalvarzin cho'lida mavsumiy taqsimlanishi

Turlar	Bahor		Yoz		Kuz		Qish	
	Soni	%	Soni	%	Soni	%	Soni	%
Melanocorypha bimaculata							4,1	1,09
Calandrella brachydactyla							11,8	3,13
Galerida cristata	3,92	0,74	1,8	0,51	2,4	1,04	4,3	1,14
Alauda arvensis	1,16	0,22					2,56	0,68
Riparia diluta	6,98	1,32	22,5	6,42	15,8	6,87		
Hirundo rustica	10,81	2,04	27,5	7,85	14,9	6,48		
Cecropis daurica	1,86	0,35	3,44	0,98	1,86	0,81		
Anthus trivialis	7,67	1,45	0,94	0,27	3,25	1,41		
Anthus spinoletta	1,51	0,29			1,86	0,81	2,56	0,68
Motacilla citreola	6,39	1,21	15,62	4,46	2,32	1,01		
Motacilla cinerea	2,44	0,46					1,54	0,41
Motacilla personata	2,8	0,53	3,4	0,97	1,86	0,81	3,59	0,95
Troglodytes troglodytes	0,1	0,02					1,02	0,27
Turdus merula	1,16	0,22	2,19	0,62	1,86	0,81	2,56	0,68
Saxicola maurus	6,74	1,27	2,5	0,71	7,44	3,24		
Oenanthe pleschanka	1,28	0,24	1,25	0,36	1,86	0,81		
Oenanthe isabellina	0,13	0,02						
Muscicapa striata	0,69	0,13	1,25	0,36				
Cettia cetti	0,23	0,04					1,54	0,41
Acrocephalus stentoreus	5,2	0,98	7,5	2,14	3,72	1,62		
Acrocephalus scirpaceus	1,15	0,22	3,75	1,07	1,39	0,60		
Iduna rama	13,25	2,50	11,87	3,39				
Iduna pallida	0,35	0,07						
Sylvia communis	0,7	0,13			2,32	1,01		
Sylvia curruca	2,44	0,46	1,87	0,53	3,72	1,62		
Remiz coronatus	3,74	0,71					3,1	0,82
Parus flavipectus	1,04	0,20	1,87	0,53	2,32	1,01	2,06	0,55
Parus bokharensis	2,67	0,50	2,82	0,80	2,3	1,00	2,05	0,54
Lanius phoenicuroides	0,81	0,15	1,25	0,36	1,39	0,60		
Lanius minor			0,62	0,18	0,46	0,20		

Pica pica	3,84	0,73	5,0	1,43	4,65	2,02	7,7	2,04
Corvus monedula	18,6	3,51	22,81	6,51	16,74	7,28	25,13	6,66
Corvus frugilegus	46,5	8,79			28,8	12,53	62,56	16,57
Corvus orientalis	4,88	0,92	3,12	0,89	6,5	2,83	6,15	1,63
Acridotheres tristis	12,32	2,33	5,0	1,43	4,37	1,90	6,2	1,64
Sturnus roseus	203,2	38,40	14,7	4,19	21,72	9,45		
Sturnus vulgaris	4,65	0,88	2,5	0,71	21,4	9,31	32,3	8,56
Passer indicus	73,6	13,91	92,5	26,39	15,5	6,74		
Passer hispaniolensis	62,56	11,82	77,5	22,11	10,23	4,45		
Passer montanus	8,72	1,65	12,2	3,48	8,37	3,64	6,15	1,63
Acanthis cannabina					8,84	3,84	187	49,54
Carpodacus erythrinus	1,39	0,26			6,51	2,83		
Emberiza cia							1,54	0,41
Emberiza bruniceps	2,1	0,40	1,25	0,36	3,25	1,41		

O‘rganilgan turlar orasida tadqiqot hududidagi tabiiy biotoplarda uyalovchi 16 tur (*C. brachydactyla, G. cristata, T. merula, A. stentoreus, A. scirpaceus, I. rama, I. pallida, R. coronatus, P. flavipectus, P. bokharensis, P. pica, C. frugilegus, C. orientalis, P. indicus, P. hispaniolensis, E. bruniceps*), hududga yondosh kanallar, karyerlar devorida yoki inson tomonidan yaratilgan turli konstruksiyalar va qurilish inshootlarida uyalovchi 7 tur (*R. diluta, H. rustica, M. personata, C. monedula, A. tristis, S. vulgaris, P. montanus*), viloyatning tog‘ va tog‘oldi adirlarida uyalovchi Dalvarzin cho‘lida faqat mavsumiy migratsiya yoki vertikal migratsiya davrida uchrovchi qushlar 21 turni (*M. bimaculata, A. arvensis, C. daurica, A. trivialis, A. spinoletta, M. citreola, M. cinerea, T. troglodytes, S. maurus, O. pleschanka, O. isabellina, M. striata, C. cetti, S. communis, S. curruca, L. phoenicuroides, L. minor, S. roseus, A. cannabina, C. erythrinus, E. cia*) tashkil qildi.

Bahor mavsumida turlar xilma-xilligi boshqa fasllarga nisbatan yuqori bo‘lib 39 turni tashkil qildi. Buning sababi sifatida hudud uchun o‘troq turlar bilan bir qatorda, uchib o‘tuvchi-uyalovchi hamda viloyatning tog‘ va tog‘oldi adirlarida uyalovchi va vertikal migrant turlarning uchib o‘tishda qayd etilishi bilan izohlanadi. O‘rganilgan turlar orasida qayd etilgan soniga ko‘ra 3 tur dominant (*S. roseus, P. indicus, P. hispaniolensis*), 10 tur sodominant (*R. diluta, H. rustica, A. trivialis, M. citreola, S. maurus, I. rama, C. monedula, C. frugilegus, A. tristis, P. montanus*), 22 tur ikkinchi darajali (*G. cristata, A. arvensis, C. daurica, A. spinoletta, M. cinerea, M. personata, T. merula, O. pleschanka, M. striata, A. stentoreus, A. scirpaceus, S. communis, S. curruca, R. coronatus, P. flavipectus, P. bokharensis, L. phoenicuroides, P. pica, C. orientalis, S. vulgaris, C. erythrinus, E. bruniceps*) va 4 tur uchinchi darajali (*T. troglodytes, O. isabellina, C. cetti, I. pallida*) ekanligi aniqlandi.

Yoz mavsumida uyalovchi turlardan 29 turi qayd etilib, ulardan 2 tur dominant (*P. indicus, P. hispaniolensis*), 11 tur sodominant (*R. diluta, H. rustica, M. citreola, A. stentoreus, A. scirpaceus, I. rama, P. pica, C. monedula, A. tristis, S. roseus, P. montanus*) va 16 tur ikkinchi darajali (*G. cristata, C. daurica, A. trivialis, M. personata, T. merula, S. maurus, O. pleschanka, M. striata, S. curruca, P. flavipectus, P. bokharensis, L. phoenicuroides, L. minor, C. orientalis, S. vulgaris, E. bruniceps*) ekanligi aniqlandi.

Kuz faslida ham uchib o‘tuvchi-uyalovchi turlarning uchrashi bilan jami 32 tur qayd etildi. Ulardan bir turning dominant (*C. frugilegus*), 23 turning sodominant (*G. cristata, R. diluta, H. rustica, A. trivialis, M. citreola, S. maurus, A. stentoreus, S. communis, S. curruca, P. flavipectus, P. bokharensis, P. pica, C. monedula, C. orientalis, A. tristis, S. roseus, S. vulgaris, P. indicus, P. hispaniolensis, P. montanus, A. cannabina, C. erythrinus, E. bruniceps*), 8 turning ikkinchi darajali (*C. daurica, A. spinoletta, M. personata, T. merula, O. pleschanka, A. scirpaceus, L. phoenicuroides, L. minor*) ekanligi aniqlandi.

Qish mavsumida jami 22 tur qayd etilib, ulardan faqat 12 tur o‘troq yashovchi qolgan turlar esa kam sonda qishlovchi yoki yuqori mintaqalardan qishlash uchun mavsumiy ko‘chuvchi turlar hisoblanadi. Shuningdek bu qushlardan 2 tur dominant (*C. frugilegus, A.*

cannabina), 9 tur sodominant (*M. bimaculata, C. brachydactyla, G. cristata, P. pica, C. monedula, C. orientalis, A. tristis, S. vulgaris, P. montanus*), 11 tur ikkinchi darajali (*A. arvensis, A. spinoletta, M. cinerea, M. personata, T. troglodytes, T. merula, C. cetti, R. coronatus, P. flavipectus, P. bokharensis, E. cia*) ekanligi aniqlandi.

Xulosa qilib aytganda Toshkent viloyati hududida uyalovchi hisoblangan Chumchuqsimonlar turkumi vakillaridan Dalvarzin cho‘lida 44 tur uchrab, ulardan 23 turi tabiiy biotoplar va unga yondosh hududlarda uyalashi, viloyatning tog‘ va tog‘oldi adirlarida uyalovchi 21 tur tadqiqot hududida faqat mavsumiy migratsiya yoki vertikal migratsiya davrida uchrashi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Kazbekov M.J. Biomniye vidi ptits na IBA «Dalverzinskoye gosudarstvennoye lesooxotniche xozyaystvo» // Voprosi oxrana ptits Uzbekistana. – Tashkent, 2017. – S. 163-167. [Rus tilida]

2. Mitropolskiy M.G. Dalverzinskoye gosudarstvennoye leso-oxotniche xozyaystvo // Vajneyshiye ornitologicheskiye territorii Uzbekistana / Red. R.D. Kashkarov, D.R. Uelsh, M. Brombaxer pri uchastii Ye.N. Lanovenko. – Tashkent, 2008. – S. 130-132. [Rus tilida]

3. Novikov G.A. Poleviye issledovaniya ekologii nazemnix pozvonochnix jivotnix. – M.: Izd-vo Sovetskaya nauka, 1949. – 346 s. [Rus tilida]

4. Chelsov-Bebutov A.M. Opit kolichestvennoy otsenki ptichego naseleniya otkritix landshaftov // Ornitologiya. – Moskva, 1959. – S. 16-28. [Rus tilida]

УДК 591.522

ИСТОРИЯ ИЗУЧЕНИЯ И ОБЗОР СОВРЕМЕННОГО СОСТОЯНИЯ ФАУНЫ ПРЕСМЫКАЮЩИХСЯ НА ТЕРРИТОРИИ ПЕСЧАНОГО МАССИВА КАТТАКУМ (СУРХАНДАРЬИНСКАЯ ОБЛАСТЬ)

Абдураупов Т.В.
Институт зоологии АН РУз, e-mail: timur.abduraupov@gmail.com

Annotation. *This article describes the history of reptile studies in the south of Surkhandarya province, as well as the unique richness of reptile diversity of the Kattakum sand massif. The list of reptiles inhabiting this area with indication of threat statuses in the national Red Book and IUCN Red List, as well as endemism is compiled.*

История изучения земноводных и пресмыкающихся, населяющих территорию юга Сурхандарьинской области, как и других позвоночных в Средней Азии, началась с путешествия Э.А. Эверсманна и К. Пандера из Оренбурга в Бухару (октябрь 1820 г. - апрель 1821 г.). Немногочисленные и случайные сборы Э.А. Эверсманна, переданные в Берлинский университет, были обработаны проф. Г. Лихтенштейном и в 1823 г. опубликованы в виде приложения к работе Э.А. Эверсманна (Богданов, 1960).

А.Э. Регель в 1881 г. проехал от Термеза через Шерабад в Гузар, а в 1882-1883 гг. побывал в Самарканде, собрав некоторые коллекции позвоночных, которые были использованы А.М. Никольским (Богданов, 1960).

Н.А. Зарудный и С. И. Билькевич с препараторами С.А. Александровым и М.А. Гаркаем 14 мая 1910 г. совершили поездку по различным частям нынешней территории Сурхандарьинской области, в том числе по южной ее части. Материалы, собранные во время этого путешествия, были обработаны А.М. Никольским в работе 1911 года (Богданов, 1960).

С.М. Алексеев в мае 1911 г. в Кашкадарьинской и Сурхандарьинской областях собрал небольшое количество пресмыкающихся. Они были переданы в Музей природы в Ташкенте. В своей статье С.М. Алексеев 1911 года, упоминает только варана, кобру и среднеазиатскую черепаху (Богданов, 1960).

С.Ф. Царевский, в публикации 1914 года, упомянул несколько экземпляров пресмыкающихся, пойманных в Узбекистане, а в другой работе 1915 года, говорит об экземплярах удавчиков, добытых на той же территории (Богданов, 1960).

В.Я. Лаздин с 13 до 21 мая 1915 г. работал в Термезе. Собранные В. Я. Лаздиным данные по земноводным и пресмыкающимся были обработаны и опубликованы С. Ф. Царевским в работе 1917 года. В статье указаны новые для Узбекистана местонахождения многих видов (Богданов, 1960).

С.А. Чернов в 1935 году, опубликовал заметку, в которой сообщается о нахождении поперечнополосатого волкозуба в окрестностях Термеза (Богданов, 1960).

Г.С. Султанов в публикации 1939 года указывает среднеазиатскую черепаху, степную агаму, серого варана, длинноногого сцинка и полоза *Elaphe sp.* для Шерабадского района (Богданов, 1960).

Г.И. Ишунин в 1948 году (с 27 июля по 22 августа) в Сурхандарьинской области (в Термезском и Шерабадском районах) изучал биологию песчаной эфы. Попутно им была собрана коллекция других видов пресмыкающихся, поступившая в Институт зоологии и паразитологии АН УзССР (Богданов, 1960).

О.П. Богданов в своей работе «Фауна УзССР. Земноводные и пресмыкающиеся» (1960) приводит данные, которые собирал в Сурхандарьинской области в 1949, 1950, 1954 и 1955 годы.

В более поздних работах, данные по пресмыкающимся Сурхандарьинской области, а в частности исследуемой территории можно найти у Т.Я. Ядгарова (1964, 1968, 1969), Я.Д. Давлятова и др. (1985) и А.Ф. Ходжаева (1985).

Н.Н. Щербак (1974) изучал ящурок (род *Eremias*) по всему ареалу их обитания, в том числе в Сурхандарьинской области близ Термеза.

В работе Р.А. Назарова и Н.А. Пояркова (2013), указываются данные по распространению некоторых видов голопалых гекконов рода *Tenuidactylus*, в том числе в южной части Сурхандарьинской области.

В публикации Д.А. Бондаренко и Е.А. Перегонцева (2017), описано пространственное распределение среднеазиатской черепахи *Testudo horsfieldii* в Узбекистане, в том числе в южной части Сурхандарьинской области.

Основой для составления списка герпетофауны исследуемой территории стал современный список видов пресмыкающихся Узбекистана, состоящий из 64 видов из 13 семейств с учётом всех последних таксономических ревизий (reptile-database.org).

За уникальность данной территории говорит то, что, по обработанным источникам информации и личным данным автора, на настоящий момент, на относительно небольшой и находящейся под постоянным антропогенным воздействием территории отмечаются 27 видов рептилий, относящихся к 12 семействам. Общее количество видов рептилий составляет 42,2%, то есть чуть менее половины всего разнообразия фауны рептилий Узбекистана! На данной территории обитают представители всех имеющихся семейств рептилий, обитающих на территории Узбекистана. Среди них, 8 видов, занесенных в Красную книгу Республики Узбекистан (2019) (29,6% от общего числа обитающих на данной территории), 2 вида включенные в Красный список Международного Союза Охраны Природы (IUCN Red List) – 7,4% от общего числа обитающих на данной территории), 4 вида – в Приложения Конвенции о Международной торговле видами фауны и флоры, находящимися под угрозой исчезновения (14,8% от общего числа обитающих на данной территории), а также 1 вид и 2 подвида являются достаточно узкоареальными эндемиками (таблица).

Таблица

Список видов рептилий населяющих данную территорию

№	Название вида	Наличие вида по литерат. источ.	Собствен. данные	Степень обилия вида	Эндемизм	Природоохранный статус		
						КК РУз	IUCN	CITES
Пресмыкающиеся Reptilia								
Семейство Сухопутные черепахи *Testudinidae*								
1	Среднеазиатская черепаха *Testudo horsfieldii*	+	+	Редкий		2 (VU)	VU	II
Семейство Гекконовые *Gekkonidae*								
2	Гребнепалый геккон Эверсманна *Crossobamon eversmanni*	+	+	Обычный			LC	
3	Тонкопалый геккон Богданова *Tenuidactylus bogdanovi*	+	+	Обычный	UZ, TJ, TM		LC	
Семейство Круглопалые гекконы *Sphaerodactylidae*								
4	Сцинковый геккон *Teratoscincus scincus*	+	+	Обычный			LC	
Семейство Агамовые *Agamidae*								
5	Степная агама *Trapelus sanguinolentus*	+	+	Обычный			LC	
6	Ушастая круглоголовка *Phrynocephalus mystaceus*	+	+	Немногочисленный			LC	
7	Закаспийская круглоголовка Беттгера *Phrynocephalus raddei boettgeri*	+	+	Немногочисленный	UZ, TJ, TM	2 (VU: D)	LC	
8	Согдианская круглоголовка *Phrynocephalus sogdianus*	+	+	Обычный	UZ, TJ		EN	
Семейство Веретеницевые *Anguidae*								
9	Желтопузик *Pseudopus apodus*	+		Немногочисленный			LC	

Семейство Сцинковые *Scincidae*								
10	Азиатский гологлаз *Ablepharus pannonicus*	+		Обычный			LC	
11	Длинноногий сцинк *Eumeces schneideri*	+		Немногочисленный			LC	
Семейство Настоящие ящерицы *Lacertidae*								
12	Сетчатая ящурка *Eremias grammica*	+	+	Немногочисленный			LC	
13	Линейчатая ящурка *Eremias lineolata*	+	+	Обычный	UZ, TJ, TM, KZ, AF		LC	
14	Черноглазчатая ящурка *Eremias nigrocellata*	+	+	Обычный	UZ, TJ, TM, AF	2 (VU: D)	LC	
15	Быстрая ящурка *Eremias velox*	+	+	Обычный			LC	
16	Полосатая ящурка *Eremias scripta lazdini*	+	+	Обычный	UZ, TJ		LC	
Семейство Варановые *Varanidae*								
17	Среднеазиатский серый варан *Varanus griseus caspius*	+	+	Редкий		2 (VU: D)	LC	I
Семейство Удавы *Boidae*								
18	Восточный удавчик *Eryx tataricus*	+	+	Редкий		3(NT)	LC	II
Семейство Ужеобразные *Colubridae*								
19	Индийская бойга *Boiga trigonata melanocephala*	+	+	Немногочисленный		2 (VU: R)	LC	
20	Стрела-змея *Psammophis lineolatus*	+	+	Обычный			LC	
21	Разноцветный полоз *Hemorrhois ravergieri*	+	+	Обычный			LC	
22	Поперечнополосатый полоз *Platyceps karelini*	+	+	Немногочисленный			LC	
